O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universitetining Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Vatanga sadoqat - eng oliy burch: qahramonlarning ibratli hayot yo‘li

ВЕРНОСТЬ РОДИНЕ-САМЫЙ ВЫСШИЙ ДОЛГ: (*В ПРИМЕРЕ ОБРАЗЦОВОГО ЖИЗНЕННОГО ПУТИ НАШИХ ГЕРОЕВ*)

DEVOTION TO THE MOTHERLAND AS THE HIGHEST DUTY: THE EXEMPLARY LIFE PATHS OF HEROES

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Toshkent viloyati
2026 yil
20-avgust

UO’K
№ 159.99:
159.91-99

Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasining tashkiliy qo‘mitasi

T A R K I B I

Qarshiyev Xamdam Aliqulovich – Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari.

Saidov Aybek Azadovich – Mudofaa vazirligi Sharqiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni, general-mayor, f.f.n. PhD.

Xalilov Xasan Ablaqulovich – Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik.

Miryusupov Mirsaid Mirolimovich - Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i.

Raximov Baxtiyor Ne’matovich – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti boshlig‘i, podpolkovnik, texnika fanlari doktori, professor.

Shermatov Fayzullo Toshtillaevich – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik, psixologiya fanlari doktori, (DSc), dotsent.

Qodirov Botir Raxmonkulovich – Moskva davlat universitetining Toshkent filiali professori, psixologiya fanlari doktori, professor.

Umarov Baxriddin Mingboevich – Toshkent Davlat Pedagogika universiteti “Umumiy Psixologiya” kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori, professor.

Ravshanov Lochinbek Urinovich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy okrug huzuridagi “Ilmiy tadqiqot” ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig‘i, podpolkovnik, psixologiya fanlari doktori, (DSc), professor.

To‘ychiyeva Saodat Meliqo‘ziyevna - Toshkent amaliy fanlar unversiteti,pedogogika va psixologiya fakulteti Psixologiya kafedrasi boshlig‘i, psixologiya fanlari doktori, (DSc), professor.

Saydjanov Farxod Madraximovich – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti Gumanitar fanlar sikli boshlig‘i dotsent, podpolkovnik.

Murodova Yorqinoy Tojievna – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti Gumanitar fanlar sikli katta o‘qituvchisi.

Qoraboyev Avazbek Isomiddinovich – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti Gumanitar fanlar sikli boshlig‘i dotsenti.

Asqarova Gulruxbonu Xasanboy qizi – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti Gumanitar fanlar sikli dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori, PhD.

Temirov Sirojiddin Shoymardon o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti Gumanitar fanlar sikli katta o‘qituvchisi.

MUNDARIJA:

1.	***Raximov. B.N.*** *Kirish*	***7***
2.	***Qarshiyev X. A.*** *Kuch tuzilmalarida vatanparvar harbiy kadrlarni tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari*	***10-13***
3.	***Xalilov X.A.*** *Jangovar tayyorgarlik jarayoniga real jangovar vaziyatlar yaqinlashtirilgan ruhiy ta'sir elementlarini kiritish tamoyili va uning xususiyatlar.*	***14-19***
4.	***Saidov A. A.*** *Harbiy boshqaruvda kompetentlikning ijtimoiy-psixologik asoslari.*	***20-25***
5.	***Джураев Г.Б*** *История становления и развития противовоздушной обороны: от первых средств борьбы с воздушными целями до современных систем*	***26-31***
6.	***Miryusupov M. M.*** *Bo'lajak ofitserlarni kibermakondagi axborot xurujiga qarshi kurashish uchun tayyorlash usullari*	***31-34***
7.	***Mamaraufov O. A.*** *Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'zbek xalqining ikkinchi jahon urushi davridagi qahramonligi - ibrat maktabi va tarixiy meros*	***34-43***
8.	***Umaraliyev B. N.*** *Virtual o'qitishni zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash*	***43-49***
9.	***Xudayarov A.Sh.*** *Jadidlarning markaziy osiyoda ijtimoiy-madaniy sohalar islohotiga qo'shgan hissasi*	***49-55***
10.	***Babadjanov X. B.*** *Qahramonning o'chmas chirog'i: leytenant sayyor sadinovning hayot yo'li, harbiy faoliyati va jasorati*	***56-58***
11.	***Toshtemirov S.A.*** *Quruqlikdagi qo'shinlar havo hujumidan mudofaa qo'shinlarining yaratilishi va rivojlanishiga hissa qo'shgan o'zbekistonlik harbiylar*	***58-62***
12.	***Raximov Sh. M.*** *Millat fidoyilari.*	***63-65***
13.	***Karimjanova Y. U., Asqaraliyeva D. A.*** *Mustaqillik sharoitida yoshlarning milliy o'zligini anglash va vatanparvarlik tuyg'usining psixologik xususiyatlari.*	***65-68***
14.	***Kuzibekov N.Sh., Eshimov J.R*** *Kichik o'lchamli UUA larga qarshi kurashda "Chaqmoq" milliy dronining konseptual modellashtirilishi va texnik-strategik tahlili*	***68-75***
15.	***Tuychiyeva S. M., Abdukarimov M. M.*** *Harbiy xizmatchilarda soft skillsni shakllantirishda psixologik treninglarning o'rni va ahamiyati (tahlillar asosida)*	***76-80***
16.	***Abdurayimov S.S., Kuzibekov N.Sh*** *Oliy harbiy ta'lim muassasasida mashg'ulotlar jadvalini avtomatik generatsiya qilish axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish*	***80-91***
17.	***Otokulov A.S., Abdigapirov A.A., Idiyev E.I.*** *Harbiy xizmatchilarning ma'naviyatini yuksaltirishda vatanga saqoqat fazilatining o'rni*	***91-95***
18.	***G'affarova N. F.*** *IT Sohasi mutahasislarida vatanparvarlik va milliy identifikatsiyani shakillantirishning psixologik xususiyatlari*	***95-98***
19.	***Asqaraliyeva D. A.*** *Yoshlar vatanparvarligining shakllanishida fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikning psixologik ahamiyati*	***98-101***

20.	***Mirsidikova A. M.*** *Kiber-makonda o‘smirlar ijtimoiy tolerantligining kognitiv transformatsiyasidagi yoshga oid va tipologik xususiyatlarga bog‘liq farqlar (kichik va katta o‘smirlar misolida)*	**101-103**
21.	***Mirsidikova A., Nurmatova Sh.A.****Milliy ruh va mentalitet: shaxs kamolotining psixologik asoslari*	**103-106**
22.	***Yusupov B. K., Sapayev Sht R.*** *Ta’lim jarayonida tashqi xotira qurilmalari va bulutli xizmatlardan foydalanishda konfidensial ma’lumotlarni himoyalash usul va vositalari tahlili*	**106-115**
23.	***Nurmatov B M.*** *Hushyorlik - vatan himoyasining kafolati: havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarida harbiy burch va mas’uliyat*	**116-121**
24.	***Saydjanov F. M.*** *Vatanga sadoqat – eng oliy burch: qahramonlarning ibratli hayot yo‘li va zamonaviy harbiy ta’limdagi ahamiyati*	**121-124**
25.	***Saydjanov F. M.*** *Vatanga sadoqat bilan xizmat qilgan mardlarning jasorati*	**124-128**
26.	***Primova M. M.*** *Oliy ta’lim muassasalarida ta’limni rivojlantirishda test topshiriqlarini to‘g‘ri shakllantirish va uning o‘rni*	**128-133**
27.	***Primova M. M.*** *Pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari to‘g‘risida ilmiy-nazariy qarashlar evolyutsiyasi*	**133-136**
28.	***Mannonov R.*** *Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy mexanizmlari*	**137-140**
29.	***Sodiqov D. S****. Vatanga sadoqat - eng oliy burch: qahramonlarning ibratli hayot yo'li*	**141-143**
30.	***Saydjanova K.D.*** *Ilmiy kadrlarni tayyorlashda ilmiy loyihalarni ahamiyati*	**144-146**
31.	***Saydjanova K.D. T****a’lim jarayonida talabalarni o‘quv innovatsion metodlardan foydalanishda o‘qituvchining roli hamda ta’lim sifati*	**147-150**
32.	***Xusanbayeva Z.M.*** *Yoshlarda vatanparvarlik va ijtimoiy mas’ulyatni shakllantirishning psixologik omillari*	**151-153**
33.	***Tulyaganova D. R.*** *Maktabgacha yo'shdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari va ta'lim jarayonidagi integratsiyasi*	**153-155**
34.	***Qambarov Sh.A.*** *Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash qo‘shinlar jangovar salohiyati oshirish omili sifatida*	**156-159**
35.	***Tashkentbayev Z A.*** *Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta’lim va tarbiyaning zamonaviy innovatsion yondashuvlari*	**160-165**
36.	***Najimidinov Z.Sh.*** *Kopilov Ivan Pavlovichning ikkinchi jahon urushida ko‘rsatgan qahramonliklari*	**166-170**
37.	***Abidov A.A.*** *Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda zamonaviy va innovatsion yondashuvlar*	**170-174**
38.	***Idiyev E. I.*** *Kursantlarni vatanparvarlik tarbiyasi ajdodlar merosida*	**175-181**
39.	***Idiyev E. I.*** *Oliy o‘quv yurtlari harbiy kafedralarining tarixi*	**181-187**
40.	***Kosimov X.J.*** *Amir Temur faoliyatida harbiy an’analarning psixologik bayoni*	**187-193**
41.	***Murodova Y.T.*** *Chet tillarini intensiv o‘rgatishning lingvopsixologik innovatsion usullari va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash*	**193-195**
42.	***Sheraliyev D.A.*** *Zenit artilleriya qurilmalarining yaratilish tarixi va ularni tahlili*	**196-203**

43.	***Tuychiyeva S. M.*** *Vatanparvarlik g‘oyalarining psixologik- pedagogik mexanizmlari*	**204-206**
44.	***Qoraboyev A.I.*** *Zamonaviy jangda axborot-psixologik qarshi kurashning o‘rni*	**206-215**
45.	***Mirashirova N. A.*** *Shaxs ijtimoiylashuvining psixologik omillari*	**216-219**
46.	***Sattarov R.X., Somitov A.A.*** *Sovuq urushning yashirin fronti: 1969–1970-yillarda Misrda Sovet ittfoqi havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarining jangovar faoliyati va harbiy-tarixiy ahamiyati*	**219-226**
47.	***Djumabayeva M. B.*** *Talabalarda kasbiy-irodaviy sifatlar shakllanishiga ta’sir etuvchi destruktiv axborotlarning o’rni*	**226-234**
48.	***Азимов А.А.*** *Трансформация военного образования в узбекистане: дуальное обучение по модели «2+2» как механизм подготовки современного военного специалиста войск пво*	**234-242**
49.	***Qoraboyev A.I.*** *Jangovar ruh axborot-psixologik kurashning obyekti sifatida*	**242-251**
50.	***Tadjibayev Z.A.*** *Jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarini tashkillashtirishdagi muammolar va yechimlar*	**252-256**
51.	***Temirov S.Sh*** *Ta’limni raqamlashtirish: muammo va yechimlar*	**257-260**
52.	***Эрметов А.А.*** *Использование радиолокационных станций в локальных конфликтах: анализ и решение проблем*	**261-263**
53.	***Umarov G‘.J., Murodova Y.*** *Shaxsiy tarkibda milliy g‘urur, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg‘ularini rivojlantirish*	**264-270**
54.	***Galdiyeva M.D.*** *Yoshlarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish xususiyatlari*	**270-275**
55.	***Olimov N.F. Z****amonaviy havo hujumidan mudofaa avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari*	**275-283**
56.	***Asqaraliyeva D. A.*** *Globallashuv sharoitida yoshlar milliy identifikatsiyasining psixologik xususiyatlari*	**284-286**
57.	***Karimjanova Y. U., Asqaraliyeva D. A*** *Yoshlar vatanparvarligini shakllantirishda milliy qadriyatlar va oilaviy tarbiyaning psixologik mexanizmlari*	**287-289**
58.	***Asqaraliyeva D. A****. Yoshlar ma’naviy-axloqiy rivojlanishining psixologik xususiyatlari*	**289-292**

Izoh: konferensiya to‘plamiga kiritilgan maqolalarning xato-kamchiliklarini, mualliflik huquqlaridagi muammolarini maqola topshirgan mualliflar zimmasiga yuklatiladi!

KIRISH

Bugungi nufuzli ilmiy-amaliy konferensiyamiz g‘oyat dolzarb va hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzuga — “Vatanga sadoqat - eng oliy burch: qahramonlarning ibratli hayot yo‘li”ga bag‘ishlangan. Qurolli Kuchlarimiz vakili, Vatan himoyasiga qasamyod keltirgan harbiy rahbar sifatida shuni alohida ta'kidlashni istardimki, yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini asrash faqatgina qurol va harbiy qudrat bilangina belgilanmaydi. Uning zamirida eng qudratli kuch — insonning o‘z Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati, sadoqati va millat oldidagi burchini teran anglash tuyg‘usi yotadi.

Ushbu minbardan turib, sizlar bilan millatimiz qahramonlari, xususan, jasorat va ma'rifat timsoli bo‘lgan "Millat fidoyilari"ning ibratli hayot yo‘li haqida, bu yo‘lning bugungi yosh avlod va harbiy xizmatchilarimiz uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi xususida fikrlashishni o‘zimning burchim deb bilaman.

1. Vatanga sadoqat - shonli tariximizning oltin qoidasi. Harbiy sohada shunday bir o‘lmas haqiqat bor: “Jangda qurol emas, balki shu qurolni tutib turgan yurak g‘alaba qozonadi”. Bu yurak qachon yengilmas bo‘ladi? Qachonki u Vatanga sadoqat hissi bilan ursa!

Tariximizga nazar tashlasak, Vatan ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan yuzlab, minglab sarkardalarimiz, botir ajdodlarimizni ko‘ramiz. To‘marisning jasorati, Spitamenning mardligi, Jaloliddin Manguberdining yengilmas onlari, Sohibqiron Amir Temurning davlat va qo‘shin boshqarishdagi beqiyos daho ekani — bularning barchasi shunchaki tarixiy xronika emas. Bu bugungi O‘zbekiston harbiylarining, bugungi millat farzandlarining qonida oqayotgan genetik xotiradir. Vatan himoyasi faqat xandaqda o‘tirish emas, u eng avvalo qalbda, ongda va e'tiqodda Vatan sarhadlarini daxlsiz saqlash demakdir.

2. "Millat fidoyilari" - ma'naviy qahramonlik maktabi. Qahramonlik deganda biz faqatgina qo‘liga qilich yoki avtomat ushlab jang maydoniga kirganlarni emas, balki qalami, tafakkuri va yuragi bilan millatni uyg‘otgan, xalqni ma'rifat sari boshlagan Millat fidoyilarini ham tushunishimiz shart. XX asr boshlarida maydonga chiqqan Jadid bobolarimiz - Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Fitrat kabi ulug‘ siymolar asl ma'noda Vatan qahramonlaridir. Ular millatning ko‘zini ochish, qaramlik iskanjasidan qutqarish uchun o‘zlarining hayoti, mol-mulki va oilaviy halovatini fido qildilar.

"Vatan, millat, din va davlat yo‘lida fido bo‘lmoq — bizning eng muqaddas burchimizdir," degan edi jadid bobolarimiz. Bugungi kunda Qurolli Kuchlar tizimida xizmat qilayotgan har bir ofitser va oddiy askar bu e'tiqodni o‘ziga shior qilib olishi kerak. Millat fidoyilari qatag‘on qilingan bo‘lsalar-da, ularning g‘oyalari yengilmadi, chunki bu g‘oyalar asosi — Vatanga sadoqat edi. Biz, harbiylar,

bugungi tinch hayotimiz aynan ana shunday fidoyilarning qoni, orzusi va jasorati evaziga bunyod bo‘lganini bir soniya ham unutishga haqqimiz yo‘q.

3. Zamonaviy tahdidlar va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi. Hurmatli anjuman qatnashchilari! Biz yashab turgan XXI asr o‘ta murakkab va ziddiyatli asrdir. Axborot xurujlari, mafkuraviy tahdidlar, xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi har qachongidan ham ortib borayotgan bir davrda milliy xavfsizlikni ta'minlash faqat harbiy texnikalarga emas, balki askar va ofitserlarimizning, qolaversa, butun yoshlarimizning ma'naviy immunitetiga bevosita bog‘liq.

Shu o‘rinda qahramonlikning zamonaviy qiyofasi qanday bo‘lishi kerakligi haqida savol tug‘iladi. Bugungi kun qahramoni:

O‘z kasbining ustasi bo‘lgan professionaldir: Harbiy bilimlarni mukammal egallagan, zamonaviy texnologiyalarni tilini tushunadigan askar.

Tarixini biladigan va undan faxrlanadigan shaxsdir: O‘zining Millat fidoyilari merosxo‘ri ekanligini his qiladigan fuqaro.

Yuksak ma'naviyat egasidir: Turli axborot xurujlariga qarshi o‘zining mustahkam pozitsiyasi va e'tiqodi bilan javob bera oladigan yoshdir.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi jangovar tayyorgarlik bilan bir xil darajada muhim sanaladi. Biz armiyani nafaqat yoshlarni jismonan toblayotgan, balki ularni Vatanparvarlik va Millat fidoyiligi ruhida tarbiyalaydigan haqiqiy hayot maktabiga aylantirmoqdamiz.

4. Yoshlar — qahramonlar merosining davomchilari

Men ushbu ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etayotgan yosh tadqiqotchilarga, talabalarga yuzlanmoqchiman. Sizlar darsliklarda o‘qiyotgan qahramonlar faqat kitoblarda qolib ketmasligi kerak. Ular sizning kundalik faoliyatingizda, maqsadlaringizda yashashi lozim. Vatan sadoqatini faqat sarhadlarda turib isbotlash shart emas.

Vatanga sadoqat — bu auditoriyada yaxshi o‘qib, yetuk mutaxassis bo‘lishdir.

Vatanga sadoqat — bu o‘z millatining tili, madaniyati va tarixini asrab-avaylashdir.

Vatanga sadoqat — bu korrupsiya, adolatsizlik kabi illatlarga qarshi kurashib, yurt taraqqiyotiga hissa qo‘shishdir.

Har biringiz o‘z sohangizning "Millat fidoyisi" bo‘lishingiz mumkin va shart. Biz harbiylar sarhadlarimiz qanchalik mustahkam qo‘riqlanmasin, orqamizda turgan xalqimiz, ziyolilarimiz, yoshlarimiz qalbida Vatan sevgisi mustahkam ekanligini his qilsakgina xotirjam bo‘lamiz.

Xulosa. Tarix davomida o‘z Vatanini himoya qilgan, millatni jaholat botqog‘idan olib chiqishga uringan jadid bobolarimiz — Millat fidoyilarining hayot yo‘li bizga shuni uqtiradiki: Vatan tanlanmaydi, u himoya qilinadi va e'zozlanadi!

Bugungi kuchli, qudratli O‘zbekiston Qurolli Kuchlari ana shu buyuk merosning, xalqning va davlatning ishonchli qalqonidir.

Barchamizni birlashtirib turadigan bitta buyuk maqsad bor — u ham bo‘lsa O‘zbekistonimizning tinchligi, taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi. Ushbu maqsad yo‘lida xizmat qilish siz-u bizning eng oliy burchimizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti boshlig‘i, podpolkovnik, texnika fanlari doktori, professor B.N. Raximov

General mayor QARSHIYEV Xamdam Aliqulovich
Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari



Bugungi globallashuv va geosiyosiy jarayonlarning jadal tus olayotgani, xavfsizlik muhitining murakkablashuvi hamda zamonaviy tahdid va chaqiriqlarning mazmunan o‘zgarib borishi kuch tuzilmalari oldiga har tomonlama yetuk, yuksak kasbiy salohiyatga ega, ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol va Vatanga sadoqatli harbiy kadrlarni tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. Ayniqsa, davlatning suvereniteti, hududiy yaxlitligi va tinchligini ishonchli himoya qilishda inson omili, xususan, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetensiyasi, ma’naviy-ruhiy tayyorgarligi, qat’iyati va fidoyiligi strategik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, kuch tuzilmalari uchun kadrlar tayyorlashni faqat harbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklab qo‘ymasdan, ularning shaxsiy fazilatlari, fuqarolik mas’uliyati, vatanparvarlik pozitsiyasi va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik masalalaridan biridir.

Zamonaviy harbiy kadr tushunchasi an’anaviy kasbiy tayyorgarlik mezonlaridan ancha keng mazmun kasb etmoqda. Bugungi harbiy xizmatchidan nafaqat yuqori darajadagi jismoniy va taktik tayyorgarlik, balki tezkor fikrlash, vaziyatni tahlil qilish, mustaqil va mas’uliyatli qaror qabul qilish, zamonaviy texnika va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, jamoada faoliyat yuritish hamda psixologik bosim sharoitida barqarorlikni saqlash kabi kompetensiyalar ham talab etiladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchining kasbiy mahorati uning ma’naviy-axloqiy qiyofasi va Vatanga bo‘lgan munosabati bilan uyg‘unlashgandagina o‘zining to‘laqonli ijtimoiy ahamiyatini namoyon etadi. Zero, harbiy xizmat o‘z mohiyatiga ko‘ra yuksak mas’uliyat, intizom, jasorat, fidoyilik va shaxsiy manfaatlardan ustun turuvchi umumiy manfaatlarga sodiqlikni talab etadigan faoliyat turidir. Kuch tuzilmalarida vatanparvar harbiy kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish, avvalo, harbiy ta’limning mazmuni va metodik ta’minotini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Bugungi kunda harbiy xizmatchining kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlarni egallash yoki belgilangan me’yorlarni bajarish bilan chegaralanmasdan, o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni turli xizmat vaziyatlarida mustaqil va samarali qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonini real xizmat faoliyatiga imkon qadar yaqinlashtirish, nazariya va amaliyotning uzviyligini ta’minlash hamda harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorligini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim va tarbiya jarayonini integratsiyalash vatanparvar harbiy kadrlarni shakllantirishning muhim metodologik sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Harbiy ta’limning har bir yo‘nalishi o‘z mazmunida tarbiyaviy imkoniyatga ega. Masalan, taktik tayyorgarlik jarayonida mas’uliyat, intizom, jamoaviylik va o‘zaro ishonch; jismoniy tayyorgarlikda qat’iyat, iroda va bardoshlilik; texnik tayyorgarlikda aniqlik, ehtiyotkorlik va mas’uliyat; huquqiy tayyorgarlikda esa qonuniylik va fuqarolik burchi kabi sifatlarni shakllantirish mumkin. Demak, vatanparvarlik tarbiyasi alohida mashg‘ulot yoki tadbir doirasida emas, balki harbiy ta’limning barcha tarkibiy qismlariga singdirilgan holda amalga oshirilishi zarur.

Bunda pedagogik jarayonning mazmunini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchi nazariy bilimlarni real yoki modellashtirilgan xizmat vaziyatlarida qo‘llash orqali kasbiy faoliyatning mazmunini chuqurroq anglaydi. Muammoli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, situatsion mashqlar, jamoaviy faoliyat va qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar orqali harbiy xizmatchilarda mustaqil fikrlash, vaziyatni tezkor tahlil qilish va mas’uliyatli harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Ayniqsa, ta’lim jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni jazolashdan ko‘ra ularning sabablarini tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarishga yo‘naltirish kasbiy o‘sish uchun yanada samarali pedagogik imkoniyat yaratadi.

Harbiy kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli ta’lim resurslari, elektron o‘quv materiallari, multimedia vositalari, simulyatsion dasturlar va virtual modellashtirish elementlari harbiy ta’limning ko‘rgazmaliligi hamda amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytiradi. Bunday vositalar orqali murakkab xizmat vaziyatlarini modellashtirish, turli qarorlarning ehtimoliy natijalarini tahlil qilish va harbiy xizmatchilarning tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘zi ta’lim samaradorligini kafolatlamaydi; uning natijadorligi, avvalo, pedagogik maqsadga muvofiqlik, metodik asoslanganlik va ta’lim mazmuni bilan uyg‘unligiga bog‘liq.

Vatanparvar harbiy kadrlarni tayyorlashda individual yondashuvni kuchaytirish ham zarur. Harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyati, kasbiy qiziqishlari, jismoniy imkoniyatlari, psixologik xususiyatlari va yetakchilik qobiliyatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish orqali har bir harbiy xizmatchining kuchli jihatlarini rivojlantirish, mavjud kamchiliklarini bosqichma-bosqich bartaraf etish va kasbiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Bunday yondashuv harbiy xizmatchining o‘z-o‘zini baholash, o‘z faoliyatini tahlil qilish va uzluksiz kasbiy rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Harbiy kadrlar tayyorlash tizimida baholash mezonlarini takomillashtirish ham alohida ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchining tayyorgarlik darajasini aniqlashda faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish natijalariga tayanish yetarli emas. Baholash jarayonida kasbiy kompetentlik, amaliy ko‘nikmalar, intizomlilik, jamoada ishlash qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish, tashabbuskorlik, psixologik barqarorlik va xizmat burchiga mas’uliyatli munosabat kabi ko‘rsatkichlarni ham kompleks hisobga olish maqsadga muvofiq. Kompleks baholash harbiy xizmatchining real kasbiy salohiyatini aniqlashga hamda keyingi ta’lim-tarbiya ishlarini individual ravishda rejalashtirishga xizmat qiladi.

Harbiy jamoada sog‘lom ma’naviy-psixologik muhitni shakllantirish ham kadrlar tayyorlash samaradorligining muhim shartidir. Harbiy xizmatchining o‘z jamoasiga mansublik hissi, rahbariyatga ishonchi, hamkasblari bilan konstruktiv munosabati va xizmat jarayonidagi ijtimoiy-psixologik qulaylik darajasi uning kasbiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli harbiy jamoalarda o‘zaro hurmat, adolat, hamkorlik va mas’uliyat tamoyillariga asoslangan munosabatlarni qaror toptirish, nizoli vaziyatlarning oldini olish va mavjud muammolarni konstruktiv hal etish mexanizmlarini takomillashtirish muhimdir.

Shuningdek, rahbar va komandirlarning shaxsiy namunasi harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng kuchli vositalaridan biri hisoblanadi. Rahbarning xizmat intizomiga munosabati, mas’uliyati, adolatliligi, talabchanligi, xodimlarga bo‘lgan hurmati va murakkab vaziyatlarda o‘zini tutishi harbiy jamoa a’zolari uchun bevosita tarbiyaviy namuna vazifasini bajaradi. Shu bois rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonida nafaqat boshqaruv va kasbiy kompetensiyalarni, balki pedagogik, kommunikativ va psixologik kompetensiyalarni ham rivojlantirish zarur.

Vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirishda harbiy tarix, milliy qadriyatlar va ajdodlar merosidan foydalanishning yangi shakllarini izlash ham muhim. Tarixiy ma’lumotlarni oddiy axborot sifatida taqdim etishdan ko‘ra, ularni zamonaviy harbiy xizmatning axloqiy va kasbiy talablari bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. Harbiy tarixdagi jasorat, fidoyilik, sadoqat va mas’uliyat namunalarini tahlil qilish orqali harbiy xizmatchilarni o‘z kasbiy faoliyatining ma’naviy mazmunini anglashga yo‘naltirish mumkin. Bunda tarixiy shaxslar va voqealarga tanqidiy-tahliliy yondashuvni shakllantirish ham muhim bo‘lib, bu harbiy xizmatchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shunday qilib, vatanparvar harbiy kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish birgina metod yoki vositani joriy etish bilan emas, balki ta’lim-tarbiya tizimining barcha tarkibiy qismlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi. Bunda kasbiy tayyorgarlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, psixologik tayyorgarlik, jismoniy chiniqish, huquqiy bilim va axborot madaniyati yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi

lozim. Mazkur tizimning markazida esa harbiy xizmatchining shaxsiy rivojlanishi, uning Vatanga sadoqati va xizmat burchini anglash darajasi turishi kerak.

Kuch tuzilmalarida vatanparvar harbiy kadrlarni tayyorlash zamonaviy harbiy ta’limning strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning mazmuni jamiyat va davlat xavfsizligining yangi sharoitlariga mos ravishda muntazam takomillashtirib borishni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy harbiy kadrning kasbiy tayyorgarligi uning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, vatanparvarlik e’tiqodi, psixologik barqarorligi, mas’uliyat hissi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonini faqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish yetarli bo‘lmay, shaxsning kompleks rivojlanishini ta’minlovchi yaxlit pedagogik tizimni shakllantirish zarur.

Vatanparvarlikni harbiy xizmatchining barqaror shaxsiy-kasbiy pozitsiyasi sifatida shakllantirish uchun ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uzviyligini ta’minlash muhim. Vatanparvarlik tarbiyasi harbiy xizmatchida Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish bilangina cheklanmasdan, mazkur tuyg‘uni xizmat burchiga sadoqat, qonuniylikka rioya qilish, harbiy intizomni ta’minlash, jamoaviy mas’uliyat, jasorat va fidoyilik kabi amaliy sifatlar bilan mustahkamlashi lozim. Shundagina vatanparvarlik hissiy tushunchadan amaliy faoliyatni belgilovchi ichki e’tiqod darajasiga ko‘tariladi.

Kelgusida kuch tuzilmalarida harbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish uchun vatanparvarlik tarbiyasining diagnostik mezonlarini ishlab chiqish, harbiy xizmatchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga oluvchi pedagogik texnologiyalarni kengaytirish, psixologik tayyorgarlikning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish hamda ta’lim natijalarini kompleks baholash mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman, vatanparvar va professional harbiy kadrni shakllantirish — uzoq muddatli, uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon bo‘lib, uning samaradorligi kasbiy bilim, amaliy tayyorgarlik, ma’naviy-axloqiy yetuklik va psixologik barqarorlikning yagona tizimda rivojlantirilishiga bog‘liq. Ana shunday yondashuv asosidagina zamonaviy xavfsizlik muhitining murakkab talablariga javob bera oladigan, xizmat burchini chuqur anglaydigan, Vatanga sadoqatli, yuksak mas’uliyat va kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan harbiy kadrlarni tayyorlash mumkin.

polkovnik ***XALILOV Xasan Ablaqulovich***
Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i, ilmiy izlanuvchi.



Ruhiy tayyorgarlikning asosiy maqsadi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarning yuqori asabiy-ruhiy, jismoniy va ruhiy zo‘riqishlarga bardoshlilik hamda og‘ir hamda ekstremal vaziyatlarda harakatlanish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Jangovar tayyorgarlik jarayonida jangdagi ruhiy omillarni tiklash uchun qo‘mondonlik tarkibi ruhiy tayyorgarlikning turli usullaridan foydalanishi lozim. Ruhiy tayyorgarlik usuli deganda jangning ruhiy omillarini modellashtirish usullari tushuniladi.

Tizimlashtirish maqsadida ular quyidagi belgilar bo‘yicha tasniflanadi:

jangni modellashtirish vositalari orqali;

modal ta’sir etish bo‘yicha (ko‘rish, eshitish, sezish va boshqa idroklar);

harbiy xizmatchilarga ta’sir etish mexanizmi bo‘yicha.

Jangni modellashtirish vositalari bo‘yicha ruhiy tayyorgarlik quyidagi usullarga ajratiladi:*og‘zaki-belgili, ko‘rgazmali, kompyuterli, trenajyorli***,** *imitatsiyali, jangovar*.

Og‘zaki-belgili modellashtirish davomidaharbiy xizmatchilarga ikkinchi signallar tizimi bo‘lmish so‘zlar, belgilar (ishora), axborot-ma’lumot tariqasidagi imo-ishoralar orqali ta’sir etilishi amalga oshiriladi. Bu bo‘lib o‘tadigan jang, kutiladigan qiyinchiliklar, qo‘llaniladigan qurol-aslaxa, uning imkoniyatlari, ehtimoliy jarohatlanish va yaralanish turlari to‘g‘risida so‘zlab berish. Imkon qadar mazkur modellashtirish turi jangovar faoliyat malakasiga ega bo‘lgan, nutq so‘zlash mahorati yaxshi rivojlangan, jang ko‘rinishi (ta’rifi, tavsifi)ni yorqin, ta’sirchan va jo‘shqin ifodalay oladigan harbiy xizmatchi tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Ko‘rgazmali modellashtirish davomidata’sir etish turli predmetlarni ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Masalan, o‘qotar yoki boshqa turdagi qurol-aslahalarning ta’siridan so‘ng o‘ldirilgan harbiy xizmatchining manekeni yoki avtomatdan qatorasiga o‘q uzilgan odam murdasi manekeni qattiq ta’sir etadi. Harbiy xizmatchilar uzilgan oyoq va qo‘l, qon, ezilgan, chirib qolgan tana a’zolarini ko‘rishi va ko‘nikma hosil qilishlari zarur.

Kompyuterli modellashtirish davomidakompyuterda ishlash, o‘ynash va boshqa vazifalarni hal etish davomida jang omillarini modellashtirish orqali harbiy xizmatchilarga ta’sir etilishi amalga oshiriladi. Ushbu ruhiy tayyorgarlikning turi samarasizdek tuyulishi mumkin, biroq harbiy xizmatchilarda jangovar xarakatlar davomida to‘satdan yuzaga keladigan o‘zgarishlarga tayyorlikni rivojlantiradi, chunki kompyuter texnologiyalari har doim jangning yangi sharoitlarini yaratish

imkonini beradi: vaqti (kun, tun), ob-xavo sharoitlari (kuchli shamol, yomg‘ir, qor, tuman va h.k.), iqlim sharoitlar (tog‘li hudud, cho‘l, havo namligi, atmosfera bosimining yuqori yoki pastligi va h.k.) qo‘llaniladigan harbiy texnika va qurol-aslaxalar, tirik kuchlar va texnikalarning o‘zaro nisbatligi, jang turi va h.k.

Trenajyorli modellashtirishdahar xil mahorat va qobiliyatlarning rivojlanishiga yordam beruvchi, texnik vositalarni qo‘llagan holda jang omillarini modellashtirish orqali ta’sir etilishi amalga oshiriladi. Trenajyorlar harbiy xizmatchilarning harbiy texnikani qo‘llash (foydalanish) bo‘yicha aksariyat harakatlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Jangovar vaziyatda harakatlarning avtomatlashtirilganligi harbiy xizmatchiga yanada manyovrli, mohir bo‘lishga va jang sharoitiga kirishib ketishga hamda tirik qolishga imkon beradi.

Imitatsiyali modellashtirishdaharbiy xizmatchilarga ta’sir etilishi jangovar vaziyatning tashqi alomatlarini imitatsiya qilish vositalarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Ushbu modellashtirish turi dala o‘quv maydonlarida o‘quv mashqlarda yasama murdalar, uzilgan qo‘l-oyoqlar, vayron bo‘lgan va yongan binolar, qonni imitatsiya qiluvchi maxsus kimyoviy eritma va o‘ziga xos hid tarqatuvchilardan foydalanish orqali qo‘llaniladi.

Jangovar modellashtirishdata’sir o‘tkazilishi jang omillarini modellashtirish, jangovar harakatlarni tashkillashtirish va olib borish uchun qo‘llaniladigan jangovar texnikalardan, qurol-aslaxalardan va qo‘l ostidagi vositalardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Modal ta’sir etish quyidagi ruhiy tayyorgarlik usullariga bo‘linadi:

Harbiy xizmatchining ruhiyatiga eshitish orqali ta’sir etish:

Vahimali baqirishlar. Mashqlarning murakkab bosqichi vaqtida ko‘proq qo‘llaniladi: oldindan tayyorlangan harbiy xizmatchilar to‘satdan boshqalar uchun noliyotgan va baqirayotgan yaradorlarni imitatsiya qilishadi. Tanglikni provokatsiyali hayqirish orqali oshirish mumkin “Toshmatovni tank bosib ketdi!” va h.k.;

bonglar, qo‘ng‘iroqlar, sirenalar va h.k. Ushbu ta’sir etishni katta bo‘lmagan joyda – xona (imorat)larda, pana joylarda qo‘llash yaxshiroq ta’sir ko‘rsatadi;

ovoz yozib oluvchi va radioeshittirish vositalari. Ushbu holatda jang va turli o‘ziga xos tovush (ovoz, sado)lar (shovqin-suron, gumburlash va h.k.) chiqariladi;

imitatsion portlovchi moddalar. Bu yerda portlash kuchi bilan emas, balki uning ta’sir etish davomiyligi bilan samaraga erishiladi.

Harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga ko‘rish orqali ta’sir etish:

yorug‘lik effekti (ta’siri) (portlashlar, chiroqlar, projektorlar chaqnashi). Qo‘yilgan vazifani bajarish davomida ko‘zni qamashtirib, ko‘rish qobiliyatini

cheklash, yorug‘lik ta’siri yordamida diqqatni chalg‘itish ruhiyat tangligi (zo‘riqish)ning oshishiga olib keladi;

vayronalar, xarobalar va h.k. Bular orqali jirkanish, qo‘rquv, tushkunlik xissiyotlarini qo‘zg‘atish bilan qo‘yilgan vazifani bajarishni talab etish orqali harbiy xizmatchilarni salbiy his tuyg‘ularni yengib o‘tishga o‘rgatish mumkin.

Harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga hid sezgilari orqali ta’sir etish:

O‘quv retsepturali zaharlovchi moddalar bilan zaharlangan hududlarni yaratish (masalan, ammiakli suv bilan), boshqa hududlarni esa undan ustunlik qiladigan kuchli ko‘ngilni aynitadigan, kuyindi va boshqa hidlar taratadigan hududlarda harbiy xizmatchilar himoya vositalarida va ularsiz jangovar tayyorgarlik savollarini mashq qildirish orqali ularning faoliyat sharoitlarini jangovar vaziyatda yuzaga keladigan real (aniq) holatlarga yaqinlashtirish mumkin.

Harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga sezgilar (retseptorlar) orqali ta’sir etish:

Harbiy xizmatchi eshitishi va ko‘rishidan tashqari unda yangi ruhiy obrazlar (qiyofa)ni shakllantirish uchun boshqa sezgilarningham ahamiyati katta. Harbiy xizmatchi qo‘lida o‘q-dorilar, mina parchasi, snaryadni ushlab ko‘rishga imkoni bo‘lsa, zarba to‘lqinini sezsa (his qilsa), yong‘in va zaharlanish o‘chog‘larida harakatlansa, unda jang ko‘rinishining real va to‘liq tasavvuri hamda jangovar vaziyat omillarini yengib o‘tish mahorati yanada rivojlanadi.

Harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga vestibulyar apparati (bosh va gavda muvozanatini idora qiladigan organ) orqali ta’sir etish:

Jangovar vaziyatlar uchun xos bo‘lgan ko‘p va tez ko‘chib yurishlar, tanglikning yuqori darajasi, tungi sharoitlarda harakatlanish, harbiy texnikadagi katta bo‘lmagan yopiq joy (bo‘shliq), orientatsiya qilishning og‘irligi, vestibulyar apparatga bo‘lgan talablarni oshiradi. Har xil jismoniy mashqlar (aylanishlar, o‘mbaloq oshish, bruslarda va turnikda mashq qilish, yuqorida joylashgan chegaralangan maydonda harakatlanish, qorong‘ida (tunda) harakatlanish) vestibulyar apparatini mustahkamlaydi va o‘z kuchiga ishonchni shakllantiradi.

Harbiy xizmatchilarga ta’sir etish mexanizmlari bo‘yicha ruhiy tayyorgarlikning usullari quyidagilarga ajratiladi:

ishontirish, majbur qilish, ta’sir ko‘rsatib ishontirish, taqlid qilish (o‘xshatish), ko‘nikish (o‘rganib qolish), o‘z-o‘zini ishontirish usullari.

Shaxsiy tarkibni jangovar harakatlarga ruhiy tayyorgarlik quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

shaxsiy tarkibni jangovar texnikalarni boshqarish va ulardan foydalanish ko‘nikmalarinihosil qilish (avtomobillar, tanklar, BTR va h.k.);

harbiy xizmatchilar tomonidan olovli, ishg‘ol (hujumkor) va boshqa turdagi to‘siqlarni, shuningdek, maxsus muxandislik jihatdan qiyinlashtirilgan to‘siqlar va majmualarni yengib o‘tishlari;

yengil suvosti g‘ovvoslik tayyorgarligi va tanklarni suv ostida boshqarish, zirxli texnikalarni suv ustida boshqarish, desantchilarning sakrash tayyorgarligi;

ovozli va yorug‘lik qo‘zg‘atuvchi (ta’sir etuvchi)larni, shuningdek, turli trenajyorlar, sport anjomlari, o‘quv komplekslari, shaharchalarni va h.k. qo‘llash.

Shu bilan birga ruhiy tayyorgarlik usullari asosida real jangovar vaziyatga hos bo‘lgan **keskinlik** va **to‘satdanlik**, **xavf-xatar** va **tahlika** elementlarini jangovar tayyorgarlik jarayoniga kiritish va shaxsiy tarkibning ushbu sharoitda o‘rganilayotgan mashqlarni va harakatlarni ko‘p marotaba mashq qilish tamoyillari yotadi.

Jangovar tayyorgarlik jarayonida **keskinlikka** turli qiyinchilik tug‘diruvchi vaziyatlarni yaratish yo‘li bilan jismoniy va asabiy-ruhiy yuklamalarni oshirish orqali erishiladi. Jumladan:

jang xarakteriga mos intensiv yorug‘lik va ovozli qo‘zg‘atuvchilarni qo‘llash;

ma’lumotlar va vaqtning tanqisligi;

kun va tundagi harakatlarni uzluksizligi;

tungi sharoitlarda mashg‘ulotlar, shu jumladan o‘q otish mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

dushmanning doimiy ta’siri;

jangovar harakatlar tashqi manzarasining ko‘rgazmaliligi (talofotlar, vayronagarchiliklar, yong‘inlar, murdalar va boshqalar);

zamonaviy jangovar harakatlar xarakteriga mos to‘siqlardan, g‘ovlardan, zararlangan hududlardan hamda yong‘in o‘choqlaridan davomli tarzda va tez-tez o‘tish va boshqalar.

Mashg‘ulotlar va mashqlarni o‘tkazish davomida **to‘satdanlik** shaxsiy tarkibdan uncha uzoq bo‘lmagan masofada imitatsiya vositalarini qo‘llash bilan ta’minlanadi.

Shuningdek:

hisob raqamlari, ekipaj a’zolari uchun qurol-aslaha, harbiy texnikaning “nosozligi”, “ishdan chiqarilishi” va h.k.lar holatlarini yaratish;

harbiy xizmatchilardan tezkorlik va faollik harakatlarini talab qiladigan vaziyatni yaratish hamda mazkur vaziyatlarni rivojlantirib borish uchun turli kiritmalarni qo‘llash;

turli to‘siqlarni yashirin tarzda tayyorlash va shaxsiy tarkibning faol harakatlanishi paytida ularni qo‘llash;

dushmanning faol va shiddatli harakatlanishi;

to‘satdan (kutilmaganda) jangovar trevogalarni o‘tkazish;

notanish hududda mashg‘ulotlar va mashqlarni o‘tkazish va h.k.

Jangovar tayyorgarlik jarayoniga **xavf-xatar va tahlika omillarining** kiritilishi quyidagilar orqali erishiladi:

jismoniy xavf-xatar sharoitlarida har xil qiyin to‘siqlarni yengib o‘tish bilan;

imitatsion snaryadlar va minalar portlashi vaqtida faol hujum harakatlarini amalga oshirish;

to‘liq ekipirovka (kiyim-bosh, anjom, qurol-aslaxa) bilan suvga sakrash hamda suvli to‘siqlarni suzib va qo‘l bola vositalar bilan kechib o‘tish;

muxandislik ishlarini bajarish uchun suv ostiga tushish;

shtatdagi snaryad bilan otish va tungi vaqtda otish mashqlarini o‘tkazish;

yondiruvchi vositalardan faol himoyalanish;

hududning o‘quv imitatsiya vositalari bilan zaharlangan xudud sharoitida ishlarni olib borish, pozitsiyalarni (joyni) jihozlash yoki zaharlangan qurol-aslaxa va jangovar texnikalarni degazatsiyalash;

bosqichma-bosqich jangovar mashinalar va transport vositalarining harakatlanishi vaqtida desant qilib tushurish va piyoda harakatlantirish;

okopdagi xarbiy xizmatchi ustidan tankda o‘tish va desant sifatida tank ustida harakatlanish;

qiya va xavfli manfiy burchakli qoyalarga tirmashib chiqish.

Mashg‘ulot rahbarlari mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish davomida kiritiladigan havf-xatar va tahlikali elementlarning soni va xarakterini belgilashlari, baxtsiz xodisalarni oldini olishga bo‘yicha choralarni ko‘rishga majburdirlar. Ushbu maqsadda mashg‘ulotlardan oldin rejalashtiriladigan tadbirlar va qo‘llaniladigan imitatsiya vositalarini ko‘proq malakaga ega va yaxshi tayyorlangan harbiy xizmatchilarni jalb qilgan holda tekshirilishi, shuningdek, vositachi va imitatsiya uchun javobgar shaxslarga batafsil yo‘riqnoma berilishi, evakuatsiya xizmati tashkil etilishi lozim. Kundalik jangovar tayyorgarlik jarayonida shaxsiy tarkibning ruhiy tayyorgarligi har bir mashg‘ulotda harbiy xizmatchilarni ma’lum bir ruhiy chiniqtirish elementlarini o‘rganib chiqish bilan amalga oshiriladi.

Jangovar tayyorgarlik jarayonida harbiy xizmatchi bilishi va imkon darajasida uning organizmiga va ruhiyatiga ta’sir etuvchi jangovar vaziyatga (sharoitga) xos barcha spektrlarni his etishi lozim (ko‘rish, eshitish, hid bilish, sezish, ta’m sezgisi, va.h.k.), ularga to‘g‘ri javob qaytarishga va mazkur sharoitlarda faol harakat qilishni o‘rganib olishi lozim. Asosiy e’tiborni har qanday kutilmaganlik (tasodif) holati harbiy xizmatchi uchun oddiy holdek bo‘lishi, har qanday kutilmaganliklar qoida va qonuniylik, vaziyatning to‘satdan o‘zgarishi esa – oddiy hol darajasiga yetkazishga qaratish lozim.

Jangovar tayyorgarlik jarayonida jangchida muhim ruxiy sifatlarni shakllantirish usullari turlichadir. Bu asosan ofitserlarning uslubiy mahoratlari va qo‘shinlardagi o‘quv-moddiy bazaning holatiga bog‘liq.

Mashg‘ulotlarda va o‘quvlarda keskinlik, to‘satdanlik, xavf-xatar va tahlika vaziyatlarini yaratish asosiy maqsad emas. Balki jangchining vaziyatga munosabat bildirish qobiliyatini oshirish orqali uning yuqori ruhiy yuklamalar sharoitida faol harakatlanish va shu bilan birga qiyinchilik hamda salbiy ruhiy holatni yengib o‘tishdagi irodaviy harakatlar bo‘yicha zaruriy tajribalarni orttiradi, unda dadillik, barqarorlik, qat’iyatlilik, botirlik kabi irodaviy sifatlarni shakllantiradi.

Ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarning komandir rahbarligida hamda jangovar tayyorgarlik va tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari bilan hamkorlikdaamalga oshiriladi, shuning uchun ham harbiy xizmatchilarni **ruhiy tayyorlash shakllari alohida emas, balki, jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik shakllari bilan paralleldir.**

Samarali ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarning jangovar faoliyati samaradorligining muhim sharti bo‘lib, jangovar harakatlarni olib borish davomida va yakunida ruhiy turg‘unlikni kafolatlaydi.Yuqorida qayd etilgan ruhiy tayyorgarlik usullarining asosiy qismi jangovar tayyorgarlik raxbariy xujjatlarida qayd etilgan, lekin quyi pog‘onadagi sohaga mas’ul mansabdor shaxslar tomonidan mazkur raxbariy xujjatlar talablarini bajarishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilmoqda. Qurolli Kuchlar tinchlik davrida urushga tayyorlanishi va shuning natijasida yurtda osoyishtalik ta’minlanishi xaqiqat. Mazkur ibora asrlar davomida o‘z tasdig‘ini topib kelmoqda.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlari xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilingan holda tashkillashtirilishi shart. Inson xayoti va sog‘ligi har narsadan ustun ekanligini, biz tarbiya qilayotgan harbiy xizmatchilar kimnidir farzandi yoki otasi ekanligini, ularning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki birinchi o‘rinda xayoti uchun ma’sul ekanligimizni yana bir bor eslatib o‘tmoqchiman.

general mayor SAIDOV Aybek Azadovich
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Sharqiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).



Annotatsiya: *Mazkur maqola harbiy rahbar va uning ijtimoiy-psixologik asoslariga bag‘ishlangan. Maqolada shartnoma asosidagi harbiy xizmat, harbiy rahbar shaxsi, shartnoma asosidagi harbiy xizmat talabi, ushbu harbiy xizmat turini tanlash yoki tanlamaslikning barcha ijtimoiy-psixologik sabablari ham keng yoritilgan. Keltirilgan mulohazalar, tahlillar adabiyotlar ruyxatida keltirilgan manbalar asosida amalga oshirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Harbiy faoliyat, shartnomadagi xizmat, nomzod, armiya, kasb, davogarlik motivi, psixologik tanlov, psixologik tayyorgarlik, yoshlar, harbiy komessiya, harbiy obro‘, qahramon, mudofaa, harbiy rahbar, qo‘mondon.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается командир и его социально-психологические особенности. Статья охватывает широкий спектр контрактной военной деятельности, контрактников, условную военную службу, а также все социально-психологические аспекты выбора или отказа от военной службы. Эти анализы и анализы основаны на источниках, перечисленных в литературе.*

Ключевые слова: *военная деятельность, контрактная служба, кандидат, армия, профессия, когнитивный мотив, психологический выбор, психологическая подготовка, молодежь, военное командование, военная репутация, герой, защита, командующий, командир.*

Ma’lumki, rahbar shaxsi va uning faoliyati bilan bog‘liq psixologik masalalarning tadqiqi, hanuzgacha psixologiya fani oldida turgan dolzarb masalalar turkumidan sanaladi. Qolaversa, zamonaviy rahbar va uning boshqaruv uslubi, rahbar shaxsga xos xarakterologik sifatlar, zamonaviy rahbarga quyiladigan talablar, boshqaruvning ijtimoiy-psixologik jihatlari, rahbar va xodim munosabatlari kabi masalalarning nazariy va amaliy sharhlari, kadrlar sohasini qayta isloh qilish ishlarida qator o‘zgarishlar olib kelishi ehtimoldan holi emas. Ana shu jihatdan olib qaralganda, mazkur tadqiqot ishimiz o‘rganish jihatdan o‘ta ahamiyatli hisoblanadi.

Shu jihatdan, rahbar shaxsining boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq barcha ko‘nikma va malakalari “boshqaruv kompetentligi” fenomeni bilan bog‘liq bo‘lib, uni tashkil etish rahbar shaxsiga xos ko‘plab xarakterologik sifatlarni ifodalashi tabiiy. Bu esa, bugungi kunda har bir soha fidoiy, yetakchi, tashabbuskor, innovatsion g‘oyaga boy, ijtimoiy faol, yangicha boshqaruv amaliyotiga ega bo‘lgan, optimist, mustqil fikrga ega, o‘ziga ishongan kabi sifatlarga ega kadrlarni talab qilmoqda. Bu holat harbiy faoliyat sub’ektlari uchun ham muhim sanalib, harbiy rahbar uchun har qanday sharoitda muvaffaqqiyatga erishish garovi hisoblanadi.

Shunday ekan, mudofaa sohasidagi rahbarlar va ularning boshqaruv sohasidagi bilimlari, ko‘nikmalari, boshqaruv uslubi va uning psixologik o‘ziga

xosligi, boshqaruvda shart sanalgan ijtimoiy-psixologik sifatlar, liderlik, zamonaviy rahbar va unga xos imij, rahbar shaxsiga qo‘yiladigan psixologik talablar, rahbarlik tiplari, rahbar shaxsining ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi kabilar “kompetentlik” tushuchasida aks etgan.

Hozirgi kunga qadar boshqaruv kompetentligi masalasi psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, menejment kabi fanlarning tadqiqot predmeti sifatida o‘rganib kelinmoqda. Ammo, psixologiya fani boshqa fanlardan farqli ravishda, boshqaruv masalasini o‘ziga xos tadqiq etib, u orqali rahbar shaxsiga va sohaga xos ko‘plab yangi xususiyatlarni aniqlamoqda. Boshqaruv sohasidagi kadrlar va ularning faoliyati bilan bog‘liq ayrim masalalar xorij tadqiqotchilardan R.Akkof, I.Atkinson, N.Kouplend, D.Kempbell, D.Uilsam, D.Fuler, S.Parkinson, M.Nortkot, D.Super, A.Jeyms, Ye.Marro, T.Spine, D.Bliss va R.Bennetlarning izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, rus olimlaridan N.Korf, P.Izmestev, A.Karayani, A.Kitov, P.Korchemnыy, K.Platonov, S.S’edin, N.Fidenko, A.Glotochkin, M.Dyachenko, L.Jeleznyak, S.Kandыbovich, V.Lusenko, E.Utlik va V.Yusovlar esa harbiy sohadagi jamoalar va ularning hamkorlikdagi faoliyati, rahbar va xodim o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, harbiy boshqaruv asoslari, harbiy jamoaga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kabi masalalar tadqiq etilgan.

Bundan tashqari, kompetensiya fenomenining kasbiy bilim, kasbiy ko‘nikma va malakalar orqali o‘rganish holatida G.Kolshanskiy, N.Kadulina, S.Kulnevich, S.Kucher, O.Lebedev, L.Cherepanova va N.Churakovalarning ishlari o‘ta ahamiyatli hisoblanib, ular muammoni ko‘proq pedagogik jamoa vakillari faoliyati bilan bog‘lab o‘rganishgan.

Mahalliy tadqiqotlarimizdan harbiy sohada tadqiqot olib borgan olimlar kam sonli bo‘lsada, ulardan S.Ahrorov, I.Inoyatov, A.Qambarov, S.Otamurodov, R.Samarov, L.Tursunov, I.Rasulov, L.Ravshanov, F.Shermatov va U.Sultonov kabi tadqiqotchilarimizning izlanishlari diqqatga sazovor hisoblanadi. Ammo, yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilar aynan Qurolli Kuchlar tizimidagi rahbar kadrlarda boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari borasida izlanishlar olib bormaganligi mazkur mavzuning ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

L.Grimak tomonidan chop etilgan “Inson faolligi psixologiyasi” nomli monografiyasida qayd etilishicha, insonning boshqaruv imkoniyatlarini o‘rganish avvalo, uning boshqaruv ko‘nikmalari, maxsus qobiliyati, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tajribasi, o‘z qo‘l ostidagilarni boshqarish usuli kabi muhim masalalarning mohiyatini tadqiq etishdan boshlanadi [1,98]. Ushbu mulohazaga muvofiq, boshqaruv faoliyati inson hayotining barcha sohalari uchun xos bo‘lib, mazkur jarayonda inson turli ta’sir vositalarini qo‘llash orqali boshqalarning xatti-

harakatlarini ham o‘zgartiradi. Boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq masalalar evolyusion xarakterga ega bo‘lib, u jamiyat tashkil topgan davrdan ko‘pchilik soha vakillari e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. Ya’ni insonlar bilan ishlash murakkab ijtimoiy jarayon, u qaysi sohada bo‘lmasin rahbar shaxsidan ko‘plab ijtimoiy-psixologik sifatlarni talab etadi.

Akademik V.Afanasev mazkur masala borasida “biz yaxshi muhandislarni, yaxshi o‘qituvchilarni, yaxshi tibbiyot xodimlarini, yaxshi davlat xizmatchilarini tayyorlaymiz ammo, davlat rahbarlarini, tibbiyot rahbarlarini, do‘kon rahbarlarini, ta’lim rahbarlarini tayyorlamaymiz. Biroq, ularning olgan ta’lim va tarbiya malakalari, soha bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalari, kasbiy kompetensiyalari, kasbiy mahorat va maxsus qobiliyatlari boshqaruv faoliyati samaradorligini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik determenantalar hisoblanadi [2,77]. Mazkur ta’rifdan shuni anglash mumkinki, rahbar kadrlar oldindan tayyorlanmaydi balki, inson psixikasining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘z sohasi bo‘yicha olgan mukammal bilimlari shuningdek, yillar davomida kasbiy sohada faoliyat yuritish natijasida yuzaga keladigan jarayondir. Bundan tashqari, har bir davlatning ravnaqi va kelajagi rahbar xodimlarning samarali faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, har qanday tadqiqotlarda ularning faoliyati tanqidiy o‘rganilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Boshqaruv kompetentligi fenomenini o‘rganishning o‘ziga xos yondoshuvi L.N.Zaxarovaning izlanishlarida aks etgan bo‘lib, unda boshqaruv faoliyatining sub’ekti bo‘lgan rahbar shaxslarning qator ijtimoiy –psixologik sifatlari ajratilgan. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, shaxsda boshqaruv kompetentligining yaxshi rivojlanganligi quyidagi sifatlar bilan tushuntiriladi[4,85]:

boshqaruvning tashkiliy asoslarini yaxshi bilish;

vazifalarga nisbatan yuqori javobgarlik hissi va bajarilishi kutilayotgan ishlarni aniq taqsimlay olish;

boshqaruv samaradorligini oshirish usullarini yaxshi bilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lish;

og‘zaki va yozma ravishda o‘z fikrlarini aniq, ravon ifoda eta olish qobiliyati;

tashkilot faoliyatini rejalashtira olish va uning taqdirini bashorat qila olish qobiliyati;

o‘z faoliyatini baholay olish, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati va hokazo.

A.Zubning ta’kidlashicha, boshqaruv kompetentligi yuqori bo‘lgan yetakchi shaxslar nafaqat samarali boshqaruv usullaridan xabardor bo‘ladi balki, boshqalarga maslahat bera oladigan, har qanday tashkilot rahbarlari bilan murosa qila oluvchi, yuqori kommunikativ qobiliyatga ega, boshqalarga tavsiya va taklif bera oluvchi shasxdir[5,110]. Demak, boshqaruv kompetentligi yaxshi rivojlangan rahbar

shaxslar har qanday sharoitda murosa qila oladigan, boshqalarga maslahat va yo‘l-yo‘riq ko‘rsata oladigan tajribali kishilar ham bo‘la olishi lozim. Boshqaruv kompetentligi tushunchasining kengroq mazmuni, bizningcha rahbar va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, o‘zaro ta’sirlashuv jarayoni, boshqalar harakatlarini yaxshi idrok eta olish, o‘z qo‘l ostidagilarni yaxshi tushuna olish, boshqalar bilan ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashish kabi sifatlar mazmunida ham o‘z aksini topgan.

M.Litvakning so‘zlariga ko‘ra, rahbar shaxsiga xos boshqaruv kompetentligini ijtimoiy-psixologik jihatdan baholash quyidagi mezonlar orqali amalga oshiriladi[6,78]:

1.O‘z jamoasining xatti – harakatlarini muvofiqlashtira olish;

2. Jamoadagi ijtimoiy jarayonlarni tartibga sola bilish hamda unda sog‘lom munosabatlarni saqlay olish;

3. Qo‘l ostidagi xodimlarni va tashkilotning imkoniyatlarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati. Mazkur funksional va ijtimoiy-psixologik xususiyatlar nafaqat rahbar faoliyati uchun balki butun bir jamoa uchun ham zarur xususiyatlar hisoblanadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-psixologiya va boshqaruv psixologiyasi muammolariga oid e’tiborga molik izlanishlar E.G‘oziev, M.Mamatov, V.Karimova, I.Mahmudov, B.Umarov, D.Muxamedova, R.Boymurodov va O.Haitov kabi yetakchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu olimlar asosiy e’tiborni ko‘proq, boshqaruv usullari va uning turlari, rahbarlik sifatlari, liderlik, shaxs va guruhiy munosabatlar kabilarga qaratishgan. Biroq, rahbar shaxslar boshqaruv kompetentligining ijtimoiy-psixologik jihatlari, uni ta’minlovchi determenantlar kabi maslalar hozirga qadar, o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Shuning uchun, muammoni integratsiyalashgan yondoshuvlar asosida ko‘rib chiqish lozim.

Professor V.M.Karimovaning so‘zlariga ko‘ra, shaxsda yetakchilikka oid funksiyalar haqidagi tasavvurlar qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, rahbar real sharoitlarda insonlar guruhini aniq maqsadlar asosida faoliyatga yo‘llash, ularga bosh bo‘lish, turli ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega tadbirlarni amalga oshirish, obro‘ga ega bo‘lish, har bir qilingan ish uchun javobgar bo‘la olish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishi lozim[7,25]. Muallif tomonidan berilgan mazkur ta’rifdan shu narsa ma’lumki, boshqaruv faoliyati nafaqat rahbarlik sifatlari balki, shaxslararo munosabatlarga bo‘lgan qobiliyat orqali ham tushuntirilishi e’tiborga molikdir.

L.Berestova o‘zining “ijtimoiy-psixologik kompetensiya rahbar professionalligining xarakteristikasi” mazusidagi dissertatsiya ishida, rahbar shaxsiga xos emotsional intellektning boshqaruvdagi roli haqida, o‘ziga xos ta’rifni keltirib o‘tgan. Muallifning fikricha, yuqori rivjlangan emotsional intellekt rahbar

shaxs uchun, o‘zi his-tuyg‘ularidan va boshqalarning his-tuyg‘ularidan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishga, noxush hislarning sabablarini tushuna olishga, o‘z hissiy holatini har qanday murakkab sharoitlarda boshqara olishga, begona kishilar va qo‘l ostidagi yangi xodimlarga nisbatan hamdard bo‘la olishga, ishchi va xodimlarning imkoniyatlari va qay darajadagi malakalari mavjudligini ko‘ra olishga hamda ularni tarbiyalash hamda kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga bosh-qosh bo‘la olish kabi xususiyatlarini ta’minlovchi qobiliyatlar turi sifatida xizmat qiladi[8,24]. Demak, samarali boshqaruv kompetentligi uchun emotsional intellekt shart va zarurdir.

D.Treysining so‘zlariga ko‘ra, rahbarda boshqaruv kompetentligi shakllanganligining ijtmoiy-psixologik jihati shundaki, sheriklar tomonidan yashiringan signallarni seza olishi, ularga turli mazmundagi savollar berishi va sheriklarning o‘z pozitsiyalari va takliflarini aniqlashtirishga undash qobiliyati kabilarda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, haqiqiy rahbar faol tinglash qobiliyatiga ega bo‘lishi, hamkor shaxslarga o‘zining rejalari va maqsadlarini to‘g‘ri yetkazib bera olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi, boshqaruv faoliyatining shartlaridan biri sanaladi[9,98]. Demak, rahbarda nutqiy qobiliyat, oratorlik hamda turli xil odamlarning nutqidagi semantik va konstruktiv mazmunni tez anglay olish qobiliyati ham mavjud bo‘lishi kerak.

Harbiy xizmatchi rahbarlarda tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, boshqaruv kompetentligi va shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik munosabatlari hamda boshqaruv kompetentligini shakllantirishning quyidagi ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkichlari aniqlandi:

harbiy rahbarlarning boshqaruv kompetentligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan olingan tadqiqot natijalariga asosan, harbiy uchuvchilarda 118,51, tankchilarda 141,23 va harbiy aloqachilarda 106,52 natija bilan o‘rtacha farqni namoyon qildi ($h=13,52$, $*=p\leq0,05$). Ma’naviy yetuklik shkalasi bo‘yicha harbiy uchuvchilarda 118,40, tankchilarda 126,49 va harbiy aloqachilarda 106,52 natijalarni namoyon qilib, emotsional yetuklik shkalasi harbiy uchuvchilarda 96,89, tankchilar 145,40 va harbiy aloqachichilarda 123,42 kabi darajalar bilan o‘zaro yuqori farqlarni qayd etdi. Keyingi shkala, ya’ni ijtimoiy intellekt bo‘yicha harbiy uchuvchilarda 153,37, tankchilarda 147,07 va harbiy aloqachilarda 148,25 kabi natijalarni aks ettirdi. Jamoada yetakchilik shkalasiga ko‘ra, harbiy uchuvchilar 115,61, tankchilar 158,14 va harbiy aloqachi harbiy xizmatchilar 131,09 kabi darajalar bilan o‘rta farqlarni aks ettirdi.

Sinaluvchi harbiy xizmatchilar o‘rtacha darajani namoyon qilganligi uchun quyidagicha sifatlar bilan xarakterlanishi mumkin. Ushbu harbiy xizmatchi rahbarlar “o‘rtadan yuqori” toifaga mansub bo‘lib, o‘z fikrini aniq bayon etadi, boshqalarning

e’tibor berishini va majburiylikni yomon ko‘radi, hamisha murosa qilishga intiladi, u yaxshi yetakchi bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, Qurolli Kuchlar tizimida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchi rahbarlarda boshqaruv kompetentligini takomillashtirish uchun muloqot ishtirokchisining fikr-niyatlarini tushunish, noverbal xulq-atvorni tushunish, shaxslararo o‘zaro ta’sir, ijtimoiy-axloqiy yetuklik, ma’naviy yetuklik, ijtimoiy intellekt va muammoli vaziyatlarda o‘zini tutish kabi psixologik xususiyatlarning rivojlanganligi, kasbiy faoliyat jarayonida jamoalar bilan pozitiv munosabatlarni o‘rnata olishga xizmat qiladi. Demak, mazkur tadqiqotni ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganishga asos va zarurat mavjud, qolaversa, mazkur tadqiqotimiz harbiy sohada faoliyat olib borayotgan harbiy rahbar kadrlar faoliyatida yuzaga kelayotgan ayrim muammolarga ilmiy yechim bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гримак Л.П., Психология активности человека: психологические механизмы и приемы саморегуляции / Л. П. Гримак. – Москва: URSS, Либроком, 2018. – С.98.

2. Афанасьев В.Г., Общество: системность, познание и управление. В.Г. Афанасьев. М.: Вт. Изд.(II), ЭСКИМОС, 2009. – С.77.

3. Журавлев А.Л., Психология управления совместной деятельностью: Новые направления исследований / А.Л. Журавлев, Т.А. Нестик. – М.: Институт психологии РАН, 2010. – С. 41.

4. Захарова Л.Н., Психология управления: Учебное пособие / Л.Н. Захарова. – М.: Логос, 2012. – С. 85.

5. Зуб А.Т., Психология управления: Учебник и практикум для академического бакалавриата / А.Т.Зуб. – Люберцы: Юрайт, 2015. – С. 110.

ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ПРОТИВОВОЗДУШНОЙ ОБОРОНЫ: ОТ ПЕРВЫХ СРЕДСТВ БОРЬБЫ С ВОЗДУШНЫМИ ЦЕЛЯМИ ДО СОВРЕМЕННЫХ СИСТЕМ

Старший преподаватель кафедры ПВО СВ Института ИКТ и ВС, подполковник Джураев Гафур Бахтиярович

Аннотация. *В тезисе рассматриваются основные этапы становления и развития противовоздушной обороны как важнейшей составляющей системы обеспечения военной безопасности государства. Прослеживается эволюция средств и способов борьбы с воздушным противником от применения обычного стрелкового оружия и первых специализированных зенитных орудий до современных радиолокационных, ракетных, радиоэлектронных и автоматизированных комплексов. Особое внимание уделяется историческому опыту Первой и Второй мировых войн, периоду противостояния военно-политических блоков во второй половине XX века, а также современному этапу развития противовоздушной обороны в условиях широкого применения беспилотных летательных аппаратов и высокоточного оружия. На основе исторического анализа показано, что развитие противовоздушной обороны непосредственно связано с изменением характера воздушной угрозы, совершенствованием авиации и средств воздушного нападения, а также научно-техническим прогрессом.*

Ключевые слова: *противовоздушная оборона, ПВО, авиация, зенитная артиллерия, радиолокация, зенитные ракетные комплексы, воздушное нападение, беспилотные летательные аппараты, радиоэлектронная борьба, военная история.*

Abstract. *The paper examines the main stages of the formation and development of air defense as an essential component of a state's military security system. The evolution of means and methods of countering aerial threats is traced from the use of small arms and the first specialized anti-aircraft artillery systems to modern radar, missile, electronic warfare, and automated air defense systems. Particular attention is paid to the historical experience of the First and Second World Wars, the period of military and technological confrontation in the second half of the twentieth century, and the contemporary development of air defense in the context of the widespread use of unmanned aerial vehicles and precision-guided weapons. Based on a historical analysis, the paper demonstrates that the development of air defense has been closely associated with changes in the nature of aerial threats, the advancement of aviation and airborne weapons, and scientific and technological progress.*

Keywords: *air defense, air defense systems, aviation, anti-aircraft artillery, radar, surface-to-air missile systems, aerial attack, unmanned aerial vehicles, electronic warfare, military history.*

История войн XX–XXI веков убедительно показывает, что контроль воздушного пространства является одним из важнейших условий достижения и удержания военного превосходства. Появление авиации принципиально изменило характер вооружённой борьбы, создав возможность нанесения ударов не только по переднему краю войск, но и по объектам оперативной и стратегической глубины.

Возникновение воздушной угрозы закономерно привело к формированию специальной системы защиты войск, населения и важнейших объектов от ударов с воздуха. Первоначально эта задача решалась преимущественно силами стрелковых подразделений и артиллерии. Однако по мере роста скорости, высоты и боевых возможностей летательных аппаратов

возникла необходимость создания специализированных органов управления, средств обнаружения и специализированного вооружения [1].

Таким образом, история противовоздушной обороны представляет собой не только историю развития вооружения и военной техники, но и историю изменения взглядов на характер воздушной войны, организацию управления войсками и принципы обеспечения безопасности воздушного пространства.

Первые предпосылки формирования ПВО появились ещё в начале XX века, когда военные специалисты начали рассматривать авиацию как самостоятельное средство вооружённой борьбы. В период Первой мировой войны самолёты стали активно применяться для разведки, корректировки артиллерийского огня и нанесения бомбовых ударов.

Первоначальными средствами противодействия авиации являлись пулемёты и обычные артиллерийские орудия, приспособленные для стрельбы по воздушным целям. Однако ограниченные возможности таких средств обусловливали необходимость разработки специализированной зенитной артиллерии.

В межвоенный период стремительное развитие военной авиации обусловило необходимость качественного совершенствования системы противовоздушной обороны. Увеличение скорости, высоты полёта и боевых возможностей самолётов потребовало перехода от преимущественно локального противодействия к комплексной организации защиты войск и важных объектов. Основное внимание стало уделяться не только непосредственному поражению воздушных целей, но и их своевременному обнаружению, определению направления и характера движения, оценке угрозы и оперативной передаче информации органам управления. Одновременно совершенствовались средства наблюдения, связи, зенитная артиллерия и организационные структуры ПВО, что создало предпосылки для формирования централизованной системы управления огнём и взаимодействия различных сил и средств противовоздушной обороны.

Особое значение для развития ПВО имело появление радиолокации. Радиолокационные станции позволили обнаруживать воздушные объекты независимо от визуальной видимости, что существенно повысило эффективность системы предупреждения о воздушном нападении [2].

Вторая мировая война стала одним из наиболее значимых этапов развития противовоздушной обороны. Масштабное применение авиации продемонстрировало, что защита войск и объектов от воздушных ударов должна носить комплексный характер.

В этот период получили широкое распространение зенитные пушки различных калибров, зенитные пулемёты, прожекторные установки, аэростаты заграждения и первые эффективные радиолокационные средства. Важнейшим элементом ПВО стало взаимодействие средств обнаружения, органов управления, истребительной авиации и зенитной артиллерии [3].

Опыт Великобритании, Германии, Советского Союза и других государств показал, что эффективность противовоздушной обороны определяется не отдельным образцом вооружения, а организацией всей системы.

В годы Второй мировой войны дальнейшее развитие получила идея эшелонированной противовоздушной обороны, основанная на комплексном применении различных сил и средств для противодействия воздушному противнику. Необходимость такого подхода была обусловлена ростом масштабов применения авиации, увеличением скорости и высоты полёта самолётов, а также появлением новых способов нанесения воздушных ударов.

Эшелонированная защита предполагала последовательное воздействие на воздушные цели на различных дальностях, высотах и направлениях. На дальних подступах противодействие могло осуществляться истребительной авиацией, ближе к защищаемому объекту применялась зенитная артиллерия, а дополнительно использовались средства воздушного наблюдения, оповещения, прожекторные установки и другие элементы системы ПВО. Такое сочетание позволяло повысить устойчивость обороны и снизить вероятность успешного прорыва воздушного противника.

Особое значение имело взаимодействие между различными подразделениями и средствами ПВО. Эффективность системы всё в большей степени зависела не только от характеристик отдельных образцов вооружения, но и от качества управления, связи, своевременности обнаружения целей и согласованности действий всех элементов обороны.

Опыт Второй мировой войны показал, что одиночное средство противодействия не может обеспечить надёжную защиту от разнообразных воздушных угроз. Поэтому принцип эшелонирования постепенно превратился в один из фундаментальных принципов построения систем ПВО. В последующие десятилетия он получил дальнейшее развитие благодаря появлению радиолокационных средств, зенитных управляемых ракет, автоматизированных систем управления и новых средств борьбы с воздушными целями.

После Второй мировой войны произошёл качественный скачок в развитии авиации. Появление реактивных самолётов, увеличение их скорости и высоты полёта существенно ограничили возможности традиционной зенитной артиллерии.

В этих условиях началось активное развитие зенитных управляемых ракет. Их применение позволило значительно увеличить дальность и высоту поражения воздушных целей, а также повысить точность воздействия.

Одним из важнейших исторических событий стало создание первых эффективных зенитных ракетных систем. В СССР развитие данного направления привело к созданию комплекса С-25, предназначенного для защиты Москвы, а позднее – широко известного комплекса С-75. Последний получил широкое распространение и применялся в различных локальных конфликтах второй половины XX века [4].

Появление зенитных ракетных систем существенно изменило организацию ПВО. В её состав стали входить радиолокационные средства обнаружения, станции сопровождения целей, пункты управления и ракетные подразделения.

Период второй половины XX века характеризовался стремительным совершенствованием средств воздушного нападения. На вооружение ведущих государств поступали сверхзвуковые самолёты, стратегические бомбардировщики, крылатые ракеты и другие средства воздушного нападения.

В ответ совершенствовались радиолокационные станции, автоматизированные системы управления, зенитные ракетные комплексы и истребительная авиация.

Развитие ПВО происходило одновременно по нескольким направлениям:

повышение дальности обнаружения воздушных целей;

увеличение дальности и высоты их поражения;

сокращение времени реакции системы;

повышение помехоустойчивости;

автоматизация процессов управления;

обеспечение взаимодействия различных средств ПВО;

создание мобильных комплексов для защиты войск.

В результате сформировалась многоуровневая система, включавшая средства дальней, средней и малой дальности. Такое построение позволяло компенсировать ограничения отдельных комплексов и создавать более устойчивую систему защиты.

В XXI веке характер воздушных угроз существенно изменился. Наряду с традиционными самолётами и вертолётами широкое распространение получили беспилотные летательные аппараты, крылатые ракеты и другие высокотехнологичные средства воздушного нападения.

Особенность современного этапа заключается в значительном расширении диапазона воздушных угроз. Одновременно могут применяться цели различных типов, отличающиеся скоростью, высотой, размерами, радиолокационной заметностью и характером манёвра.

В связи с этим современная ПВО развивается как интегрированная система, объединяющая радиолокационную разведку, автоматизированное управление, зенитные ракетные комплексы, артиллерийские средства, истребительную авиацию и средства радиоэлектронного воздействия.

Особое место занимает цифровизация. Современные системы способны автоматически обрабатывать большие объёмы радиолокационной информации, классифицировать воздушные объекты, распределять цели между средствами поражения и обеспечивать взаимодействие различных элементов системы.

Таким образом, происходит переход от отдельных комплексов к единой информационно-управляющей среде.

Анализ исторического опыта позволяет выделить несколько закономерностей развития противовоздушной обороны.

Во-первых, ПВО постоянно развивается вслед за изменением средств воздушного нападения. Появление нового типа воздушной угрозы неизбежно вызывает необходимость совершенствования средств её обнаружения и поражения.

Во-вторых, эффективность ПВО определяется комплексностью. Исторический опыт свидетельствует, что даже высокоэффективный отдельный комплекс не способен полностью заменить систему, объединяющую различные средства обнаружения, управления и поражения.

В-третьих, возрастает значение информационного превосходства. Если в начале XX века основным источником информации о воздушной цели являлось визуальное наблюдение, то современная ПВО основывается на совокупности радиолокационных, оптико-электронных и других информационных средств.

В-четвёртых, историческое развитие ПВО показывает постоянное сокращение времени от момента обнаружения воздушной цели до принятия решения и её поражения. Поэтому автоматизация и совершенствование систем управления становятся одним из ключевых факторов эффективности.

Наконец, современный опыт показывает необходимость адаптации ПВО к массовому применению относительно малых и сложных для обнаружения беспилотных летательных аппаратов. Это требует сочетания различных средств и рационального распределения ресурсов системы противовоздушной обороны.

История противовоздушной обороны представляет собой непрерывный процесс адаптации военной организации, техники и способов ведения борьбы к изменяющемуся характеру воздушной угрозы. От первых попыток поражения самолётов огнём стрелкового оружия и зенитной артиллерии человечество пришло к созданию сложных автоматизированных систем, объединяющих радиолокационную разведку, командные пункты, зенитные ракетные комплексы, авиацию и другие средства.

Главным историческим уроком является то, что развитие ПВО невозможно рассматривать изолированно от развития средств воздушного нападения. Каждый технологический скачок в авиации и ракетном вооружении создавал новые требования к системе защиты воздушного пространства.

В современных условиях исторический опыт приобретает особое значение. Изучение этапов становления ПВО позволяет не только объективно оценить достижения военной науки и техники, но и выявить закономерности, которые должны учитываться при дальнейшем развитии системы противовоздушной обороны.

Таким образом, современная ПВО является результатом более чем столетнего развития военной мысли, техники и организационных форм. Её дальнейшая эффективность будет определяться способностью своевременно адаптироваться к новым средствам воздушного нападения, совершенствовать информационные технологии и обеспечивать комплексное взаимодействие всех элементов системы.

Список использованной литературы

1. Зенитная артиллерия. История развития и боевого применения. – М.: Воениздат.
2. Ванке Дж. Радиолокация и радиолокационные системы. – М.: Воениздат.
3. Оружие Победы: Вооружение и военная техника Великой Отечественной войны 1941–1945 гг. / под ред. В.Н. Новикова. – М.: Машиностроение, 1985.
4. Шунков В.Н. Вооруженные силы стран мира: современное состояние и перспективы развития. – Минск: Харвест.
5. История военного искусства: учебник / под ред. В.А. Золотарева. – М.: Воениздат.
6. Кузнецов Н.В. Военная история. – М.: Военное издательство.
7. Современные системы противовоздушной и противоракетной обороны: состояние и перспективы развития. – М.: Радиотехника.

BO‘LAJAK OFITSERLARNI KIBERMAKONDAGI AXBOROT XURUJIGA QARSHI KURASHISH UCHUN TAYYORLASH USULLARI

podpolkovnik Miryusupov Mirsaid Mirolimovich

Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak ofitserlarni kibermakondagi axborot xurujlariga qarshi kurashish uchun tayyorlash usullari ko'rib chiqiladi. Kiberxavfsizlik harbiy tizimlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ofitserlar axborot xurujlarini aniqlash va ularga samarali javob berish qobiliyatini rivojlantirishlari zarur. Maqola, tayyorgarlik jarayonini, zamonaviy usullarni va amaliy tajribalarni tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *Kibermakon, axborot xurujlari, tayyorlash usullari, harbiy ofitserlar, kiberxavfsizlik, simulyatsiyalar, amaliy tajribalar, tahdidlarni aniqlash.*

Аннотация: *В данной стате рассматриваются методы подготовки будущих офицеров к борбе с кибератаками в киберпространстве. Кибербезопасност имеет важное значение для военных структур, и офицеры должны развиват способност выявлят кибератаки и эффективно на них реагироват. Статя анализирует процесс подготовки, современные методы и практический опыт.*

Ключевые слова: *Киберпространство, кибератаки, методы подготовки, военные офицеры, кибербезопасност, симуляции, практический опыт, выявление угроз.*

Kirish

Kibermakon zamonaviy hayotimizda muhim o'rin tutadi. U global aloqa va axborot almashinuvi uchun asosiy maydon bo'lib, harbiy tizimlar uchun ham alohida ahamiyatga ega. Kiberxavfsizlikni ta'minlash va axborot xurujlariga qarshi kurashish bo'lajak ofitserlar uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Kibermakonning ahamiyati

Kibermakon, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ta'sir ko'rsatishi bilan birga, harbiy operatsiyalarning samaradorligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash orqali harbiy kuchlar o'z operatsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin.

Axborot xurujlariga qarshi kurashishning zaruriyati

Kiber tahdidlar tobora ko'paymoqda, shuning uchun axborot xurujlariga qarshi kurashish uchun tayyorgarlik zarur. Kiberxavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ofitserlar, axborot tizimlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bo'lajak ofitserlarni tayyorlash jarayoni

Bo'lajak ofitserlarni tayyorlash jarayoni quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. **Teoretik ta'lim**: Kiberxavfsizlik asoslari, kiber tahdidlar va ularga qarshi kurashish metodlari haqida nazariy bilimlar berish.
2. **Amaliy mashg'ulotlar**: Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun simulyatsiyalar va tajriba almashish.

Bo'lajak ofitserlar kiberxavfsizlik sohasidagi yangiliklar va tendensiyalar bilan tanishishlari zarur. Bu bilimlar kiber tahdidlarga samarali javob berish imkonini beradi.

Simulyatsiyalar kiber tahdidlarni aniqlash va ularga javob berish qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar orqali ofitserlar real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlanishadi va o'z ko'nikmalarini sinab ko'rishadi.

Axborot xurujlarini aniqlash va ularga javob berish

Axborot xurujlarini aniqlash va ularga to'g'ri javob berish qobiliyati harbiy ofitserlar uchun zarur. Bu jarayonni o'rganish orqali ular kiber tahdidlarga samarali qarshi turish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Ushbu jarayonlar bo'lajak ofitserlarni kibermakondagi axborot xurujlariga qarshi kurashishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Amaliy tajribalar kiberxavfsizlik sohasida bo'lajak ofitserlarni tayyorlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ular nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi va real vaziyatlarda qanday harakat qilishni o'rganishga imkon yaratadi.

Real vaziyatlarni simulyatsiya qilish

1. **Simulyatsiya mashg'ulotlari**: Real vaziyatlarni simulyatsiya qilish jarayonida ofitserlar kiber tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi kurashish strategiyalarini amalda sinab ko'rishadi. Masalan, kiber hujumlarni amalga oshiruvchi shartli raqiblar bilan ishlash, hujumlarni aniqlash va javob berish usullarini rivojlantirish simulyatsiyalarida ko'zga tashlanadi.
2. **Interaktiv o'quv dasturlari**: Kiberxavfsizlikka doir interaktiv dasturlar yordamida ofitserlar kiber tahdidlar bilan bog'liq vaziyatlarni real vaqt

rejimida ko'rib chiqishlari mumkin. Bu jarayonlarda har bir ofitser o'z xatti-harakatlarini baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Amaliyot o'tkazish va tajriba almashish

1. **Amaliyot o'tkazish**: Kiberxavfsizlik bo'yicha amaliyotlar o'tkazish jarayonida ofitserlar real tashkilotlarda ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu jarayonda ularning bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llashlari va yangi tajribalar orttirishlari muhimdir.
2. **Tajriba almashish**: Kiberxavfsizlik bo'yicha tajriba almashish, boshqa davlatlar yoki tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon davomida ofitserlar boshqa mutaxassislardan o'rganish va yangi usullarni o'zlarining amaliyotlariga joriy etish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Xulosa

Bo'lajak ofitserlarning kiberxavfsizlik sohasidagi roli muhim ahamiyatga ega. Ular mamlakat xavfsizligini ta'minlashda, axborot tizimlarini himoya qilishda va kiber tahdidlarga qarshi kurashishda muhim vazifalarni bajaradilar. Kiber tahdidlar doimiy ravishda rivojlanayotganligi sababli, ofitserlarning tayyorgarlik jarayonlari ham takomillashishi zarur.

Kelajakda tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirish yo'llari

1. **Innovatsion ta'lim dasturlari**: Kiberxavfsizlik sohasidagi yangi texnologiyalar va metodologiyalarni o'z ichiga olgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Bu dasturlar zamonaviy xavflarga qarshi kurashish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni berishi kerak.
2. **Mavjud amaliyotlarni takomillashtirish**: Amaliy mashg'ulotlar va simulyatsiyalarni kengaytirish, ularni real sharoitlarda o'tkazish imkoniyatlarini ko'rib chiqish.
3. **Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish**: Boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik qilish va tajriba almashish orqali tayyorgarlik jarayonlarini yanada kuchaytirish.
4. **Innovatsion texnologiyalarni qo'llash**: Kiberxavfsizlik sohasidagi innovatsion texnologiyalarni o'rganish va joriy etish, masalan, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish metodlarini integratsiyalash.

Ushbu yondashuvlar bo'lajak ofitserlarning tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirishga va ularni kiber tahdidlarga samarali qarshi turishga tayyorlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Akhmedov A.** "Kiberxavfsizlik: Nazariya va amaliyot", Fan va texnologiya, 250 bet, 2020 yil.

2. **Xolov M.** "Kiber tahdidlar va ularga qarshi kurash", Toshkent universiteti, 180 bet, 2018 yil.

3. **Kolesov A.** "Kiberxavfsizlik: Usloviy va metodologiya", Aspekt Press, 320 bet, 2019 yil.

4. **Shestakov V.** "Kiber tahdidlar va himoya usullari", Leningrad universiteti, 220 bet, 2021 yil.

5. **Ivanov S.** "Informatsionnaya bezopasnost' v tsifrovoy epokhe", Infra-M, 350 bet, 2022 yil.

6. **Shostack A.** "Threat Modeling: Designing for Security", Wiley, 336 bet, 2014 yil.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA O‘ZBEK XALQINING IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI QAHRAMONLIGI - IBRAT MAKTABI VA TARIXIY MEROS

dotsent. MAMARAUFOV O.A


Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya: *Ikkinchi jahon urushi yillarida jasorat va matonat, mehr va muruvvat kabi insoniylikning yuksak namunasini ko‘rsatgan xalqimizning G‘alabaga qo‘shgan munosib hissasi bilan bog‘liq muqaddas xotirani saqlab qolish borasida O‘zbekiston Prezidentni rahbarligida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.*

Kalit so’zlar: *Sovet Ittifoq, Ikkinchi jahon urushi, “Ulug‘ Vatan urushi”, Germaniya-SSSR fronti.*

KIRISH

Xalqimizning Ikkinchi jahon urushi davridagi jasorati va fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi beqiyos. Butun butun dunyo buni yaxshi biladi hamda e’tirof etadi. Bu yo‘lda qanchadan-qancha ajdodlarimiz qurbon



bo‘lgan, bir qismi esa qahramon sifatida uyiga qaytgan. Yana qancha bobo va momolarimiz frontdagidan kam bo‘lmagan sharoitda mehnat qilgan.

Shu ma’noda, bugun ushbu vatandoshlarimizning so‘nmas xotirasini yod etib, ularning ruhi poklariga hurmat bajo keltirish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Zero, bugungi yorug‘, musaffo osmonimiz sofligini, tinch va osuda hayotimizni ta’minlash uchun bukilmas iroda va jasorat namunasini ko‘rsatgan, Vatan uchun jon fido qilgan jasur bobolarimiz matonatini hech qachon unutib bo‘lmaydi.

Urush davri musibatlarini boshidan kechirgan yurtdoshlarimizning xotiralaridan ma’lum bo‘lishicha, odamlar o‘sha vaqtlarda sovet rejimini himoya qilish zaruriyati haqida kam o‘ylagan. Aksincha, xalqimizning aksariyat qismi mustabid tuzumni qoralardi. Nega deganda, xalqimiz Turkiston muxtoriyati qonga botirilishi, istiqlolchilik harakatining zo‘ravonlik bilan bostirilishi va diniy e’tiqod uchun ta’qib qilinganini hali esdan chiqarmagan edi. Qolaversa, jamoalashtirishning “stalincha” zo‘ravonlik bilan amalga oshirilishi natijasida yuz bergan jinoyatlar, mustabid tuzumning ommaviy qatag‘onlaridan qolgan yaralar hali bitmagandi. Shunga qaramasdan xalqimizning fashizmga bo‘lgan kuchli nafrati mustabid tuzum yetkazgan g‘am-alamni orqa o‘ringa surib qo‘ydi va u dushmanga qarshi otlandi. [1]

Avvalo, davlat rahbarining tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o‘rganishda tom ma’noda yangi davr boshlandi. Masalan, 2020 yilgacha urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda qatnashgan, deb hisoblanar edi. Ammo jahon arxivlari o‘rganilib, yangi topilgan ma’lumotlar tahlil qilinganda esa O‘zbekistondan 1 million 951 minga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, har uch nafar o‘zbekistonlikdan bittasiqo‘liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Demak, 451 ming nafar yurtdoshlarimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar davomida e’tibordan chetda qolib kelgan.

Bundan tashqari, ilgari 396 ming nafar O‘zbekiston fuqarosi urushda halok bo‘lgan, deb aytilardi. Aslida, bu raqam 538 mingdanziyod bo‘lgan, 158 mingdan ko‘prog‘ibedarak yo‘qolgan.

Urushdan qoraxat kelganlarga aza ochilgan bo‘lsa, bedarak ketgan askarlar yaqinlarining musibati undan ham og‘irroq kechgan. Ular daragi chiqmagan askar o‘g‘li, turmush o‘rtog‘i va otasini bir umr kutgan, yillab izlashgan.

Bedarak ketganlar orasida 101 askarning taqdiri ayniqsa, boshqacha kechgan. Ular 1941 yilda urushning dastlabki haftalarida Smolensk ostonasida asirga olingan va natsistlar tomonidan okkupatsiya qilingan Niderlandiyaga propaganda maqsadlarida jo‘natilgan.

Dastlabki uch kunda o‘zbeklarni lagerda ovqatsiz, ochiq osmon ostida, simtikan bilan o‘ralgan hududda saqlashgan. Maqsad — bir burda non uchun bir-birining go‘shtini yegan odamlar holati tasvirga olinib, undan propaganda vositasida

foydalanish edi. Lekin 101 vatandoshimiz natsistlarning bu rejasini chippakka chiqaradi. Ular nemislar kutganday non uchun bir-birini o‘ldirish darajasiga bormadi, uch kun tuz totmagan bo‘lishsa-da, bir-birini qo‘llab-quvvatladi.

Xullas, matonatli bu askarlarning 24 nafari 1941 yilning qahraton qishidan chiqolmay ochlik va kasallikdan halok bo‘ladi, qolgan 77 nafari 1942 yil 9 aprelda otib tashlanadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida orden va medallar bilan mukofotlangan O‘zbekiston vakillari soni bo‘yicha ham oydinlik kiritildi. Ilgari bu ko‘rsatkich 120 ming nafar, deb qayd etilar edi. Yangi ma’lumotlarga asosan, Ikkinchi jahon urushida 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi.

Shu o‘rinda, Sovet ittifoqi qahramon bo‘lgan birgina o‘zbek o‘g‘lonining Ikkinchi jahon urushida ko‘rsatgan matonati to‘g‘risida to‘xtalmoqchimiz.

Gap shundaki, Belarusning Mogilyov tumaniga qarashli Dashkovka qishlog‘i hududidan Dnepr daryosini kechib o‘tish bu yerda joylashgan 385-o‘qchi diviziya uchun hayot-mamot masalasini hal qiladigan eng muhim operatsiya sifatida alohida ahamiyat kasb etar edi. O‘zbek farzandi Shodi Shoimov maxsus guruh bilan birinchilardan bo‘lib tashabbus ko‘rsatadi. [2]

Daryoning narigi qirg‘og‘idagi dushmanga suv sathi aniq ko‘rinib turar, kechuvga tushganlarni qirib tashlashi aniq edi. Shunday bo‘lsa-da, Shodi Shoimov va uning guruhi dushman tomonidan yog‘dirilgan o‘q yomg‘irlari ichida narigi qirg‘oqqa suzib o‘tadi.

O‘zbek o‘g‘loni fashist bilan yuzma-yuz bo‘ldi, yaqin masofada turib jang qildi va o‘zini bosqinchilar xandig‘iga tashladi. Dushman bilan kechgan qo‘l jangida pahlavon o‘zbek farzandi 13 fashistni o‘ldiradi. 1944 yil 27 iyun kuni Dneprning o‘ng qirg‘og‘ida o‘rnashgan gazandalar izdihomi tor-mor etiladi. Diviziya askarlariga Dneprni kechib o‘tish uchun yengillik tug‘iladi. Biroq Sh. Shoimov dushman bilan kechgan ayovsiz qo‘l jangida og‘ir yaralanadi va ertasi kuni 28 iyunda jarohati tufayli halok bo‘ladi. U o‘shanda bor yo‘g‘i 18 yoshda edi…

E’tibor bering, u 18 yoshida Sovet ittifoqi qahramoni bo‘ldi. O‘zidan bir donagina surat ham qoldirmagan, lekin jasoratni abadiyatga muhrlagan o‘zbek o‘g‘loni Shodi Shoimovning byustini tiklashda singlisi Tilovatning rasmidan foydalaniladi. O‘sha surat hozir Belarusning Dashkovkadagi muzeyida saqlanmoqda.

Shuningdek, 24 yoshida Sovet ittifoqi qahramoni bo‘lgan Qo‘chqor Turdiyev, general Sobir Rahimov, Zebo G‘aniyeva, Mamadali Topivoldiyev, Ahmadjon Shukurov va boshqa ko‘plab vatandoshlarimizning jasoratlari ham alohida e’tirofga loyiqdir.

Ikkinchi jahon urushida bevosita jangovar harakatlarda ayollar ham qatnashgan. Davlat mudofaa qo‘mitasi urushning ilk kunlaridan boshlab ayollarni ham urushga yuborish borasida bir qator qarorlar qabul qilgan. Garchi, avvaliga frontga borish ixtiyoriy bo‘lgan bo‘lsa-da, 1942 yil bahoridan boshlab harakatdagi qo‘shin safiga ayollarni ommaviy ravishda safarbar etish bo‘yicha bir to‘xtamga kelingani ma’lum.

O‘zbekistondan 4 ming 555 nafar ayol urushda qatnashgan, ularning orasida aloqachi, uchuvchi, mergan, zenitchi, tibbiy xodim va razvedkachilar bor edi. [3]

Urushning boshlang‘ich davrining eng murakkab vazifalaridan biri iqtisodiyotni harbiy izga solish bo‘lgan. Bu mas’uliyatli vazifani SSSRning qariyb 40 foiz aholisi istiqomat qiladigan, ko‘mirning 63 foizi qazib olinadigan, po‘latning 50 foizi ishlab chiqariladigan, donning 38 foizi yetishtiriladigan, ayniqsa, ko‘pgina mudofaa korxonalari joylashgan hududni fashistlar bosib olgan bir paytda hal qilish kerak edi.

Shu bois O‘zbekiston urush maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradigan muhim tayanch markazlaridan biriga aylandi. Ishlab chiqarish korxonalari harbiy maqsadlarda qayta tashkil etildi. Jumladan, ko‘p millatli xalqimiz fidokorona mehnati bilan o‘sha vaqtdagi 300 ga yaqin ishlab chiqarish korxonalarida harbiy mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shu davrda front hududlaridan yurtimizga 151 tazavod ko‘chirib keltirilib, qisqa fursatda ishga tushirildi. Ularda aholimiz tunu-kun mashaqqatli mehnat qilib, qahramonlik namunasi ko‘rsatgan, desak, ayni haqiqat.



1941 yil 26 iyundan boshlab mamlakatda ishchi va xizmatchilarga ishdan tashqari vaqtda majburiy mehnat qilish, katta yoshdagilar uchun haftada 6 kunlik, kuniga 11 soatlik rejim joriy etilib, ta’tillar bekor qilindi. Idora xizmatchilari, uy

bekalari va o‘quvchilar ham ishlab chiqarishga jalb qilindi. Agar 1940 yilda sanoat ishchilari orasida xotin-qizlar salmog‘i 34 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 1942 yilda bu ko‘rsatkich 63,5 foizga yetdi. [4]

Natijada O‘zbekiston urush yillarida front uchun **2100 ta samolyot, *17342 ta aviamotor, 2 318000 dona aviabomba, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, 330 mingta parashyut, harbiy ehtiyoj uchun 100 ming kilometrdan ortiq turli simlar, minalarni aniqlab beruvchi 4,5 ming dona qurilma, 2 861000 ming dona armiya etiklari va 59 mingdan ortiq ot va ko‘pgina boshqa harbiy anjomlar yetkazib berdi.***

Shuning o‘ziyoq o‘zbek xalqining g‘alabaga qo‘shgan hissasi qanchalik salmoqli bo‘lganligini ko‘rsatib turibdi.

Qolaversa, O‘zbekistonda to‘plangan mablag‘ hisobidan o‘nlab harbiy samolyot va tanklar, jangovar mashinalar barpo etildi. 1941 — 1945 yillarda mamlakatimiz sobiq ittifoq miqyosidagi ulkan gospitalga aylanib, bu yerda minglab jangchilar davolanib, safga qaytgan.

Og‘ir damda xalqimizning insonparvarligi, bag‘rikengligi ayniqsa, yaqqol ko‘rindi. Aholimiz urush tufayli uy-joyi, ota-onasi va qarindoshlaridan ajralgan, suronli hududlardan ko‘chirib keltirilgan qariyb 1,5 million kishini bag‘riga oldi. Ularning 250 mingdan ziyodi bolalar edi. Ko‘pgina o‘zbek oilalari ikkita va undan ortiq yetim bolalarni (Sh. Shomahmudov oilasi — 14 nafar, H. Samadov oilasi — 12 nafar, M. Jo‘raeva va Ashurxo‘jaevlar oilasi 8 nafardan) o‘z tarbiyalariga oldilar. Oxirgi burda nonini ham ular bilan baham ko‘rdi. [5]

Shu bilan birga, Rossiya, Ukraina va Belarusning dushman bosib olgan hududlaridan turli millatga mansub 200 ga yaqin yozuvchi va shoirlar Toshkentga ko‘chib kelib, shu yerda ijod qildi.



Albatta, bu shunchaki statistik ma’lumot emas. Bu raqamlar mudhish urush oqibatlarini hech qachon unutmaslikka chaqiradi. Ayni chog‘da, bugungi tinch va go‘zal hayotning qadriga yetib, doimo hushyor va ogoh bo‘lishga, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga undaydi.

Shu bois so‘nggi yillarda mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushining har bir qatnashchisiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ularning har biriga moddiy, ma’naviy va boshqa turdagi yordamlar berib kelinyapti. Buni hech ikkilanmasdan yangi O‘zbekistonda xalq jasoratiga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom namunasi, deyish mumkin. Qolaversa, bu bizni o‘tmishdan to‘g‘ri xulosa chiqarib, doimo hushyor va ogoh bo‘lishga, ajdodlarimizdan ibrat olib yashashga rag‘batlantiradi.

Bu yolg‘on ma’lumot. Yuqorida keltirilgan sovet-german ittifoqi natijasida boshlangan bosqinchilik urushlarda Qizil Armiya tarkibida o‘zbek millatiga mansub sovet askarlari Polshani, Finlandiyani, Ruminiyaning bir qismini va Boltiq bo‘yi hududlarini bosib olishda qatnashgan.Faqat bu «fashizmga qarshi kurash» emas, bu fashist Germaniyasi bilan ittifoqda olib borilgan harbiy harakatlar edi.

«Ulug‘ vatan urushi» atamasi ham aslida tarixda bo‘lgan faktlarga zid, tepada keltirilgan dalillar ko‘rsatmoqda, SSSR Germaniya bilan ittifoq tuzib, Yevropani bo‘lib olish niyati bilan, Germaniyaning ittifoqchisi sifatida Ikkinchi jahon urushini boshlagan. Faqat Gitler Stalinni aldab, 1941 yilning 22 iyun kunida sovetlarga qarshi urush boshlaganida, Stalin 1939 yilgi kelishuvni yopish uchun, 1939 yilgi bosqinchilik harakatlarini tarixdan o‘chirib tashlash uchun, «Ulug‘ Vatan Urushi» atamasini rasman joriy etgan. Bu atama 19 asr boshida, 1812 yilda rus-fransuz urushi davrida o‘ylab topilgan edi, o‘sha urushni aynan shunaqa ulug‘ vatan urushi deb atashgan va bu urush rus tarixida alohida o‘ringa ega. Stalin buni bilib turib, ataylab shu atamani tanlagan. Urushdan so‘ng sovet rejimi (bugungi Rossiya ham) 1939 yilgi voqealarni tarixdan o‘chirib tashlashga harakat qilgan va urush 1941 yilning yozida boshlanganini uqtirib kelgan. Natijada, o‘zbekistonliklarda ham urush 1941 yilning 22 iyunida boshlangani haqida xato tasavvurlar paydo bo‘lgan. Lekin bu tarixda bo‘lgan voqealarga ziddir.

Bu endi eng kulgili uydirma. Amir Temurning qabri haqida va uning urush arafasida ochilgani atrofida juda ko‘p afsonalar va ig‘volar yuradi. Go‘yoki, «urush ilohi» Amir Temurning qabrini ochishgani Gitlerning sovetlarga qarshi boshlagan hujumiga sabab bo‘lgan emish. Albatta, bu mayda irim, eski mafkuraviy demagogiya, Chingizxondan, Atilladan va Temurdan afsona yasash bilan bog‘liq yolg‘on.

Qolaversa, Gitler SSSRga qarshi «Barbarossa» rejasini 1940 yiliyoq ishlab chiqqan edi. Amir Temurning qabri esa Germaniya uchun sovetlarga qarshi hujum aniq maqsadga aylanganidan so‘ng ochilgan. [6]

Stalin o‘zbeklarni hurmat qilganidan urush yillarida Moskvada Alisher Navoiyga bag‘ishlab tadbir o‘tkazgani haqidagi cho‘pchak. Bu tarix ham aslida boshqacha bo‘lgan: Germaniyaning SSSRga hujumi Stalin uchun kutilmagan hodisa edi. Chunki, 1939 yili Stalin Gitler bilan ittifoq tuzib, Ikkinchi jahon urushini boshlagandi. Stalin uchun Gitlerning hujumi kutilmagan chaqiriq bo‘ldi. U birozgina avval, 1937 yilda sovet xalqlari bir qancha qatag‘onlar to‘lqinlarini boshdan kechirganini o‘ylab, ular endi SSSR uchun jonini berishga tayyorligiga ishona olmagan. O‘shanda Stalin Lenin va Marks uchun emas, boshqa milliy mafkura uchun xalqni urushga ko‘tarish lozim degan g‘oyani rasman oldinga tashlagan.

Sovet xalqlarining tarixiy va madaniy qahramonlarini tez orada rasman e’zozlash tadbirlari boshlangan, shular orasida Alisher Navoiyni ham alohida e’tibor bilan davlat darajasida ko‘tarishgan. Stalinga urushda g‘alaba kerak edi va buning uchun u ko‘p narsadan vaqtinchalik voz kechishga majbur bo‘ladi. Vaqtinchalik degan so‘zimizga asos bor: Masalan, Oybek domlaga «Alisher Navoiy» romani uchun 1944 yili mukofot berishgan bo‘lsa, urush yakunlanishi bilan, 3 yil o‘tar-o‘tmas Stalin rejimi Oybekni shu romani uchun jazolagan, Oybek «millatchilik, panturkizm, g‘ayrisovetchilik» degan ayblovlar bilan qatag‘onlarga uchragan. Alisher Navoiy ijodi ham tanqidga uchragan, navoiyshunoslik taqiqlangan va faqat Stalinning o‘limidan so‘ng tiklangan.

Ikkinchi jahon urushi janggohlarida 300 ming nafardan ortiq vatandoshimiz halok bo‘ldi, urush yillarida O‘zbekiston SSRga bir million nafarga yaqin kishi RSFSR, Ukraina, Belarus va Moldaviya SSRdan evakuatsiya qilindi. Ulardan ikki yuz mingga yaqini yosh bolalar bo‘lgan. Ularga 135 000 kv. metrdan ziyod yashash maydoni ajratilib, ish bilan ta’minlandi. O‘zbekiston hududiga 113ta harbiy gospital joylashtirilgan bo‘lib, ularga 750dan ortiq mahalliy korxona, muassasa, kolxoz va sovxozlar homiylik qildi.

Bundan tashqari, o‘zbek xalqi vakillaridan «Ishchi batalonlar» tuzilib, Rossiya hududiga jo‘natilgan. Ular orasida kasb-hunar bilim yurtini endigina tamomlagan o‘spirinlar ham bo‘lgan. Arxivdagi 1943 yilga taalluqli ma’lumotlarga qaraganda, o‘sha «Ishchi batalonlar» tarkibiga kiritilgan o‘zbeklar soni bir yuz ellik besh mingdan ziyod bo‘lgan. Bunday tuzilmalar yoshi katta kishilar, keksalar va «xalq dushmanlari»ning oila a’zolaridan tashkil topgan. Ishchi batalon ishtirokchilarining barchasi urushning noma’lum qahramonlari bo‘lib, sovet manbalarida ular yuzaki eslangan, aksariyat hollarda esa ko‘z yumib o‘tilgan. [7]

Biroq o‘zbek xalqining Ikkinchi jahon urushida ko‘rgan ulkan talafotlari behuda ketdi. Gap shundaki, Stalin boshchiligidagi sovet rahbariyati minnatdorlik

o‘rniga urush tugaganiga 3 yil bo‘lmay, O‘zbekistonga SSSRning qurolli vazirlik va idoralari vakillaridan tashkil topgan komissiyani yo‘llab, millat vakillari orasidan «xalq dushmanlari»ni aniqlab topishning navbatdagi jarayonini boshladi. O‘zbeklarga badaxloqlik darajasida ishonchsizlik bilan qaralib, ish bolsheviklarning maxsus organi yaratilishiga, ya’ni, VKPB Markaziy qo‘mitasining O‘zbekiston SSR bo‘yicha boshqarmasi tuzilishiga, boshqacha qilib aytganda, O‘zbekiston bevosita Moskvadan boshqarilishiga qadar borib yetdi. Ushbu boshqarmaga, amalda esa O‘zbekistonga rahbar etib A. Ignatev ismli shaxs tayinlandi (keyinchalik bu shaxs sovet KGBsini boshqardi). Millati o‘zbek bo‘lgan amaldor bor-ki, ishonchni oqlamagan toifa sifatida respublika rahbariyati tarkibida rasman qolgan bo‘lishiga qaramay, respublika rahbariyati tarkibidan amalda to‘la-to‘kis chiqarib tashlandi. Shu tariqa, urushda mislsiz qurbonliklar berganiga qaramay, sovet rahbariyati tomonidan butun boshli o‘zbek millatiga «ishonchsiz millat» tamg‘asi bosildi.

Dahshatlisi shundaki, yuqorida aytib o‘tilgan boshqarma yagona bo‘lib, unaqasi sovet respublikalarida bo‘lmagan. Ushbu boshqarma faoliyatining natijasi – Shayxzoda, Oybek, Hamid Sulaymon, Mirtemir, Shuhrat, Shukrullo, Said Ahmad, Muhiddin Qoriyoqubov kabi ko‘plab ko‘zga ko‘ringan o‘zbek ziyolilarini qatag‘on qilish bo‘ldi. Badiiy asar qahramoni,o‘zbek millatiga mansub qaynona o‘zining o‘ris kelinini koyib bergani uchun «Qo‘shchinor» muallifi Abdulla Qahhor millatchilikda ayblandi. Alisher Navoiyning asarlari bilan «Alpomish» eposi «o‘rta asrga xos eskirgan asarlar» sifatida bir chetga uloqtirildi, navoiyshunoslar «feodal o‘tmishni madh etish»da ayblandi. Shoshmaqom esa «motam, umidsizlik va dilgirlik kuyi» deya e’lon qilindi. Sovet rahbariyatining fikricha, bularning bari sovetlar yurtida kommunizm qurishga to‘sqinlik qilgan. Stalin boshchiligidagi rasmiy Moskva urushda ko‘rgan talafotlari uchun o‘zbek xalqiga shu tariqa «minnatdorchilik bildirdi».[8]

Ikkinchi jahon urushida O‘zbekistonning ishtiroki

Urush Sovet ittifoqining barcha mamlakatlari qatorida, O‘zbekistonni ham o‘z domiga tortdi. Yoshu qari, ayolu erkak urushga, urush uchun safarbar etildi. Ikkinchi jahon urushi millionlab begunoh insonlarning o‘limiga sabab bo‘ldi, mislsiz yo‘qotish va talafotlarga olib keldi. Olti yil davom etgan bu qonli urushda o‘sha paytda dunyodagi mavjud 73 ta davlatdan 62 tasi, Yer yuzi aholisining 80 foizi ishtirok etgan.

Yevropa, Osiyo va Afrika qit’alaridagi 40 ta davlatni bevosita qamrab olgan urush harakatlariga 110 million kishi safarbar etilgan va bu qirg‘inda jami 70 million kishi halok bo‘lgan. Eng ko‘p qurbonlar sobiq Ittifoq respublikalari hissasiga to‘g‘ri kelib, qariyb 27 million kishini tashkil etgan. Ma’lumki, 1941 yilda O‘zbekiston SSR aholisi 6 million 800 mingdan ziyod kishini tashkil etgan. Urush boshlanishi bilan

qariyb 2 million o‘zbekistonlik frontga otlandi. Ularning 500 mingdan ziyodi shafqatsiz janglarda halok bo‘ldi.

O‘sha g‘oyat og‘ir va suronli davrda yurtimiz frontning mustahkam ta’minot bazasiga aylandi, bu yerdagi sanoat korxonalari harbiy sohaga moslashtirilib, ularning faoliyati front ehtiyojlari uchun yo‘naltirildi. O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan yuzdan ziyod zavod va fabrikalarni tiklashda fuqarolarimiz bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdi.

Urush olovi ichida qolgan hududlardan yurtimizga 1,9 million nafardan ortiq kishi ko‘chirib keltirildi. Ularning 250 ming nafari bolalar edi. Xalqimiz ularga boshpana berib, so‘nggi burda nonini ham baham ko‘rib, ota-onasidan ajralgan bolalarni o‘z farzandlari qatori tarbiyasiga olib, butun dunyoga haqiqiy insonparvarlik fazilatlarini namoyish etdi.

Urush arafasida, ya’ni 1938 yili o‘zbek ziyolilarining 60 foizi qatag‘on qilingandi. Agar Stalin yana bir necha yil umr ko‘rganida, millat ziyolilari 100 foiz qirib tashlanishi muqarrar edi. Zero, Kreml qatag‘on qilinishi lozim bo‘lganlar ro‘yxatini tuzgan, unda ayrim shaxslardan tashqari, yana 60 kishining nomi qayd etilgandi. [9]

Stalinning o‘limidan so‘ng, 1953 yildan qatag‘on qurbonlarining nomlari oqlanishiga umid bag‘ishlagan siyosiy iliqlik davri boshlangandi. Ammo 60-yillar boshida o‘zbek tili va millat diniga qarshi navbatdagi kurash, paxta yakkahokimligi, yangi qurilgan uylar kalitining 90 foizi ko‘chirib keltirilganlarga topshirilgan Toshkent zilzilasi bo‘lib o‘tdi. Toshkent vayronalarini tiklash uchun 60-yillar oxirida yurtimizga SSSRning turli hududlaridan kelgan ishchilar «Paxtakor» stadionida o‘zining shovinistik tabiatini ochiqdan-ochiq namoyon qilgancha, o‘zbek millatini nihoyatda qo‘pol kamsitishdi. Bu esa, o‘z navbatida, respublika aholisining norozilik bildirgan ijtimoiy isyoni ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Lekin bu haqda biz hanuzgacha og‘iz ocha olmaymiz. Shundan so‘ng, Orol muammosi, butifos, saraton kasalligining ommaviy epidemiyasi, bola o‘limining sobiq SSSR bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichi kuzatildi, ayollar tomonidan o‘z joniga qasd qilishi bo‘yicha sobiq ittifoq miqyosida birinchi o‘ringa chiqish. Bularning bariga millat qoniga botgan oq oltinning yakkahokimligi sabab bo‘ldi. Bu asli, amalda Xalqlar do‘stligi tushunchasining «qadrini» bizga ko‘rsatib berdi. [10]

Xulosa: Ma’lum vaqt o‘tgach, Kreml tomonidan, sovet rejimining jinoiy illatlari uchun javobgarlik o‘zbeklarning gardaniga qo‘yilgan, millatimizni yanada sazoyi qilgan «o‘zbeklar ishi»ni qo‘zg‘atdi. Bunda, rasmiy Moskva biron-bir boshqa millatni ayblamadi, faqat «o‘zbeklar ishi» yuritildi. O‘sha davrda tabiati uyatdan yiroq bo‘lgan chekistlardan biri: «O‘g‘rilar, mafiyachilar va bosmachilar yashaydigan O‘zbekistonni tikanli sim bilan o‘rab tashlash kerak», deya taklif kiritgandi. Kremlning sadoqatli vakili bo‘lmish Rafiq Nishanov ushbu qabih

so‘zlardan to‘lqinlangancha, jo‘shib qarsak chaldi. O‘tgan asrning 40-yillari oxirida Kreml o‘zbeklarga ishonchsizlik bilan qaragan bo‘lsa, bunday qarash SSSR parchalanishi arafasida bolshevik-chekist Yuriy Andropov zamonida yana kuzatildi. O‘zbekning sovet tizimi uchun ko‘rgan ulkan talafotlari hech kimning esiga kelmadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

[1] Dadaboyev H.V. Harbiy san’at tarixi: QK harbiy bilim yurtlari uchun darslik. O’RMV № 4228- T. Harbiy nashriyot, 2014, -569 b. O‘quv fondi kutubxona.

[2] Kurganbekov M.M. Urushlar va harbiy san’at tarixi. Darslik QK Akademiyasi. № 3829-T. Toshkent talqin nashriyoti, 2006, -485 b. O’quv fondi kutubxona.

[3] Soxiboyev Z.E. Jahon urushlarida harbiy san’atning rivojlanishi:o’quv qo’llanma.- Chirchiq.Katta o’qituvchi, 2021.-148 b. O’quv fondi kutubxona.

[4] Soxiboyev Z.E. Harbiy tarix. Darslik. - Chirchiq.: Katta o’qituvchi, 2021.-304 b. O’quv fondi kutubxona.

[5] www.mudofaa.uzO’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi.

[6] http://- Ilmiy ta’lim tarmog‘i.

[7] http://txt.uz- yelektronnaya biblioteka.

[8] www.ziyonet.uz- Axborot ta’lim portali.

[9] http://www.uz- O’quv adabiyotlar portali.

[10] www.akad.uz- O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi rasmiy sayti.

VIRTUAL O‘QITISHNI ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLASH

Umaraliyev Baxodirjon Nabijonovich

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti dotsenti

Annotatsiya: *Tadqiqot mavzusining dolzarbligi ta’lim sohasini axborotlashtirish muammolari va o‘quv jarayonida virtual reallikni qo‘llashni ko‘rib chiqadigan o‘quv-uslubiy materiallarning yetishmasligi bilan bog‘liq. Virtual reallik raqamli iqtisodiyotning yuqori texnologik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, zamonaviy jamiyatda talabga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, ta’lim sohasida virtual reallikdan foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘lgan malakali kadrlar yetishmasligi kuzatilmoqda. Virtual reallik yordamida ta’limni axborotlashtirishning ba’zi muammolarini hal qilish mumkinligi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’limni axborotlashtirish, ta’lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot modellari, elektiv kurslar, loyihalar usuli, virtual reallik, masofaviy ta’lim, fanlararo aloqalar*

Аннотация: *Актуальность темы исследования обусловлена проблематикой информатизации сферы образования и недостатком учебно-методических материалов, рассматривающих применение виртуальной реальности в учебном процессе. Виртуальная реальность является одним из высокотехнологичных направлений цифровой экономики и становится востребованной в современном обществе. Вместе с тем наблюдается нехватка квалифицированных кадров, имеющих компетенции в использовании виртуальной реальности в сфере образования. Показано, что с помощью виртуальной реальности некоторые из проблем информатизации образования можно решить.*

Ключевые слова: *информатизация образования, образовательные технологии, информационно-коммуникативные технологии, информационные модели, элективные курсы, метод проектов, виртуальная реальность, дистанционное образование, межпредметные связи*

Kirish: Hozirgi vaqtda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ular inson qiziqib o‘rganadigan, uning bilim, ko‘nikma va malakalariga ta’sir ko‘rsatadigan sun’iy muhitlarni yaratish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu holat yangi o‘qitish texnologiyalarining paydo bo‘lishida o‘z aksini topdi.

VR (virtual reality - virtual reallik) texnologiyasi sezgi a’zolari orqali atrof-olamni bilishning odatiy usulini, tananing fazodagi harakatini saqlab qoladi. Ta’lim mazmunini 360 gradusli formatda taqdim etish talabalarga yanada realistik taassurot beradi. Kontent bilan bunday o‘zaro ta’sir, mavzuni real dunyoga chalg‘itmasdan chuqur tafsilotlar bilan o‘rganish konsentratsiya qobiliyati va o‘quv tajribasini yaxshilaydi, ularga evristik va yuqori darajada interaktiv modellashtirilgan virtual muhitni taqdim etadi. VR to‘liq sensorli tajribani taqdim etadi, bu orqali talabalar amalda teginishlari mumkin, sensorlar yordamida kontentni bir vaqtning o‘zida ko‘rish va eshitish. Shunday qilib, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ko‘rgazmalilik tamoyilining kuchayishi virtual muhitda mavjudlik effekti hisobiga sodir bo‘ladi [1].

VR texnologiyasi yaqinda ishlab chiqilgan degan noto‘g‘ri fikr mavjud. Dastlabki qadamlar 1956-yilda kinorejissyor Morton Xeylivg tomonidan sensorama yaratilishida qo‘yilgan. Biroq, 2012-yilda Oculus Rift tomonidan bu sohada portlovchi o‘sish sodir etildi. Ushbu loyiha qiziqish bildirgan internet foydalanuvchilarining pul badallari hisobidan kaudfanding platformasida yaratildi. U aynan videoo‘yinlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, loyihaning mashhurligi qisman shu bilan izohlanadi [2].

Virtual reallik qurilmalari tizimlari bir nechta toifalarga bo‘linadi:

1. Mobil garnituralar Smartfon sig‘adigan VR garniturasidan iborat ko‘p komponentli qurilma. U axborotga qisman ishlov beruvchi monitor va kompyuter vazifasini o‘z zimmasiga oladi.

2. Avtonom shlemlar Kompyuter yoki mobil telefonga ulanishni talab qilmaydigan yagona korpusdagi barcha texnik komponentlarni o‘z ichiga oladi. Yangi versiyalarda harakatlanish uchun treking, shuningdek, qo‘llarning o‘zaro ta’sirini taqlid qilish uchun kontrollerlar qo‘shildi.

3. Statsionar ko‘zoynak. Kompyuterga ulanishni talab qilishi bilan oldingi variantlardan farq qiladi. Biroq, shu tufayli ular eng yuqori mahsuldorlikka va immersivlik darajasiga ega [3].

AR (augmented reality - kengaytirilgan reallik) texnologiyasi raqamli formatdagi kontentni real foydalanuvchi muhitlariga yuklaydi. Axborot matn, tasvir, video, tovush va uch o‘lchovli model ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Odatda, u uchun proyektorli yengil ko‘zoynak yoki mobil telefon kamerasi ishlatiladi.

MR (Mixed Reality - aralash haqiqat) texnologiyasi VR va ARning birgalikda mavjudligi bo‘lib, haqiqatlar gibridini yaratadi. Garnitura atrofdagi dunyoni skanerlaydi, obyektlarni taniydi va ularning uch o‘lchovli modellarini yaratadi, bu esa virtual dunyo orqali real dunyo bilan o‘zaro aloqa qilish imkonini beradi [4].

VR yordamida o‘qitish talabaning virtual muhitda bo‘lishi orqali amalga oshiriladi. U ta’lim jarayonida turli faoliyat turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Bu, eng avvalo, hamkorlikdagi ishlarni ko‘proq reallik bilan tashkil etishga taalluqlidir. Virtual reallik yordamida turli obyektlar bilan "xato qilish huquqi" bilan ishlash bo‘yicha zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lish ham ta’minlanadi, bu esa talabalarni virtual va real dunyoni o‘rganishga undaydi. Birinchi shaxsdan ko‘rinish va to‘liq ishtirok etish hissi tashqi qo‘zg‘atuvchilarga chalg‘imasdan materialga e’tiborni qaratishga yordam beradi, bu esa ushbu texnologiyadan foydalangan holda o‘qitishning muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Virtual reallik texnologiyasi talaba oddiy hayotda o‘zaro ta’sir qila olmaydigan jarayonlarni: makro va mikro dunyo, tibbiy yordam ko‘rsatish



ko‘nikmalari, virtual laboratoriya, tarixiy voqealar, astronomiya, insonning ichki a’zolari, ishlab chiqarish jarayonlari, baxtsiz hodisalarni bartaraf etishni ko‘rgazmali, batafsil va interaktiv tarzda o‘rganish imkonini beradi.

Virtual reallik jadal rivojlanayotgan masofaviy ta’limda qo‘llanilmoqda. Har bir ta’lim oluvchi avatar ko‘rinishidagi o‘z-o‘zini taqdim etish elementiga ega bo‘ladi va virtual auditoriyada ishtirok etadi [5].

Virtual reallikni qo‘llash o‘qituvchilar va talabalar tomonidan o‘z interaktiv ta’lim kontentini yaratishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Masalan, virtual reallik shlemi tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlarni o‘rganishda. Xususan, talabalarning virtual laboratoriyadagi faoliyatini tashkil etish, loyiha usulini amalga oshirish, shu jumladan, imkoniyati cheklangan talabalar uchun, shuningdek, o‘quv jarayonini geymifikatsiya qilish imkonini beradi [6].

Virtual reallikni ta’lim jarayoniga tatbiq etish borasida turli tadqiqotlar olib borilgan. Odatda ularning quyidagi afzalliklari ajratib ko‘rsatiladi:

1. Motivatsiya. Odatda, talabalarning virtual reallikni qo‘llashga bo‘lgan yuqori darajadagi faolligi, qiziqishi qayd etiladi. Bir qator sabablarga ko‘ra ilgari batafsil ko‘rib chiqilmagan modellar ham vizualizatsiyaga uchraydi. Obyektni yirik planda, turli nuqtayi nazardan batafsil ko‘rib chiqish materialning ko‘rgazmaliligini, tushunish va eslab qolish sifatini sezilarli darajada oshiradi [7].

2. Xavfsizlik. Virtual reallik texnologiyasi va unga mos dasturiy ta’minot fizika, kimyo va boshqa fanlardan laboratoriya ishlarini bajarishda faol qo‘llanilmoqda. Shunday qilib, virtual muhitda kimyoviy reaktivlar va asbob-uskunalar bilan o‘quvchilar sog‘lig‘iga xavf tug‘dirmagan holda interaktiv o‘zaro ta’sir amalga oshirilishi mumkin.

3. Bilim sifati. O‘qitish samaradorligi va tegishli interfaollik ta’lim oluvchilarni real vaziyatda, turli axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlashga yuqori darajada tayyorlashni ta’minlaydi, bashorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va biror bir protsedurani bajarish algoritmini mustahkamlaydi.

4. Immersion. VR-shlem kabi garnituraning qo‘llanilishi foydalanuvchining e’tiborini virtual reallikka to‘liq qaratadi. Shunga ko‘ra, barcha e’tibor vizuallashtirilayotgan obyektga qaratiladi, bu esa o‘quvchining o‘quv materialini o‘zlashtirish sifatiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu texnologiya bugungi kunda faol rivojlanayotgan va innovatsion hisoblanadi. Uni ta’limda qo‘llash ma’lum qiyinchiliklarga ega:

1) auditoriya jihozlari,
2) ta’lim mahsulotlari.

Apparat qurilmalari va dasturiy ta’minot narxlarining keng tanlovi mavjud, jumladan, pullik, shartli bepul va bepul variantlar. Oliy o‘quv yurtidagi zamonaviy darslarda yanada samarali ta’lim olish uchun, ayniqsa, zamonaviy multimedia

texnologiyalarini o‘qitishda virtual reallikdan foydalanish mumkin. Multimediali, immersivlik darajasi yuqori bo‘lgan, ta’limiy kontent ta’limning sifat darajasiga hissa qo‘shadi [8].

Ta’lim dasturi talabalar uchun loyihalashtirilgan elektiv kurslar doirasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan doimiy to‘ldirishni talab qiladi. Elektiv kurslar yordamida nafaqat ta’lim natijalarini yaxshilash, balki axborotlashtirish zamonaviy jamiyat oldiga qo‘yayotgan muammolarning keskinligini qisman bartaraf etish mumkin.

Elektiv kurslarning bir necha turlari mavjud. Predmetli kurslar tayanch o‘quv fani bo‘yicha bilimlarni rivojlantirish va chuqurlashtirishga qaratilgan, fanlararo kurslar esa bir nechta fanlarning bilim va ko‘nikmalarini qo‘llashni talab qiladigan vazifalarga sho‘ng‘itadi. Yo‘naltiruvchi kurslar kasbiy mansublikda o‘zini o‘zi aniqlashga yordam beradi. Metodik tavsiyalar o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy usullari va vositalarini tavsiflaydi.

Kurslar zimmasiga ularning ish yo‘nalishini belgilovchi bir qator vazifalar yuklatilgan. Ular o‘quvchilarning qobiliyatlari, moyilliklari va ehtiyojlariga, shuningdek, muayyan kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan keyingi ta’limning mumkin bo‘lgan yo‘nalishini tanlash uchun sharoit yaratishga asoslanadi. Elektiv kurslarda ishtirok etish nafaqat tayanch fan mazmunini rivojlantirishga, imtihonlarni topshirish, shuningdek, mehnat bozorida va kasblarda ko‘tarilish, talaba shaxsining ijtimoiylashuvini rivojlantirish, hayotiy o‘z taqdirini o‘zi belgilash uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni egallash. Shu sababli, ta’lim muassasasining eng muhim vazifalaridan biri talabalarning ta’lim kompetensiyalarini samarali shakllantiradigan yetarli miqdordagi elektiv kurslarni taqdim etishdir.

Elektiv kurslarning afzalligi ularni ishlab chiqishda barcha mavjud axborot resurslariga murojaat qilish imkoniyatidir. Fan chegaralarining kengayishi bitta o‘quv predmeti doirasidan tashqariga chiqadigan yoki bir nechta o‘quv predmetlari tutashgan joyda joylashadigan mazmun birliklari hisobiga yuz beradi. Mazmun birinchi navbatda qo‘yilgan vazifalarga mos kelishi kerak. Talabalarga taklif etilayotgan material ma’lum darajada yangilikka ega bo‘lishi, rivojlantiruvchi salohiyatga ega bo‘lishi va resurslar nuqtayi nazaridan real bo‘lishi kerak.

Elektiv kurs vositalari loyiha metodi bilan birgalikda samarali qo‘llaniladi. Elektiv kurs doirasida o‘quv loyihasini ishlab chiqish talabalarning bilish faolligini rag‘batlantiruvchi maqsadli faoliyat hisoblanadi. Bu holda bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil ravishda egallash bilishning asosiy vositasi bo‘lib qoladi. Loyihalar metodi ta’lim jarayoni ishtirokchilarining tadqiqotchilik va ijodiy faoliyatiga asoslangan bo‘lib, tadqiqot ishlari talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, rivojlanish va ijtimoiylashuv uchun sharoit yaratishga imkon beradi.

Bu talabalarning nazariy bilimlari va faoliyatini, kommunikativ ko‘nikmalarni amalga oshirishni birlashtirish imkonini beradi. Kursni o‘tash natijalari pedagogik diagnostika vositalari bilan baholanishi mumkin.

Elektiv kurslarning natijalaridan biri talabalar tomonidan virtual voqelikning o‘z loyihalarini yaratish bo‘lishi mumkin, bunday loyihalar mamlakatning yetakchi texnika oliy o‘quv yurtlarida va universitetlarning tegishli fakultetlarida amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, elektiv kurslar o‘quv ishlarining samarali va zarur bosqichidir. Ular individual va jamoaviy ishlash, zamonaviy jamiyat rivojlanishining so‘nggi tendensiyalariga moslashish, yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish va bajarilgan ishlarni tahlil qilish kabi zarur ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi [9]. Yangi axborot texnologiyalari bilan bog‘liq holda elektiv kurslarni o‘tkazish va ular doirasida talabalar loyihalarini bajarish o‘quv jarayonini axborotlashtirish muammolarini qisman hal qiladi.

Xulosa: Axborotlashgan jamiyat davrida mehnat bozorini o‘zgartirayotgan va ta’lim sohasida o‘z aksini topayotgan turli xil texnologik tendensiyalar mavjud. O‘qitishning urg‘usi hodisa va jarayonlarni chuqur tushunish, tanqidiy fikrlash, talabalarda yechimlarni izlash va ma’lumotlarni tahlil qilish ko‘nikmalari, ijodkorlik, mustaqil tadqiqot, hamkorlikka o‘zgardi. Ta’limni axborotlashtirish barcha ta’lim oluvchilar uchun yagona ta’lim standartidan sifat jihatidan yangi bilim darajasiga ega bo‘lgan har bir kishining shaxsiy imkoniyatlariga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish imkonini beradi. Ta’lim sohasida virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish ko‘plab afzalliklar bilan asoslanadi. OTMning vazifasi ta’lim manfaatlari yo‘lida innovatsion mahsulotlardan kerakli miqdorda foydalanishdir. Bu XXI asrning axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, texnologik ko‘nikmalar, ijodkorlik kabi kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega [10], ammo muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirish uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganishni talab qiladi**.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Volkova M.V. Informatizatsiya kak osnovnaya tendensiya sovremennogo obrazovaniya i yee vliyaniye na izmeneniye roli pedagoga / M.V. Volkova // Sovremennaya nauka: aktualnie voprosi, dostijeniya i innovatsii. - 2020. - S. 1.52-155.

2. Dautova O.B. Obrazovatelnaya kommunikatsiya. An’anaviy va innovatsion texnologiyalar / O.B. Dautova - FGOS MCHJni joriy etishning Peterburg vektori. - Tashkent, 2022. - 176 b.

3. Robert I.V. Razvitiye informatizatsii obrazovaniya na osnove sifrovix texnologiy: intellektualizatsiya protsessa obucheniya, vozmojnie negativnie posledstviya / I.V. Robert// Nauka o cheloveke: gumanitarnie issledovaniya. 2017.

No4 (30). Rejim dostupa: https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-informatizatsii-obrazovaniya-na-osnove-tsifrovyh-tehnologiy-intellektualizatsiya-protsessa-obucheniya-vozmozhnye (data obrasheniya: 14.04.2020).

4. Muradova F.R. O‘yin texnologiyalari informatika darslarida o‘quvchilarni o‘qitishning samarali usullaridan biri / F.R. Muradova, R.J. Kadirov // Magistratura axborotnomasi. - 2019. - No1. 4-3. - B. 60.

5. Решетюк Е.Г. Исползование метода проектов на занятиях по информатике как средство формирования учебно-познавателной компетентности учащихся / Е.Г. Решетнюк // Наука, техника и образование. - 2019. - Но1. 3 (56).

JADIDLARNING MARKAZIY OSIYODA IJTIMOIY-MADANIY SOHALAR ISLOHOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

dotsent XUDAYAROV A.Sh.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida “jadidchilik” deb nomlangan milliy-taraqqiyparvarlik harakatining tarixiga bag‘ishlangan masalalar yoritilgan. Shuningdek, ma’rifatparvarlikdan tortib, to kuchli siyosiy harakatgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, O‘rta Osiyo, yangi usul maktablari, xalq ta’limi, milliy-ma’rifatparvarlar*

Аннотатсия. *В данной статье освещаются вопросы, связанные с историей национально-прогрессивного движения «джадидчи» в конце XIX - начале XX веков. Также показаны этапы развития от просвещения до сильного политического движения.*

Ключевые слова: *модернизм, Центральная Азия, новомодные школы, народное образование, народные просветители.*

Abstract. *This article deals with the history of the national-progressive movement called "Jadidism" in the late XIX - early XX centuries. It also outlines the stages of development from enlightenment to strong political action.*

Keywords: *Jadidism, Central Asia, New Methodist Schools, Public Education, National Enlightenmen*

XIX-XX asr oralig‘ida Tataristonda paydo bo‘lgan jadidchilik harakati, keyinchalik Buxoro, Xiva va Turkistonga yoyildi. Jadidlar maktab, maorif, adabiyot va san’at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshirish bilan birga, xalqning madaniy, ma’rifiy jihatdan ham ongini o‘stirishga katta e’tiborlarini qaratdilar. O‘rta Osiyo xonliklarida ruslashtirish siyosatining boshlanishi milliy ziyolilarning asosli ta’sirlanishlarga sabab bo‘ldi. O‘rta Osiyoda milliy ziyolilarning va mulkdorlar qatlamining bir qismi jadidchilik harakatining ijtimoiy tayanchi bo‘ldilar. [1].

Jadidchilik harakati dastlab, musulmonlar uchun yevropacha ta’lim tizimini olib kirish zaruriyati bilan, eski musulmon ta’lim tizimini isloh qilish ortida boshlangan madaniy harakat edi.



Jadidchilik harakatining asoschisi, targ‘ibotchisi Ismoil Gasprinskiy, Qrimdagi musulmon diniy maktabida, Simferopol davlat erkaklar gimnaziyasida, Voronej harbiy bilim yurtida, keyinchalik Ikkinchi Moskva harbiy gimnaziyasida ta’lim olgan. 1883-1914 yillarda Boxchasaroyda “Tarjimon” gazetasini nashr ettirdi.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonda ma’rifatparvarlik g‘oyalarining asosiy kuychisi bo‘lgan jadidchilarning dasturi quyidagicha edi:

birinchidan, musulmon xalq ta’limida islohotlar olib borish va madaniyat, fan va texnika hayotiy muhim bo‘lgan sohalarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash;

ikkinchidan, tayyorlangan yuqori malakali mutaxassislardan Turkistonning iqtisodiyoti, sanoati va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda foydalanish;

uchinchidan, xalqning turmush darajasini ko‘tarish va farovonligini oshirish;

to‘rtinchidan, milliy sarmoyani shakllantirish, mulkdorlar va boy odamlarning ko‘payishiga ko‘mak berish;

beshinchidan, malakali mahalliy mutaxassislar yordamida jamiyat va davlat hayotida tub islohotlarni amalga oshirish.

Jadidlar harakatining ahamiyati shu bilan ham muhimki, ular nafaqat eskirgan musulmon xalq ta’limini tizimini isloh qilibgina qolmasdan, milliy nashr, adabiyot va teatrga ham asos soldilar. [2].

Ma’lumki, Turkiston adabiyotining ildizlari bir necha asr qadimiy davrlarga borib taqaladi. Biroq, XX asrga kelib xalqning haqiqiy hayotini, ularning tashvishlari, orzu-umidlarini aks ettirgan, xalqni uyg‘otishga qodir bo‘lgan adabiyotni yaratishga ehtiyoj sezildi. Jadidchilar til bo‘yicha, mazmun mohiyati bo‘yicha xalqqa yaqin ana shunday adabiyotni yaratdilar.

Yangi adabiyotning asoschilari bo‘lgan Fitrat va Cho‘lpon birinchi bo‘lib aruzning an’anaviy she’riy vaznidan voz kechib, og‘zaki xalq she’riyatiga xos,barmoq vazn she’riyatiga murojaat qildilar. Vatanparvarlik va ozodlik g‘oyalari bilan kuylanganbu she’rlar, xalq ommasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlarning ma’rifatparvarik, mustamlakachilikka qarshi vahurriyatparvarik g‘oyalari nafaqat she’riyatda, balki nasrda ham yorqin gavdalantirildi. Shunisi ahamiyatliki,

M. Behbudiy publitsist va noshir sifatidako‘rinishdan oldin, birinchi o‘zbek pesasi “Padarkush”ni (1911 y.) yozdi. Mazkur pesa 1913 yilda sahnaga olib chiqilib, o‘zbek teatriga asos solindi. Teatrning ahamiyatini, tomoshabinlarga ta’sirini yaxshi bilgan M. Behbudiy va uning izdoshlari 1910 yillarda o‘sha zamonning dolzarb mavzularida, giyohvandlik, to‘y-hashamlarning xalq uchun xonavayron xarajatlari, feodal-boylarning ayollarga munosabati va ma’rifatsizlikning fojiali oqibatlari va h.k. yoritilgan o‘ndan ortiq pesalar yozdilar.


Mahmudxo‘ja Behbudiy.

Bu pesalar asosida sahnalashtirilgan spektakllar tomoshabinarlarda katta akssado berdi. Birinchi jadid teatr truppasi,teatr – bu keng ommaga mo‘ljallangan adabiyot, spektakl esa – voqea-hodisalar sahnada bo‘lib o‘tadigan roman ekanligini ko‘rsatib berib, o‘zining spektakllari bilan butun Turkiston o‘lkasini aylanib chiqdi. [3].

Yuqorida qayd etilganidek, 1917 yilga qadar jadidchilik harakatining dasturi yo‘q edi. Fitratning “Munozara” va “Sayyoh hindi” asarlari 1917 yilgacha jadidchilarning norasmiy dasturi bo‘lib xizmat qilgan. 1917 yilda Fitrat ishtirokida yozilgan “Buxoroda yosh buxoroliklar qo‘mitasi loyihasi” bizgacha yetib kelgan noyob yuridik hujjat hisoblanadi. “Yer-suv masalalari”, “vaqf yerlari” “Harbiy ishlar”, “Moliyaviy ishlar”, “Ichki ishlar” va boshqa masalalarni o‘z ichiga olgan, 13 bo‘limdan iborat mazkur loyiha hujjati, hokimiyatni qo‘lga kiritishni va keyinchalik o‘lkani boshqarishni maqsad qilgan yosh buxoroliklar partiyasining siyosiy dasturiga o‘xshab ketadi.

Loyihada jadidlarning asosiy faoliyati bo‘lgan ma’rifatga ham katta e’tibor qaratilgan.

“Mamlakatda davlat mablag‘lari hisobiga ochilgan barcha ta’lim muassasalarini boshqarish uchun, - deb yozadilar, “Loyiha” mualliflari, - masalan, o‘qituvchilarni tayinlash, oliy ta’lim muassasini ochish, dasturlar tuzish va h.k. uchun maorif vaziri tayinlanishi lozim.

Davlat va vaqf maktablaridan tashqari, har kim maktab ochishi mumkin. Bunga to‘sqinlik qilishga hech kimning haqqi yo‘q. Ta’lim muassasalarini tamomlaganlarga Oliy pedagogika kengashining ishtiroki bilan maorif vaziri belgilangan diplomlarni topshiradi. Masalan, mulla, o‘qituvchi, mufti, qozi (sudya) va b. toifasiga mansublik diplom.”

Ma’rifatparvarlik maqsadlaridan siyosiy vazifalarga o‘tganbuxorolik jadidlar safida yuzaga kelgan vaziyatni anglash uchun Fitrat bilan birga yosh buxoroliklar

firqasini boshqargan Fayzulla Xo‘jaevning “Buxoroda inqilob tarixiga doir” kitobiga murojaat qilish zarur. [4].

“Buxoro jadidchilik harakatini nazarda tutib, - deb yozadiFayzulla Xo‘jaev, jadidchilik harakati, 1914-1915 yillarda inqirozni boshidan o‘tkazdi. Ikki tomonlama senzura bosimi ostida nashr etilayotgan gazeta va jurnallar yopib qo‘yildi va qonuniy jamoaga amir ma’muriyatining asossiz ayblovlari kuchaytirildi.

Istambul va Orenburg shaharlaridan o‘qishdan qaytgan ko‘pgina yoshlar, siyosiy vazifalarni aniq shakllantirib, siyosiy talablarni ilgari surishni taklif etishlari ham bu hodisalarga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Bu yangi talablar jadidchilik harakatida dastlabki tabaqalanishni keltirib chiqardi.

Birinchi tabaqa, eski fikr mulohazalarni o‘zida saqlagan qator jadidchilar.

Ikkinchisi esa, asosan yoshlardan tarkib topgan chap qanot”.

Toshkentlik va farg‘onalik jadidchilarning buxorolik safdoshlaridan farqi, 1914-1915 yillarda inqiroz vaziyatida emas edilar.

Cho‘lpon, Tavallo, Avloniylarning eng yaxshi she’riy va nasr asarlarini “Sadoi Turkiston” va “Sadoi Farg‘ona” gazetalarida nashr etildi. Behbudiy, Xo‘ja Muin, Nusratulla Qudratulla kabi yozuvchilarning pesalari asosida sahna ko‘rinishlari namoyishini amalga oshirdi. 1916 yil qo‘zg‘oloni bilan bog‘liq mitinglar va namoyishlar, jadidchilik harakatiga katta jo‘shqinlik berdi. Aynan o‘sha vaqtda jadidchilar to‘la ma’noda ezilgan xalq manfaatlarining ifodachisi bo‘ldi [5].



Oktabr inqilobidan keyin, jadidlarning tashabbusi bilan 1917 yil Qo‘qonda Turkiston avtonom hukumati o‘rnatilganligi e’lon qilindi. Fitrat Turkiston muxtoriyati e’lon qilingan 27 noyabr tunini “milliy laylatulqadrimiz” deb atadi. Biroq 1918 yilning fevralida sovet qo‘shini avtonom hukumatni tor-mor etib, jadidchilarga qaqshatgich zarba berdi. Natijada, 1920 yildan keyin ularning bir qismi bolsheviklar tomoniga o‘tishga majbur bo‘ldi. Jadidlarning qolgan qismi sovet muassasalarida ishlasada, o‘zlarining g‘oyalariga sodiq qolgan xolda vazifasini bajarishni davom ettirdi. Jadidlar 1920 yillarning boshida “Nashri maorif” jamiyatini tuzib, madaniy merosni – kitoblar, qadimiy yodgorliklar, amaliy san’at asarlari va h.k. yo‘q qilishga yo‘l bermaslikka harakat qildi.

Sovet tarixchilari jadidlarni millatchilikda, rus xalqiga nisbatan yomon ko‘rish ruhida tarbiyalanganligida, xalq ommasidan uzoqlashganlikda, milliy

burjuaziyani qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan intilishda ayblaydi. Agar bu haqiqat bo‘lganda, unda Turkiston avtonom hukumati tarkibida na rus, yahudiy, polyak, qozoq millatiga mansub hech kim bo‘lmas edi; Munavvarqori Abdurashidxonov, Salimxon Tillaxonov, Fitrat, Cho‘lpon, Botu va b. rusayollariga uylanmas edi. M. Behbudiy o‘zbek va fors tillaridan tashqari, rus va yevropa tillaridan yana bitta tilni o‘rganishni nazarga tutib, “ikkita emas, to‘rtta tilni o‘rganish lozim” degan shiorni ko‘tarib chiqmas edi [6].

Sobiq jadidlar Fayzulla Xo‘jaev, Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar, maorif, fan, madaniyat, qishloq xo‘jaligi va b.sohalardayuqori malakali milliy kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratdi. Mazkur maqsad bilan 20 – yillarning boshida Germaniyaga iqtidorli o‘g‘il qizlarni o‘qishga yubordi. Buxoro va Turkiston respublikalari boshliqlari Fayzulla Xo‘jaev va Turar Risqulov va b. 1922-1923 yillarda Germaniyaga tashrif buyurib, turkistonlik yoshlarning hayoti bilan qiziqib, muvaffaqiyatli ta’lim olishlariga doimo g‘amxo‘rlik qildilar. Biroq, bolshevik boshliqlari tomonidan sobiq jadidlarning faoliyatiga nazorat kuchaytirildi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919 yilda o‘zining do‘sti Mardonquli bilan Parijga konferensiyada ishtirok etish uchun jo‘naydi. Ular Buxoro amirligi hududida hibsga olinadi va amir jallodlari tomonidan o‘ldiriladi. Muxtoriyatning boshqa a’zolari Ubaydulla Xo‘jaev, Saidnosir Mirjalilov va “Milliy ittihod” maxfiy tashkilotining boshlig‘i Munavvarqori Abdurashidxonov va b. 1923 yildan boshlab qatag‘onga uchraydi.

Ubaydulla Xo‘jaev qariyib 1 yil tatar siyosiy arbobi Ilyas Alqin bilan birga Butirskoy qamoqxonasida hibsda saqlanadi. Munavvar qori Abdurashidxonov 1929 yilning oxirida “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot boshlig‘i sifatida ayblanadi. 1930 yilda do‘sti Salimxon Tillaxonov, Said Axroriy va b. bilan birgalikda otib tashlanadi va Vagankov qabristonida maxfiy ko‘milgan. 1937 yilning oxirlarida, davlat arboblari Fayzulla Xo‘jaev, Turor Risqulov, Alixon Buklixonovlar horij razvedkasi ayg‘oqchisi ayblovi ostida, millatchi, pantyurkchi, sovet hokimiyati siyosatiga qarshi yetuk kurashchi sifatida ko‘zga ko‘ringan yozuvchilar, olimlar, Abdurauf Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Bulat Solievlar otib tashlandi. Shunday qilib, 30 yillarning oxiriga kelib turkiston jadid harakatining otib tashlanmagan bironta arbobi qolmadi. Bu barcha mashhur yozuvchilar,

ma’rifatparvarlar, pedagog va madrasa o‘qituvchilari SSSR NKVD qo‘li bilan yo‘q qilindi [7].

Turkistonning Rossiyaga qo‘shib olinishi o‘lka iqtisodiyotini yuksaltirishda xonlik tuzumiga nisbatan birmuncha qulay zamin yaratdi. Mahalliy aholining turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida bank, vokzal, bosmaxona, zavod kabi yangiliklar kirib kela boshladi. Temir yo‘llar qurildi, yangi iqtisodiy aloqalar paydo bo‘ldi, litografiyalar vujudga keldi. Turkistonda jadidlarning taraqqiyparvar



vakillari tomonidan «Tarbiyati atfol», «Umid», «Nashri maorif», «Barakat», «G‘ayrat», «Taraqqiy parvar» kabi dastlabki ijtimoiy-siyosiy, ilmiy jamiyatlar tuzildi. Bu jamiyatlar gazeta va jurnallar chop etib xalqning ma’naviy ongini oshirishga va mafkuraviy salohiyatini ko‘tarishga intildi. Jadidlarning bevosita rahbarligida Toshkentda «Taraqqiy», «Shuhrat», «Xurshid», «Sadoyi Turkiston», Samarqandda «Samarqand», «Oyna», «Hurriyat», «Shu’lai Inqilob», «Mehnatkashlar tovushi», «Bolalar yo‘ldoshi», «Tayoq majmuasi», davriy «Sharq», «Yosh kuch», «Zarafshon», Buxoroda «Turon», «Buxoroi Sharif», Qo‘qonda «Sadoyi Farg‘ona» kabi o‘nlab gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘z davrining ijtimoiy-falsafiy tafakkuri milliy ozodlik xarakteriga ega bo‘lgan. Shunday vaziyatda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy harakatlardan biri – jadidlik vatanni mustaqillikka olib chiqish va milliy o‘zlikni anglash tadbirlaridan biri edi. Ma’lumki, milliy o‘zlikni anglash muayyan millatning ijtimoiy-tarixiy, ma’naviy-madaniy hayotini, qadriyatlarini, shuningdek, tabiatini bilishdir. Jadidlik mana shunday maqsadlarni ko‘zlab shakllandi va rivojlanib bordi [8].

Turkistonda milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash g‘oyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan maqsadni ilgari surdi. Bu

harakatni biz jadidlarning Chor Rossiyasining tajovuziga qarshi qaratilgan kurashida ko‘rishimiz mumkin. Jadidlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini angladi. Bu g‘oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga chorladi.

Jadid bobolarimizning fikr-g‘oyalari mana bir asr bo‘libdiki o‘z ta’sirini yo‘qotgani yo‘q. Bugungi kunda insoniyat inqirozlar qurshovi va ekologik muammolar tahlikasida qolgan, bu ham yetmagandek, dunyo yoshlari ishsizlik, ochlik va axloqiy qashshoqlik kabi illatlarga mubtalo bo‘lib turgan vaqtda biz hali ham ba’zi mayda ikir-chikirlar xaqida bahsdamiz. [9].

Xulosa: Turkistonda jadidlik harakatining oqibatlari o‘ta fojiali bo‘ldi. Jadidlarning o‘zi qatag‘onga uchradi va yo‘q qilindi. jadidchilik harakatiga bolsheviklar tomonidan barham berildi. Chunki jamiyatni mustamlakachilik asoratidan olib chiqishvamilliy-davlat qurilishi konsepsiyasi ilgari surilgan bo‘lib, bu sovet tuzumiga va uning qulashiga tahdid solayotgan edi. O‘zining fojiali yakuniga qaramasdan, jadidlar tomonidan asos solinganmilliy ozodlik harakatlari, milliy o‘zlikni anglashning o‘sishiga ko‘mak berdi. milliy ozodlik g‘oyalarining shakllanishi va rivojlanishida katta rol o‘ynadi. Jadidlarning ta’limoti haqiqiy edi, barcha ilg‘or va hur fikrlovchi yoshlarni o‘ziga jalb etdi.Jadidlarning shak-shubhasiz tarixiy xizmati, ularning ma’rifatparvarlikdan boshlab, jamiyatni isloh qilishga urinishlari, taraqqiyot uchun eng muhim deb hisobladilar. Ularning shiorimilliy doirada chegaralanib qolmaslik va shu bilan birga buyuk vatanparvarlik va o‘z mamlakatiga muhabbat qo‘yish, mustamlakachilik asoratidan qutilish istagi ularni oqilona harakatlarga undadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1].Q.Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003.

[2].Tulak. I. XX asr o‘zbek adabiyoti. –Andijon, 1993.

[3].B.Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002.

[4].Sh.G‘affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta’lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 200.

[5].E.Tog‘aev. va boshqalar. Darsda jadidchilik va uning mohiyatini o‘rganish.// «Xalq ta’limi», 1993, 1-son.

[6].Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet, 1999.

[7].Hoji Muin. Oila tarbiyasi. «Mehnatkashlar tovushi» gazetasi, 1918 yil 9 iyul.

[8].B.Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002.

QAHRAMONNING O‘CHMAS CHIROG‘I: LEYTENANT SAYYOR SADINOVNING HAYOT YO‘LI, HARBIY FAOLIYATI VA JASORATI

Babadjanov Xasan Baxtiyorovich

«G‘alaba bog‘i» yodgorlik majmuasi

Sayyor Saidovich Sadinov 1976 yil 18 noyabrda Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani Payshanba posyolkasida tug‘ilgan. Uning ota-onasi tibbiyot sohasida faoliyat yuritgan. Otasi Said Sadinov Nurobodning Jom qishlog‘idan, onasi Roziya opa esa Pastdarg‘om tumanidan edi. Sayyor oilada uchinchi farzand sifatida dunyoga kelgan. 1987 yil 26 oktabrda otasi Said Sadinov avtohalokat natijasida vafot etgach, besh nafar farzandni tarbiyalash va voyaga yetkazish mas’uliyati Roziya opa zimmasiga tushdi. Oilaviy sharoit tufayli Sayyor bir necha marta yashash joyini o‘zgartirgan va turli maktablarda tahsil olgan. 1993 yilda Samarqand shahridagi 9-son o‘rta maktabni tamomladi.

Sayyor yoshligidan jismoniy tarbiya va sportga qiziqqan. Ayniqsa, karate bilan shug‘ullangani, sport musobaqalarida faol ishtirok etgani uning jismoniy jihatdan baquvvat, epchil va chidamli bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Maktabdagi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi Ixtiyor Saksonovning xotiralariga ko‘ra, Sayyor sport musobaqalarida doimo faol ishtirok etgan va g‘oliblik uchun intilish bilan ajralib turgan.

1995 yil 14 mayda Sayyor Sadinov 64411-sonli harbiy qismda harbiy xizmatni boshladi. Xizmat davomidagi intizomi, jismoniy tayyorgarligi, maqsadga intilishi va qat’iyatliligi tufayli u safdoshlari orasida ajralib turdi. 1995 yil 5 noyabrda kichik serjant etib tayinlanishi uning xizmatdagi dastlabki muvaffaqiyatlaridan biri bo‘ldi. Sayyor Sadinov muddatli harbiy xizmat davrida jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida faol ishtirok etdi. Tog‘li hududlardagi mashg‘ulotlar, quroldan o‘q otish va boshqa maxsus tayyorgarlik jarayonlarida u doimo ilg‘orlar safida bo‘lishga intildi. Muddatli harbiy xizmatni katta serjant unvonida yakunlagach, shartnoma asosida harbiy xizmatni davom ettirdi.

1996 yilda 94028-sonli harbiy qismda xizmatini davom ettirgan Sayyor Sadinov guruh komandiri o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi. Keyinchalik maxsus otryad katta mutaxassisi, 1999 yildan esa maxsus operatsiyalar bataloni guruh komandiri lavozimlarida faoliyat yuritdi. U qo‘l ostidagi shaxsiy tarkibning jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarligiga jiddiy e’tibor bergan. Talabchanlik va adolatli munosabatni uyg‘unlashtira olgani tufayli safdoshlari orasida hurmat qozondi. Komandir sifatida u harbiy mahoratni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy harakatlar orqali namoyish etishga intildi.

Sayyor Sadinov AQShning Kentukki shtatida o‘tkazilgan «Ultrabalans–99» qo‘shma harbiy mashg‘ulotlarida ham ishtirok etib, o‘zining yuqori kasbiy tayyorgarligini namoyon qildi va qo‘mondonlik tomonidan maxsus minnatdorchilik

bilan taqdirlandi. 1999 yil sentabrda unga dastlabki kichik leytenant ofitserlik unvoni berildi. O‘zbekiston hududida terrorchi guruhlarga qarshi o‘tkazilgan maxsus operatsiyalardagi ishtiroki va jasorati tufayli unga muddatidan avval leytenant unvoni berildi.

1999 yilda O‘zbekiston hududiga bostirib kirgan jangarilarga qarshi olib borilgan jangovar harakatlar Sayyor Sadinovning harbiy faoliyatida muhim o‘rin egalladi. Ushbu operatsiyalarda ko‘rsatgan mardligi uchun 2000 yil 13 yanvarda «Jasorat» medali bilan taqdirlandi. Sayyor Sadinovning tabiatan kamtarligi tufayli o‘zining harbiy xizmatdagi muvaffaqiyatlari va mukofotlari haqida yaqinlariga batafsil ma’lumot bermagani onasining xotiralarida ham qayd etiladi. Roziya opaning eslashicha, u o‘g‘lining «Jasorat» medali bilan taqdirlanganini «Vatanparvar» gazetasida e’lon qilingan maqola orqali bilgan.

2000 yil avgust oyida Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlariga terrorchi guruhlarning bostirib kirishi bilan bog‘liq jangovar harakatlarda Sayyor Sadinov ham ishtirok etdi. Jangovar operatsiyalardan birida qo‘shni guruh komandiri dushmanning qarshiligini bartaraf etish uchun qo‘shimcha kuch so‘radi. Operatsiya rahbariyati mazkur hududga yaqinda harakatlanayotgan Sayyor Sadinov guruhini ushbu yo‘nalishga yubordi. Sadinov jangchilarga shaxsan namuna ko‘rsatib, avtomatidan o‘t ochdi va ikki jangarini yo‘q qildi. Keyin guruh jangchilari bilan birgalikda hujum harakatlarini davom ettirdi.

Jang davomida snayper o‘qi Sayyor Sadinovning ko‘krak qismiga tegdi. Og‘ir jarohat olganiga qaramasdan, u hushini yo‘qotguncha jangovar harakatlarni davom ettirdi. Olingan jarohat oqibatida leytenant Sayyor Saidovich Sadinov qahramonlarcha halok bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 25 avgustdagi Farmoniga muvofiq, Sayyor Sadinov vafotidan keyin II darajali «Shon-sharaf» ordeni bilan taqdirlandi.

Sayyor Sadinovning harbiy faoliyati uning safdoshlari va yaqinlari xotiralarida jasur, talabchan, adolatli va mehribon inson sifatida saqlanib qolgan. Uning safdoshlari xotiralarida, ayniqsa, qiyin sharoitlarda shaxsiy namuna ko‘rsatib, qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilardan oldin harakat qilgani ta’kidlanadi. Pastdarg‘omlik Zohid Yo‘ldoshevning xotiralarida Sayyor Sadinov qismdagi ko‘zga ko‘ringan ofitserlardan biri sifatida tasvirlanadi. Uning aytishicha, mashg‘ulotlar jarayonida Sayyor Sadinovning kasbiy mahorati va jasorati boshqa harbiy xizmatchilar uchun o‘rnak bo‘lgan.

Qahramonning onasi Roziya opaning xotiralarida ham uning shaxsiy fazilatlari alohida o‘rin tutadi. U Sayyorni kuchli, qo‘rqmas, merganlik qobiliyati yuqori, shu bilan birga mehribon va kamtarin inson sifatida eslaydi. Vafotidan keyin uning do‘stlari va safdoshlarining Roziya opa oilasiga doimiy tashrifi uning jamoa orasidagi nufuzi yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Sayyor Sadinov xotirasi nafaqat oilasi va safdoshlari doirasida, balki keyingi avlodlar orasida ham saqlanib qolgan. Xususan, uning nomi bilan atalgan bolalar haqidagi ma’lumotlar qahramon obrazining jamoat xotirasida davom etayotganini ko‘rsatadi. Payariqlik Sayyor Hasanovning harbiy kasbni tanlashida ham Sayyor Sadinovning jasorati haqidagi hikoyalar ta’sir ko‘rsatgani qayd etiladi.

Leytenant Sayyor Saidovich Sadinovning hayot va harbiy xizmat yo‘li O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida mamlakat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etgan harbiy xizmatchilarning faoliyatini o‘rganish uchun muhim tarixiy materiallardan biri hisoblanadi.

Sayyor Sadinov qisqa umri davomida harbiy xizmatning turli bosqichlarini bosib o‘tib, oddiy harbiy xizmatchidan maxsus operatsiyalar guruhi komandiri darajasigacha ko‘tarildi. Uning jangovar va jismoniy tayyorgarlikdagi yuqori natijalari, qo‘mondonlik qobiliyati, shaxsiy jasorati va qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilarga o‘rnak bo‘lishi uning professional harbiy xizmatchi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Sayyor Sadinovning hayot yo‘li va qahramonligi uning safdoshlari, oila a’zolari va keyingi avlod vakillari xotirasida saqlanib qolgan. Shu jihatdan, uning shaxsiy hayoti va harbiy faoliyatini o‘rganish nafaqat alohida bir harbiy xizmatchining taqdirini yoritish, balki mustaqil O‘zbekistonning dastlabki yillarida Vatan xavfsizligi va himoyasi yo‘lida xizmat qilgan harbiylarning tarixiy o‘rnini anglash nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir.

QURUQLIKDAGI QO‘SHINLAR HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA QO‘SHINLARINING YARATILISHI VA RIVOJLANISHIGA HISSA QO‘SHGAN O‘ZBEKISTONLIK HARBIYLAR

TOSHTEMIROV S.A.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti Axborot kommunikatsiya texnologilari va harbiy aloqa instituti katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya*: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Quruqlikdagi qo‘shinlari tarkibidagi havo hujumidan mudofaa (HHM) bo‘linmalarining shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvining tarixiy jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekiston hududida HHM va zenit bo‘linmalarining shakllanishi, mustaqillikdan keyingi davrda milliy harbiy tizimning vujudga kelishi, professional harbiy kadrlarni tayyorlash, jangovar tayyorgarlikni takomillashtirish hamda zamonaviy havo tahdidlariga moslashish jarayonlari o‘rganiladi. Alohida e’tibor Quruqlikdagi qo‘shinlar HHM tizimining rivojlanishiga qo‘mondonlik faoliyati, jangovar xizmat, harbiy ta’lim, ilmiy-metodik ishlar va ko‘p yillik fidokorona mehnati orqali hissa qo‘shgan o‘zbekistonlik harbiy xizmatchilar faoliyatiga qaratiladi. Tadqiqotda tarixiy-xronologik, tizimli, qiyosiy-tahliliy va biografik metodlardan foydalanilgan. Maqolada harbiy qahramonlik tushunchasi faqat jangovar jasorat bilan*

chegaralanmay, milliy mudofaa tizimini yaratish, professional harbiy kadrlarni tayyorlash va qo‘shinlarning jangovar salohiyatini oshirishga qo‘shilgan uzoq muddatli xizmat hissasi bilan ham baholanadi. Tadqiqot natijalari Quruqlikdagi qo‘shinlar HHM tizimining rivojlanishida inson omili, harbiy kasbiy maktab va tarixiy davomiylikning muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Quruqlikdagi qo‘shinlar, havo hujumidan mudofaa, HHM, zenit bo‘linmalari, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari, harbiy tarix, harbiy kadrlar, harbiy qo‘mondonlik, jangovar tayyorgarlik, harbiy ta’lim.*

Annotation: *This article examines the historical formation, development and modernization of air defence units within the Ground Forces of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan. The study analyzes the historical development of air defence and anti-aircraft units in Uzbekistan, the establishment of the national military system after independence, the development of professional military personnel, improvements in combat training, and adaptation to emerging aerial threats. Particular attention is given to Uzbek military personnel who contributed to the development of Ground Forces air defence through command activities, combat service, military education, scientific and methodological work, and long-term professional service. The study employs historical-chronological, systematic, comparative-analytical and biographical methods. Military heroism is considered not only in terms of battlefield courage, but also as a long-term contribution to the establishment of the national defence system, professional military education and improvement of combat readiness. The findings demonstrate that human capital, professional military traditions and historical continuity have played an important role in the development of Uzbekistan's Ground Forces air defence capabilities.*

Keywords: *Ground Forces, air defence, air defence units, anti-aircraft units, Armed Forces of Uzbekistan, military history, military personnel, military command, combat readiness, military education.*

Hozirgi davrda havo makonidan kelib chiqadigan tahdidlarning ko‘lami va xarakteri tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy qurolli mojarolarda aviatsiya vositalari bilan bir qatorda raketa qurollari, uchuvchisiz uchish apparatlari va boshqa havo hujumi vositalaridan keng foydalanilayotgani qo‘shinlarning havo hujumidan himoyalanish masalasini yanada dolzarb holga keltirmoqda. Shu sababli Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar barqarorligini ta’minlashda havo hujumidan mudofaa bo‘linmalarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining mudofaa tizimida ham havo hujumidan mudofaa yo‘nalishiga katta e’tibor qaratilmoqda. 2026-yil 8-iyunda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokidagi taqdimotda Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va Harbiy havo kuchlarini izchil isloh qilish, qo‘shinlarni zamonaviy aviatsiya texnikalari va havo hujumidan mudofaa tizimlari bilan ta’minlash hamda professional milliy kadrlarni tayyorlash masalalari ustuvor vazifalar sifatida qayd etildi [1].

Biroq bugungi zamonaviy tizimning shakllanishi faqat yangi texnika yoki tashkiliy islohotlar bilan izohlanmaydi. Uning ortida o‘nlab yillar davomida shakllangan harbiy tajriba, professional kadrlar maktabi, qo‘mondonlik an’analari va Vatan himoyasiga sadoqat bilan xizmat qilgan harbiy xizmatchilarning mehnati turadi.

Shu nuqtayi nazardan, Quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa bo‘linmalarining tarixini o‘rganish nafaqat harbiy-texnik, balki tarixiy va ma’naviy ahamiyatga ham ega. Mazkur tarixni yaratgan insonlarning hayoti va xizmat faoliyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish yosh harbiy xizmatchilarda kasbiy mas’uliyat, Vatanga sadoqat va harbiy burch tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

QURUQLIKDAGI QO‘SHINLAR HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA TIZIMINING HARBIY-TARIXIY ASOSLARI

Quruqlikdagi qo‘shinlar HHM tizimining tarixini O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi bilan boshlash metodologik jihatdan to‘liq tasavvur bermaydi. Chunki mustaqillik davrida shakllangan milliy harbiy tizim undan oldingi davrda yaratilgan infratuzilma, harbiy mutaxassislar va kasbiy tajriba negizida rivojlangan.

O‘zbekiston hududida joylashgan harbiy tuzilmalarda uzoq vaqt davomida havo hujumiga qarshi mudofaa vazifalarini bajaruvchi bo‘linmalar faoliyat yuritgan. Ularning faoliyati davomida zenit vositalaridan foydalanish, havo vaziyatini kuzatish, harbiy obyektlarni himoya qilish va qo‘shinlarning havo hujumiga qarshi barqarorligini ta’minlash bo‘yicha tajriba shakllangan.

Mazkur tajribaning muhim jihati shundaki, u keyinchalik mustaqil O‘zbekiston Qurolli Kuchlari uchun tayanch professional muhitlardan biriga aylandi.

Bunda mahalliy harbiy kadrlarning roli alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Harbiy mutaxassislar texnik vositalardan foydalanish bilan bir qatorda, keyingi avlod harbiy xizmatchilariga amaliy tajribani yetkazib beruvchi asosiy insoniy resurs vazifasini bajardilar.

Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarining asosiy vazifasi qo‘shinlar, harbiy obyektlar va muhim infratuzilma obyektlarini havo hujumi vositalaridan himoya qilishdan iborat. Quruqlikdagi qo‘shinlar tarkibidagi HHM bo‘linmalarining o‘ziga xos jihati shundaki, ular quruqlikdagi jangovar harakatlar bilan bevosita bog‘langan holda faoliyat yuritadi.

Bunday bo‘linmalarning jangovar samaradorligi faqat zenit-raketa yoki zenit-artilleriya vositalarining texnik imkoniyatlariga bog‘liq emas. Aniqlash, kuzatish, boshqarish, nishonni baholash, bo‘linmalararo hamkorlik va qaror qabul qilish jarayonlarining uyg‘unligi umumiy natijani belgilaydi.

Shuning uchun Quruqlikdagi qo‘shinlar HHM tizimining tarixini faqat qurol-aslaha almashinuvi tarixi sifatida ko‘rish noto‘g‘ri bo‘ladi. Bu, avvalo, inson, bilim, tajriba va harbiy maktabning rivojlanish tarixidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakat Qurolli Kuchlarining milliy asosda shakllanishi bilan bir qatorda, mavjud harbiy tajribani milliy mudofaa tizimiga moslashtirish vazifasi ham yuzaga keldi. Mazkur jarayonda harbiy mutaxassislarning tajribasi va professional tayyorgarligi muhim omillardan biri bo‘ldi.

MUSTAQILLIK DAVRIDA MILLIY HARBIY TIZIMNING SHAKLLANISHI

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakat oldida mustaqil mudofaa tizimini yaratish vazifasi paydo bo‘ldi.

1992-yil 14-yanvar O‘zbekiston harbiy tarixida muhim sana sifatida alohida o‘rin egallaydi. Shu kuni mamlakat hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalarining O‘zbekiston yurisdiksiyasiga o‘tkazilishi bilan bog‘liq tarixiy qaror qabul qilindi. Bu jarayonni milliy Qurolli Kuchlarning shakllanishida institutsional burilish nuqtasi sifatida baholash mumkin. Quruqlikdagi qo‘shinlar HHM bo‘linmalari uchun ushbu bosqich bir necha jihatdan muhim bo‘ldi. Birinchidan, mavjud harbiy salohiyat milliy mudofaa manfaatlari asosida qayta tashkil etila boshladi. Ikkinchidan, harbiy boshqaruv va kadrlar siyosatini milliy sharoitga moslashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Uchinchidan, harbiy ta’lim va mutaxassislar tayyorlash tizimining milliy ehtiyojlarga mos rivojlanishi uchun sharoit yaratildi. To‘rtinchidan, harbiy xizmatchilarning xizmat tajribasini yangi avlod mutaxassislariga yetkazish mexanizmlari shakllana boshladi.

Shunday qilib, mustaqillikning dastlabki davrini Quruqlikdagi qo‘shinlar HHM tizimi uchun merosni qabul qilish, milliylashtirish va yangi harbiy boshqaruv tizimiga moslashtirish bosqichi sifatida tavsiflash mumkin.

Mustaqillikdan keyingi davr O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tarixida tub burilish bosqichi bo‘ldi. Ilgari mavjud bo‘lgan harbiy infratuzilma va mutaxassislar salohiyatidan foydalanish bilan birga, milliy harbiy boshqaruv tizimini shakllantirish, professional ofitserlar korpusini rivojlantirish va harbiy ta’limni yangi talablar asosida tashkil etish zarurati yuzaga keldi.

Bu jarayon Quruqlikdagi qo‘shinlar HHM bo‘linmalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Chunki ushbu bo‘linmalar yuqori malakali mutaxassislar — komandirlar, zenit-raketa va zenit-artilleriya mutaxassislari, radiotexnika va aloqa bo‘yicha harbiy xizmatchilarni talab qiladi.

Bugungi kunda Quruqlikdagi qo‘shinlarning HHM bo‘linmalari amaliy dala-o‘quv mashg‘ulotlarida havo hujumi vositalarini aniqlash, kuzatish va zararsizlantirish bo‘yicha vazifalarni bajarib kelmoqda. Mudofaa vazirligining 2025-yildagi materiallarida bunday bo‘linmalar bilan dala-o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilgani va qo‘shinlararo hamkorlikning takomillashtirilayotgani qayd etilgan [3].

Demak, mustaqillik davrida shakllangan HHM tizimini o‘rganishda ikki omilni birgalikda ko‘rib chiqish lozim: birinchisi — tashkiliy va texnik rivojlanish; ikkinchisi — ushbu rivojlanishni amalga oshirgan insonlar.

HARBIY INSON OMILI VA HHM TIZIMINING RIVOJLANISHI

Har qanday texnik jihatdan murakkab harbiy tizimning samaradorligi uni boshqaradigan mutaxassislarning bilim va tajribasiga bevosita bog‘liq. HHM bo‘linmalarida bu holat yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki havo nishonlarini aniqlash va ularga qarshi choralar ko‘rish jarayoni yuqori tezkorlik, aniqlik va o‘zaro hamkorlikni talab etadi.

Shu sababli O‘zbekiston harbiy tarixida HHM yo‘nalishida xizmat qilgan ofitserlar faoliyatini uch asosiy guruhga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq:

birinchidan, qo‘shinlarning tashkiliy shakllanishi va boshqaruv tizimini rivojlantirgan harbiy qo‘mondonlar;

ikkinchidan, jangovar xizmat va murakkab vazifalarni bajarishda jasorat ko‘rsatgan harbiy xizmatchilar;

uchinchidan, HHM mutaxassislarini tayyorlash, harbiy ta’lim va ilmiy-metodik maktabni rivojlantirishga hissa qo‘shgan harbiy pedagoglar.

Mazkur yondashuv “qahramon” tushunchasini kengroq tarixiy nuqtayi nazardan ko‘rish imkonini beradi. Harbiy tarixda qahramonlik faqat jang maydonida ko‘rsatilgan jasorat bilan emas, balki ko‘p yillik fidokorona xizmat, yangi avlod harbiy mutaxassislarini tayyorlash, qo‘shinlarning jangovar shayligini oshirish va milliy harbiy maktabni yaratishga qo‘shilgan hissa bilan ham belgilanadi.

Najimidinov Z. Quruqlikdagi qo‘shinlar HHM yo‘nalishida mutaxassislarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash faoliyati bilan bog‘liq pedagog sifatida ilmiy manbalarda qayd etilgan.

Ushbu yo‘nalish milliy HHM maktabining muhim, biroq ko‘pincha yetarlicha o‘rganilmaydigan jihatini namoyon etadi.

Harbiy texnologiyalar doimiy rivojlanayotgan sharoitda bir marta olingan bilim yetarli emas. Mutaxassis o‘z kasbiy bilimini muntazam yangilab borishi kerak.

Shuning uchun qayta tayyorlash tizimi - mavjud tajriba → yangi bilim → yangi texnologiya → takomillashgan mutaxassis zanjirini yaratadi.

ZAMONAVIY BOSQICH-TARIXIY TAJRIBADAN YANGI HARBIY IMKONIYATLARGA

Bugungi kunda havo hujumidan mudofaa tizimi yangi texnologik sharoitga moslashmoqda. Zamonaviy mojarolarda uchuvchisiz uchish apparatlari, raketa vositalari va boshqa yuqori aniqlikdagi vositalarning keng qo‘llanilishi HHM bo‘linmalaridan yangi bilim va ko‘nikmalarni talab qilmoqda.

2026-yil fevralida Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev harbiy qism faoliyati bilan tanishar ekan, zamonaviy mojarolarda dronlar, raketalar va ularga qarshi vositalarning keng qo‘llanayotganini qayd etib, qo‘shinlarda havo hujumidan mudofaa bo‘yicha yangi bo‘linmalarni tashkil etish va zamonaviy HHM komplekslarini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratgan [2].

Bu holat maqolamiz uchun muhim tarixiy xulosani beradi: HHM qo‘shinlari tarixini o‘rganish faqat o‘tmishni eslash emas, balki bugungi va kelajakdagi harbiy rivojlanish uchun tajriba manbasini aniqlashdir.

Shunday ekan, Quruqlikdagi qo‘shinlar HHM bo‘linmalarining tarixida xizmat qilgan o‘zbekistonlik harbiylarning faoliyatini o‘rganish orqali nafaqat alohida shaxslarning hayot yo‘lini, balki butun bir harbiy kasbiy maktabning shakllanish jarayonini tiklash mumkin.

Quruqlikdagi qo‘shinlarning havo hujumidan mudofaa bo‘linmalari O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar salohiyatini ta’minlovchi muhim tarkibiy qismlardan biridir. Ularning bugungi imkoniyatlari ko‘p yillik tashkiliy, harbiy-texnik va kadrlar tayyorlash tajribasining natijasidir.

Mazkur tarixni o‘rganishda inson omiliga alohida e’tibor qaratish zarur. Chunki har qanday harbiy texnika va tashkiliy tizimning samaradorligini ta’minlovchi asosiy kuch — bilimli, tajribali va Vatanga sadoqatli harbiy mutaxassisdir.

Shu nuqtayi nazardan, Quruqlikdagi qo‘shinlar HHM tizimining yaratilishi va rivojlanishiga hissa qo‘shgan o‘zbekistonlik harbiylarni tarixiy jihatdan tadqiq etish milliy harbiy tarixning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu tizimning rivojlanishida xizmat qilgan aniq harbiy qo‘mondonlar, ofitserlar, harbiy pedagoglar va jangovar xizmat namoyandalarining tarjimai holi, xizmat yo‘li, davlat mukofotlari hamda soha rivojiga qo‘shgan hissasini arxiv hujjatlari va rasmiy manbalar asosida chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa, zamonaviy bosqichda HHM tizimining transformatsiyasi davom etayotgani ushbu tarixiy tajribani tizimlashtirish va kelajak avlod harbiy xizmatchilariga yetkazish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. “Havo hujumidan mudofaa va harbiy aviatsiya tizimini transformatsiya qilish choralari ko‘rib chiqildi”, 8 iyun 2026-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. “Oliy Bosh Qo‘mondon harbiy qismdagi sharoitlarni ko‘zdan kechirdi”, 26 fevral 2026-yil.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. “Dala-o‘quv maydoni — askar akademiyasi”, 23 iyun 2025-yil.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. “Shavkat Mirziyoyev harbiy xizmatchilar bilan suhbatlashdi”, 16 noyabr 2018-yil.

MILLAT FIDOYILARI

Raximov Sharof Murodovich

“G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki yillarida suverenitétimizga nisbatan amalga oshirilgan mojarolarga duch keldi. Ularning eng yirigi 2000 yilning yozida davlatimizning janubiy sarhadlarida sodir bo‘ldi, xalqaro terrorchi guruhlarning chegaralarimizni buzib kirishga, xalqimizning tinch-farovon hayotini buzishga harakat qildi. Ammo bizning armiyamiz yovuz niyatda bostirib kirishga harakat qilgan terrorchi to‘dalarga qaqshatqich zarba berdi. Tezkorlik bilan olib borilgan maxsus operatsiyalar davomida dushman tor-mor qilindi, afsuski bir necha jangchilarimiz jangovar vazifani bajarish chog‘ida halok bo‘ldi.

Ushbu operatsiyalarda Mudofaa vazirligi tizimidan ishtirok etib, mardlarcha halok bo‘lgan 23 nafar vatan himoyachilariningi jasorati haqida “Ajdodlar izidan” harbiy tarixiy jamiyatning ilmiy xodimlari tomonidan 2025 yilning boshida “Millat fidoyilari” nomli kitobni yozildi.

Vatan ozodligi, mamalakat suverineti uchun jangovar harakatlarda halok bo‘lgan mard o‘zbek jangchilarining har birlari haqida romanlar, poemalar yozish, filmlar suratga olish mumkin. Ammo bugungi ma’ruzada Ulug‘bek Baronoev haqida to‘xtalmoqchimiz.

Ulug‘bek Barnoev haqida, uning jasorati to‘g‘risida juda ko‘plab maqolalar, risolalar yozildi, filmlar suratga olindi.

Ulug‘bek haqida yanada kengroq ma’lumot olish uchun uning ota-onasi bilan uchrashdik.

Ularning hovlisiga kirishingiz bilan Ulug‘bekning xotirasi uchun ajratilgan xona bo‘lib, u yerda uning albomlari, fotosuratlari, mukofotlari va harbiy liboslari, shuningdek, uning jasorati haqida yozilgan kitoblar saqlanmoqda. Ulug‘bekni yod olib kelganlar, avvalo, mana shu xonaga boshlab kiriladi, bu yerda uning mardligi haqida so‘zlovchi eksponatlar bilan tanishadi. Biz ham mana shu xonada Ulug‘bekning otasi Abdulla aka, onasi Sabohat opa, ukasi Otabek bilan ularning jigargo‘shalari haqida uzoq suhbatlashdik.

Ulug‘bekning otasi Abdulla aka Toshkent politexnika institutida o‘qish bilan birga, uning harbiy kafedrasini tamomlab, muhandislik diplomini va zaxiradagi leytenant unvonini olgan. Hozirgi kunda u kishi pensiyada, zaxiradagi kapitan. Ulug‘bekning onasi Sabohat opa uzoq yillar Kattaqo‘rg‘on garnizonida bolalar bog‘chasi mudirasi bo‘lib ishlagan.

Ulug‘bekda hali maktabda o‘qib yurgan kezlaridayoq “ardoqlash”, “qadrlash” tuyg‘ulari shakllanib bo‘lgan ekan. Ota-onasini, oilasini, ustozlarini,

tengdoshlarini ardoqlash, keyinchalik kindik qoni to‘kilgan zaminni va nihoyat butun yurtni hamda xalqini qadrlash tuyg‘usi uning qalbini to‘liq egallagan edi. Ulug‘bek hali yoshligidanoq doimo haqiqat uchun kurashib kelgan. Adolatsizlikdan aziyat chekkan o‘rtoqlari, sinfdoshlari, keyinchalik safdoshlarining sha’nini himoya qilgan. Mana, ulg‘ayganidan keyin ham mamlakatimizga nisbatan bo‘lgan nohaqlikni bartaraf etishdek muqaddas topshiriqni bajarish uning chekiga tushdi.

Ulug‘bek yetakchilik qobiliyatiga ega, dovyurak, qat’iyatli, shu bilan birga, jismoniy mashg‘ulotlarga moyilligi kuchli ekanligi bilan ajralib turgan. Ulug‘bekning ichki tuyg‘usi tengdoshlarinikidan ancha baland bo‘lgan.

Sezgirlik, o‘tkir zehn, jismonan yetuklik, botirlik, qat’iylik – bular hammasi zamonaviy jangchiga qo‘yilgan asosiy talablardir. Demak, yuqoridagi sifatlarga ega Ulug‘bek Barnoev – Vatan himoyasi uchun yaralgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

U 1997 yilning 31 oktabrida harbiy xizmatga chaqiriladi, havo-desant qo‘shinlarida xizmatni boshlaydi. Keyin shartnoma asosida maxsus qo‘shinlarda xizmatni davom ettiradi.

Vatanimizning janubiy sarhadlaridan bostirib kirgan xalqaro terrorchi guruhlarga qarshi jangovar harakatlar kechayotgan mahalda, tarkibida starshina Ulug‘bek Barnoev harakatlanayotgan maxsus otryadning bir guruhi dushman o‘rnashib olgan hududning yaqiniga havo transporti orqali olib kelinadi va terrorchi to‘daning bazasi qidirib topilib, unga shiddat bilan bosqin uyushtiriladi. Pistirmada joylashgan dushman snayperi jangchilarimizga qarata o‘t ochadi, ulardan birini yaralaydi. Yarador jangchimizga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun yetib kelgan otryad feldsheri ham g‘anim tomonidan o‘qqa tutildi.

Ulug‘bek shu topda yonidagi jangchiga “meni panalab tur!” deya, qurolidan dushman tomon shiddatli o‘t ochib yarador jangchilarimiz tomon ildamlab ketdi, tevarak-atrofni e’tibordan qochirmagan holda yarador jangchini pana joyga olib o‘tadi. Yaralangan ikkinchi jangchi tomonga harakatlangan zahoti dushman snayperining o‘qidan qulab tushdi.

Hali bolaligidan o‘zgalar tashvishini o‘z tashvishlaridan ustun qo‘ygan Ulug‘bek jangovar to‘qnashuv davrida og‘ir yaralanib, harakatsiz bo‘lib qolgan quroldoshlariga, dushman tinmay o‘qqa tutib turganiga qaramasdan, qanday yordamga kelmasligi mumkin edi?

Yarador safdoshlarining og‘riqdan qiynalayotganliklarini ko‘rib turib, o‘z hayotini ongli ravishda xavf-xatarga qo‘yib, quroldoshlarini qutqarish uchun o‘zida jasorat topgan yigitning qahramonligini ta’riflashga ojizlik qiladi kishi...

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 25 avgustdagi Farmoniga muvofiq starshina Ulug‘bek Barnoev vafotidan keyin “Jasorat” medali bilan mukofotlandi.

Ulug‘bek Barnoevning xotirasini abadiylashtirish maqsadida, o‘zi o‘qigan maktabiga uning byusti o‘rnatilgan, jasorat burchagi tashkil qilingan. Uning sharafiga bog‘ barpo qilindi. Ulug‘bekning ukasi Otabek, akasi muddatli harbiy xizmatga chaqirilganidan bir yil o‘tib, armiya saflarida xizmatga chaqirildi. Akasi halok bo‘lganidan keyin u Mudofaa vazirligi rahbariyatining ko‘rsatmasiga binoan armiyadan bo‘shatildi. Uyiga kelganidan keyin ota-onasi uni ishga yoki o‘qishga kirishga undaydi. Lekin u “Armiyaga qaytib ketaman, akam xizmat qilgan batalonga shartnoma asosida xizmatga kiraman” – deb turib oldi.

Abdulla aka Mudofaa vazirligiga vaziyatni tushuntirib iltimosnoma bilan chiqdi, uning murojaati qanoatlantirildi. Otabek jangda mardlarcha halok bo‘lgan jigari Ulug‘bek xizmat qilgan batalonga harbiy xizmatni o‘tash uchun chaqirildi.

Oradan vaqt o‘tib, Ulug‘bekning singlisini turmushga berdilar, Abdulla aka va Sabohat opa uyda yolg‘iz qolishdi. Shundan keyin Otabekning xizmati Kattaqo‘rg‘ondagi harbiy qismlarning biriga ko‘chirildi. Otabek muddati kelganda, belgilangan xizmat davrini o‘tab bo‘lib zaxiraga bo‘shatildi. Hozirgi kunda ota-onasi, farzandlari bilan birga yashaydi. Qizi yuridik institutda o‘qiydi, o‘g‘li Ulug‘bek esa maktabning 11-sinf o‘quvchisi. Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan amakisining ismini sharaf bilan olib yuribdi, unga munosib bo‘lishga harakat qilmoqda.

“Mustaqilligimiz o‘zidan-o‘zi paydo bo‘lib qolgan emasligi, suverenitetga erishgandan keyin u qurbonlar evaziga asrab qolinganligini xalqimiz bilishi kerak. Bu bizning tariximiz, uni yodi- mizdan chiqara olmaymiz.”, – deydi Abdulla aka.

Vatan osoyishtaligi, elimiz farovonligi uchun shahid ketgan Ulug‘bek Barnoev kabi jangchilarning porloq xotiralari xalqimiz yodida mangu saqlanadi.

MUSTAQILLIK SHAROITIDA YOSHLARNING MILLIY O‘ZLIGINI ANGLASH VA VATANPARVARLIK TUYG‘USINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Karimjanova Yokutxon Urinbaevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://orcid.org/0000-0002-8721-5834
ekuthonkarimjanova@gmail.com
Asqaraliyeva Durdonaxon Akbarali qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti 3-bosqich talabasi
Baxt5219@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada mustaqillik sharoitida yoshlarning milliy o‘zligi va vatanparvarligining psixologik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Unda milliy g‘urur, tarixiy xotira va ajdodlar merosining o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Mustaqillik, milliy o‘zlik, yoshlar, vatanparvarlik, milliy g‘urur, tarixiy xotira, ijtimoiy identifikatsiya*

Abstract: *The article examines the psychological aspects of national identity and patriotism among youth in the context of independence. It highlights the role of national pride, historical memory, and ancestral heritage.*

Keywords: *independence, national identity, youth, patriotism, national pride, historical memory, social identification*

Аннотация: *В статье рассматриваются психологические аспекты национальной идентичности и патриотизма молодежи в условиях независимости. Освещается роль национальной гордости, исторической памяти и наследия предков.*

Ключевые слова: *независимость, национальная идентичность, молодежь, патриотизм, национальная гордость, историческая память, социальная идентификация.*

Kirish

O‘zbekiston mustaqilligi yoshlarning ***milliy o‘zligini anglash, tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlarini*** rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratdi. Yoshlar davrida milliy mansublik, milliy g‘urur va Vatanga daxldorlik tuyg‘ulari shakllanib, shaxsning ijtimoiy qarashlari boyiydi. Shu bois ***milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlikning psixologik bog‘liqligini*** o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Dolzarbligi

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar turli madaniy va g‘oyaviy ta’sirlarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda ***milliy mansublikni anglash, milliy qadriyatlarni asrash va zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish*** milliy identifikatsiyaning barqarorligi uchun muhimdir. Shu sababli milliy o‘zlikning vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishdagi psixologik o‘rnini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism

Mustaqillik yoshlarning milliy o‘zligini anglashida muhim ***ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni*** yuzaga keltirdi. ***Milliy o‘zlik*** shaxsning o‘zini muayyan milliy guruhga mansub deb anglashi, ushbu mansublikni uning tarixi, tili, madaniyati va qadriyatlari bilan bog‘lashi hamda mazkur bog‘liqlikni shaxsiy “Men” tizimining bir qismi sifatida qabul qilishi bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan milliy o‘zlik nafaqat mansublikni anglash, balki shaxsning o‘z milliy guruhiga nisbatan ***kognitiv, emotsional va qadriyatli munosabatlari majmuasi*** sifatida namoyon bo‘ladi.[1]

Yoshlarning milliy o‘zligini shakllantirishda ***tarixiy xotira, milliy g‘urur va ajdodlar merosi*** muhim psixologik omillardir. O‘z tarixini va milliy-madaniy

[1] Qurbonniyozova R.K. *Milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlikning ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta’siri*. - “Falsafa va hayot” xalqaro jurnali, 2019.

merosini anglash yoshda **milliy mansublik, faxr va daxldorlik** tuyg‘ularini kuchaytirib, ijobiy milliy identifikatsiyaning shakllanishiga zamin yaratadi.[2]

Milliy o‘zlikning shakllanishi faqat tarixiy bilimlarni egallash bilan cheklanmay, ***bilim, hissiyot va shaxsiy munosabatning birligi*** orqali namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlarning shaxs tomonidan **ichkilashtirilishi** milliy g‘urur va Vatanga nisbatan barqaror ijobiy emotsional munosabatning shakllanishiga xizmat qiladi[3].

Mustaqillik sharoitida ***tarixiy xotira va milliy qadriyatlarni anglash*** yoshlarning milliy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. O‘z tarixi va madaniyatini bilish yoshning milliy mansubligini chuqurroq anglashiga yordam berib, ***ijtimoiy identifikatsiya va Vatanga daxldorlik*** hissini kuchaytiradi.[4]

Talaba-yoshlarning milliy o‘zligini anglashida ***ta’lim, oila va jamiyatning hamkorligi*** muhimdir. Ushbu muhitda **muloqot, ijtimoiy ta’sir va namuna olish** orqali milliy qadriyatlar o‘zlashtirilib, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faolligi rivojlanadi.[5].

Yoshlarning milliy o‘zligini saqlashda milliy qadriyatlarga tayanish, tarixiy merosni anglash va zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashish muhimdir. Bu jarayon milliy mansublik hissini mustahkamlab, yoshlarning ***barqaror identifikatsiyasi va ijtimoiy faolligi*** uchun psixologik asos yaratadi.[6]

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqola ***nazariy-tahliliy xarakterga ega*** bo‘lib, unda yoshlarning milliy o‘zligini anglash va vatanparvarlik tuyg‘usining psixologik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda ***nazariy, qiyosiy-tahliliy, kontent va tizimli tahlil*** metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali milliy o‘zlik, tarixiy xotira, milliy g‘urur, ijtimoiy identifikatsiya va vatanparvarlikning ***kognitiv, emotsional va motivatsion jihatlari*** o‘rganildi. Natijada milliy qadriyatlarning ***anglanishi va ichkilashtirilishi milliy identifikatsiyani mustahkamlab, Vatanga daxldorlik va vatanparvarlik motivatsiyasini kuchaytirishi*** nazariy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot xulosasi

Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra**,** milliy o‘zlikni anglash yosh shaxsning tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va ijtimoiy identifikatsiyasi bilan uzviy bog‘liq. Ushbu jarayonda qadriyatlarning ichkilashtirilishi milliy g‘urur va Vatanga daxldorlikning emotsional-motivatsion asoslarini mustahkamlaydi. Natijada ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik motivatsiyasi

---

[2] Qadamova M.A. *Milliy g‘urur va tarixiy xotiraning yoshlar tarbiyasiga ta’siri*. - 2025.
[3] O‘roqova Sh.S. *Milliy o‘zlikni anglash barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy omili*. - *Eurasian Journal of Academic Research*, 2022.
[4] Madrahimova F.R. *Talaba yoshlarni milliy o‘zlikni anglash ruhida tarbiyalashda hamkorlik mexanizmlari*. -2023.
[5] Zokirova N.X. *Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o‘zligidan begonalashuviga qarshi “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasining o‘rni*. - 2022.
[6] E.G‘. G‘oziyev. *Umumiy psixologiya*. - Toshkent.

rivojlanadi. Shu bois milliy identifikatsiyani qo‘llab-quvvatlash yoshlarning barqaror ijtimoiy va vatanparvarlik yo‘nalganligini shakllantiruvchi muhim psixologik omil sifatida baholanadi.

Xulosa

Yoshlarning milliy o‘zligi va vatanparvarligini shakllantirish ta’lim, oila va jamiyatning izchil hamkorligini talab etadi. Milliy tarix, madaniyat va ajdodlar merosini anglash yoshda milliy g‘urur, Vatanga daxldorlik va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi. Shu bois yoshlarni nafaqat bilim bilan ta’minlash, balki milliy, ijtimoiy va jamoaviy faoliyatga jalb etish ham muhimdir. Natijada milliy o‘zlik va vatanparvarlik yoshning hayotiy qarashlari va amaliy faoliyatida barqaror qadriyatga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.G‘. G‘oziyev – “Umumiy psixalogiya” Toshkent
2. Qurbonniyozova R.K. Milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlikning ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta’siri. Falsafa va hayot, 2019
3. O‘roqova Sh.S. Milliy o‘zlikni anglash barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy omili. Eurasian Journal of Academic Research, 2022
4. Qadamova M.A. Milliy g‘urur va tarixiy xotiraning yoshlar tarbiyasiga ta’siri. Science Shine, 2025
5. Madrahimova F.R. Talaba yoshlarni milliy o‘zlikni anglash ruhida tarbiyalashda hamkorlik mexanizmlari, 2023.
6. Zokirova N.X. Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o‘zligidan begonalashuviga qarshi “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasining o‘rni, 2022
7. Kobilov U.U. Milliy o‘zlikni anglash millat taraqqiyotining poydevori, 2024

UO‘K 623.746.4-519:004.89

MRNTI 78.25.41

KICHIK O‘LCHAMLI UUA LARGA QARSHI KURASHDA "CHAQMOQ" MILLIY DRONINING KONSEPTUAL MODELLASHTIRILISHI VA TEXNIK-STRATEGIK TAHLILI

Ilmiy rahbar: p/p-k, h.f.f.d., ***Kuzibekov N.Sh***

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti o‘quv bo‘lim boshlig‘i

Eshimov J.R

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti 4- bosqich kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy qurolli mojarolarda arzon va ommaviy dronlarning (UUA) keng qo‘llanilishi natijasida yuzaga kelgan asimmetrik tahdidlar chuqur tahlil qilinadi. Kichik va o‘rta o‘lchamli, ayniqsa FPV-dronlar va baraj qiluvchi o‘q-dorilarga (kamikadze) qarshi kurashishning an'anaviy usullari (statsionar HHM, REK)ning texnik, operativ va iqtisodiy kamchiliklari ko‘rsatib beriladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan, yuqori tezkorlik va sun'iy intellektga asoslangan "Chaqmoq" milliy tutuvchi dronining konseptual modeli taklif etiladi. Maqolada qurilmaning aerodinamik xarakteristikalari, nishonni avtonom tutish algoritmik taktikasi va mamlakatning yagona havo hujumidan mudofaa (HHM) tizimidagi strategik ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Interceptor dron, C-UAS texnologiyalari, asimmetrik urush, kinetik zarba, sun'iy intellekt, "Chaqmoq", milliy mudofaa, ko‘p qatlamli mudofaa.*

Abstract *This article provides an in-depth analysis of the asymmetric threats caused by the widespread use of cheap and mass-produced drones (UAVs) in modern armed conflicts. It highlights the technical, operational, and economic shortcomings of traditional countermeasures (stationary air defense systems, electronic warfare) against small and medium-sized drones, particularly FPV drones and loitering munitions (kamikaze). To address these challenges, the author proposes a conceptual model of the "Chaqmoq" national interceptor drone, a high-speed system based on artificial intelligence. The article scientifically substantiates the device's aerodynamic characteristics, the algorithmic tactics of autonomous target interception, and its strategic significance within the country's unified air defense (AD) system.*

Keywords: *Interceptor drone, C-UAS technologies, asymmetric warfare, kinetic strike, artificial intelligence, "Chaqmoq", national defense, multi-layered defense.*

Kirish

XXI asrning uchinchi o‘n yilligidagi harbiy harakatlar (xususan, Yaqin Sharq va Sharqiy Yevropadagi ziddiyatlar) jang maydonida "Dronlar inqilobi" yuz berganini isbotladi. Iste’mol bozoridagi arzon komponentlar (tijoriy kopterlar, FPV tizimlari)dan foydalanib yaratilgan minglab kichik o‘lchamli dronlar nafaqat piyoda bo'linmalar, balki zirhli texnikalar va strategik infratuzilma obyektlari uchun ham asosiy xavfga aylandi.

To'xtatuvchi dronlar - bu dushmanning havodagi uchuvchisiz uchish apparatlarini aniqlash, ta'qib qilish va zararsizlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan uchuvchisiz uchish apparatlari. An'anaviy zarba platformalaridan farqli o'laroq, ularning maqsadi dronning tabiati va jang maydonida ishlatilishi bilan belgilanadi . Ushbu dronlarning asosiy maqsadi yerdagi nishonlarga zarba berishdan ko'ra, boshqa dronlarga havodan qarshi kurashishdir. Zamonaviy urush sharoitida Shahed tutuvchi dronlari infratuzilma va harbiy inshootlarga hujum qilish uchun ishlatiladigan sekin, ammo ko'p sonli havo nishonlariga qarshi kurashish uchun ishlatiladi. Ushbu dronlar avtonom ravishda yoki operator nazorati ostida ishlashi, radarlardan, havo mudofaasi tizimlaridan yoki yerdagi kuzatuv postlaridan nishonga olish ma'lumotlarini olishi mumkin.

Tutib olish texnologiyalari nishonni zararsizlantirish usuliga qarab bir necha yo'nalishda rivojlanmoqda:

Kinetik tutuvchi dronlar:

Ular dushman uchuvchisiz uchish apparatlarini to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuv orqali yo'q qiladi. Bu eng oddiy va tezkor ushlash usullaridan biri, ayniqsa sekin nishonlarga qarshi samarali.

FPV ga qarshi tutuvchi dronlar:

Ular operator tomonidan real vaqt rejimida boshqariladi va aniq nishonga olish imkonini beradi. Ushbu turdagi dronlar yuqori manevr qobiliyati va nisbatan arzonligi tufayli ko'pincha Shahedlar uchun tutuvchi dronlar sifatida ishlatiladi.

Kinetik bo'lmagan ta'sirga ega dronlar:

Ular portlashga olib kelmasdan dushman dronining pervanellarini jismonan to'sib qo'yish uchun to'rlar, kabellar yoki boshqa mexanizmlardan foydalanishlari mumkin.

Elektron urush elementlari bo'lgan dronlar:

Ular dushman uchuvchisiz uchish apparatlarining boshqaruv va navigatsiya kanallarini vaqtincha yoki butunlay buzish, ularni boshqaruvni yo'qotish yoki halokatga olib kelish uchun ishlatiladi.

Shahidga qarshi kurashda tutuvchi dronlardan foydalanishning afzalliklari

To'xtatuvchi dronlardan foydalanish bir qator taktik va strategik afzalliklarni beradi:

Xarajat samaradorligi . Dushman dronini ushlash havo hujumidan mudofaa raketalaridan foydalanishga qaraganda ancha arzon.

Foydalanishning moslashuvchanligi. Tahdidlarga tezda javob berish va yakka nishonlarni yo'q qilish qobiliyati.

Havodan mudofaa tizimlariga yukni kamaytirish . Shahed to'xtatuvchi dronlari arzon, ommaviy nishonlarga qarshi kurashni o'z zimmasiga oladi.

Yuqori aniqlik. FPV nazorati yon ta'sirni minimallashtiradi.

Moslashuvchanlik. Yangi tahdidlarga qarshi kurashish uchun dasturiy ta'minot va taktikalarni tezda yangilash.

To'xtatuvchi dronlardan foydalanishning cheklovlari va xavflari

Samaradorligiga qaramay, tutqichli dronlar ham ob'ektiv cheklovlarga ega:

Ob-havo sharoitlari ta'sir qilishi mumkin . Shamol, yomg'ir yoki cheklangan ko'rinish ushlashni qiyinlashtirishi mumkin.

Elektron urushga zaiflik. Radio boshqaruv kanali tiqilib qolishi mumkin.

Cheklangan masofa. Parvoz vaqti va masofasi batareyalar va foydali yuk og'irligiga bog'liq.

Inson omili hal qiluvchi rol o'ynaydigan , ayniqsa FPV tutqichlari uchun o'qitilgan operatorlarga ehtiyoj .

Bu xavflar kompleks yondashuvni va dron tutqichlarining boshqa havo mudofaasi elementlari bilan kombinatsiyasini talab qiladi.


To'xtatuvchi dronlar uchuvchisiz texnologiyalarning razvedka vositalaridan havo mudofaasining to'laqonli elementiga qanday o'zgarib borayotganini namoyish etadi. Ular an'anaviy havo mudofaa tizimlarining o'rnini bosmasa ham, Shahed kabi ommaviy dron hujumlariga qarshi kurashishda ularni samarali ravishda to'ldiradi va havo tahdidlariga moslashuvchan va tejamkor javob beradi.

Shu bilan birga, havo nishonlarini ushlash uchun moslashtirilgan FPV dronlari bunday yechimlarni amaliy qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois, zamonaviy C-UAS (Uchuvchisiz uchish apparatlariga qarshi kurashish tizimlari) konsepsiyasida eng istiqbolli, iqtisodiy tejamkor va moslashuvchan yechim sifatida **"Dron-interceptor" (dron-tutuvchi)** modeli ko'rilmoqda. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasining milliy mudofaa ehtiyojlari va geostrategik xususiyatlaridan kelib chiqib, shunday tizimning milliy modeli — **"Chaqmoq" tutuvchi dronini** ilmiy-texnik jihatdan loyihalashga bag‘ishlangan.

Konseptual model va arxitektura: "Chaqmoq" tizimining tarkibi

"Chaqmoq" interceptori dushmanning kichik va o‘rta o‘lchamli (Class I va II) UUA larini vizual aniqlash, avtonom kuzatish va kinetik to'qnashuv yo'li bilan neytrallashga mo‘ljallangan yuqori tezkor uchuvchisiz platformadir. Uning konse



Aerodinamik platforma va harakatlantiruvchi kuch:

Konstruksiya: Uglerod tolasi (Carbon fiber) kabi o'ta yengil va mustahkam kompozit materiallardan yasalgan kuchaytirilgan rama. Bu kinetik zarba vaqtida dronning o'zagi (protsessor va batareya qismi) omon qolishini ta'minlaydi.

Aerodinamika: Gibrid yoki yuqori tezlikka moslashgan X-simon kvadrokopter shakli. U havoga vertikal ko'tarilib (VTOL), so'ngra hujum burchagini keskin o'zgartirgan holda gorizontal tezlasha oladi.

Sensorlar kompleksi :

Optik-elektron tizim: Yuqori aniqlikdagi kunduzgi va infraqizil (IR/Teplovizor) kameralar. Ular hatto tunda ham issiqlik izi orqali dushman dronini ko'ra oladi.

Akustik va Lidar sensorlar: Yaqin masofada nishonning harakat vektorini mikrosekundlarda aniqlash uchun qo'shimcha datchiklar (ixtiyoriy, narxni oshirmaslik sharti bilan).

Intellektual boshqaruv tizimi:

Tizimning yuragi — bortda joylashgan **Neyro-protsessor (NPU)**. Radioaloqa REK orqali uzib qo'yilganda, "Chaqmoq" yerdagi operatorga muhtoj bo'lmaydi. U Kompyuter ko'rishi algoritmlari orqali nishonni avtomatik ravishda izlaydi, tasniflaydi va tutib olish rejimiga o'tadi.

Texnik parametr	Kutilayotgan ko‘rsatkich	Tahliliy asos va maqsad
Maksimal tezlik	200–250+ km/soat	Dushmanning manevrchi FPV va qanotli dronlarini quvib yetish uchun.
Tezlanish (Dinamika)	0–100 km/soat ga 1.2–1.5 soniya	Dinamik o'zgaruvchan havo jangida kinetik ustunlikni ta'minlash.
Harakat radiusi	5–15 km	Strategik obyekt, chegara posti yoki harbiy kolonnani himoya qilish doirasi.
Parvoz davomiyligi	10–20 daqiqa	Asosan "navbatchilik" emas, balki radardan signal kelganda tezkor start rejimida ishlaydi.
Avtonomiya darajasi	To'liq	Nishon koordinatalari kiritilgach, AI qolgan barcha bosqichni o'zi bajaradi.

1-jadval. Loyihaning texnik xarakteristikalari.

Nishonni tutish taktikasi: (Yo'q qilish algoritmi):

"Chaqmoq" interceptorining real jang maydonidagi taktik algoritmi to'rt bosqichdan iborat.

1. **Aniqlash va Yo'naltirish**: Obyektni qo‘riqlovchi tashqi tizimlar (masalan, akustik datchiklar, kichik gabaritli radarlar yoki passiv radio-skanerlar) dushman UUA sini aniqlaydi va boshlang'ich koordinatalarni "Chaqmoq"ning ishga tushirish konteyneriga uzatadi.



2-rasm. “Chaqmoq” tutub oluvchi dronining nishonni yo‘q qilishi algoritmi.

2. **Qamrab olish va Tasniflash :** Interceptor start oladi (avtomatik ravishda qutidan uchib chiqadi). Datchiklarni nishon tomonga qaratadi. Bortdagi sun'iy intellekt obyektni ma'lumotlar bazasi bilan solishtirib, "O‘zimizniki yoki Dushman" tizimi orqali tekshiradi va uchar apparat turini (kvadrokopter, qanotli dron, qush) aniqlaydi.

3. **Ta'qib qilish va Hisoblash:** Dushman droni o'z yo'nalishini o'zgartirsa ham, "Chaqmoq" proportsional navigatsiya usulidan foydalanib, to'qnashuv nuqtasini oldindan hisoblaydi va maksimal tezlikda yaqinlashadi.

4. **Neytrallash:**

Asosiy usul – Kinetik : "Chaqmoq" nishonning eng zaif qismiga (parraklari, dumi yoki dvigatel qismiga) katta tezlikda uriladi. Bu portlovchi moddasiz neytrallash usuli bo'lib, garovdagilar yoki fuqarolik obyektlari ustida qo'llash uchun xavfsizdir.

"Chaqmoq" loyihasining O'zbekiston mudofaasidagi strategik ahamiyati

Uzoq masofali harakat va yuqori avtonomlik: An'anaviy dronga qarshi to‘siq qurollarining eng katta cheklovlari qatoriga ularning masofasi va operativ tayyorgarlik vaqti kiradi. Bunday qurilmalar nishondan juda aniq va cheklangan masofada qo‘llanilishi shart. Muammo shundaki, ushbu tizimlarni nishonga yetarlicha tez yetkazib bera oladigan va yuqori aniqlik bilan mo‘ljalga oladigan inson omiliga ehtiyoj tug‘iladi. Ushbu fonda "Chaqmoq" milliy tutuvchi droni o‘zining yuqori harakatchanligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Qurilma aniqlash gumbazining eng chekka chegaralarigacha yuqori va doimiy tezlikda harakatlanib, hech qanday to‘siqlarsiz bir zumda parvozni amalga oshiradi. Sun'iy intellektga asoslangan algoritmlari tufayli nishonni avtonom tarzda aniqlaydi, u o‘z yo‘nalishini o‘zgartirganda ham tizim avtomatik ravishda unga moslashadi va nishon batamom zararsizlantirilgunga qadar ta'qibni muvaffaqiyatli davom ettiradi. Yerdagi shaxsiy tarkib uchun bunday samaradorlikka erishish imkonsizdir. Eng muhimi, bu jarayonlarning barchasi havo maydonining eng chekka chegaralarida, himoya qilinadigan sezgir zonalardan kilometrlar uzoqlikda sodir bo‘ladi.

Iqtisodiy samaradorlik va qayta foydalanish imkoniyati: "Chaqmoq" loyihasining yana bir muhim afzalligi uning yuqori iqtisodiy tejamkorligidir.

An'anaviy yelkadan otiladigan zenit raketalari bir marta qo‘llanilib, nishonga teqqanda portlab yo‘q bo‘lsa, ushbu tutuvchi drondan o‘nlab, hatto yuzlab marta qayta foydalanish imkoniyati mavjud. Maxsus to‘r tizimlari yoki qayta foydalanishga mo‘ljallangan kinetik usullar bilan jihozlangan tutqichlar oddiy bir martalik vositalarga qaraganda ancha uzoq xizmat qiladi. Shu bilan birga, qurilmaning o‘q-dorilari va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari ham juda maqbul darajada. Tizimning har bir jangovar missiyani bajarish xarajati an'anaviy havo hujumidan mudofaa raketalariga qaraganda keskin darajada arzon bo‘lib, milliy mudofaa budjetini samarali taqsimlash imkonini beradi.

Qo‘shimcha zararlarning oldini olish va xavfsizlik: Aholi punktlari va fuqarolik infratuzilmalari ustida begona dronlarni urib tushirish og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, qo‘shimcha zararlardan qochish dronlarga qarshi kurash tizimlaridagi eng dolzarb masalalardan biridir. An'anaviy vositalar qo‘llanilganda, urib tushirilgan dronning hayot yoki mulkka zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan hududlarga qulash xavfi doimo yuqori bo‘ladi. Bundan tashqari, ba'zi radioelektron kurash choralari sun'iy yo‘ldosh navigatsiya tizimlariga xalaqit berib, transport vositalariga ham ta’sir qilish xavfi bor. Dronga qarata otilgan oddiy o‘qlar esa piyodalarga kutilmagan jarohat yetkazishi xavfi bor, lazer tizimlari esa yuqori balandlikdagi yo‘lovchi samolyotlariga ham zarar yetkazishi mumkin. "Chaqmoq" tutuvchi droni esa boshqa usullarga qaraganda mutlaqo xavfsiz bo‘lib, yangi xavf-xatarlarni keltirib chiqarmaydi.

REKga qarshi to'liq himoya: Zamonaviy urushda elektron kurash eng katta to'siqdir. "Chaqmoq"ning bort kompyuteri nishonni faqat ko'rish orqali ta'qib qilgani uchun uning GPS signali yo'qolsa yoki operator bilan aloqasi uzilsa ham, u vazifani yakuniga yetkazadi.

Texnologik suverenitet va eksport potensiali: O‘zbekistonda shunday milliy modelni yaratish harbiylarimizning sun'iy intellekt va robototexnika sohasidagi amaliy tajribasini mislsiz darajada oshiradi. Tashqi ta'minotchilarga (importga) qaramlik keskin kamayadi va kelajakda ushbu ishlanmani mintaqadagi boshqa davlatlarga uchuvchisiz uchish apparatlariga qarshi kurashish tizimlar yechimi sifatida eksport qilish imkoniyati yaratiladi.

Ko‘p qatlamli qo‘llanilishi va harakatchanlik "Chaqmoq" droni o‘zining ko‘p qirraliligi bilan turli toifadagi asimmetrik tahdidlarga qarshi kurasha oladi. Agar qimmatbaho raketalar juda kichik nishonlarga qarshi kurashishda iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lsa, ushbu tutuvchi dron oddiy tijorat maqsadlaridagi kichik o‘yinchoq qurilmalardan tortib, yirik harbiy taktik uchuvchisiz uchish apparatlarigacha bo‘lgan barcha turdagi tahdidlarni mohirona bartaraf etadi. Shuningdek, qurilma tezkor joylashtirish tizimida ham yuqori moslashuvchanlikni ta'minlaydi. U yirik maydonlarni strategik himoya qilish uchun maxsus kuzatuv

nuqtalarida saqlanishi yoki quruqlikdagi qo‘shinlar tarkibida mobil holda olib yurilib, taktik dronlar urushida dinamik tarzda qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa o‘rnida ta'kidlash joizki, zamonaviy qurolli to‘qnashuvlarda asimmetrik tahdidlarning ortishi an'anaviy havo hujumidan mudofaa tizimlarining yondashuvlarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqib taklif etilayotgan "Chaqmoq" milliy tutuvchi qurilmasi sun'iy intellektga asoslangan to‘liq mustaqil boshqaruv tizimi va mutlaqo xavfsiz zararsizlantirish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur loyiha aloqa va tashqi boshqaruv tizimlari ataylab uzib qo‘yilgan sharoitda ham begona nishonlarni vizual xotira orqali mustaqil topib, aniq harakat bilan yo‘q qilish qobiliyatiga ega. "Chaqmoq" loyihasining armiyaga tatbiq etilishi mamlakatimizning strategik obyektlarini yuqori darajada himoya qilish imkonini yaratibgina qolmay, tashqi ta'minotga qaramlikni keskin kamaytiradi, davlat resurslarini tejaydi hamda mudofaa sanoatida milliy texnologiyalarning mintaqaviy yetakchilik darajasiga olib chiqishiga mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Ukraina Mudofaa vazirligi. "Mudofaa kuchlarining arsenali yangi tutuvchi dronlar bilan mustahkamlandi" [Elektron manba] // Ukraina Mudofaa vazirligi rasmiy veb-sayti. – 2025-yil 21-avgust.
2. Tahliliy nashr. "Nima uchun Archer Fiber FPV droni «dunyodagi birinchi» unvonini oldi – u Ukrainada sinovdan o'tkazilishi mumkin" [Elektron manba] // Ixtisoslashtirilgan mudofaa portali. – 2025-yil 16-dekabr.
3. BBC axborot xizmati. "Ukraina Shaheddin raketalarini qanday urib tushirmoqda: dronlar, elektron urush va yangi texnologiyalar" [Elektron manba] // BBC Ukraina tahliliy hisoboti. – 2024-yil.
4. Qodirov T., Rahmatov M. Uchuvchisiz uchish apparatlari va ularni boshqarish tizimlari: tuzilishi, aerodinamikasi va qo‘llanilishi. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 210 b.
5. Abdullayev A.M., Ibragimov S. "Avtonom robototexnika majmualarida sun'iy intellekt va mashinali ko‘rish algoritmlarini modellashtirish" // Muhammad al-Xorazmiy avlodlari (ilmiy-amaliy jurnal). – Toshkent, 2024. – № 2(28). – B. 34-41.
6. Karimov B. "Havo hujumidan mudofaa tizimlarida asimmetrik tahdidlarga qarshi kurashning zamonaviy taktikasi" // Harbiy-ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. – Toshkent, 2025. – № 1. – B. 15-22.

HARBIY XIZMATCHILARDA SOFT SKILLSNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI (TAHLILLAR ASOSIDA)

Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrasi mudiri, p.f.d, professor
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti“Psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi, O‘zMPU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarni tayyorlash jarayonida soft skills (kommunikativ ko‘nikmalar, liderlik, stressga chidamlilik, jamoada ishlash)ni shakllantirish masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: soft skills, harbiy ta’lim, trening metodlari, liderlik, stressga chidamlilik, jamoada ishlash, psixologik tayyorgarlik, harbiy kursantlar, xalqaro tajriba*

Аннотация: *В данной статье рассматривается формирование* ***soft skills*** *(коммуникативные навыки, лидерство, стрессоустойчивость, работа в команде) в процессе подготовки военнослужащих.*

Ключевые слова: *soft skills, военное образование, тренинговые методы, лидерство, стрессоустойчивость, командная работа, психологическая подготовка, курсанты, международный опыт.*

Abstract: *This article analyzes the development of* ***soft skills*** *(communication, leadership, stress resistance, teamwork) in the process of military training.*

Keywords: *soft skills, military education, training methods, leadership, stress resistance, teamwork, psychological preparation, military cadets, international experience*

Zamonaviy harbiy xizmat faqatgina jismoniy kuch va texnik bilimlar bilan cheklanib qolmaydi. Bugungi globallashuv sharoitida askarlar nafaqat qurol-yarog‘ni mukammal bilishi, balki jamoada ishlash, tezkor qaror qabul qilish, ijtimoiy-psixologik muhitga moslashish kabi **soft skills** ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur. Xalqaro tajriba ko‘rsatadiki, AQSh va Buyuk Britaniya qurolli kuchlarida psixologik treninglar harbiy xizmatchilarning stressga chidamliligini oshirish, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda samarali kommunikatsiya o‘rnatishda muhim o‘rin tutadi.

XXI asrda harbiy sohada yuz berayotgan o‘zgarishlar, zamonaviy texnologiyalar rivoji, gibrid urushlar, axborot xavfsizligi va kiberxavflarning ortishi xizmatchilardan keng qamrovli kompetensiyalarni talab etmoqda. Harbiy faoliyat samaradorligi faqat qurol-yarog‘ va texnikani mukammal bilish (hard skills) bilangina emas, balki stressga chidamlilik, liderlik, tezkor qaror qabul qilish,

kommunikativ qobiliyat va jamoada ishlash ko‘nikmalari (soft skills) bilan ham belgilanadi.

Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, muvaffaqiyatli harbiy ofitserlarning 55-60% yutug‘i soft skills bilan, 40-45% esa hard skills bilan bog‘liq (McKinsey Military Leadership Survey, 2020). Shu sababli harbiy ta’lim tizimida soft va hard skillsni birlashtirgan treninglarning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

Soft skills – liderlik, muloqot, moslashuvchanlik, muammoni hal qilish – treninglarda vaqtincha jarayonlar (stressli vaziyat simulatori, refleksiya mashqlari) orqali shakllantiriladi.

Harbiy tayyorgarlik jarayonida an’anaviy ravishda **hard skills** – jangovar tayyorgarlik, qurol-yarog‘ni qo‘llash, taktik va strategik bilimlar asosiy o‘rinda bo‘lgan. Ammo zamonaviy urush va xavfsizlik muhitining murakkablashuvi, axborot urushlari, xalqaro tinchlikparvar missiyalar va texnologik rivojlanish natijasida **soft skills** – yetakchilik, jamoada ishlash, muomala madaniyati, stressga chidamlilik kabi ko‘nikmalar ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, AQSH, Rossiya, Xitoy va boshqa davlatlarning harbiy akademiyalarida soft va hard skills uyg‘unlashgan holda o‘qitilmoqda. O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida ham bu yondashuv bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda.

Army university press ma’lumotlariga ko’ra, Laura Barron va Mark Rose tomonidan AQSh Havo kuchlarida o'tkazilgan tadqiqotida, yangi harbiy xizmatchilarni texnik tayyorgarlikdan keyingi baholash orqali soft skillslarning o‘zgarishi o‘lchanadi. Ba’zi kompetensiyalar yaxshilanishi oson, boshqalari – qiyin ekanligi aniqlangan.

AQSh Armiyasi ta’limida soft skillsni aniqlash va rivojlantirish uchun reflection (o‘z-o‘rganish) mashqlari joriy etilgan. Bu metod orqali harbiylar o‘quv davomida erishilgan ko‘nikmalarni aniqlab, rivojlantirishi mumkin

Jadval 1. Davlatlar bo‘yicha soft va hard skills urg‘usi (0–10 ballik tizimda)

Davlatlar	Soft skills	Hard skills
AQSH	8	9
Rossiya	6	8
Xitoy	5	9

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harbiy tayyorgarlikda faqat texnik va jismoniy ko‘nikmalarga tayanish yetarli emas. Zamonaviy jangovar vaziyatlar – tezkor qaror qabul qilish, axborot oqimini boshqarish, hamkorlik va diplomatik muloqot qobiliyatini ham talab qiladi.

Jadval 1. Psixologik treninglardan keyin kursantlarda soft skills rivojlanish ko‘rsatkichlari (%) ***(Army University press ma’lumotlari asosida)***

Ko‘rsatkichlar	Treningdan oldin	Treningdan keyin
Stressga chidamlilik	45	72
Kommunikativ ko‘nikmalar	52	80
Liderlik qobiliyatlari	38	68
Jamoada ishlash	49	77

Xalqaro tajribaga ko‘ra, AQSHda ofitserlarni tayyorlash dasturida har bir modul soft skills elementlarini o‘z ichiga oladi. Rossiyada esa ko‘proq harbiy-intellektual va texnik tayyorgarlikka urg‘u beriladi, ammo so‘nggi yillarda psixologik barqarorlik bo‘yicha mashg‘ulotlar kuchaytirildi.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida “liderlik darslari”, “psixologik treninglar” va “stressga chidamlilik bo‘yicha mashg‘ulotlar”ni ko‘paytirish orqali xalqaro tajribaga yaqinlashish kuzatilmoqda.

AQSh Havo kuchlarida 2021-yilda 450 nafar yangi askar ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda soft skills bo‘yicha 17 kompetensiya baholangan. Natija: **63% askarda kommunikativ ko‘nikmalar, 57% askarda stressga chidamlilik, 42% askarda liderlik ko‘nikmalari yaxshilangan.**

NATO tadqiqotlariga ko‘ra, 2019–2023 yillarda o‘tkazilgan qo‘shma mashg‘ulotlarda soft skillsga ega bo‘lgan komandirlar 28% tezroq qaror qabul qilgan va 31% kamroq xatoga yo‘l qo‘ygan.

AQSh Havo kuchlari yangilarining 17 ta soft-skills kompetentsiyasini texnik tayyorgarlikdan tortib, 4 yillik xizmat davomida o‘lchagan tadqiqot natijalari mavjud.

Army ta’lim kurslarida reflection mashqlari soft skillsni aniqlash va rivojlantirishda muhim vosita sifatida joriy etilgan


Janubiy Afrika Operatsion Kuchlarida olib borilgan tadqiqotda muvaffaqiyatli harbiy operatsiya uchun ichki motivatsiya, qaror qabul qilish, kommunikatsiya, texnik bilimlar va jismoniy fitness kabi atributlar muhim deb topilgan.

Treninglar orqali integratsiya modeli: nazariya → amaliyot

Bosqich	Tavsifi
Nazariy tayyorgarlik	Soft skills nazariyasi, refleksiya, psixologik yondashuvlar.
Amaliy mashg‘ulotlar	Role-play, stressli vaziyat, team-building, simulyatsiyalar.
Holistik yondoshuv	Jismoniy – psixologik integratsiya, dasturlar.

Baholash va monitoring	360° baholash, reflekshions, treningdan keyingi so‘rovlar

Jadval 2. Psixologik treninglardan oldin va keyingi soft skills darajalari (%) ***(Army University press ma’lumotlari asosida)***



Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish asosida quyidagicha fikrlari keltirib o’tishimiz joiz:

- Harbiy ta’lim tizimida **soft va hard skillsni integratsiyalashgan holda** o‘qitish mexanizmlari joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

- Refleksion mashqlari va psixologik treninglarni muntazam qo‘llash soft skills rivojida samarali natija beradi.

- Simulyatsion mashg‘ulotlar (jangovar vaziyatlar, stress-testlar) orqali nazariy bilimlar amaliyotda mustahkamlanadi.

- Holistik yondashuv – jismoniy tayyorgarlik va psixologik mustahkamlikni birlashtirish orqali qo’llash istiqbolli.

- Baholash tizimida **360 darajali tahlil** (instruktor, kursant, guruhdosh bahosi)ni joriy qilish yutuqli jihatlarni ko’paytirishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarni tayyorlashda soft va hard skillsni uyg‘unlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Hard skills jangovar samaradorlikni ta’minlasa, soft skills askarlarning ijtimoiy-psixologik barqarorligi va jamoaviy hamkorligini mustahkamlaydi.

Harbiy xizmatchilar uchun soft skillsni rivojlantirish, ayniqsa psixologik treninglar orqali, dolzarb masala hisoblanadi. Treninglar stressga chidamlilik, kommunikativlik, liderlik va jamoada ishlash qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barron, L. G. & Rose, M. R. (2021). *Malleability of Soft-Skill Competencies Development with First-Term Enlisted Experience.* Journal of Military Learning.
2. Kirchner, M. (2018). *Reflection Exercises: A Tool for Developing Army Leader Competencies.* Journal of Military Learning.
3. U.S. Army (2023). *Holistic Health and Fitness (H2F) Program.* Military Review.
4. McKinsey & Company (2020). *Military Leadership Survey: Competencies for the Future.*
5. South African Journal of Industrial Psychology (2020). *Attributes for Success in Operational Forces.*
6. Havatzalot Program (2022). Israel Defense Forces Education Branch.
7. NATO Defence College Report (2023). *Soft Skills in Joint Operations.*
8. Veteran.com (2022). *Soft Skills Every Service Member Should Master.*
9. StudyCorgi (2021). *The Role of Soft Skills in Military Operations.*

OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASASIDA MASHG'ULOTLAR JADVALINI AVTOMATIK GENERATSIYA QILISH AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA JORIY ETISH

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti boshlig'ining o'rinbosari – o'quv va uslubiy ishlar bo'yicha rahbari p-k, h.f.d., professor ***Abdurayimov S.S***

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti o‘quv bo‘lim boshlig‘i p/p-k, h.f.f.d., ***Kuzibekov N.Sh***

Annotatsiya. *Maqolada harbiy oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlari jadvalini tuzish jarayonini elektronlashtirish va avtomatlashtirishning dolzarbligi, nazariy asoslari hamda amaliy yechimlari tahlil qilingan. An'anaviy - qo'lda jadval tuzish usulining kamchiliklari (mehnat sarfi, xatoliklar, resurslardan nooqilona foydalanish) ko'rsatib berilgan. Muallif tomonidan cheklovlarni qanoatlantirish va evristik algoritmlarga asoslangan avtomatlashtirilgan jadval tuzish tizimi ishlab chiqilgan. Tizimning harbiy ta'lim muassasasining yagona elektron axborot muhitiga (e-universitet) integratsiyalash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *harbiy ta'lim, raqamlashtirish, o'quv jarayoni, mashg'ulotlar jadvali, avtomatlashtirish, cheklovlarni qanoatlantirish, evristik algoritm, elektron ta'lim muhiti, e-universitet.*

Annotation. *The article analyzes the relevance, theoretical foundations, and practical solutions for the digitalization and automation of the class scheduling process in military higher educational institutions. The drawbacks of the traditional manual scheduling method—such as high labor intensity, errors, and inefficient resource utilization—are highlighted. The author has developed an automated scheduling system based on constraint satisfaction and heuristic*

algorithms. Furthermore, the possibilities of integrating the system into the unified electronic information environment (e-university) of a military educational institution are examined.

Keywords: *military education, digitalization, educational process, class schedule, automation, constraint satisfaction, heuristic algorithm, e-learning environment, e-university.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va raqamli texnologiyalarni barcha sohalarga, jumladan ta'lim boshqaruviga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida [1] ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish alohida ta'kidlangan bo'lsa, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida [2] davlat boshqaruvining barcha sohalarini, shu jumladan ta'lim sohasini, raqamlashtirish belgilab qo'yilgan. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida [3] ham o'quv jarayonini boshqarishning zamonaviy axborot tizimlari asosida tashkil etilishi muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

Harbiy oliy ta'lim tizimida bu jarayon alohida ahamiyat kasb etadi. 2026-yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va armiyani raqamlashtirish bo'yicha taqdimot bilan tanishar ekan, barcha oliy harbiy ta'lim muassasalariga institut maqomi berilgani, O'zbekiston Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etilgani va kursantlarga axborot texnologiyalari hamda sun'iy intellekt sohalari chuqur o'rgatilishi ta'kidlab o'tildi [4]. Shu bilan birga, mudofaa sohasida 50 dan ortiq axborot tizimi ishlab chiqilgani qayd etilgan [4], bu esa harbiy ta'lim muassasalarida ham o'quv jarayonini boshqaruvchi lokal axborot tizimlarini yaratish va joriy etish dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mashg'ulotlar jadvalini shakllantirish — istalgan oliy ta'lim muassasasi o'quv bo'limining eng mehnat talab qiluvchi vazifalaridan biridir. Vazifaning murakkabligi bir necha omil bilan bog'liq: bitta o'qituvchi bir vaqtning o'zida faqat bitta guruhda dars o'ta oladi; bitta xona bir vaqtning o'zida faqat bitta mashg'ulot uchun band bo'lishi mumkin; har bir o'qituvchining haftalik uslubiy kuni (dars yuklamasiz kuni) va tasdiqlangan yo'qlik kunlari (kasallik, ta'til, xizmat safari) hisobga olinishi lozim; institut miqyosidagi tadbirlar va dam olish kunlarida darslar butunlay to'xtatiladi. Guruhlar, fanlar va o'qituvchilar soni ortgan sari bunday cheklovlarni qo'lda muvofiqlashtirish deyarli imkonsiz bo'lib qoladi va natijada jadvalda ziddiyatlar (bitta o'qituvchi yoki xonaning bir vaqtda ikki joyga tayinlanishi) yuzaga keladi.

Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institutining "E-Universitet" avtomatlashtirilgan boshqaruv axborot tizimi tarkibida mashg'ulotlar jadvalini avtomatik generatsiya qiluvchi maxsus dasturiy modul ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Maqolaning maqsadi — ushbu modulning me'moriy yechimlarini, generatsiya

algoritmini va uning real institut sharoitida qo'llanilishi natijalarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: 1) mashg'ulotlar jadvalini tuzish masalasini rasmiylashtirilgan cheklovlar tizimi sifatida ifodalash; 2) tizimning qatlamli me'moriyatini va ma'lumotlar modelini tavsiflash; 3) avtomatik generatsiya algoritmining ishlash mexanizmini yoritish; 4) pedagoglarning yo'qlik arizalarini kelishish jarayoni bilan jadval generatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish; 5) tizimning real amaliy natijalarini tahlil qilish va uning cheklovlarini aniqlash.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

O'quv jadvalini avtomatik tuzish masalasi (University Course Timetabling Problem, UCTP) informatika fanida yarim asrdan ortiq vaqtdan beri o'rganilib kelinmoqda. Dastlabki tadqiqotlar C. Gotlieb tomonidan 1963-yilda amalga oshirilgan bo'lib, unda sinf-o'qituvchi jadvalini tuzishning matematik modeli taklif etilgan [9]. Keyinchalik A. Wren jadval tuzish, rejalashtirish va navbatlashtirish masalalarining o'zaro bog'liqligini asoslab bergan [9].

Zamonaviy tadqiqotlarda jadval tuzish masalasini yechishning bir necha guruh usullari qo'llanilmoqda. Genetik algoritmlar (Genetic Algorithm) eng ko'p tarqalgan yondashuvlardan biri bo'lib, ular optimal yechimni topish uchun tabiiy tanlanish tamoyillaridan foydalanadi [3, 5]. M. A. Al-Betar va A. T. Khader universitet kurslari jadvalini tuzish uchun uyg'unlik izlash (harmony search) algoritmini taklif etganlar [8]. H. Alghamdi va hammualliflar tomonidan bajarilgan tahlilda genetik algoritmlar, simulyatsiyalangan bikrlanish (simulated annealing) va tabu-qidiruv (tabu search) kabi metaevristik usullarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Cheklovlarni qanoatlantirish dasturlash yondashuvi jadval tuzishda muhim o'rin tutadi. Bunda masala o'zgaruvchilar, ularning qiymatlar sohasi va cheklovlar orqali ifodalanadi [4, 10]. So'nggi yillarda sun'iy intellekt va mashinali o'qitish usullarini jadval tuzishga tatbiq etish tendensiyasi kuzatilmoqda [2, 6]. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, harbiy oliy ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlarini (aniq belgilangan kunlik yuklama, naryad kunlari, harbiy intizom talablari) inobatga oluvchi maxsus yechimlar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Harbiy oliy ta'lim muassasasida jadval tuzishning o'ziga xos xususiyatlari

Harbiy oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlari jadvalini tuzish fuqarolik oliy ta'lim muassasalaridan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Ushbu farqlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

birinchidan, kunlik o'quv yuklamasining qat'iy belgilanganligi. Harbiy ta'limda har bir o'quv guruhi (vzvod) uchun kuniga aniq belgilangan miqdorda mashg'ulot (odatda uchta juft) o'tkazilishi talab etiladi, bo'sh vaqt qoldirilmaydi;

ikkinchidan, naryad (navbatchilik) va boshqa harbiy xizmat majburiyatlari tufayli ayrim kunlarda guruhlarning mashg'ulotlardan ozod etilishi;

uchinchidan, mashg'ulot turlarining ko'p qirraligi — ma'ruza, seminar, guruhli mashg'ulot, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti hamda maxsus harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari;

to'rtinchidan, o'quv-moddiy bazaning cheklanganligi — maxsus auditoriyalar, kompyuter sinflari, laboratoriyalar va trenajyorlarning soni chegaralangan bo'lib, ularga bo'lgan talab yuqori.

Sanab o'tilgan xususiyatlar harbiy oliy ta'lim muassasasi uchun jadval tuzish algoritmini ishlab chiqishda maxsus yondashuvni talab etadi.

Avtomatlashtirilgan jadval tuzish tizimining algoritmik asoslari

Muallif tomonidan harbiy oliy ta'lim muassasasi uchun avtomatlashtirilgan mashg'ulotlar jadvalini tuzish tizimi ishlab chiqildi. Tizim asosida cheklovlarni qanoatlantirish va evristik qidiruv usullarining kombinatsiyasi yotadi. Jadval tuzish masalasi quyidagi cheklovlar to'plamini qanoatlantirishi lozim:

— qat'iy cheklovlar: bir o'qituvchi bir vaqtda faqat bitta guruhga dars berishi; bir auditoriyada bir vaqtda faqat bitta mashg'ulot o'tkazilishi; bir guruh bir vaqtda faqat bitta mashg'ulotda ishtirok etishi; auditoriya sig'imining guruhdagi tinglovchilar soniga mos kelishi;

— yumshoq cheklovlar: ma'ruza mashg'ulotlarining kun boshiga joylashtirilishi; mashg'ulot turlariga mos auditoriyalardan foydalanish; mavzular ketma-ketligining uzluksizligi.

Algoritm ishining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat. Birinchi bosqichda har bir o'quv guruhi uchun haftalik mashg'ulotlar ro'yxati shakllantiriladi: guruhga biriktirilgan fanlar navbatma-navbat taqsimlanadi, mavzu raqamlari uzluksiz ravishda oshib boradi. Ikkinchi bosqichda mashg'ulotlar vaqt oralig'i (slot) bo'yicha joylashtiriladi — har bir kun va juft uchun barcha guruhlar aylanib chiqilib, o'qituvchi va auditoriya bandligi tekshirilgan holda mashg'ulot tayinlanadi. Bu yondashuv cheklangan resurslarni (ayniqsa maxsus auditoriyalarni) guruhlar o'rtasida adolatli taqsimlash imkonini beradi. Uchinchi bosqichda har bir hafta uchun jadval bir necha marta qayta tuzilib, eng kam to'qnashuvli variant tanlanadi.

Tizim butun semestr davomida jadvalni uzluksiz tuzadi, bunda mavzular ketma-ketligi va fanlar navbati haftadan-haftaga davom ettiriladi. Amaliy sinovlar shuni ko'rsatdiki, o'quv rejasi to'liq biriktirilgan guruhlar uchun tizim kunlik mashg'ulotlarning 76–86 foizini to'liq (kuniga uchta juft) va ziddiyatsiz taqsimlaydi; qolgan qismini o'quv bo'limi qo'lda tahrirlash orqali yakunlaydi.

Mashg'ulotlar jadvalini tuzish masalasi umumiy holda universitet kurslari jadvalini tuzish masalasi (University Course Timetabling Problem — UCTP) sinfiga kiradi va NP-murakkab (NP-hard) hisoblanadi. Rasmiy jihatdan masala quyidagicha ifodalanishi mumkin: berilgan guruhlar to'plami G, o'qituvchilar to'plami T, xonalar to'plami X, vaqt oralig'lari (para) to'plami P va kunlar to'plami K = {1, …, 6} (dushanbadan shanbagacha) uchun, har bir "dars birligi" (fan–o'qituvchi–guruh biriktiruvi) L uchun (kun, para, xona) uchligini shunday tayinlash kerakki, quyidagi qattiq cheklovlar (hard constraints) buzilmasin: a) bitta guruh bir vaqtda faqat bitta mashg'ulotda ishtirok etadi; b) bitta o'qituvchi bir vaqtda faqat bitta guruhda dars beradi; v) bitta xona bir vaqtda faqat bitta mashg'ulot uchun band bo'ladi; g) o'qituvchi o'zining uslubiy kunida yoki tasdiqlangan yo'qlik kunlarida darsga tayinlanmaydi; d) institut miqyosida "darslar bekor" deb belgilangan kunlarda hech qanday mashg'ulot joylashtirilmaydi. Bunga qo'shimcha ravishda yumshoq cheklovlar (soft constraints) ham inobatga olinadi: ma'ruza turidagi mashg'ulotlarning kun boshidagi (1–2-para) vaqtlarga ustuvor joylashtirilishi va imkon qadar har bir guruhning har bir faol kunida kamida bitta mashg'ulot bo'lishi maqsad qilinadi.

Tizim Laravel 10 (PHP 8.1+) freymvorki va PostgreSQL ma'lumotlar bazasi asosida, xizmat-yo'naltirilgan (service-oriented) qatlamli me'moriyat asosida qurilgan. Boshqaruvchi (controller) qatlami faqat so'rovlarni qabul qilish va javobni shakllantirish bilan shug'ullanadi; barcha biznes-mantiq alohida xizmat (service) klasslariga, generatsiya algoritmining o'zi esa mustaqil, ma'lumotlar bazasidan mustaqil (DB-free) domen klassiga ajratilgan — bu yondashuv algoritmni ma'lumotlar bazasisiz avtomatik testlardan o'tkazish imkonini beradi. Tizimning asosiy modullari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Tizimning asosiy dasturiy modullari va ularning vazifalari

№	Modul (klass) nomi	Qatlam	Bajaradigan vazifasi
1	DarsJadvalGenerator Controller	Boshqaruv (HTTP)	Foydalanuvchi so'rovlarini qabul qilish, jadval generatsiyasi va Excelga eksport amallarini ishga tushirish
2	TimetableDataProvider	Xizmat (Service)	Ma'lumotlar bazasidan guruh, o'qituvchi, xona, dars va cheklov ma'lumotlarini yig'ib, algoritm uchun tayyor holatga keltirish

№	Modul (klass) nomi	Qatlam	Bajaradigan vazifasi
3	TimetableGenerator	Domen (algoritm)	Ochko'z + tasodifiy qayta ishga tushirish algoritmi asosida haftalik va semestrlik jadvalni shakllantirish
4	TimetablePersister	Xizmat (Service)	Generatsiya natijasini joriy jadvalga va to'liq semestr arxiviga saqlash
5	TimetableRegeneration Service	Xizmat (Service)	Yo'qlik arizasi yakuniy tasdiqlanganda tegishli semestrlar jadvalini avtomatik qayta generatsiya qilish
6	TimetableExcel Exporter	Xizmat (Service)	Tayyor jadvalni Excel (.xlsx) formatiga eksport qilish
7	TimetableCalendar	Yordamchi (Support)	Kalendar sana bilan hafta-kun panjarasi o'rtasidagi hisob-kitoblar
8	Rng	Yordamchi (Support)	Determinstik (seedga asoslangan) tasodifiy sonlar generatori

Generatsiya algoritmi uchun kirish ma'lumotlari institut va semestr doirasida quyidagi asosiy obyektlardan shakllantiriladi: guruhlar (faol tinglovchilar soni bilan), o'qituvchilar (kafedrasi, uslubiy kuni va tasdiqlangan yo'qliklari bilan), xonalar (kafedraga tegishliligi va sig'imi bilan), dars vaqtlari (paralar), hamda fan–o'qituvchi–guruh biriktiruvlari (haftalik soat yuklamasi va mashg'ulot turi — ma'ruza yoki amaliy — bilan). Institut miqyosidagi tadbirlar va o'qituvchilarning tasdiqlangan yo'qliklari sana oralig'idan (boshlanish–tugash sanasi) semestrning hafta-kun panjarasiga (hafta raqami – kun) maxsus kalendar mexanizmi orqali avtomatik o'giriladi, bu esa istalgan sana oralig'ini generatsiya algoritmi tushunadigan formatga aniq va xatosiz aylantirishni ta'minlaydi.

Avtomatik jadval generatsiyasi algoritmi

Tizimning yadrosini tashkil etuvchi generatsiya algoritmi konstruktiv yondashuvni tasodifiy qayta ishga tushirish (randomized-restart) strategiyasi bilan uyg'unlashtiradi. Algoritm butun semestrni bir yo'la emas, balki hafta bo‘yicha generatsiya qiladi, bu esa har bir qadamdagi qidiruv fazosini boshqarib bo'ladigan darajada saqlaydi. Algoritmning asosiy bosqichlari quyidagicha:

1) Har bir hafta uchun, har bir guruhning shu haftadagi faol kun × para slotlari soniga mos ravishda, guruhning barcha darslari navbat bilan (round-robin tartibida) taqsimlanadi va har bir dars uchun ketma-ket mavzu raqami beriladi.

2) Shakllangan haftalik mashg'ulotlar ro'yxati uchun tizim ketma-ket 40 martagacha tasodifiy qayta ishga tushirish (restart) amalga oshiradi: har bir urinishda guruhlarning joylashtirish tartibi tasodifiy, ammo takrorlanuvchi ("seed"langan) tarzda aralashtiriladi.

3) Har bir urinish doirasida kun va para bo'yicha ketma-ket yurib, har bir slot uchun navbatdagi guruhning navbatdagi darsini joylashtirishga harakat qilinadi; joylashtirish faqat guruh, o'qituvchi va xona band bo'lmagan, o'qituvchining uslubiy kuni yoki tasdiqlangan yo'qlig'i to'g'ri kelmagan taqdirdagina amalga oshiriladi; xona tanlashda avvalo darsning "o'z" kafedrasiga tegishli xona, so'ngra sig'imi mos keluvchi xona, oxirida esa istalgan bo'sh xona ko'rib chiqiladi.

4) Har bir kun-para uchun ikkinchi, "yumshatilgan" o'tish amalga oshiriladi — bunda ma'ruza turidagi darslar ham, agar slot bo'sh qolgan bo'lsa, o'z vaqt oralig'idan tashqarida joylashtirilishi mumkin; bu jadvalning to'lish darajasini oshiradi.

5) 40 ta urinishning eng kam joylashtirilmagan mashg'ulotga ega bo'lgani "eng yaxshi" natija sifatida tanlanadi; agar biror urinishda barcha darslar to'liq joylashtirilsa, qidiruv muddatidan oldin to'xtatiladi.


6) Yakuniy bosqichda "bo'sh kun"larni tuzatish (repair) protsedurasi ishga tushiriladi — har bir guruhning, mashg'ulot bo'lishi kutilgan-u, biror sababga ko'ra bironta ham dars joylashtirilmagan kunlari uchun mavjud navbatdagi darslardan foydalanib, yana bir marta joylashtirish urinishi amalga oshiriladi. Bu protsedura yangi tasodifiylik kiritmaydi (generatsiyaning deterministikligini buzmaydi) va faqat qo'shimcha joylashtirishlar kiritishi mumkin, mavjud joylashtirishlarni o'chirmaydi yoki ko'chirmaydi.

Algoritmning tasodifiy sonlar generatori (Rng) — mulberry32 deb nomlangan, 32-bitli arifmetikaga asoslangan determinstik (seedga asoslangan, takrorlanuvchi) generator sifatida amalga oshirilgan. Bu, bir tomondan, generatsiya jarayonini avtomatik testlardan (unit-testing) o'tkazish imkonini bersa, ikkinchi tomondan — bir xil kirish ma'lumotlari doim bir xil jadvalni berishini, ya'ni natijaning takrorlanuvchanligini kafolatlaydi.

Pedagogning yo'qlik arizasini kelishish jarayoni

Tizimning muhim xususiyatlaridan biri — pedagogning darsga chiqa olmasligi (kasallik, ta'til, xizmat safari) haqidagi arizasini ikki bosqichli tasdiqlash zanjiri orqali jadval generatsiyasi bilan avtomatik bog'lashdir. Ariza avval pedagog tomonidan yaratiladi va "Yuborilgan" holatiga o'tadi; keyin kafedra boshlig'i o'z

kafedrasi pedagogining arizasini ko'rib chiqadi ("Kafedra tasdiqladi" yoki "Rad etilgan"); nihoyat, o'quv bo'limi yakuniy qarorni qabul qiladi ("Tasdiqlangan" yoki "Rad etilgan"). Faqat va faqat ikkala bosqichdan ham o'tgan, "Tasdiqlangan" holatidagi ariza jadval generatsiyasi algoritmiga ta'sir qiladi — bu qoida tizim darajasida qat'iy ta'minlangan (3-jadval). Bundan tashqari, o'quv bo'limi arizani yakuniy tasdiqlagan zahoti, tizim ushbu pedagogning yo'qlik sanalarini qamrab oladigan, allaqachon generatsiya qilingan barcha semestrlar jadvalini avtomatik ravishda qayta generatsiya qiladi — bu esa o'quv bo'limi xodimidan qo'shimcha amal talab qilmaydi va inson omili tufayli jadvalning eskirib qolishining oldini oladi.



1-rasm. Pedagoglarning yo'qlik arizalarini kelishish interfeysi (o'quv bo'limi ko'rinishi)


1-rasmda o'quv bo'limi xodimi ko'radigan "Pedagoglar yo'qligi — kelishuv" sahifasining umumiy ko'rinishi keltirilgan. Sahifa ikki blokdan iborat: yuqoridagi "Kelishuv kutilmoqda" jadvalida faqat kafedra boshlig'i tomonidan allaqachon tasdiqlangan, ammo hali o'quv bo'limining yakuniy qarorini kutayotgan arizalar ko'rsatiladi (Pedagog, Sababi, Boshlanishi, Tugashi, Pedagog izohi, Kafedra izohi va Amallar ustunlari bilan); pastdagi "Yakuniy qarorlar" jadvalida esa allaqachon tasdiqlangan yoki rad etilgan arizalarning tarixi aks etadi. Interfeysning bu tuzilishi 3-jadvalda keltirilgan ikki bosqichli tasdiqlash zanjirining (kafedra → o'quv bo'limi) tizimda qanday amalga oshirilganini aniq ko'rsatadi: birinchi bosqichdan o'tmagan, ya'ni "Yuborilgan" holatidagi arizalar bu sahifada umuman ko'rinmaydi — bu esa tasdiqlash tartibini chetlab o'tish imkoniyatini istisno qiladi.

2-jadval. Pedagogning yo'qlik arizasini kelishish bosqichlari

№	Holat (status)	Kim qabul qiladi	Jadval generatsiyasiga ta'siri

1	Yuborilgan	Pedagog tomonidan yaratiladi	Ta'sir qilmaydi
2	Kafedra tasdiqladi	Kafedra boshlig'i	Ta'sir qilmaydi (o'quv bo'limi qarorini kutadi)
3	Tasdiqlangan	O'quv bo'limi (yakuniy)	To'liq ta'sir qiladi; jadval avtomatik qayta generatsiya qilinadi
4	Rad etilgan	Kafedra boshlig'i yoki o'quv bo'limi	Ta'sir qilmaydi; pedagog arizani qayta tahrirlab yuborishi mumkin

O'quv bo'limi xodimi institut miqyosidagi tadbirlarni, dam olish kunlarini va ta'tillarni belgilangan sana oralig'i va turi bilan tizimga kiritish imkoniyatiga ega (5-jadval). Har bir yozuv uchun alohida "darslar bekor qilinsinmi" belgisi mavjud — faqat shu belgi yoqilgan yozuvlar generatsiya algoritmiga ta'sir qilib, ko'rsatilgan sana oralig'idagi kunlarda barcha guruhlar uchun mashg'ulotlar rejalashtirilmasligini ta'minlaydi. Bu modul, xuddi yo'qlik moduli singari, sana oralig'ini semestrning hafta-kun panjarasiga aylantiruvchi umumiy kalendar mexanizmidan foydalanadi, bu esa ikkala manbadan kelayotgan cheklovlarning bir xil aniqlik va mantiq bilan qayta ishlanishini ta'minlaydi.




2-rasm. Institut miqyosidagi tadbirlar va dam olish kunlarini boshqarish interfeysi

2-rasmda "Tadbirlar va dam olish kunlari" sahifasi tasvirlangan. Sahifadagi izohda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilganidek ("Bu yerda belgilangan sana oraliqlarida (agar «Darslar bekor» yoqilgan bo'lsa) mashg'ulotlar jadvali generatsiyasi dars qo'ymaydi"), bu interfeys 3.6-bo'limda tavsiflangan mexanizmning boshqaruv

paneli hisoblanadi. Xodim "Tadbir qo'shish" tugmasi orqali yangi yozuv kiritadi va uning nomini, turini, boshlanish–tugash sanasini hamda "darslar bekor" belgisini kiritadi; mavjud yozuvlar ro'yxati qidiruv maydoni orqali filtrlanadi. Aynan shu sahifadan kiritilgan ma'lumotlar TimetableDataProvider orqali generatsiya algoritmining blockedSlots kirish parametriga aylanadi.

Generatsiya yakunlangach, natija ikki xil ko'rinishda saqlanadi: 1) joriy ("live") jadval faqat kelajakdagi (bugungi sanadan boshlab) kunlar uchun yangilanadi — o'tib ketgan kunlar hech qachon o'chirilmaydi yoki qayta yozilmaydi, chunki ularga allaqachon davomat va baholash yozuvlari bog'langan bo'lishi mumkin; 2) butun semestrning to'liq nusxasi (arxiv) alohida saqlanadi, bu esa xodimlarga istalgan haftani, shu jumladan o'tib ketgan haftalarni ham, tizim orqali ko'rish imkonini beradi. Shuningdek tizim tayyor jadvalni bitta tugma bosish orqali to'liq semestr uchun Excel (.xlsx) formatida yuklab olish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa jadvalni chop etish yoki tashqi tizimlarga uzatish jarayonini soddalashtiradi.

Tavsiya etilayotgan tizim Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institutida amaliy sinovdan o'tkazildi. 2025–2026-o'quv yilining bahorgi semestri uchun 29 ta o'quv guruhi, 29 haftalik davr va 555 ta fan–o'qituvchi biriktiruvi asosida to'liq semestrlik mashg'ulotlar jadvali bir necha soniya ichida avtomatik generatsiya qilindi (4-jadval). Bu ko'rsatkichning o'zi — ilgari bir necha kun davomida qo'lda, ko'plab tahririy takrorlashlar bilan bajarilgan ishning endi bir necha soniyaga tushishi — tizimning amaliy samaradorligini yaqqol ko'rsatadi.



3-rasm. Mashg'ulotlar jadvali generatsiyasi natijasi (2025–2026-o'quv yili bahorgi semestri, 1-hafta)

3-rasmda tizimning "Mashg'ulotlar jadvali generatsiyasi" sahifasi — algoritm ishlagan yakuniy natija — keltirilgan. Sahifaning yuqori qismidagi statistik panelda

so'nggi generatsiyaning umumlashtirilgan ko'rsatkichlari aks etadi, pastda esa tanlangan haftaning to'liq jadvali — kunlar, paralar, vaqt oralig'lari va har bir guruh (A-4/1-22, A-4/2-22, CHQ-4/9-22 va h.k.) uchun fan kodi, mavzu raqami, o'qituvchi (harbiy unvoni qisqartirilgan holda) va xona raqami — jadval ko'rinishida taqdim etiladi. Har bir fan o'ziga xos rangda ajratilgan, bu esa xodimga jadvalni vizual jihatdan tezroq tahlil qilish imkonini beradi. "1-hafta"dan "29-hafta"gacha bo'lgan tugmalar orqali istalgan haftaga o'tish, "Excel (butun semestr)" tugmasi orqali esa to'liq semestrni yuklab olish mumkin.

Tizimning yana bir amaliy afzalligi — o'zini o'zi tuzatuvchi (self-healing) xususiyatidir: pedagogning yo'qlik arizasi yakuniy tasdiqlangan zahoti unga tegishli, allaqachon generatsiya qilingan jadval avtomatik qayta hisoblanadi. Bu xususiyat, xususan, o'quv yili davomida tez-tez kuzatiladigan holat — o'qituvchining kutilmagan kasalligi yoki xizmat safari — uchun jadval izchilligini inson omilidan mustaqil ravishda ta'minlaydi.

Tizimning cheklovlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: birinchidan, xonalar bo'yicha sig'im va tur (masalan, laboratoriya, o'quv sinfi) farqlanishi hozircha to'liq shakllantirilmagan, bu xona tanlash mantiqini soddalashtiradi; ikkinchidan, algoritm faqat qattiq cheklovlarni kafolatlaydi, "har bir guruhning har kuni kamida bitta darsi bo'lishi" kabi yumshoq mezon esa faqat eng yaxshi harakat (best-effort) darajasida ta'minlanadi. Kelgusi tadqiqotlar doirasida xonalar tipologiyasini kengaytirish, shuningdek generatsiya sifatini yanada oshirish maqsadida mahalliy qidiruv (local search) yoki metaevristik usullar (masalan, simulyatsion tavlanish — simulated annealing) bilan boyitish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Harbiy oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlari jadvalini tuzishni avtomatlashtirish o'quv jarayoni sifatini oshirish, mehnat va vaqt sarfini kamaytirish hamda o'quv-moddiy bazadan oqilona foydalanishning muhim omili hisoblanadi. An'anaviy qo'lda jadval tuzish usuli zamonaviy talablarga javob bermaydi va inson omili bilan bog'liq xatoliklarga moyil.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan cheklovlarni qanoatlantirish va evristik algoritmlarga asoslangan tizim harbiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini (kunlik qat'iy yuklama, naryad kunlari, mashg'ulot turlarining rang-barangligi) inobatga olgan holda ziddiyatsiz jadval tuzishni ta'minlaydi. Tizimning e-universitet muhitiga integratsiyalanishi bosqichma-bosqich tasdiqlash oqimini joriy etish va o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqani takomillashtirish imkonini beradi.

Kelgusi tadqiqotlar tizimga sun'iy intellekt elementlarini joriy etish, mashg'ulotlar taqsimotini sifat mezonlari (o'qituvchilar va tinglovchilar uchun

qulaylik) bo'yicha optimallashtirish hamda mobil ilovalar orqali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son // Milliy huquqiy axborot bazasi, lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "«Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2020-yil 5-oktyabr, PF-6079-son // Milliy huquqiy axborot bazasi, lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2019-yil 8-oktyabr, PF-5847-son // Milliy huquqiy axborot bazasi, lex.uz.
4. Harbiy ta'lim va armiyani raqamlashtirish yangi bosqichga olib chiqiladi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy internet-sahifasi. – 2026. – 7-may. – URL: https://president.uz/oz/lists/view/9184
5. Qodirov A.Sh., Eshpo'latova G.Sh., Qodirova H.Z. LMS ta'limning boshqaruv tizimining bugungi kundagi islohotlari // Science and Education. – 2026. – Vol. 7, № 5. – B. 202–209.
6. Niyazov E.Sh. Harbiy pedagogika // ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research. – 2025. – Vol. 2, № 4. – P. 125–129.
7. Umarova A.S. Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, № 4. – B. 1307–1316.
8. Bo'riyeva M.A. Elektron jurnal prof-emis.edu.uz // Modern Education and Development. – 2025. – Vol. 19, № 4. – B. 439–444.

HARBIY XIZMATCHILARNING MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA VATANGA SAQOQAT FAZILATINING O‘RNI

Otokulov A.S., t.f.n., dotsent Abdigapirov A.A., dotsent Idiyev E.I.
Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamiyat o‘zining madaniyati, ijtimoiy muhiti, insoniy fazilatlarida namoyon bo‘lishi, insonning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat tushunchalari har bir jamiyat a’zosi uchun muhim hisoblanishi, jamiyat, millat va xalq farovonligiga erishish yo‘lida alohida o‘rin tutishi lozimligi, hamda, harbiy xizmatchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida Vatanga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish kerakligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ma’naviyat, vatanparvarlik, Vatanga sadoqat, mafkura, qadriyat, ta’lim-tarbiya, fazilat, axloq, tarix.*

Kirish

Ayni paytda bizning jamiyatimiz erishilgan yutuqlarimizga maxliyo bo‘lmasdan, xotirjamlikka berilmasdan, erishayotgan muvaffaqiyatlarga tanqidiy nazar bilan qarash lozim bo‘ladi, shunda oldimizda turgan ma’naviyat bo‘yicha qilishimiz kerak bo‘lgan jamiyatimizning farovon hayotini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan maqsad va bir qator dolzarb vazifalarimiz borligini hayotning o‘zi yaqqol ko‘rsatib beradi.

Tarixning barcha davrlarida millatning yetuk vakillari tomonidan ma’naviy sohalarni yanada takomillashtirish yo‘lida amaliy harakatlar amalga oshirilgan.

San’atimiz va adabiyotimiz durdonalari, xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlari, axloqiy, badiiy, ilmiy, diniy merosi milliy qadriyatlarimizning asoslardir. Ular ajdodlardan-avlodlarga o‘tib, avaylab-asrab kelinmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi me’morchilik yodgorliklari biz uchun qadrli, muqaddas bo‘lib, ma’naviy boyliklarimizning bir qismi hisoblanadi.

Buyuk ajdodlarimiz asrlar davomida xalqimizni ezgu g‘oyalari bilan millatni turli tahdidlardan himoya qilib, o‘ziga xos ma’naviyatiga ega bo‘ldi.

Jamiyat o‘ziningning madaniyati, ijtimoiy muhiti, insoniy fazilatlarida namoyon bo‘ladi. Forobiy yozganidek, faqat axloqiy qadriyatlar, adolat, halollik, barqarorlik, xayr-ehson, ezgulik jamiyat ruhini yuksaltiradi. Ijtimoiy muhitdagi taraqqiyot ma’naviy rivojlanishdan boshlanadi. Ma’naviy kamolotning asosi – tarix, Vatan, kelajak avlod oldidagi mas’uliyatimizni his qilishdir.

Agar jamiyatning tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi - ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy kadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz [1].

Insonning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat degan tushunchalar har bir jamiyat a’zosi uchun muhim hisoblanishi, jamiyat, millat va xalq farovonligiga erishish yo‘lida alohida o‘rin tutishi lozim.

Bolalar va o‘smirlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan sust rivojlanganligi va ulardagi o‘ziga xos xususiyatlar (o‘zgaruvchanlik, qo‘zg‘aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur’atsizlik va boshqalar) deviant xulqning (jamiyatda qabul qilingan normalar va qoidalarga muvofiq kelmaydiganb ulardan og‘ishgan (farqli) xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxs) kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Shaxsning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi esa ijtimoiy turmushda vujudga kelgan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksalishiga alohida e’tibor berilmoqda. Bu yo‘lda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik, armiya bilan xalq birdamligini yanada mustahkamlash alohida o‘rin egallaydi. [2]

Shaxsiy tarkibda ma’naviy-axloqiy va harbiy-kasbiy sifatlarni shakllantirish hamda mustahkamlash, shuningdek, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan fazilatlarga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida tizimli ravishda ma’naviy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Harbiy xizmatchilar bilan olib boriladigan ma’naviy tarbiya jarayonida Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy barqarorlik, mehr-oqibat, mas’uliyat, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik [3] kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlarning eng muhimi Vatanga sadoqatdir. Vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi va mustaqilligini himoya qilish yo‘lida fidoyilik bilan yashash, ona xalqimizning sharafini himoya qilish, uning baxtu saodati uchun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasini baxsh etish – eng muqaddas va olijanob burchlardan biri hisoblanadi.

Vatanparvarlik serqirra tushuncha bo‘lib, u tarixiy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma’no-mazmun bilan boyib boradi. Vatan manfaatlari, qadr-qimmati, istiqboli va uning ravnaqiga bo‘lgan muhabbat qancha chuqur anglansa, Vatanparvarlik tuyg‘usi shuncha yuksak bo‘ladi.

Turli tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy taraqqiyot bosqichlarida Vatanparvarlik yangi mazmun kasb etib boradi. Haqiqiy Vatanparvarlik – Vatanga, ona zaminga, o‘z xalqiga chuqur muhabbat bilan yashash, uning taraqqiyoti va manfaatlari yo‘lida astoydil mehnat qilish, zarurat tug‘ilganda esa uni himoya qilish yo‘lida jonini ham ayamaslikni anglatadi.

Har bir sohada Vatanimiz qo‘lga kiritayotgan muvaffaqiyatlardan quvonish, og‘ir damlarda uning taqdiriga befarq qolmaslik, yurtimiz bilan faxrlanish, uning har bir qarich yeri, har bir g‘ishti va giyohiga, qadimiy hamda zamonaviy obidalariga, ilm-fan va san’atdagi yutuqlariga, moddiy va ma’naviy boyliklariga hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish – bularning barchasi Vatanparvarlikning mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda yoshlarda Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va ularni Vatanga muhabbat hamda sadoqat ruhida tarbiyalash ulkan ahamiyatga ega. Inson o‘z yurtini qanday bo‘lsa, shundayligicha sevishi, uning taraqqiyoti uchun barcha imkoniyatlarini safarbar etishi lozim.

Jamiyat adolatsizlikka chidamaydi, buni unutish mansabdor shaxsni salbiy tomonlari desak, agar adashmagan bo‘lamiz. O‘z qadrini bilgan inson maqtovga zoriqmaydi, mas’uliyatli burchni og‘ishmay, halol ado etish uchun juda katta aql-idrok va fahm-farosat kerak bo‘ladi.

Inson o‘z burchini anglagani sari uning zimmasida mas’uliyat hissi ortib boradi. Qachonki inson oilasi oldidagi burchni anglab yetsa, u jamiyat oldida mas’ulligini tushunadi. Qachon inson jamiyat oldidagi burchini anglasa, unda shaxsiy daxldorlik hissi paydo bo‘ladi [4].

Shaxsning erkinlik va ijtimoiy mas’uliyatga ongli munosabatini shakllantirishda yana bir muhim omil bu ijtimoiy muhitdir. Ijtimoiy muhitni qay darajada shakllanganligiga qarab yoshlarda mas’uliyat tuyg‘usi qaror topadi va aksincha. Ma’lumki, har bir shaxs o‘z atrofida kishilarning ma’naviy madadini sezib tursagina uning qobiliyati va insoniy hususiyatlarida o‘sish, rivojlanish, o‘zlikni anglash sodir bo‘ladi. Bu jihatdan ijtimoiy tarbiyani amalga oshirishda ijtimoiy muhitning roli ayniqsa kattadir [5].

Harbiy xizmatchilarning ta’lim-tarbiya jarayonida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish ustuvor ahamiyatga ega. Ular Vatanparvarlik, burchga sadoqat, mas’uliyat, milliy g‘urur va jangovar ruhni mustahkamlashi lozim. Bu tuyg‘ular harbiy xizmatchilarni Vatan himoyasi yo‘lida o‘zini ayamaydigan, jonini ham fido qilishga tayyor insonlar etib shakllantiradi.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlar insonni yuksak ma’naviyat sari yetaklaydi, uning ichki va tashqi olamini shakllantiradi hamda jamiyatda o‘zaro munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ushbu fazilatlar umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqadi. Ular insonning dunyoqarashi, g‘oyasi, fikri va tasavvurini boyitib, uni axloqiy jihatdan yuksaltirib, sabr, kechirimlilik, bir-biriga yordam berish, sodiqlik, adolat va halollik kabi insoniy xislatlarni rivojlantiradi. Shu orqali harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlari barqaror rivojlanadi.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlar har bir harbiy xizmatchini mas’uliyatli bo‘lishga undaydi. Bu esa o‘z-o‘zini tarbiyalash, boshqalarni hurmat qilish, oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Yuksak axloqiy qadriyatlar, mas’uliyatlilik, Vatanparvarlik, irodalilik, mafkuraviy barqarorlik va ijodiy (kreativ) fikrlash nafaqat harbiy xizmatchilar, balki barcha fuqarolar uchun ham juda muhimdir. Ushbu fazilatlar ularning kundalik faoliyatini samarali boshqarishda muhim o‘rin tutadi.

Harbiy xizmatchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida ta’lim-tarbiya jarayonlarini yanada takomillashtirish zarur. Bu ularning yuksak axloqiy tamoyillarga amal qilishini ta’minlab, jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik samaradorligini oshiradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoev., Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. “Tasvir” nashriyot uyi Toshkent – 2021. 4-b.

2. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Qurolli Kuchlar Akademiyasi. “Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma’naviy-

ma’rifiy texnologiyalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami. 2019 yil, yanvar. 34-b.

3. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. 10-b.

4. U. Alimov. Oilada farzand tarbiyasi “Movarounnahr”. nashriyoti, Toshkent 2019. 36-b.

5. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasida rahbar kadrlar oldida turgan vazifalar: mavjud holat, muammolar va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. Toshkent, 2019. - 15 b.

IT SOHASI MUTAHASISLARIDA VATANPARVARLIK VA MILLIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKILLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

G‘affarova Nazira Fayzulla qizi

TAFU Psixologiya kafedrasi o’qituvchisi

Nizomiy nomidagi O’zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail:naziragaffarova@gmail.com, ORCID: 0009-0000-7466-6727

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalari (IT) sohasi yosh mutaxassislarida vatanparvarlik va milliy identifikatsiyani shakllantirishning fundamental nazariy-psixologik jihatlari yoritilgan. Raqamli makon va globallashuv sharoitida yosh dasturchilar hamda axborot texnologiyalari mutaxassislarining o‘ziga xos submadaniyati, kognitiv uslublari va qadriyatlar tizimi tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy psixologik konsepsiyalar asosida ushbu ijtimoiy qatlamda milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik hissining shakllanish mexanizmlari, kiber-makonda identifikatsiya inqirozini bartaraf etishning nazariy modellari tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, milliy identifikatsiya, IT mutaxassislar, raqamli mentalitet, nazariy psixologiya, kiber-makon, qadriyat-normativ tizim, sotsializatsiya.

Kirish

Bugungi axborotlashgan jamiyat taraqqiyotida axborot texnologiyalari (IT) sohasi vakillari intellektual salohiyat markazi sifatida namoyon bo‘lmoqda. IT yosh mutaxassislarining kasbiy faoliyati kiber-makon bilan uzviy bog‘liqligi sababli, ularning psixologik xususiyatlari, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashi an’anaviy kasb egalaridan tubdan farq qiladi. Global tarmoqdagi virtual chegarasizlik va transmilliy mehnat bozori yosh kadrlar ongida makon va zamon tushunchalarini o‘zgartirib yubormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ularning milliy identifikatsiyasi transformatsiyasiga va an’anaviy vatanparvarlik tushunchalarining qayta ko‘rib

chiqilishiga olib keladi. Mazkur jarayonlarni psixologik jihatdan nazariy tahlil qilish, raqamli avlod ongida milliy o‘zlik va vatanparvarlik hissini shakllantirishning ichki mexanizmlarini tushunishda muhim fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda milliy identifikatsiya va vatanparvarlik muammosi fundamental psixologik konsepsiyalar doirasida keng o‘rganilgan. E. Eriksonning identifikatsiya nazariyasiga ko‘ra, shaxsning o‘zlikni anglashi uning ma’lum bir ijtimoiy, madaniy va milliy guruhga daxldorlik hissidan boshlanadi. A. Maslouning motivatsiya ierarxiyasida ham sotsiumga tegishlilik va uning tomonidan tan olinish ehtiyoji shaxs kamolotining yuqori bosqichlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.

Raqamli avlod va texnologiya mutaxassislarining psixologik portretini o‘rganish g‘arb olimlari M. Prensky ("Digital Natives" konsepti) va D. Tapscott tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ularning ta’kidlashicha, virtual muhitda sotsializatsiyalashgan shaxslarda kognitiv jarayonlar ko‘proq vizuallashgan, tarmoqlashgan va algoritmik xarakterga ega bo‘ladi.

Mahalliy psixologiyada g‘oyaviy-psixologik immunitet, milliy mentalitet va yoshlar sotsializatsiyasi muammolari E. G‘oziyev, G‘. Shoumarov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Biroq, zamonaviy axborot makonida faoliyat yurituvchi professional IT kadrlarning o‘ziga xos psixologik strukturasi va ularda vatanparvarlikning shakllanish qonuniyatlari nazariy jihatdan alohida tizimlashtirishni talab etadi.

IT sohasi yosh mutaxassislarining psixologik portreti o‘ziga xos kognitiv va emotsional xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ularda ratsional-algoritmik fikrlash, individualizmga moyillik, yuqori darajadagi erkinlik ehtiyoji va global axborot oqimlariga ochiqlik ustunlik qiladi. Bu xususiyatlar vatanparvarlik va milliy identifikatsiyaning shakllanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Nazariy jihatdan ushbu jarayonni uchta asosiy psixologik komponent doirasida tahlil qilish mumkin:

1. Kognitiv komponent (Milliy o‘zlikni anglash va bilimlar tizimi)

IT mutaxassislarida vatanparvarlik hissi hissiy-shiorli chaqiriqlarga emas, balki kognitiv asoslangan axborotlarga tayanadi. Ular uchun Vatan tushunchasi mavhum hududiy birlik emas, balki aniq ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va texnologik ekotizim sifatida idrok qilinadi. Bu toifadagi yoshlarda milliy identifikatsiya ularning o‘z xalqi tarixi, madaniy merosi va davlat ramzlariga bo‘lgan munosabatini ob’ektiv tahlil qilish orqali shakllanadi. Agar axborot makonida milliy kontent va intellektual mahsulotlar salmog‘i yuqori bo‘lsa, u holda kognitiv darajada milliy g‘urur va daxldorlik tuyg‘usi mustahkamlanadi.

2. Emotsional-qadriyatli komponent (Kiber-makonda identifikatsiya inqirozi va daxldorlik)

Virtual olamda chegaralarning yo‘qligi sababli yosh dasturchilar ko‘pincha global hamjamiyat qadriyatlarini qabul qiladilar, bu esa psixologiyada "kosmopolitizm" yoki identifikatsiya diffuziyasi (parchalanishi) deb ataladi. Biroq, shaxs sifatida to‘liq shakllanish uchun insonga baribir barqaror ijtimoiy-madaniy tayanch (ildiz) zarur. Nazariy jihatdan, IT mutaxassisining emotsional sohasida vatanparvarlik - bu o‘z milliy zaminiga bo‘lgan emotsional bog‘liqlik va global miqyosda o‘z madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolish ehtiyojidir. Bu tuyg‘u ularni "men jahon fuqarosiman, lekin shu bilan birga o‘zbek millatiga mansubman" degan ichki muvozanatga olib keladi.

3. Motivatsion-xulq-atvorli komponent ("Masofaviy vatanparvarlik" fenomeni)

Zamonaviy mehnat bozorida "Brain Drain" (intellektual migratsiya) muammosi mavjud bo‘lib, u IT kadrlar o‘rtasida keng tarqalgan. Psixologik nuqtai nazardan, IT yoshlarida vatanparvarlik motivatsiyasi faqatgina jismoniy jihatdan mamlakatda qolish bilan o‘lchanmaydi. Bu yerda "masofaviy (raqamli) vatanparvarlik" o‘rin tutadi. Ya’ni, mutaxassis xorijiy kompaniyalar bilan masofadan turib hamkorlik qilsa-da, o‘z intellektual salohiyatini milliy startaplar yaratishga, yosh shogirdlar tayyorlashga, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya kiritishga yo‘naltiradi. Bu harakatlar tizimi shaxsning ichki motivatsiyasi va ijtimoiy mas’uliyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

XULOSA

Nazariy tahlil asosida xulosa qilish mumkinki, IT sohasi yosh mutaxassislarida vatanparvarlik va milliy identifikatsiyani shakllantirish an’anaviy deklarativ usullar yordamida amalga oshirilishi qiyin. Ularning raqamli mentaliteti ratsionallik, erkinlik va kiber-identifikatsiyaya asoslanadi.

Shu bois, ushbu qatlamda vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash uchun quyidagi ilmiy-nazariy yo‘nalishlarni rivojlantirish lozim:

1. Virtual muhitda milliy va gumanistik qadriyatlarning muvozanatini saqlashga qaratilgan kiber-psixologik yondashuvlarni joriy etish.
2. IT yoshlarning individualistik motivlarini milliy-ijtimoiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtiruvchi "ijtimoiy mas’uliyatli raqamli shaxs" modelini ishlab chiqish.
3. Kiber-makonda milliy o‘zlikni namoyon etishni o‘spirin va yosh dasturchilar uchun nufuzli (trenddagi) sotsial-psixologik qadriyat darajasiga ko‘tarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘oziyev E.G‘. *Muomala psixologiyasi*. – Toshkent: Universitet, 2011.

2. Shoumarov G‘.B. *Yoshlarda g‘oyaviy-psixologik immunitetni shakllantirish asoslari*. – Toshkent: Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, 2018.
3. Prensky, M. (2001). *Digital Natives, Digital Immigrants*. On the Horizon, Vol. 9, No. 5, pp. 1-6.
4. Tapscott, D. (2008). *Grown Up Digital: How the Net Generation is Changing Your World*. McGraw-Hill Education.
5. Erikson, E. H. (1994). *Identity: Youth and Crisis*. W. W. Norton & Company.

YOSHLAR VATANPARVARLIGINING SHAKLLANISHIDA FUQAROLIK MAS’ULIYATI VA IJTIMOIY FAOLLIKNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Asqaraliyeva Durdonaxon Akbarali qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

Anotatsiya: *Maqolada yoshlar vatanparvarligini shakllantirishda ijtimoiy faollik va fuqarolik mas’uliyatining psixologik ahamiyati yoritilib, yoshlarning faol ishtiroki va daxldorlik hissining vatanparvarlikdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas’uliyati, vatanparvarlik, daxldorlik, tashabbuskorlik, psixologik omillar.*

Abstract: *The article highlights the psychological significance of social activity and civic responsibility in developing youth patriotism and analyzes the role of young people’s active participation and sense of belonging in fostering patriotism.*

Keywords: *youth, social activity, civic responsibility, patriotism, sense of belonging, initiative, psychological factors.*

Аннотация: *В статье освещается психологическое значение социальной активности и гражданской ответственности в формировании патриотизма молодежи, а также анализируется роль активного участия молодежи и чувства сопричастности в развитии патриотизма.*

Ключевые слова: *молодежь, социальная активность, гражданская ответственность, патриотизм, сопричастность, инициативность, психологические факторы*

Kirish

Yoshlarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyati ularning jamiyatdagi faol pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim psixologik omillardir. Mustaqillik sharoitida yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtiroki, tashabbuskorligi va Vatanga daxldorlik hissi vatanparvarlikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dolzarbligi

Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki va Vatanga daxldorlik hissi vatanparvarlikning shakllanishiga xizmat qiladi..

Asosiy qism

Yoshlarning ***ijtimoiy faolligi*** shaxsning jamiyat bilan faol munosabatga kirishishi, o‘z imkoniyatlarini ijtimoiy hayotda namoyon qilishi va muayyan faoliyatga ongli ravishda qo‘shilishi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy faollik yoshning jamiyatdagi o‘rnini anglashiga, o‘z xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishiga va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishiga imkon beruvchi muhim shaxsiy xususiyatlardan biridir[7]

Yoshlarning ijtimoiy faolligi shakllanishida ***motivatsiya, ijtimoiy ehtiyojlar, o‘zini anglash va emotsional barqarorlik*** muhim psixologik omillar hisoblanadi. Yosh o‘z faoliyatining mazmunini anglab, uni shaxsiy maqsadlari va ehtiyojlari bilan bog‘laganida ijtimoiy faollik yanada barqaror namoyon bo‘ladi.[8]

Yoshlarning ***vatanparvarligi*** ham faol ijtimoiy munosabat orqali namoyon bo‘ladi. Vatanga muhabbat faqat hissiy kechinma bilan chegaralanmay, jamiyat manfaatiga xizmat qilish, tashabbus ko‘rsatish, o‘z burchini bajarish va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga intilish kabi xatti-harakatlarda ifodalanadi. Shu jihatdan ijtimoiy faollik vatanparvarlikning amaliy namoyon bo‘lish shakllaridan biri sifatida qaralishi mumkin[9]

Talaba-yoshlarning ijtimoiy *faolligida* ***ta’lim muhiti, tengdoshlar bilan munosabat va jamoaviy faoliyat*** alohida ahamiyatga ega. Yoshning jamoaviy faoliyatda ishtirok etishi, tashabbus ko‘rsatishi va o‘z fikrini erkin ifodalashi uning ijtimoiy tajribasini boyitib, hamkorlik, mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasining rivojlanishiga zamin yaratadi[10]

Yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda ularning ***yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish*** muhimdir. Ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos sharoit yaratilishi ularning tashabbuskorligi va mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi[11].

Yoshlarning ijtimoiy faolligi shaxsning ehtiyojlari, motivlari va faoliyati bilan chambarchas bog‘liq***. E.G‘.G‘oziyev*** qarashlarida shaxsning rivojlanishi uning faoliyati va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy aloqada ko‘rib chiqiladi. Shu nuqtayi nazardan, yoshning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uning ijtimoiy tajribasini boyitib, tashabbuskorlik, mas’uliyat va o‘zini namoyon qilish kabi shaxsiy sifatlarining rivojlanishiga zamin yaratadi.[12]

Tadqiqot metodologiyasi

[7] Tursunova B.S. *Yoshlar ijtimoiy faolligi - ijtimoiy psixologik hodisa sifatida*
[8] Asatov T.X. *Talaba-yoshlar ijtimoiy faolligiga ta’sir qiluvchi psixologik omillar*. - 2025.
[9] Karimova N.U. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari..
[10] Tojiboyeva X. *O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonining pedagogik-psixologik mohiyati*. - 2017
[11] Qosimov M., Xolmatov J. O‘zbekiston yoshlarini buyuk kelajak sari yetaklashda milliy g‘oyaning o‘rni
[12] G‘oziyev E.G‘. *Umumiy psixologiya*. -Toshkent.

Mazkur maqola ***nazariy-tahliliy xarakterga ega*** bo‘lib, unda yoshlar ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyati va vatanparvarlikning o‘zaro psixologik bog‘liqligi tahlil qilindi. Tadqiqotda empirik so‘rovnoma, tajriba yoki statistik kuzatuv o‘tkazilmadi. Mavzuni yoritishda ***nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlili va tizimli yondashuv***dan foydalanish taklif etildi. Ushbu usullar orqali ijtimoiy faollikning psixologik omillari, yoshlarning jamiyatga daxldorlik hissi, fuqarolik mas’uliyati va vatanparvarlik xulq-atvori o‘rtasidagi bog‘liqlik izchil ko‘rib chiqildi. Shuningdek, mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish vatanparvarlikning amaliy namoyon bo‘lishiga xizmat qilishi mumkinligi nazariy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot xulosasi

Taklif etilgan metodologik yondashuv yoshlarning ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyati va vatanparvarligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazariy jihatdan izchil yoritish imkonini beradi. Mazkur yondashuv kelgusida empirik tadqiqotlar uchun ham nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Yoshlarning vatanparvarligini shakllantirishda **ijtimoiy faollik va fuqarolik mas’uliyati** muhim psixologik omillar hisoblanadi. Yoshlarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki ularda daxldorlik, tashabbuskorlik va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Ayniqsa, o‘z faoliyatining jamiyat uchun ahamiyatini anglagan yoshda ijtimoiy foydali xatti-harakatlarga ichki motivatsiya shakllanadi. Shu bois ta’lim va tarbiya jarayonida yoshlarni jamoaviy, ijtimoiy va foydali faoliyatga jalb etish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish vatanparvarlikning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv yoshlarni **Vatan taraqqiyotiga befarq bo‘lmagan, faol va mas’uliyatli shaxs** sifatida tarbiyalashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunova B.S. Yoshlar ijtimoiy faolligi – ijtimoiy psixologik hodisa sifatida.Yoshlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish markazi materiallari.2024.
2. Asatov T.X. Talaba-yoshlar ijtimoiy faolligiga ta’sir qiluvchi psixologik omillar. Journal of Educational and Life Sciences Innovation (JELSI).-2025.
3. Tojiboyeva X. O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonining pedagogik-psixologik mohiyati. Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnali.2017. - №4
4. Karimova N.U. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. - 2024.

5. Qosimov M., Xolmatov J. O‘zbekiston yoshlarini buyuk kelajak sari yetaklashda milliy g‘oyaning o‘rni. Research and Implementation. -2025.

6. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya.- Toshkent.
Bu kitobni maqolaning psixologik nazariy asosi sifatida ishlatamiz: shaxs, faoliyat, ehtiyoj, motivatsiya va shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq fikrlar uchun.

KIBER-MAKONDA O‘SMIRLAR IJTIMOIY TOLERANTLIGINING KOGNITIV TRANSFORMATSIYASIDAGI YOSHGA OID VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARGA BOG‘LIQ FARQLAR (KICHIK VA KATTA O‘SMIRLAR MISOLIDA)

Mirsidikova Aziza Mirvohidovna

O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Mustaqil izlanuvchisi, PhD

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kiber-makon sharoitida o‘smirlar ijtimoiy tolerantligining kognitiv transformatsiyasi yoshga oid va tipologik xususiyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik o‘smirlar (11–14 yosh) va katta o‘smirlar (15–18 yosh)ning virtual muhitdagi ijtimoiy munosabatlari, tolerantlik haqidagi tasavvurlari, kognitiv baholash mexanizmlari hamda individual-tipologik xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqligi o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yosh ortishi bilan o‘smirlarda tolerantlikka oid kognitiv sxemalar murakkablashadi, refleksiv tafakkur kuchayadi va ijtimoiy xilma-xillikni qabul qilish darajasi ortadi. Shu bilan birga, temperament va kommunikativ tiplarning tolerantlik transformatsiyasiga sezilarli ta’siri aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *kiber-makon, ijtimoiy tolerantlik, kognitiv transformatsiya, o‘smirlik davri, kichik o‘smirlar, katta o‘smirlar, tipologik xususiyatlar, virtual kommunikatsiya.*

Kirish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida kiber-makon zamonaviy o‘smirlar ijtimoiylashuvining muhim omiliga aylandi. Virtual tarmoqlar, ijtimoiy media platformalari va onlayn kommunikatsiya vositalari yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda ijtimoiy xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tolerantlikning shakllanishi va rivojlanishida kiber-makonning roli tobora ortib bormoqda.

Ijtimoiy tolerantlik shaxsning boshqa madaniyat, qarash, e’tiqod va ijtimoiy guruhlarga mansub insonlarga nisbatan hurmat va bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish qobiliyatini ifodalaydi. Kiber-makonda esa bu jarayon yangi kognitiv mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi. Chunki virtual muhitda o‘smirlar turli xil axborot oqimlari va ijtimoiy guruhlar bilan bevosita muloqotga kirishadilar.

Tadqiqotning maqsadi

Kichik va katta o‘smirlarning kiber-makondagi ijtimoiy tolerantligi kognitiv transformatsiyasida yoshga oid hamda tipologik xususiyatlarga bog‘liq farqlarni aniqlash va ilmiy asoslash.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy va psixodiagnostik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida 11–18 yoshdagi o‘smirlar jalb qilindi va ular ikki guruhga ajratildi:

- Kichik o‘smirlar (11–14 yosh);
- Katta o‘smirlar (15–18 yosh).

Quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Ijtimoiy tolerantlik diagnostikasi.
2. Kognitiv moslashuv va refleksivlik testlari.
3. Temperament tiplarini aniqlash metodikalari.
4. Virtual kommunikativ faollik so‘rovnomalari.
5. Statistik tahlil (t-test, korrelyatsion va regressiya tahlili).

Natijalar va muhokama

Yoshga oid farqlar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik o‘smirlar tolerantlikni ko‘proq tashqi xulq-atvor me’yorlari orqali baholaydilar. Ularning ijtimoiy tolerantlik haqidagi tasavvurlari konkret vaziyatlarga bog‘langan bo‘lib, stereotipik fikrlash elementlari nisbatan yuqori darajada saqlanib qoladi.

Katta o‘smirlarda esa tolerantlikning kognitiv tarkibi murakkablashadi. Ular ijtimoiy hodisalarni ko‘p tomonlama baholashga moyillik bildiradilar. Virtual muhitdagi turli madaniyat va qarashlar bilan tanishuv natijasida empatiya, refleksiya hamda tanqidiy tafakkur rivojlanadi.

Kichik o‘smirlar uchun internet ko‘proq axborot manbai bo‘lsa, katta o‘smirlar uchun u shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy tajriba maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli katta o‘smirlarda tolerantlikning kognitiv transformatsiyasi intensivroq kechadi.

Tipologik xususiyatlarga bog‘liq farqlar

Temperament va shaxs tiplarining tolerantlik rivojlanishiga ta’siri ham kuzatildi.

Ekstravert o‘smirlar virtual muloqotlarda faol qatnashganliklari sababli turli qarashlarga tezroq moslashadilar va tolerantlik darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Introvert o‘smirlarda esa tolerantlikning shakllanishi ichki refleksiya orqali kechadi va bu jarayon nisbatan sekinroq rivojlanadi.

Emotsional barqarorligi yuqori bo‘lgan o‘smirlar kiber-makondagi ziddiyatli axborotlarni konstruktiv qabul qila oladilar. Emotsional labilligi kuchli bo‘lgan o‘smirlar esa internetdagi salbiy kontent ta’sirida intolerant reaksiyalarni namoyon etishlari mumkin.

Kognitiv transformatsiyaning psixologik mexanizmlari

Kiber-makonda tolerantlikning transformatsiyasi quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshadi:

- ijtimoiy taqqoslash;
- refleksiv tahlil;
- axborotni tanqidiy qayta ishlash;
- virtual identifikatsiya;
- empatik tushunish.

Mazkur mexanizmlar yosh o‘tishi bilan murakkablashib boradi va tolerantlikning yuqori darajalariga erishishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari kiber-makonda o‘smirlar ijtimoiy tolerantligining kognitiv transformatsiyasi yosh va tipologik xususiyatlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Kichik o‘smirlarda tolerantlikning kognitiv modeli sodda va konkret xarakterga ega bo‘lsa, katta o‘smirlarda abstrakt tafakkur, refleksiya va empatiyaning rivojlanishi hisobiga murakkablashadi.

Shuningdek, temperament, kommunikativ faollik va emotsional barqarorlik kabi tipologik omillar tolerantlik darajasining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois o‘smirlarda kiber-madaniyat va tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allport G.W. The Nature of Prejudice. – New York: Addison-Wesley, 1954.
2. Soldatova G.U. Psixologiya bezopasnosti lichnosti v internete. – Moskva, 2020.
3. Asmolov A.G. Psixologiya lichnosti. – Moskva, 2019.
4. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York, 1968.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – New York, 1977.
6. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, 1986.
7. O‘zbekiston Respublikasining yoshlar siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlari.

MILLIY RUH VA MENTALITET: SHAXS KAMOLOTINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ilmiy rahbari: TAFU, katta o‘qituvchisi: A.Mirsidikova

TAFU 1-Bosqich talabasi: SH.A.Nurmatova.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada har bir shaxs hayotida milliy ruhning ahamiyati haqida. Inson oilada, maktab, universitet tarkibida yasharkan doimiy bir butunlikning ulkan bir mexanizmning ajralmas bo'lagi sifatida mavjuddir. Biz bizni o'rab turgan borliq va qulayliklarga oson ko'nikib, ularning borligining o'zi tasavvur etish qiyin darajada erishish murakkab bir yo'l ekani haqida bosh qotirmaymiz. Biz uchun elementar bazaga aylanib ulgurgan yuqorida sanab*

o'tilgan, jamoaviy to'plamlar qachonlardir ushalmas orzu bo'lgani haqida eshitish biz uchun ko'pirtirib yuborilgan qissaday ko'rinadi. Bu bilan har on o'tmishdagi qora kunlarni eslash joiz demoqchi emasman. Shunchaki bizga qolgan meroslarga munosib avlod bo'lish uchun nimalar qila olishimiz haqida fikr yuritmoqchiman.

Kalit so'zlar: *Mentalitet, milliy ruh, shaxs, komillik, psixologik mexanizm, qadriyatlarning pedogagik omillari.*

Kirish

Mavzuning boshidan ba'zi tushunchalarning terminologik xususiyatlariga oydinlik kiritmoqchiman. Mentalitet- bu muayyan xalq, millat yoki ijtimoiy guruhga xos bo'lgan fikrlash uslubi, dunyoni idrok etishi, baholashi, tuyg'ularni his etishi. Psixologik nuqtai nazaridan mentalitet butun bir xalqning umumiy dunyoqarashi. Biz juda yaxshi bilamiz, ijtimoiy munosabatlarda juda katta yozilmagan qoidalar ro'yhati borligini. Biz yuz bergan hodisaga jamiyat qanday munosabat bildirishini, intuitiv anglay olamiz. Maksimal shaxsiy fikr va harakatlarimizni aynan shu o'lchamlar yordamida “to'g'ri" korreksiyalay olamiz. Ikkinchi termin milliy ruh- bu muayyan millatni birlashtiruvchi umumiy ma'naviy-ruhiy qadriyatlar, tarixiy xotira, an'analar, milliy o'zlikni anglash va vatanga daxldorlik hisining majmui. Aynan milliy ruh bizga vatan taqdiriga befarq bo'lmaslik, milliy g'urur, tarix va ajdodlar hurmati, ona tili va madaniyatga ijobiy munosabat hamda o'z millatiga mansublik tuyg'usini instinktiv uyg'otadi.

Mavzuning dolzarbligi

Mavzuning dolzarbligi esa yuqoridagi tushunchalarning birortasida, kuzatilgan ignaday og'ish butun bir konstruksiyani siljitishi mumkin. Aksincha o’sha tushunchalarga to'g'ri suyanilganda, bu kalajakda erishishimiz mumkin bo'lgan nihoyatda ulkan zafarlar uchun beqiyos tramplin vazifasini o'tay oladi.

Asosiy qism

Zamonaviy jamiyat, yangicha o'lchamlar hamda ayni damdagi yer yuzidagi iqlim shuni ko'rsatmoqdaki inson shaxsiy kamolatiga faqat o’zining asl ildizlariga qaytibgina erisha oladi. Bu haqida Abu Nasr Farobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida to’xtalib o’tadi. Inson yolg‘iz holda komillikka erisha olmaydi, u jamiyat bilan birga rivojlanadi. Bilimli, axloqli va fazilatli insonlar tashkil etgan jamiyat, shaxsni komil etib tarbiyalashi mumkin. Sababi milliy qadriyatlar va jamiyatning ma’naviy muhiti inson shaxsining shakllanishiga ta’sir qiladi.

Abu Ali ibn Sino insonning shakllanishida tarbiya, ta’lim, muhit va odatlarning ahamiyatiga katta e’tibor bergan. Aynan Ibn Sino qadriyatlarning pedogagik omillari haqida asosiy qarashlarini ifoda etgan. Uning pedagogik qarashlarida bola tarbiyasida, umuman insonning kamolotida bilim, tarbiya va

to‘g‘ri muhit asosdir. Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan tarbiya, urf-odat va qadriyatlar shaxsning dunyoqarashi shakllanishida muhim omil bo‘lishi mumkin.

Alisher Navoiy uchun ona tiliga hurmat, xalq manfaatiga xizmat qilish, insoniylik va ma’naviyat juda muhim edi. Uning mashhur baytlaridan biri: “Odami ersang, demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.” Bu baytlarning mazmuniga ko'ra: inson bo‘lsang, xalqining dardi bilan yashamaydigan kishini chin inson deb hisoblama. O‘z ildizlarini anglagan inson faqat o‘zini emas, balki o‘z xalqining taqdiri va kelajagini ham o‘ylaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti o‘z ildizlariga sodiqlikning juda kuchli tarixiy namunasi. U umrining katta qismini Movarounnahrdan tashqarida o‘tkazgan bo‘lsa-da, Farg‘ona, Andijon, Samarqand va ona yurti haqidagi xotiralarini “Boburnoma”da batafsil yozgan. Uning mashhur ruboiylaridan biri: “Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi, Har ishnikim ayladim, xatolig‘ bo‘ldi...” Boburning ijodida Vatan sog‘inchi, ona yurt xotirasi va o‘zligini saqlash alohida o‘rin tutadi. Ba'zan o'git to'g'ri yo'lni ko'rsatish bo'lsa, ba'zida qanday ish noto'g'riligini ko'rsatish ham chinakm o'rnak bo'lishi mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy uchun eng muhim masalalardan biri — millatning uyg‘onishi, ilm-ma’rifat va milliy ongning rivojlanishi edi. U “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur.” deya, ildizlarga qaytish — taraqqiyotdan voz kechish emasligi haqida tushuntiradi. Zero milliy o‘zlik, ilm va zamonaviy taraqqiyot chinakam millat ravnaqi kalitidir.

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidur.” Bu fikr “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida keltirilgan bo'lib bu orqali Abdulla Avloniy yosh avlod tarbiyasi — shaxsiy masala emas, millat kelajagi masalasi ekanini yoritgan. Axir ajdodlardan kelayotgan yaxshi tarbiya va qadriyatlarni keyingi avlodga yetkazish — milliy ruhning davomiyligini ta’minlaydi.

Davr doimy uyg'oqlikni, vaziyatlarga daxldorlikni talab etadi. Pedagog va psixolog sifatida bizning asosiy burchimiz kelajak avlod tarbiyasida, asrlar elagidan o'tgan chinakam nodir ilmlarni saqlab qolish va ularga gard yuqtirmasdan avlodlarga meros sifatida qoldirishdir.

Xulosa

Bu maqolada bizda mavjud bo'lgan ilm fan meroslarining bir uchi haqida yoritdim. Aslida esa bu bilimlar qayta va qayta o'rganilishi, tahlil etilishi lozim zera “Tarixsiz kelajak yo'q”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Forobiy, A.N. Fozil odamlar shahri. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
2. Ibn Sino, A. Donishnoma. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: Fan.
4. Navoiy, A. Xamsa. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Bobur, Z.M. Boburnoma. Toshkent: Sharq.
6. Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat.
7. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi.
8. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat —yengilmas kuch. —Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
10. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.

TA’LIM JARAYONIDA TASHQI XOTIRA QURILMALARI VA BULUTLI XIZMATLARDAN FOYDALANISHDA KONFIDENSIAL MA’LUMOTLARNI HIMOYALASH USUL VA VOSITALARI TAHLILI

Yusupov Bahodir Karamatovich, PhD, professor
Sapayev Shavkat Rustamovich, dotsent
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqola oliy va professional ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmaning jadal rivojlanishi sharoitida tashqi xotira qurilmalari (USB flesh-tashuvchilar, portativ SSD/HDD) hamda bulutli saqlash platformalaridan (Google Workspace, Nextcloud, Microsoft 365) foydalanish jarayonida vujudga keluvchi axborot xavfsizligi tahdidlari tahliliga bag‘ishlangan. Bundan tashqari ushbu maqolada konfidensial ma’lumotlar toifalari, STRIDE tahdid modellashtirish usluli, kriptografik himoya mexanizmlari (AES-XTS-256, AES-GCM-256, RSA-4096), Endpoint DLP (Data Loss Prevention) tizimlari hamda CASB (Cloud Access Security Broker) arxitekturasi samaradorligi ko‘p parametrli eksperimentlar yordamida qiyosiy baholangan. Tadqiqot natijasida ta’lim muassasalari uchun konfidensial ma’lumotlar ruxsatsiz chiqib ketishini 95% kamaytiruvchi majmuaviy himoya arxitekturasi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi shart bo‘lgan amaliy tavsiyalar majmui ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot xavfsizligi, konfidensiallik, ta’lim tizimi, tashqi xotira, bulutli texnologiyalar, AES-256, DLP tizimi, CASB, Zero Trust, kriptografik himoya.*

Abstract. *This article is devoted to the analysis of information security threats arising from the use of external storage devices (USB flash drives, portable SSD/HDD) and cloud storage platforms (Google Workspace, Nextcloud, Microsoft 365) in the context of the rapid development of digital infrastructure in higher and professional educational institutions. In addition, this article comparatively evaluates the effectiveness of confidential data categories, STRIDE threat modeling method, cryptographic protection mechanisms (AES-XTS-256,*

AES-GCM-256, RSA-4096), Endpoint DLP (Data Loss Prevention) systems and CASB (Cloud Access Security Broker) architecture using multi-parameter experiments. As a result of the research, a comprehensive protection architecture for educational institutions was developed that reduces the unauthorized leakage of confidential data by 95% and a set of practical recommendations that must be implemented step by step.

***Keywords**: information security, confidentiality, education system, external storage, cloud technologies, AES-256, DLP system, CASB, Zero Trust, cryptographic protection.*

Raqamli iqtisodiyot va axborot jamiyati sharoitida oliy harbiy ta’lim va professional ta’lim muassasalarining boshqaruv, o‘quv-uslubiy hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati to‘liq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasiga integratsiya qilinmoqda. Masofaviy ta’lim platformalari (LMS Moodle, Hemis, Canvas), elektron hujjat aylanish tizimlari, akademik reyting ma’lumotlar bazalari hamda ilmiy laboratoriyalarning raqamlashtirilishi muassasalar tasarrufidagi axborot aktivlarining hajmi va qiymatini keskin oshirdi. Biroq ochiq akademik muhit, axborot almashinuvi erkinligi va minglab foydalanuvchilarning (kursantlar, tinglovchilar, talabalar, professor-o‘qituvchilar, boshqaruv xodimlari) bir vaqtning o‘zida tizimga ulanishi ta’lim sohasini kiberhujumlar va axborotni ruxsatsiz chiqib ketishi uchun nihoyatda zaif nishonga aylantirmoqda [1, 2].

Konfidensial axborot turlari klassifikatsiyasi

Ta’lim muassasalari infratuzilmasida saqlanadigan va qayta ishlanadigan barcha axborot resurslarini xavfsizlik darajasi va muhimligiga ko‘ra to‘rtta asosiy toifaga ajratish mumkin:

1. Shaxsga doir ma’lumotlar (Personally Identifiable Information - PII): kursant, tinglovchi va professor-o‘qituvchilarning biometrik, pasport, yashash manzili, to‘lov-kontrakt va bank rekvizitlari, shaxsiy sog‘liq holati haqidagi ma’lumotlar.

2. Pedagogik nazorat va baholash aktivlari: oraliq va yakuniy davlat attestatsiyasi uchun mo‘ljallangan yopiq test bazalari, imtihon biletlari, xolis baholash mezonlari va yakuniy qaydnomalar.

3. Ilmiy-tadqiqot va intellektual mulk ob’ektlari: himoya qilinmagan doktorlik (DSc/PhD) va magistrlik dissertatsiyalari matnlari, patent talabnomalari, tajriba-konstruktorlik chizmalari, ixtiro formulalari va xom laboratoriya ma’lumotlari.

4. Muassasaning boshqaruv va strategik ma’lumotlari: ichki buyruqlar, davlat ta’lim standartlari loyihalari, moliya-iqtisod auditlari, xalqaro hamkorlik shartnomalari hamda xizmat doirasida foydalanish uchun belgilangan hujjatlar [3].

Amaliyotda professor-o‘qituvchilar va boshqaruv xodimlari tomonidan o‘quv-uslubiy materiallar, hisobotlar hamda yopiq test savollarini ishchi stansiyalardan auditoriya kompyuterlariga yoki shaxsiy noutbuklarga ko‘chirishda nazoratsiz tashqi axborot tashuvchilardan (USB flesh-kartalar, portativ tashqi qattiq

disklar) ommaviy foydalaniladi. Shu bilan birga, fayllarni tezkor almashish maqsadida ommaviy bulutli servislarga (Google Drive, Dropbox, Yandex Disk) hamda ijtimoiy messenjerlarga (Telegram, WhatsApp) shifrlanmagan ochiq holda yuklash keng tus olgan. Ushbu amaliyot quyidagi jiddiy tahdidlarni keltirib chiqaradi:

- tashuvchining yo‘qolishi yoki o‘g‘irlanishi natijasida ma’lumotlarning uchinchi shaxslar qo‘liga tushishi;
- nazoratsiz USB qurilmalar orqali tarmoq ichiga ayg‘oqchi dasturlar (Spyware, Ransomware) va BadUSB mikrokontroller hujumlarining kirib kelishi;
- ommaviy bulut xizmatlarida server tomonida ma’lumotlarning shifrsiz saqlanishi oqibatida provayder yoki tajovuzkor tomonidan egallab olinishi;
- muassasa lokal tarmog‘ida axborot harakatini nazorat qiluvchi markazlashtirilgan mexanizmlarning (DLP, CASB) yetishmasligi [3, 4].

Tadqiqotning maqsadi - ta’lim muassasalarida tashqi xotira vositalari va bulutli xizmatlardan foydalanishda konfidensial ma’lumotlar sizib chiqish kanallarini tahlil qilish, ularning kriptografik va apparat-dasturiy himoya vositalarini qiyosiy baholash hamda ta’lim sohasi uchun optimal, yuqori unumdorlikka ega kompleks xavfsizlik modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil oib borish jarayonida ta’lim muassasalarining axborot infratuzilmasidagi tahdidlarni tizimlashtirish uchun Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan va kiberxavfsizlikda xalqaro standart darajasiga ko‘tarilgan STRIDE (Spoofing, Tampering, Repudiation, Information Disclosure, Denial of Service, Elevation of Privilege) modellashtirish uslulidan foydalanildi. Ta’lim segmentidagi har bir axborot oqimi (Data Flow) alohida xavf matritsasi asosida baholandi [4].

Mavjud xavf-xatarlarni ko‘p parametrli matematik baholash modeli

Ta’lim jarayonidagi axborot aktivlariga yetkazilishi mumkin bo‘lgan xavf miqdorini tahlil qilish maqsadida ko‘p parametrli xavf funksiyasi shakllantirildi:

$$R = \sum_{i=1}^{n} \Big(P_i \times I_i \times V_i \times (1 - C_i) \Big)$$

Bu yerda: R - umumiy integral xavf ko‘rsatkichi; P_i - i-turdagi kiberxavfning yuzaga kelish ehtimolligi (0 <= P_i <= 1); I_i - axborotning sizib chiqishi oqibatida yetkaziladigan akademik, moddiy va nufuz talafoti darajasi (1-5 ballik shkala); V_i - tizim komponentining zaiflik koeffitsiyenti (0 < V_i <= 1); C_i - joriy etilgan himoya vositalarining samaradorlik indeksi (0 <= C_i <= 1).

Ushbu model yordamida himoya choralari ko‘rilmagan (C_i = 0) va kriptografik hamda dasturiy nazorat joriy etilgan (C_i > 0) holatlar uchun xavf darajasining o‘zgarishi matematik jihatdan tahlil qilindi [4, 5].

Kriptografik himoya va kalitlarni taqsimlash arxitekturasi

Tashqi xotira vositalaridagi ma’lumotlarni tinch holatda (Data-at-Rest)

himoyalashda zamonaviy blokli shifrlash standarti AES-256 (Advanced Encryption Standard) quyidagi ish rejimlarida o‘rganildi:

1. AES-XTS (XEX Tweakable Block Cipher with Ciphertext Stealing) - disk va flesh-xotira sektorlarini sektorlararo bog‘liqliksiz, yuqori parallelizm bilan shifrlash uchun;

2. AES-GCM (Galois/Counter Mode) - fayllarning nafaqat konfidensialligini, balki ularning yaxlitligi va haqiqiyligini (Authenticated Encryption) apparat darajasida ta’minlash uchun.

Gibrid kriptografik konvertatsiya sxemasi. Bulutli platformalarda ma’lumotlarni uzatish (Data-in-Transit) va saqlashda esa nol ishonch (Zero-Knowledge) konsepsiyasiga asoslangan gibrid kriptografik model qo‘llanildi [6, 7]:

$$C = E_{AES-256}(M, K_{sess}), \quad C_k = E_{RSA-4096}(K_{sess}, PK_{user}), \quad Sig = Sign_{ECC}(H(M), SK_{user})$$

Bu yerda: M - konfidensial ta’lim hujjati; K_sess - har bir sessiya uchun kriptografik xavfsiz tasodifiy sonlar generatori (CSPRNG) orqali yaratilgan 256-bitli simmetrik kalit; PK_user va SK_user - foydalanuvchining ochiq va yopiq kalitlari; H(M) - SHA-256 / SHA-3 Xesh qiymati.

Tanlab olingan eksperimental parametrlari

Tadqiqotning amaliy qismi real ta’lim tarmog‘i laboratoriya muhitida quyidagi apparat-dasturiy platformada sinovdan o‘tkazildi:

- ishchi stansiyalar. Intel Core i7-12700 / 32 GB DDR4 / NVMe SSD / TPM 2.0 apparat moduli bilan jihozlangan Windows 11 Enterprise (23H2) va Ubuntu 24.04 LTS tizimlari;
- tashqi xotira drayvlari. Kingston DataTraveler Vault Privacy 3.0 (apparat AES-256 CBC shifrlagichga ega) hamda SanDisk Ultra Flair USB 3.2 Gen 1 (dasturiy shifrlash uchun);
- bulutli infratuzilma. Mahalliy joylashtirilgan Nextcloud Enterprise v29 (End-to-End Encryption - E2EE va Server-Side Encryption faollashtirilgan) hamda Google Workspace for Education;
- nazorat va audit tizimi. Endpoint DLP Agent (Device Control va USB Whitelisting funksiyalari bilan) hamda CASB (Cloud Access Security Broker) proksi-shlyuzi.

Tahlil davomida olingan natijalar tashqi xotira vositalarining tezlik va resurs unumdorligi, bulutli platformalarda shifrlash kechikishlari hamda DLP vositalarining xavfsizlik hodisalarini kamaytirish samaradorligi bo‘yicha uchta asosiy guruhga ajratildi [8].

Tashqi xotira qurilmalarini shifrlash vositalarining qiyosiy tahlili

Tashqi drayvlarda ma’lumotlarni shifrlashning operatsion tizim


unumdorligiga (O‘qish/yozish tezligi va markaziy protsessor yuklamasi) ta’siri CrystalDiskMark va FIO (Flexible I/O Tester) yordamida o‘lchandi. Tashqi xotira qurilmalarini shifrlash vositalarining qiyosiy tahlili natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tashqi xotira qurilmalarini shifrlash vositalarining qiyosiy tahlili natijalari

№	Himoya texnologiyasi	Kripto algoritm	Apparat tezlashtirgich	O‘qish (MB/s)	Yozish (MB/s)	CPU Yuklama (%)
1	Himoyasiz oddiy USB	Yo‘q (Ochiq format)	Mavjud emas	430.2	405.0	0.0%
2	BitLocker to Go	AES-XTS 256-bit	AES-NI faol	412.5	380.4	3.2%
3	LUKS2 (dm-crypt)	AES-XTS 256-bit	AES-NI faol	420.1	395.2	2.9%
4	VeraCrypt	AES / Twofish kaskad	Qisman	385.0	350.6	5.8%
5	Apparat shifrlangan USB	AES-CBC 256 (Hardware)	Drayv kontrollerida	260.4	220.1	0.1%

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy AES-NI protsessor instruksiyalari mavjud bo‘lganda BitLocker va LUKS2 tizimlari unumdorlikni ochiq drayvga nisbatan bor-yo‘g‘i 3-6% ga pasaytiradi [8, 9].



1-rasm. Tashqi xotira vositalarida shifrlash usullarining o‘qish/yozish tezligi unumdorligi

Biroq bu vositalar USB qurilmasi begona qo‘llarga tushganda ma’lumotlarning shifrsiz o‘qilishini 100% ga cheklaydi. Apparat shifrlangan USB drayvlar esa CPU ga mutlaqo yuklama bermaydi (0.1%), ammo ularning kontroller

orqali cheklangan o‘tkazuvchanlik qobiliyati tufayli chiziqli yozish tezligi 220 MB/s atrofida bo‘ladi. Tashqi xotira vositalarida shifrlash usullarining o‘qish/yozish tezligi unumdorligi 1-rasmda keltirilgan.


Bulutli platformalarda ma’lumotlarni uzatish va E2EE tahlili

Ta’lim muassasasining ichki me’yoriy hujjatlari, baholash qaydnomalari va test banklarini bulutda saqlash bo‘yicha uch xil arxitektura sinovdan o‘tkazildi: (1) Ommaviy bulut (standart HTTPS/TLS), (2) Mahalliy Nextcloud serveri, (3) CASB vositasida mijoz tomonida shifrlanuvchi (Zero-Knowledge E2EE) gibrid bulut modeli [9].

2-jadval

Bulutli xizmatlarda xavfsizlik modellari parametrlarining solishtirma qiyosiy tahlili

№	Xavfsizlik mezoni	Standart ommaviy bulutli xotira	Mahalliy Nextcloud	CASB + Zero-Knowledge E2EE
1	Shifrlash kalitlarining nazorati	Provayder tasarrufida	Tizim administratori tasarrufida	Faqat ma’lumot egasi (Klient) tasarrufida
2	Server ma’muri tomonidan o‘qilish xavfi	Mavjud (Insider threat)	Mavjud (Admin to‘liq ko‘radi)	To‘liq bartaraf etilgan (0% imkoniyat)
3	DLP tizimi bilan integratsiya	Qisman (Faqat API)	To‘liq (Maxsus modullar orqali)	To‘liq (Shlyuz darajasida real vaqtda)
4	Normativ qonunchilikka muvofiqlik	O‘rta (Serverlar chet elda)	Yuqori (Mahalliy server)	Maksimal (ISO 27001 va O‘RQ-547 talabi)




2-rasm. Bulutli xizmatlarda turli hajmdagi ma’lumotlarni uzatish vaqti

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, CASB va mijoz tomonidagi shifrlash (Zero-

Knowledge E2EE) o‘quv hujjatlari (1-10 MB) uchun uzatish vaqtini atigi 0.06 - 0.3 sekundga oshiradi. Katta hajmdagi 250 MB li arxiv va video fayllarda qo‘shimcha vaqt sarfi 4.2 sekundni tashkil etdi. Ushbu kechikish akademik jarayonlar sur’atiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi, biroq bulut provayderi buzilgan yoki server xakerlar tomonidan egallangan taqdirda ham ta’lim ma’lumotlarining to‘liq maxfiyligini kafolatlaydi [10].

Endpoint DLP va USB xotira qurilmalarining oq ro‘yxat sinovlari dinamikasi

Eksperiment doirasida ta’lim muassasasining 120 ta kompyuteridan iborat tarmoq segmentida 6 oy davomida Endpoint DLP agentlari va USB portlarni filtrlash qoidalari tatbiq etildi. Birinchi 2 oy faqat passiv monitoring olib borildi, 3-oydan boshlab Device Control siyosatlari va ruxsat berilgan USB flesh-kartalar ro‘yxati (Whitelisting VID/PID bo‘yicha) kuchga kiritildi. DLP va USB xotira qurilmalarini filtrlash siyosati joriy etilgandan so‘ng hodisalar dinamikasining digramma ko‘rinishi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. DLP va USB xotira qurilmalarini filtrlash siyosati joriy etilgandan so‘ng hodisalar dinamikasining digramma ko‘rinishi

Monitoring natijasida dastlabki oylarda oyiga o‘rtacha 148 ta ruxsatsiz nusxa ko‘chirish va shaxsiy drayvlarni ulash holatlari qayd etilgan bo‘lsa, DLP qoidalari va USB Whitelisting to‘liq joriy etilgandan so‘ng noqonuniy urinishlar soni 6-oyga kelib 3 taga tushdi (97.9% kamayish). Qolgan urinishlar ham DLP agenti tomonidan zudlik bilan bloklanib, xavfsizlik xizmati (SIEM) konsoliga ogohlantirish sifatida uzatildi [11].

Oliy ta’lim muassasasi uchun kompleks himoya arxitekturasi

Yuqoridagi natijalar asosida harbiy oliy ta’lim muassasalari uchun tashqi xotira va bulutli xizmatlar xavfsizligini ta’minlovchi ko‘p bosqichli integratsiyalashgan model arxitekturasi ishlab chiqildi. Ta’lim muassasasida konfidensial axborotlarni ko‘p bosqichli himoyalashning integratsiyalashgan arxitekturasi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Ta’lim muassasasida konfidensial axborotlarni ko‘p bosqichli himoyalashning integratsiyalashgan arxitekturasi

Olingan natijalar ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligini ta’minlash faqatgina antivirus dasturlari yoki ichki tartib qoidalarga tayanish bilan cheklanmasligi kerakligini ko‘rsatadi. An’anaviy usullar yangi avlod tahdidlariga qarshi ojizdir [12].

Tashkiliy omillar va inson omili muammolari

Tahlil jarayonida aniqlangan asosiy zaifliklardan biri bu professor-o‘qituvchilar va boshqaruv xodimlari orasida kiber-gigiyena madaniyatining yetarli emasligidir. Tashqi USB flesh-kartalarini auditoriyadagi ochiq kompyuterlardan shaxsiy noutbuklarga nazoratsiz o‘tkazish BadUSB deb ataluvchi xavfli apparat darajasidagi hujumlarni keltirib chiqaradi. Bunday hujumda tajovuzkor USB drayvning mikrokontroller proshivkasini (firmware) o‘zgartirib, uni kompyuterga virtual klaviatura (Human Interface Device - HID) sifatida tanitadi va bir necha soniya ichida tizimga yashirin PowerShell buyruqlarini kiritadi. Ushbu tahdidga qarshi an’anaviy antiviruslar foyda bermaydi; yagona samarali chora - drayver darajasida yangi kiritish qurilmalarini bloklovchi Device Control siyosatidir.

Zero Trust (Nol ishonch) konsepsiyasini ta’lim tizimiga tatbiq etish

Zamonaviy kiberxavfsizlik talablariga muvofiq, ta’lim muassasalarida Zero Trust modeli quyidagi uchta fundamental ustunga tayanishi zarur:

1. Hech kimga ishonmaslik, doimo tekshirish (Never Trust, Always Verify): hatto xodim muassasaning himoyalangan lokal tarmog‘ida o‘tirgan bo‘lsa ham, har

bir tashqi resursga, bulutli omborga va ichki bazaga kirishda ko‘p omilli autentifikatsiya (MFA) talab qilinishi shart;

2. Eng kam imtiyozlar tamoyili (Least Privilege - RBAC): o‘qituvchi faqat o‘z dars beradigan fanlari bo‘yicha baholash vedomostlariga kirish huquqiga ega bo‘lishi, kursantlar esa faqat o‘qish (Read-Only) rejimida topshiriqlarni ko‘ra olishi kerak;

3. Ma’lumotlarni avtomatik belgilash (Data Classification & Tagging): xodim tomonidan yaratilgan hujjat (masalan, test banki yoki shaxsiy ma’lumotlar) avtomatik tarzda maxfiy metadata tegi bilan tamg‘alanishi va bu teg mavjud faylni tashqi USB ga yozish yoki ochiq bulutga yuklash DLP agenti tomonidan zudlik bilan to‘xtatilishi lozim [13].

Taklif etilayotgan kriptografik va dasturiy choralar O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi O‘RQ-547-son Qonuni talablariga to‘liq javob beradi. Qonunning 27-moddasida shaxsga doir ma’lumotlar bazalarini O‘zbekiston hududida jismonan joylashtirish va ularni qayta ishlashda texnik-kriptografik himoyani ta’minlash belgilangan. Shu munosabat bilan xorijiy ommaviy bulut xizmatlariga (Google Drive, AWS, Azure) to‘g‘ridan-to‘g‘ri shifrlanmagan PII ma’lumotlarini yuklash qonunbuzarlik hisoblanadi. Mahalliy Nextcloud serverlaridan foydalanish yoki CASB vositasida mijoz tomonida AES-256 bilan shifrlab uzatish ushbu huquqiy talabni to‘liq kafolatlaydi [14].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, harbiy oliy ta’lim muassasalarida tashqi xotira vositalari va bulutli platformalardan foydalanishda konfidensial axborotlar xavfsizligini ta’minlash kriptografik, dasturiy-apparat va tashkiliy chora-tadbirlarning kompleks integratsiyasiga tayanishi zarurligini ko‘rsatdi. Xususan, operatsion tizim darajasida BitLocker to Go va LUKS2 (AES-XTS-256) disk yoki tashqi USB xotira qurilmasini to‘liq shifrlashini joriy etish orqali axborotlashtirish vositalari ish unumdorligini atigi 3-5% ga kamaytirgan holda axborot maxfiyligini to‘liq ta’minlashi, ommaviy bulutlar o‘rniga CASB shlyuzlari vositasida mijoz tomonida shifrlanuvchi (E2EE) xususiy Nextcloud infratuzilmasiga o‘tish tashqi xatarlarni 100% bartaraf etishi hamda markazlashtirilgan Endpoint DLP va USB Whitelisting mexanizmlari noqonuniy nusxa ko‘chirish urinishlarini 97.9% ga qisqartirishi isbotlandi. Ushbu natijalar asosida ishlab chiqilgan 7 bosqichli amaliy yo‘l xaritasi - axborot aktivlarini toifalarga ajratish, auditoriya portlarini faqat o‘qish rejimiga o‘tkazish, majburiy ko‘p omilli autentifikatsiya (MFA) va tarmoq shlyuzlarida DLP filtrlashni joriy etish hamda professor-o‘qituvchilarning kiber-gigiyena madaniyatini muntazam oshirish orqali ta’lim infratuzilmasida me’yoriy talablarga (O‘RQ-547, ISO 27001) to‘liq mos keluvchi barqaror va ishonchli xavfsizlik muhitini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida. O‘RQ-547-son. Toshkent sh., 2019-yil 2-iyul.

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Kiberxavfsizlik to‘g‘risida. O‘RQ-764-son. Toshkent sh., 2022-yil 15-aprel.

3. NIST Special Publication 800-88 Revision 1. Guidelines for Media Sanitization. National Institute of Standards and Technology, Gaithersburg, MD, 2015. - 64 p.

4. NIST Special Publication 800-145. The NIST Definition of Cloud Computing. Recommendations of the National Institute of Standards and Technology, 2011. - 7 p.

5. ISO/IEC 27001:2022. Information security, cybersecurity and privacy protection - Information security management systems - Requirements. International Organization for Standardization, Geneva, 2022.

6. Stallings, W. Cryptography and Network Security: Principles and Practice. - Pearson, 8th Edition, 2022. - 784 p.

7. Menezes, A. J., Van Oorschot, P. C., & Vanstone, S. A. Handbook of Applied Cryptography. - CRC Press, 5th Edition, 2018. - 816 p.

8. Kaufman, C., Perlman, R., & Speciner, M. Network Security: Private Communication in a Public World. - Prentice Hall, 3rd Edition, 2021. - 750 p.

9. Ferguson, N., Schneier, B., & Kohno, T. Cryptography Engineering: Design Principles and Practical Applications. - Wiley Publishing, 2020. - 384 p.

10. Shostack, A. Threat Modeling: Designing for Security. - John Wiley & Sons, Indianapolis, 2014. - 624 p.

11. Vacca, J. R. Cloud Computing Security: Foundations and Challenges. - CRC Press, Boca Raton, 2020. - 540 p.

12. Rose, S., Borchert, O., Mitchell, S., & Connelly, S. NIST Special Publication 800-207: Zero Trust Architecture. National Institute of Standards and Technology, 2020. - 59 p.

13. Maras, M. H. Computer Forensics: Cybercriminals, Laws, and Evidence. - Jones & Bartlett Learning, 2nd Edition, 2019. - 412 p.

14. Gura, N., Patel, A., Wander, A., Eberle, H., & Shantz, S. C. Comparing Elliptic Curve Cryptography and RSA on 8-bit CPUs. In: Cryptographic Hardware and Embedded Systems (CHES). Springer, 2019. - pp. 119-132.

HUSHYORLIK - VATAN HIMOYASINING KAFOLATI: HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA QO‘SHINLARIDA HARBIY BURCH VA MAS’ULIYAT

podpolkovnik NURMATOV Boburbek Mirxojiddinovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot-kommunikatsiya texnalogiyalari va harbiy aloqa instituti Quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarida harbiy xizmatchilarning Vatan oldidagi burchi, jangovar navbatchilik jarayonidagi hushyorligi, intizomi va mas’uliyati masalalari yoritiladi. Havo hududining xavfsizligini ta’minlashda harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi, ma’naviy-ruhiy barqarorligi, jamoaviy hamkorligi va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh harbiy xizmatchilarda Vatanga sadoqat, harbiy burch, intizom va fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantirishning pedagogik jihatlariga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *Havo hujumidan mudofaa, Vatan, harbiy burch, hushyorlik, jangovar navbatchilik, jangovar tayyorgarlik, harbiy intizom, ma’naviy-ruhiy tayyorgarlik, vatanparvarlik, kasbiy tayyorgarlik, simulyatsion trenajyor.*

Abstract: *This thesis addresses the military duty of personnel serving in the air defense forces, as well as their vigilance, discipline, and responsibility during combat duty. It analyzes the importance of professional training, moral and psychological resilience, teamwor, and the use of modern educational technologies in ensuring the security of the airspae. Particular attention is paid to the pedagogical aspects of developingsuch qualities among young military personnel as loyalty to the Motherland, a sense of military duty, discipline, and dedication.*

Keywords: *air defense, Motherland, military duty, vigilance, combat duty, combat training, military discipline, moral and psychological training, patriotism, professional training, simulation trainer.*

Vatan tinchligi va mamlakat xavfsizligini ta’minlash davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunida mudofaa davlat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va Respublika manfaatlarini himoya qilish hamda aholining tinch hayotini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida belgilangan [1].

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda Qurolli Kuchlarning barcha qo‘shin turlari kabi, Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarining ham o‘ziga xos o‘rni mavjud. Havo hududining xavfsizligini ta’minlash, mavjud vaziyatni kuzatish va zarur hollarda belgilangan tartibda harakat qilish harbiy xizmatchilardan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik va hushyorlikni talab etadi.

Harbiy xizmatni o‘tash bilan bog‘liq huquq va majburiyatlar O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi [2].

Shu nuqtayi nazardan, Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarda Vatanga sadoqat, harbiy burchni chuqur anglash, intizom, hushyorlik va mas’uliyatni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

Harbiy burch va vatanga sadoqat-harbiy burch harbiy xizmatchining davlat va xalq oldidagi mas’uliyatini ifodalovchi muhim ma’naviy tushunchadir. Harbiy xizmatni tanlagan shaxs o‘z zimmasiga belgilangan vazifalarni vijdonan bajarish, harbiy intizomga rioya qilish va Vatan manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq majburiyatlarni oladi [2].

Vatanga sadoqat esa harbiy xizmatchining xizmat faoliyatiga munosabatida namoyon bo‘ladi. Sadoqat faqatgina vatanparvarlik haqidagi fikrlar bilan emas, balki kundalik xizmat vazifalarini sifatli bajarish, bilim va ko‘nikmalarni muntazam takomillashtirish, intizomga rioya qilish va o‘z kasbiga mas’uliyat bilan yondashish orqali namoyon bo‘ladi.

Mudofaa vazirligining amaliy faoliyatiga oid materiallarda ham harbiy intizom, mas’uliyat va fidoyilik harbiy xizmatchilar faoliyatining muhim jihatlari sifatida ko‘rsatiladi [3].

Shuning uchun Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarida harbiy burchni chuqur anglash har bir harbiy xizmatchining kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda uning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligining ham muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Hushyorlik — havo hududi xavfsizligining muhim omili- Havo hujumidan mudofaa yo‘nalishida xizmat qiluvchi harbiy xizmatchi uchun hushyorlik alohida ahamiyatga ega. Hushyorlik harbiy xizmatchining vaziyatni kuzatishi, mavjud ma’lumotlarga e’tibor bilan yondashishi va belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishga tayyor turishini anglatadi.

Hushyorlikni shakllantirish muntazam nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, jangovar tayyorgarlik hamda xizmat faoliyati davomida amalga oshiriladi. Mudofaa vazirligining 2026-yilgi materiallarida jangovar tayyorgarlik jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish va ekstremal vaziyatlarda tezkor hamda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgani qayd etilgan [4].

Demak, harbiy xizmatchining hushyorligi uning bilimlari, amaliy tajribasi va ruhiy tayyorgarligi bilan uzviy bog‘liq.

Jangovar tayyorgarlik va harbiy intizom- harbiy bo‘linmaning umumiy salohiyatini oshirishda jangovar tayyorgarlik va harbiy intizom muhim o‘rin tutadi. 2026-yil yanvar oyida Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy qismda o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlarda shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligi va axloqiy-ruhiy holatini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgani qayd etilgan [4].

Jangovar tayyorgarlik jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash harbiy xizmatchilarning o‘z vazifalarini aniq bajarishiga yordam beradi. Shu bilan birga, shartli va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasining rivojlanishi harbiy tayyorgarlik samaradorligini oshiradi [4].

Mudofaa vazirligining boshqa materiallarida ham muntazam mashg‘ulotlar orqali jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, harbiy mahorat va kasbiy salohiyatni mustahkamlashga e’tibor qaratilayotgani ko‘rsatilgan [5].

Shu sababli Havo hujumidan mudofaa bo‘linmalarida jangovar tayyorgarlikni faqat nazariy bilim berish bilan cheklab qo‘ymasdan, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Ma’naviy-ruhiy tayyorgarlikning ahamiyati- harbiy xizmatchining jangovar tayyorgarligi uning texnik bilimlari va jismoniy tayyorgarligi bilangina belgilanmaydi. Murakkab vaziyatlarda o‘zini boshqara olish, diqqatni jamlash, vaziyatga xolis baho berish va jamoa bilan hamkorlikda harakat qilish qobiliyati ham muhim ahamiyatga ega.

Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holatini mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlarning tashkil etilishi harbiy jamoaning tayyorgarligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda [4].

Shuningdek, Mudofaa vazirligi faoliyatida harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi bilan bir qatorda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borishga ham e’tibor berilmoqda [3].

Bunday yondashuv harbiy xizmatchilarda mas’uliyat, intizom, fidoyilik va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Harbiy jamoada hamjihatlik va o‘zaro ishonch- Havo hujumidan mudofaa bo‘linmalarining faoliyatida jamoaviy hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Harbiy vazifalarni bajarishda har bir harbiy xizmatchi o‘z vazifasini aniq bilishi va umumiy maqsad yo‘lida boshqa harbiy xizmatchilar bilan hamkorlik qilishi lozim.

Harbiy jamoada o‘zaro ishonch, intizom va mas’uliyatning mavjudligi xizmat faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mudofaa vazirligining harbiy tayyorgarlik bo‘yicha materiallarida ham shaxsiy tarkibning kasbiy salohiyatini oshirish, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda jamoaviy faoliyatni takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratiladi [5].

Shu bois harbiy jamoada sog‘lom ma’naviy-psixologik muhitni shakllantirish Havo hujumidan mudofaa bo‘linmalarining tayyorgarligini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

“Tushuntirish - ko‘rsatish - mashq qilish” tamoyili- harbiy ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish muhim masalalardan biridir. Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida “tushuntirish, ko‘rsatish va mashq qilish” tamoyilidan foydalanilayotgani qayd etilgan [6].

Mazkur yondashuv harbiy xizmatchiga avvalo vazifaning mazmunini tushunish, keyin uni amalda ko‘rish va nihoyat mustaqil ravishda bajarish imkonini beradi.

Havo hujumidan mudofaa bo‘linmalarida ham nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarning bunday uyg‘unligi harbiy mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Simulyatsion trenajyorlardan foydalanish- zamonaviy harbiy ta’limda amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish uchun modellashtirish va simulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.

Simulyatsion trenajyorlar yordamida real sharoitda bajarish murakkab bo‘lgan o‘quv vaziyatlarini xavfsiz sharoitda modellashtirish, mashg‘ulotlarni takroriy bajarish va natijalarni tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Havo hujumidan mudofaa mutaxassislarini tayyorlashda bunday vositalardan foydalanish harbiy xizmatchilarning kuzatuvchanligi, vaziyatni baholashi, jamoa bilan ishlashi va belgilangan tartibda harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Bunday yondashuv zamonaviy harbiy ta’limda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish tamoyiliga mos keladi [4; 6].

Vatanparvarlik tarbiyasi va qahramonlar hayoti- harbiy xizmatchilarni Vatanga sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalashda harbiy tarix, qahramonlar hayoti va xizmat tajribasidan foydalanish muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi.

Mudofaa vazirligi tomonidan tashkil etilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda harbiy qismlarning tarixiy merosi, xizmat yo‘li, harbiy intizom, mas’uliyat va fidoyilik kabi qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda [3; 7].

Qahramonlarning hayot yo‘lini o‘rganish yosh harbiy xizmatchilarda Vatanga bo‘lgan muhabbat, kasbga hurmat va harbiy burchga sadoqatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bunda qahramonlik tushunchasini faqat tarixiy voqealar bilan bog‘lash emas, balki bugungi harbiy xizmatchining kundalik xizmatidagi mas’uliyat, intizom, bilim olish va o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi bilan bog‘lash muhimdir.

Vatanparvarlik va kasbiy mahorat uyg‘unligi- zamonaviy harbiy xizmatchi uchun Vatanga sadoqat va kasbiy mahorat bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Vatanga xizmat qilish harbiy xizmatchidan o‘z kasbini puxta egallashni, bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishni talab etadi.

Mudofaa vazirligi materiallarida yosh harbiy xizmatchilar tomonidan harbiy intizom va vatanparvarlik ruhining kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘un holda shakllantirilishiga e’tibor qaratilayotgani qayd etilgan [8].

Demak, vatanparvarlikni amaliy faoliyat bilan bog‘lash, harbiy xizmatchining o‘z mutaxassisligini mukammal egallashi va xizmat vazifalarini sifatli bajarishiga erishish muhimdir.

Havo hujumidan mudofaa mutaxassislarini tayyorlashni takomillashtirish- yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarida harbiy xizmatchilar tayyorgarligini takomillashtirishning quyidagi yo‘nalishlarini taklif etish mumkin:

Birinchidan, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash.

Ikkinchidan, harbiy xizmatchilarda hushyorlik va mas’uliyatni muntazam mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish.

Uchinchidan, murakkab vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish [4].

To‘rtinchidan, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni kasbiy va jangovar tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirish [3; 7].

Beshinchidan, simulyatsion trenajyorlardan foydalanish orqali amaliy mashg‘ulotlarning imkoniyatlarini kengaytirish.

Oltinchidan, harbiy jamoada o‘zaro ishonch, hamjihatlik va mas’uliyatni mustahkamlash.

Yettinchidan, harbiy xizmatchilarning kasbiy bilimlarini muntazam yangilab borish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish [5; 8].

Yuqoridagilarni inobatga olib quyidagilarni **xulosa** qilish mumkin.

Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchining kasbiy faoliyati yuqori darajadagi hushyorlik, intizom, mas’uliyat va tayyorgarlikni talab qiladi. Mamlakat mudofaasi va havo hududining xavfsizligini ta’minlashda inson omili muhim o‘rin egallaydi.

Harbiy xizmatchining jangovar tayyorgarligi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, ma’naviy-ruhiy barqarorlik va vatanparvarlik fazilatlarining uyg‘unligi asosida shakllanishi lozim. Mudofaa vazirligining amaliy faoliyatiga oid materiallar ham jangovar tayyorgarlik, intizom, ma’naviy tarbiya va kasbiy salohiyatni birgalikda rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi [3; 4; 5].

Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarida ayniqsa hushyorlik va mas’uliyatning yuqori bo‘lishi talab etiladi. Harbiy xizmatchi o‘z vazifasini chuqur anglashi, muntazam ravishda bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishi hamda murakkab vaziyatlarda belgilangan tartibda harakat qilishga tayyor bo‘lishi zarur.

Shuningdek, simulyatsion trenajyorlardan foydalanish harbiy ta’limning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, shartli vaziyatlarni modellashtirish va harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini baholash imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Vatanga sadoqat - harbiy burchning ma’naviy asosi, hushyorlik - uning amaliy ifodasi, kasbiy mahorat esa Vatan himoyasining muhim shartidir.

Har bir harbiy xizmatchi o‘z xizmatini oddiy kasb emas, balki xalq tinchligi va Vatan xavfsizligiga daxldor sharafli burch sifatida anglashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

[1]. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-211-II, 11.05.2001. “LexUZ - “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonun” (https://reference-url-citation.invalid/19).

[2]. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni, 436-II, 12.12.2002. “LexUZ - “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” gi Qonun” (https://reference-url-citation.invalid/20).

[3]. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Harbiy qism – yoshlarda mas’uliyat va fidoyilikni shakllantirish maskani. 2026-yil 7-yanvar. “Mudofaa vazirligi rasmiy materiali” (https://reference-url-citation.invalid/21).

[4]. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Jangovar tayyorgarlik va intizom - harbiy salohiyatning asosi. 2026-yil 20-yanvar. “Mudofaa vazirligi rasmiy materiali” (https://reference-url-citation.invalid/22).

[5]. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Yuksak jangovar shaylik, intizom va fidoyilik ramzi. 2025-yil 9-iyul. “Mudofaa vazirligi rasmiy materiali” (https://reference-url-citation.invalid/23).

[6]. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Vatan himoyachilarini tayyorlayotgan maskan. 2025-yil 14-aprel. “Mudofaa vazirligi rasmiy materiali” (https://reference-url-citation.invalid/24).

[7]. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Sadoqat, intizom va sharaf sari ilk qadam. 2026-yil 27-mart. “Mudofaa vazirligi rasmiy materiali” (https://reference-url-citation.invalid/25).

[8]. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Muddatli harbiy xizmat davomida askarlarning kasbiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish. 2026-yil 5-fevral. “Mudofaa vazirligi rasmiy materiali” (https://reference-url-citation.invalid/26).

VATANGA SADOQAT – ENG OLIY BURCH: QAHRAMONLARNING IBRATLI HAYOT YO‘LI VA ZAMONAVIY HARBIY TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Saydjanov Farxod Madraximovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti
Gumanitar fanlar sikl boshlig‘i dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya: *Ushbu maqolada vatanga sadoqat va qahramonlik tushunchalarining tarixiy hamda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilingan. Xususan, global axborotlashuv va*

gibrid urushlar sharoitida qahramonlik fenomenining intellektual va texnologik ko'rinishlarga transformatsiyasi yoritilgan. Qurolli kuchlar tizimida, ayniqsa, murakkab axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa sohalarida xizmat qilayotgan bo'lajak ofitserlarni tarbiyalashda tarixiy qahramonlar hayot yo'lining pedagogik ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Vatanparvarlik, qahramonlik fenomani, harbiy ta'lim, intellektual salohiyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy xavfsizlik, kursantlar.*

Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining barcha bosqichlarida Vatan tushunchasi va unga sadoqat hissi millatning hayotiyligini, davlatning poydevorini belgilovchi oliy mezon bo'lib kelgan. Vatanparvarlik shunchaki hissiyot emas, balki shaxsning jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini anglatuvchi, uning amaliy xatti-harakatlarida namoyon bo'luvchi kuchli ma'naviy-axloqiy determinantdir. Bugungi shiddatli globallashuv va geosiyosiy transformatsiyalar davrida vatanga sadoqat masalasi o'zining an'anaviy ma'nosidan ko'ra kengroq va murakkabroq mohiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy harbiy ta'lim tizimining asosiy maqsadi faqatgina taktik va strategik bilimlarga ega mutaxassislarni tayyorlash emas, balki o'z sohasining chuqur bilimdoni bo'lgan, tanqidiy fikrlaydigan va eng muhimi – vatan himoyasini o'zining oliy burchi deb biladigan ofitserlar korpusini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda tarixiy qahramonlarimizning ibratli hayot yo'li va ularning jasorati tayanch nuqta vazifasini o'taydi.

2. Tarixiy qahramonlik – milliy genofondning asosi

Qahramonlik birdaniga paydo bo'lmaydi, u millatning tarixiy xotirasi va genofondi orqali avloddan avlodga o'tadi. Tariximizga nazar tashlasak, To'marisning matonati, Spitamenning qat'iyati, Jaloliddin Manguberdining bukilmas irodasi va Amir Temurning strategik daho hamda davlatparvarlik xislatlari vatanga sadoqatning klassik namunalari hisoblanadi.

Bu shaxslarning hayot yo'li shuni ko'rsatadiki, qahramonlik faqatgina jismoniy kuch yoki qurol ishlatish bilan o'lchanmaydi. Asl qahramonlik – bu o'z xalqining taqdiri uchun mas'uliyatni elkasiga olish, shaxsiy manfaatlardan kechib, milliy manfaatlarni ustun qo'yishdir.

"Vatan taqdiri hal bo'layotgan pallada chetda qarab turish – xiyonat bilan barobar." Ushbu tarixiy aksioma bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qotgan emas.

3. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlikning transformatsiyasi: Intellektual va texnologik qahramonlik

XXI asrga kelib, milliy xavfsizlikka tahdidlar xarakteri tubdan o'zgardi. An'anaviy front chiziqlari endilikda kiberfazoga, axborot maydoniga va yuqori

texnologiyalar sohasiga ko'chdi. Shu nuqtai nazardan, qahramonlik tushunchasi ham yangicha ma'no kasb etdi.

Bugungi kunning qahramoni – bu nafaqat jang maydonida qurol ko'tarib Vatan sarhadlarini qo'riqlayotgan askar, balki:

- Davlatning mudofaa qudratini oshiruvchi yangi muhandislik yechimlari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini yaratayotgan tadqiqotchi;
- Murakkab axborot xurujlariga qarshi mustahkam kiber-qalqon yarata oladigan dasturchi va kriptograf;
- Dushmanning radioelektron kurash vositalariga qaramay, qo'shinlarning uzluksiz va ishonchli aloqasini ta'minlovchi muhandis-ofitserdir.

Vatanga sadoqat bugun intellektual salohiyatni vatan ravnaqi yo'lida sarflash bilan belgilanadi. Zamonaviy Qurolli Kuchlarimizda barpo etilayotgan ilg'or axborot-kommunikatsiya infratuzilmalari, sun'iy intellekt elementlari va murakkab apparat-dasturiy majmualarni boshqarish mutaxassisdan nafaqat yuksak bilimni, balki shu texnologiyalarni yaratish va himoya qilishda o'ziga xos ilmiy-texnik qahramonlikni talab etadi.

4. Harbiy ta'limda yosh ofitserlarni tarbiyalash metodologiyasi

Harbiy akademiyalar va ixtisoslashtirilgan institutlarda kursantlarni tarbiyalash jarayoni fundamental fanlarni o'qitish bilan birga, kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirishni taqozo etadi. Bo'lajak aloqachi va IT mutaxassisi bo'lgan ofitserlar qalbida vatanparvarlik ruhini uyg'otish uchun quyidagi pedagogik va yondashuvlar ustuvor bo'lishi lozim:

1. Tarixiy vorislik tamoyili: Kursantlarga aniq fanlar va dasturlash tillarini o'rgatish bilan bir qatorda, ajdodlarimizning harbiy san'ati, logistika va aloqa tizimlarini tashkil etishdagi tarixiy tajribalarini tahliliy o'rgatish.

2. "Ilm – vatan himoyasi quroli" konsepsiyasi: Algoritmlarni optimallashtirish, mikrokontrollerlar uchun dasturiy ta'minot yozish yoki tarmoq topologiyasini loyihalashdek murakkab jarayonlarning har biri oxir-oqibatda davlat xavfsizligiga xizmat qilishini ongiga singdirish.

3. Amaliy vaziyatli modellashtirish (Case study): Mashg'ulotlar davomida dunyo amaliyotida yuz bergan kiberhujumlar va axborot infratuzilmalariga qilingan tajovuzlar tahlilini ko'rib chiqish. Bu orqali ularda "Men o'z tizimimni qanday himoya qilaman?" degan mas'uliyat hissini shakllantirish.

5. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, vatanga sadoqat qotib qolgan tushuncha emas; u davr talablari bilan birga o'sib, yangilanib boruvchi hayotiy zaruratdir. Tarixiy qahramonlarimizning qoni va joni evaziga saqlab qolingan bu muqaddas zaminni

bugungi kunda himoya qilish – yuksak intellekt, chuqur ilmiy yondashuv va tinimsiz izlanishni talab etadi.

Professor-o'qituvchilar va harbiy olimlarning eng oliy burchi – qahramonlar ibratini shunchaki hikoya qilib berish emas, balki ana shu qahramonlik an'analarini o'zining ilmiy kashfiyotlari, yozgan kodlari va yaratgan tizimlari orqali davom ettira oladigan, qalbi vatan ishqi bilan yonuvchi yangi avlod ofitserlarini yetishtirib berishdir. Toki, biz tayyorlayotgan har bir mutaxassis o'zining ish stolida yoki kompyuter monitori qarshisida ham xuddi jang maydonidagidek Vatan taqdiri uchun shaxsan javobgar ekanligini his qilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma’naviyat", 2008.

3. Axborot xavfsizligi va harbiy-texnik taraqqiyot muammolari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2023.

4. Harbiy pedagogika va psixologiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022.

VATANGA SADOQAT BILAN XIZMAT QILGAN MARDLARNING JASORATI

Saydjanov Farxod Madraximovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti
Gumanitar fanlar sikl boshlig‘i dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida, xususan 2000 va 2005-yillardagi jangovar harakatlarda mamлакат suverenitetini himoya qilish yo‘lida qahramonlarcha halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning jasorati tahlil qilinadi. Maqolada "Millat fidoyilari" kitobi asosida o‘tkazilgan tadqiqotlar, qahramonlarning jang maydonidagi fidoyiligi va ushbu voqealarning zamonaviy harbiy ta'lim hamda taktikaga ko‘rsatgan ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *"Millat fidoyilari", Sariosiyo voqealari, Andijon voqealari, harbiy taktikadagi o‘zgarishlar, vatanparvarlik, maxsus operatsiyalar kuchlari, qahramonlik.*

Tarixiy xotira va davlat e’tibori. Mustaqilligimiz o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan emas, suverenitetga erishgandan keyin u qurbonlar evaziga asrab qolinganligini xalqimiz bilishi va esda tutishi muhim ilmiy-ijtimoiy ahamiyatga ega. 2025-yil 8-mayda, Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida erishilgan g‘alabaning 80 yilligi arafasida davlatimiz rahbari tomonidan "G‘alaba bog‘i" yodgorlik majmuasi hududida "Millat fidoyilari" monumenti ochildi. Ushbu

monument mustaqillik yillarida vatan ozodligi uchun kurashlarda qahramonlarcha halok bo‘lgan 196 nafar jangchilarning xotirasiga bag‘ishlangan.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bu monumentda nomlari zarhal harflar bilan muhrlab qo‘yilgan 196 nafar marhum harbiy xizmatchi va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining har biri, hayotning ko‘p ne'matlaridan bahramand bo‘lishga ulgurmagan, kelajak orzulari bo‘lgan, ota-onasi, oilasi va farzandlari kutayotgan sheryurak o‘g‘lonlar edi. Ular mamlakatimiz istikloli va xalqimiz tinchligiga nisbatan real xavf tug‘ilgan paytda bir daqiqa ham o‘ylab o‘tirmasdan o‘zlarini qalqon qildilar.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki yillarda suverenitetga nisbatan qator mojarolarga duch keldi. Ularning eng yiriklari 2000-yilning yozida davlatning janubiy sarhadlarida xalqaro terrorchi guruhlarning chegaralarni buzib kirishga qaratilgan harakati hamda 2005-yilning may oyida Andijon shahrida ekstremistik kuchlarning konstitutsiyaviy tuzumni buzishga qaratilgan urinishlari hisoblanadi.

Mazkur operatsiyalarda Mudofaa vazirligi tizimidan ishtirok etib, mardlarcha halok bo‘lgan 23 nafar vatan himoyachilari haqida "Ajdodlar izidan" harbiy tarixiy jamiyatining ilmiy xodimlari tomonidan "Millat fidoyilari" nomli kitob yozishga kirishildi. Bu jarayonda quyidagi metodologik ishlar amalga oshirildi:

Jangchilar yashagan xonadonlarga xizmat safarlari uyushtirildi.

Ularning ota-onalari, umr yo‘ldoshlari, farzandlari, qarindoshlari, ustozlari va do‘stlari bilan suhbatlar uyushtirilib, yangi ma'lumotlar to‘plandi.

Qahramonlarning shaxsiy delolari (yig‘ma jildlari) o‘rganilib, kitob sahifalari ularning xizmat joylari, ta'lim muassasalari va rag‘batlantirilganlik holatlari bilan boyitildi.

2000-yil yozgi jangovar harakatlar qahramonlari: Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi fidoyilik.

2000-yilning avgust oyida Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida xalqaro terrorchi to‘dalarga qarshi olib borilgan jangovar harakatlar davomida Qurolli Kuchlarimiz qator qahramonlik namunalarini ko‘rsatdi. Ushbu operatsiyalarda maxsus amaliyotlar o‘tkazilib, dushman tor-mor qilindi, biroq bir necha jangchilarimiz halok bo‘ldi.

Harbiy aviatsiya qahramonlari.

Jangovar operatsiyalarda yerdagi kuchlarni havodan qo‘llab-quvvatlash, ta'minot yetkazib berish va evakuatsiya ishlarida qatnashgan Mi-8 vertolyoti ekipaji beqiyos jasorat ko‘rsatdi. Ekipaj tarkibi quyidagilardan iborat edi:

Ekipaj komandiri: Podpolkovnik A. Choriyev.

Uvchi: Katta leytenant Shermuhammad Ashirov.

Bort texnik: Leytenant Nariman Apkelyamov.

Operatsiyani bajarib bo‘lgan desantni evakuatsiya qilish chog‘ida dushman snayperi vertolyotning birinchi dvigatelini safdan chiqardi. Qattiq chayqalish oqibatida podpolkovnik Choriyev tashqariga otilib chiqib ketdi. Bort texnik N. Apkelyamov vaziyatni to‘g‘ri baholab, vertolyotga chiqishga ulgurgan desantchilarni tashqariga chiqarib yubordi va ularning hayotini saqlab qoldi. Katta leytenant Sh. Ashirov vertolyot boshqaruvini yo‘qotmaslik uchun shturvalni mahkam ushlab turdi, ammo qattiq silkinish natijasida N. Apkelyamov tashqariga uchib ketib umerqa sohasidan qattiq jarohatlandi, Sh. Ashirov esa qulagan vertolyot ichida halok bo‘ldi. N. Apkelyamov olingan jarohatlar oqibatida 2000-yil 20-dekabrda hayotdan ko‘z yumdi.

Maxsus operatsiyalar kuchlarining fidoyiligi

Piyoda va maxsus qo‘shinlar tarkibida xizmat qilgan ofitser va serjantlarning qahramonligi ham tarix sahifalaridan o‘rin oldi:

Sariosiyo vertolyot halokati: Katta leytenantlar Kamoliddin Toshpo‘latov, Ismatillo Xo‘jayev, Asilbek Mirzayev, Chori Rajabov hamda serjantlar Xayriddin Xolboyev, Dilshod Asanov, Otabek Muhammadiyevlar xalqaro terrorchi to‘dalarni yo‘q qilish vazifasini yuqori saviyada bajarib bazaga qaytayotganlarida, qo‘nishga 4 daqiqa qolganda vertolyot halokatga uchrashi oqibatida halok bo‘ldilar.

Katta leytenant Mahmudjon Jalilov: 2000-yil avgust oyidagi janglarda og‘ir yaralangan M. Jalilov unga yordam bermoqchi bo‘lgan shifokor Bahrom Ochilovga o‘zini qo‘yib, yosh askar Ilyosga yordam berishni, uning hayotini saqlab qolishni so‘radi. M. Jalilov o‘z jonidan safdosh do‘stlarining hayotini saqlab qolishni afzal bildi va vafot etdi. U vafotidan so‘ng II darajali "Shon-Sharaf" ordeni bilan taqdirlandi.

Leytenant Sayyor Sadinov va Bobur G‘aniyev: S. Sadinov 2000-yil 8-avgustda dushman snayperi o‘qidan halok bo‘ldi. B. G‘aniyev esa 4-avgustdagi jangovar reydda snayper o‘qidan yaralanishiga qaramay guruhga marrani egallashga buyruq berdi va feldsher Qahramon Madolimovning yordamiga qaramay halok bo‘ldi. Ikkala ofitser ham II darajali "Shon-sharaf" ordeni bilan mukofotlandi.

Elomon Otajonov: 2000-yil 11-avgustda ilgor dozor tarkibida harakatlanayotib dushman snayperidan yaralandi. U o‘z qurolidan dushman pozitsiyalariga o‘q otib, ularning joyini ortdan kelayotgan guruhga aniqlab berdi. Evakuatsiya vaqtida oxirgi so‘zi safdoshlaridan uning ota-onasi va uka-singillaridan xabar olib turishlarini so‘rash bo‘ldi.

Tibbiyot xodimlariga qilingan xuruj va Jeneva konvensiyasining buzilishi

Xalqaro Jeneva konvensiyasida yaradorlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish kerkligi hamda Qizil xoch va Qizil yarim oy belgilari ostida harakatlanayotganlarga hujum qilish taqiqlanganligi belgilangan. Bunga qaramay, 2000-yildagi janglarda yaralangan Ma'rufjon Rajabovga yordam ko‘rsatish uchun yetib kelgan, sumkasida

Qizil xoch belgisi aniq koʻrinib turgan otryad feldsheri Qahramon Madolimov terrorchilar tomonidan oʻqqa tutildi. Ulugʻbek Barnoyev qurolidan dushman tomon oʻt ochib, yarador feldsherni himoya qilishga urindi, biroq dushman snayperi oʻqidan qulab tushdi. Shu yerda uchala jangchimiz qahramonlarcha halok boʻldi va vafotidan keyin "Jasorat" medali bilan mukofotlandi.

Shuningdek, Surxondaryo togʻlaridagi janglarda Mashrab Joʻrayev va Muhiddin Eshtemirov kabi harbiy xizmatchilar pisitirmaga tushib qolganda safdoshlarini ogohlantirishga muvaffaq boʻlib qahramonlarcha halok boʻldilar (M. Eshtemirov vahshiy terrorchilar qoʻlida azoblab oʻldirildi). Kichik serjant Yunusjon Oxunov va serjant Doniyorbek Tojiboyevlar ham xuddi shu hududda terrorchilarni yoʻq qilish chogʻida vafot etishdi.

2005-yil Andijon voqealari: Ichki barqarorlikni ta'minlashdagi jasorat

2005-yilning may oyida Andijon shahrida tashqi kuchlar bosimi ostida qonuniy konstitutsion tuzumni agʻdarishga qaratilgan harakatlar boshlandi.

Kapitan Bahrom Joʻrayev: 13-may kuni Choʻlpon shoh koʻchasida qurollangan jinoyatchilar garovga olingan odamlarni oʻzlariga pana qilgan holda harbiylarga yaqinlashganda, kapitan ulardan qurollarni topshirishni talab qildi. Jinoyatchilarning oʻqqa tutishi natijasida B. Joʻrayev yarador boʻldi, biroq shunga qaramay boʻlinmani boshqarishda davom etdi. Bu shaxsiy tarkibni ruhlantirdi va jinoyatchilar toʻdasi parokanda boʻlib, garovdagilar ozod qilindi. Kapitan B. Joʻrayev olingan jarohati tufayli vafot etdi va II darajali "Shon-sharaf" ordeni bilan taqdirlandi.

Kichik serjant Anvarjon Otabekov: Teatr binosining tom qismiga oʻrnashib olgan terrorchilarni merganlik miltigʻi bilan yoʻq qildi. Dushmanga yaqinlashish maqsadida zirhli transportyor tagiga emaklab kirganda, dushman uni moʻljalga olib boshiga oʻq uzdi va u halok boʻldi. A. Otabekov vafotidan soʻng "Jasorat" medali bilan mukofotlandi.

Jangovar tajriba va harbiy ta'limdagi ilmiy-amaliy takomillashuv

Halok boʻlgan mard oʻzbek jangchilarining vatan va xalq oldidagi xizmatlari bebahodir; bir tomondan xalqaro terrorchi guruhlar ular tomonidan bartaraf qilingan boʻlsa, ikkinchi tomondan ularning mustaqillik yoʻlida shahid ketishlari harbiy tizim uchun katta qaygʻuli dars boʻldi.

Ularning janglari misolida harbiy taktikaga katta oʻzgarishlar va yangiliklar kiritildi:

Maxsus harakatlar metodologiyasi: Jangovar harakatlarni klassik usulda olib borish bilan birga, qoʻshinlarning maxsus harakatlariga asos solindi.

Togʻ hududlaridagi taktika: Togʻli va oʻrmonli togʻ hududlarida jangovar harakatlar olib borish taktikasi takomillashdi. Xususan, togʻlarda terrorchi toʻdalarga qarshi ikki-uch kishilik guruhchalarni qoʻllash taktikasi rivojlantirildi.

Harbiy ta'limdagi islohotlar: Harbiy-ta'lim muassasalarida "Taktika" faniga qo‘shinlarni terrorchi to‘dalarga qarshi qo‘llash bo‘limi kiritildi va bo‘lajak ofitserlarga ushbu yo‘nalishda saboq berila boshlandi.

Xulosa. Vatan himoyasi yo‘lida jonini fido qilgan harbiylarimiz bugungi Yangi O‘zbekiston uchun mustahkam zamin yaratib ketishdi. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, xalqimiz va davlatimiz ularning xotirasi, ruhi poklari oldida doimo qarzdordir. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz va ofitserlar korpusi "Millat fidoyilari" timsolida vatanga sadoqatning eng oliy mezonini ko‘radi va harbiy strategiyani davrning eng murakkab tahdidlariga qarshi ilmiy va taktik jihatdan muttasil takomillashtirib boradi.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA TEST TOPSHIRIQLARINI TO‘G‘RI SHAKLLANTIRISH VA UNING O‘RNI

PRIMOVA Munisa Majlim qizi

Alfraganus universitetining Farmasevtika va kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola test shakllari va ularni to‘g‘ri tuzish masalalariga etibor qaratilgan. Test tuzish ko‘pchilik pedagoglar nazarida juda oddiy ishday tuyulsada, lekin ularni tuzish o‘ziga xos mashaqqatni talab etadi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются тестовые формы и их правильное построение. Хотя создание тестов кажется большинству педагогов простой задачей, на самом деле, это требует особого уровня усилий.*

Kalit so‘zlar*. Test, test shakli, yopiq test, ochiq test, qoida, baholash.*

Ключевые слова. *Тест, форма теста, закрытый тест, открытый тест, правило, оценка.*

Oliy ta’lim muassasalarida ta‘limni rivojlantirishda kursantlarning bilimini shaffof aniqlash uchun test, attestatsiya shakllaridan biri sifatida qaralib, kursantlarning ta’lim yutuqlari darajasini:

- nazariy bilimlarini, intellektual ko‘nikmalarini, amaliy ko‘nikmalarni ob‘ektiv ravishda o‘rnatishga imkon beradigan jarayon hisoblanadi.

- test topshiriqlarini tuzishda o‘ziga xos shakllardan foydalanish kerak. Aks xolda har qanday test ko‘rinishidagi topshiriqlar pedagog va kursant vaqtini bexuda sarflashdan boshqa narsa emas. Arastu davridan beri shakl, elementlarning joylashishi yoki tashkil etilishi uchun ideal tamoyil sifatida tushunilgan.

Boshqa bir talqinni I. Kant ilgari surgan, unga ko‘ra shaklni tartibga solish tamoyili sifatida qaraladi. Mazmun bilan birlashganda shakl vazifaning o‘ziga xos ko‘rinishini beradi, yoki boshqacha aytganda mazmuni ma’lum bir shaklga ega

bo‘ladi. Shaklning muhim rolini Gegel estetika bo‘yicha ma‘ruzalarida bir necha bor ta‘kidlagan:

Uning so‘zlari bilan aytganda, shakl “tarkibning ichki ta’rifi”dir [1].

Test topshiriqlarining o‘ziga xos shakli shundaki, test topshiriqlari savollar yoki topshiriqlar emas, balki javoblarga qarab bayonotlar shaklida rost yoki yolg‘on shaklda tuzilgan vazifalardir. An‘anaviy savollar, aksincha, to‘g‘ri yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin emas va ularga javoblar shunchaki noaniq va tushunarsiz bo‘lib, ularning to‘g‘riligini ochib berish, umuman olganda, o‘qituvchilarning intellektual energiya sarflarini talab qiladi. Shu ma‘noda an’anaviy savollar va javoblar texnologik jihatdan rivojlanmagan va shuning uchun ularni testlarga qo‘shmaslik kerak. Ko‘pchilikka test tuzish oddiy holatdek tuyuladi. Aslini olganda haqiqiy test topshiriqlarini shakllantirishga mazmun, shakl va uquv ko‘nikma va bilimlarini birlashtiradigan ijodiy hodisa sifatida qarash kerak. Kursantlar bilimini shafof aniqlashda testlar asosan dasturiy ta‘minotlar yoki nusxalangan qog‘oz variantida olib boriladi.

Test topshiriqlarining asosiy shakllari quyidagilar:

- ✓ yopiq shakli (kursant tayyor javoblardan birini tanlashi kerak bo‘lganda);
- ✓ ochiq shakli (kursant o‘zi javob topib, blankaga yozganda). Yopiq turdagi vazifalar, o‘z navbatida, quyidagilarga bo‘linadi:

1. Bitta javob variantini tanlashingiz mumkin bo‘lgan testlar (ko‘p tanlov). Agar kursant uni to‘g‘ri tanlagan bo‘lsa, javob hisobga olinadi. Variantlar:

- ✓ oddiy tanlov - 4-5 javobdan bitta to‘g‘ri javob;
- ✓ taqdim etilganlardan eng to‘g‘ri javobni tanlash.

Shuningdek:

1. Bir nechta javob variantlarini tanlashingiz mumkin bo‘lgan testlar - (muqobil tanlov, belgilash katakchasi). Sinov uchun javobni faqat barcha javoblar to‘g‘ri berilgan taqdirda (qo‘shimcha yoki etishmayotgan narsa yo‘q) yoki har bir to‘g‘ri javob uchun ball qo‘yilgan va har bir noto‘g‘ri javob uchun ball tushirilgan taqdirda hisoblash mumkin.

Variantlar:

- ✓ qiyin tanlov - 4-5 javobdan ikki yoki undan ko‘p to‘g‘ri javob;
- ✓ moslikni o‘rnatish (chapda va o‘ngda tegishli tushunchalar berilgan, masalan, gapdagi so‘zlar, umumiy va o‘ziga xos tushunchalar va boshqalar). Kursantga yozishmalar chizish, kompyuterdagi bloklarni sudrab olib, birbiriga joylashtirish va h.k. ishlarni qilish kerak bo‘ladi. Bunga saralash va tasniflash bo‘yicha vazifalar ham kiradi.

Quyidagi variantlarni moslashtirish testlari berilishi mumkin:

- tushunchalar va ta‘riflar;

- matn va rasm;

- mualliflar va iqtiboslar ro‘yxati;

- sanalar va tadbirlar;

- tushunchalar ro‘yxati va ularning xususiyatlari;

- va boshqalar

2. Ketma-ketlikni aniqlash (kursantga to‘g‘ri ketma-ketlikda o‘rnatishi kerak bo‘lgan bir qator tushunchalar, sanalar, so‘zlar taklif etiladi).

Variantlar:

- hodisalarning xronologik ketma-ketligini o‘rnatish;
- mantiqiy ketma-ketlikni o‘rnatish;
- sonlarni o‘sish / tushish tartibida joylashtirish;
- muqobil javob (kursantdan har bir berilgan bayonot uchun Ha-Yo‘q yoki True-False-ni o‘rnatish talab qilinadi).

Ochiq turdagi topshiriqlar:

- kichik iboralar, so‘zlar yoki belgilar bilan yozish - kontekstga qo‘shimcha sifatida. Masalan, tushirib qoldirilgan so‘zni, tinish belgilarini, tushirib qoldirilgan simvolni va boshqalarni kiritish;
- erkin tasnif - kursantga savolga javobni erkin taqdim etish uchun joy beriladi.

Bo‘sh joy belgilar soni bilan cheklanishi mumkin, masalan, 100 yoki 500 belgidan ko‘p bo‘lmagan, 10 ta so‘z va boshqalar. Testlarni tuzish qoidalari test topshirig‘i aniq, tushunarli shakllantirilishi va birma-bir talqin qilinishi kerak. Agar savol shunday tuzilgan bo‘lsa, uni hamma kursantlarlar ham birdek tushunib eta olmaydilar, so‘zlarni o‘zgartirish kerak.

Misol: Tarmoq xizmatlari firmasi bu ...

Kursantga savol beriladi:

- tarmoq xizmati nima?
- Internetga kirish xizmatlari?
- Avon kabi tarmoq marketing firmasi yoki boshqa biron narsa?

Test vazifasi qisqacha, murakkab jumlalar, keraksiz qatnashuvchi va ergash gaplar, kirish so‘zlaridan foydalanmasdan tuzilishi kerak. Agar vazifada juda ko‘p “qaysi”, “qaerda”,“nima” ko‘p vergul bo‘lsa, uni tushunish va shuning uchun hal qilish qiyin bo‘ladi. Topshiriq takrorlanmasdan, ikki marta inkor qilinmasdan tuzilishi kerak (yo‘q - emas), ammo umuman inkor etishdan saqlanish yaxshiroqdir.
Misol: Paint elektron jadval dasturi emas.

Javob variantlari: Ha-Yo‘q. Kursant uchun bu savolga javob berish qiyin bo‘ladi, chunki vazifada ham, javobda ham inkor mavjud. Agar savolning o‘zi taklif qilgan bo‘lsa, savolga “shakllantiring”, “ko‘rsating”, “xabar bering” kabi so‘zlarni yozmasligingiz kerak. Masalan: Radioni kash yetgan kishining ismini yozing? “Yozing” so‘zi ortiqcha. Topshiriqlarning so‘zlarini ham, javoblarning so‘zlarini ham kursantga oldindan aytib berish bo‘lmasligi uchun tekshiring. Bitta topshiriqda boshqa topshiriqqa javob berish uchun ishora yo‘qligiga ishonch hosil qiling. Vazifalar aniq noo‘rin javoblardan iborat bo‘lmasligi kerak, bunda kursant darhol to‘g‘ri javobni hisoblab chiqadi. Barcha javoblar tarkib jihatidan ham, hajm jihatidan ham bir xil bo‘lishi kerak. Har bir javobda takrorlangan iboralar savolning matniga kiritilishi kerak. Masalan:

16 sanoq tizimida ……	16 sanoq tizimida nechta raqam va harf bo‘ladi.
a) 8 raqam va 4 harf bo‘ladi.	a) 8 raqam va 4 harf
b) 9 raqam va 6 harf bo‘ladi.	b) 9 raqam va 6 harf
c) 11 raqam va 4 harf bo‘ladi.	c) 11 raqam va 4 harf
d) 12 raqam va 2 harf bo‘ladi.	d) 12 raqam va 2 harf

Savolda qimmatli fikrlardan foydalanishga va kursantning sub’ektiv fikriga murojaat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, “muhim”, “asosiy” so‘zlaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Masalan: Yaxshi fotosuratda eng muhimi nima xisoblanadi?

a) to‘g‘ri ekspozitsiya

b) kadr kompozitsiyasi

c) avtorlik g‘oyasi

d) sahnaning to‘g‘ri yoritilganligi

Topshiriqda gapning boshini tuzish uchun asosiy kalit so‘z (asosiy tushuncha) yaxshiroqdir. Topshiriq yoki qo‘shma gaplar bilan topshiriqni shakllantirishni boshlamaganingiz ma’qul.

Masalan: Qaysi mamlakatlar tarmoq qurilmalar bo‘yicha global YaIM va tovar eksportida eng kam ulushga ega.

To‘g‘ri: Jahon YaIMdagi eng kichik ulush ...

Tasvirlar, diagrammalar, jadvallar va boshqalar bilan birga topshiriqlarni tuzish va variantlarga javob berish maqsadga muvofiqdir. Test natijalari iloji boricha

ob’ektiv va ishonchli bo‘lishi uchun etarli miqdordagi topshiriqlarni, shuningdek turli xil darajadagi vazifalarni o‘z ichiga olishi kerak. Bu shuningdek kursantlarning charchoqlarini yo‘q qilishga yordam beradi. Eruditsiya yoki mantiqiy fikrlash asosida javob beradigan savollardan saqlaning, chunki test vazifasi o‘qish va fikrlashni sinash emas, balki ma’lum bir kursantning maxsus bilimlarini, o‘quv materialini bilishlarini sinab ko‘rishdir. Matnlarni bilish (agar kerak bo‘lmasa), asosiy ma’lumotlar, kichik tafsilotlar va hk. haqidagi savollarni chiqarib tashlang. O’qitishning interfaol usullaridan qaysi vaqtda foydalanishni, qaysi mavzularda qanday interfaol usullarni qo’llashni, qanday qilib tashkil etishni, qaysi interfaol usullar axborot texnologiyalari mashg‘ulotlarida ko’proq ijobiy natija berishini o’qituvchi bilishi kerak. Interfaol usullarni yangi mavzuni bayon qilishda, takrorlash va bilimlarni mustahkamlashda ijobiy natija berishi mumkin. [2]

Bizning fikrimizcha bunday testlar to‘plami orqali kursantlar bilimini baholash, ularning faqat masalalarni yozma ko‘rinishda yechish yoki bo‘lmasam test topshiriqlarini topshirish kabi bir yoqlama fikrlashlarini o‘zgartiradi. Bunday turdagi topshiriqlar, kursantlarning har bir o‘tilgan ma’ruzaga puxta tayyorgarlik ko‘rib kelishlariga sabab bo‘ladi. Bunday topshiriqlar to‘plamini turli xil sabablarga ko‘ra darsni o‘tkazib yuborgan kursantlarga darsni mustaqil o‘zlashtirganligini aniqlash sifatida ham qo‘llash mumkin.

Fanlardan test tayyorlash uchun ishlatiladigan bir qancha dasturlar mavjud. Bu dasturlar o‘qituvchilarni test qilish, baholash va baholashni avtomatlashtirish uchun juda foydalidir. Quyida ba‘zi mashhur dasturlar qo‘llaniladi:

- Google Forms, Quizizz, Kahoot, Microsoft Forms, Moodle, Quizlet, My test va boshqa dasturlar mavjud.

Google Forms yordamida so‘rovnomalar, testlar va anketa yaratish mumkin. Javoblar avtomatik ravishda Google Sheets-ga to‘planadi, undan bemalol natijalarni analiz qilish imkoniyati mavjud. Testlar shaxsning intelektual salohiyatini rivojlantirishga qulay imkoniyat yarratadi. Bunda testlarning natijasini onlayn va real vaqt rejimida javoblarni ko‘rish imkoniyati mavjud. Internet Veb saytlari asosida ishlaydi. Google Forms yordamida test tayyorlash juda oddiy va samarali. Bu platforma yordamida onlayn testlar, so‘rovnomalar, viktorinalar va baholash tizimlarini yaratish mumkin.

Kahoot yordamida interaktiv va viktorina testlarini yaratish mumkin. Bundan tashqari kursantlarda motivatsiya yaratish, bilimini va malakasini oshirish, e‘tiborini jalb qilish uchun o‘yin formatida testlarni yaratish mumkin. Internet Veb saytlari asosida ishlaydi.

Moodle masofaviy ta‘limni tashkillashtirish qulay platforma bo‘lib, testlar, viktorinalar, imtihonlar, onlayin kurslarni yaratish va boshqarish imkonini beradi.

Veb, IOS, Android plotformalarda ishlaydi. Bu dasturlar orqali testlar yaratish, kursantlarni baholash va ularning natijalarini tahlil qilish juda oson. Har biri o‘zining afzalliklariga ega va turli ehtiyojlar uchun mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1].Аванесов В.С. “Форма тестовых заданий”. Учебное пособие для учителей школ, лицеев, препадователей вузов и колледжей. 2 изд., переработанное и расширённое. М.: “Центр тестирования”, 2005 г. 156 с.

[2]. Yusupova Sh. B. Maktablarda dasturlash asoslarini o’qitishda interfaol usullardan foydalanish.

[3]. O’zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali “Ijtimoiy sohalarni raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarning o’rni va ahamiyati” respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plam materiallari. 29.05.2020. 243-250 b.

PEDAGOGIKANING TARAQQIYOT BOSQICHLARI TO‘G‘RISIDA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR EVOLYUTSIYASI

PRIMOVA Munisa Majlim qizi

Alfraganus universitetining Farmasevtika va kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy pedagogika o‘z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o‘rgailishi. Shu ma’noda harbiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari harbiy xizmatchilarga ta’lim va tarbiya berishning real jarayonlariga xos bo‘lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo‘llari, metodlari, vositalari majmui to’g’risida so’z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Harbiy pedagogika, meros, harbiy tarbiya, jangovar faoliyat, madaniyat, ma’naviyat, donolik, yodgorliklar.*

Аннотация: *В данной стате рассматривается изучение педагогических явлений и процессов с методами, соответствующими целям и задачам военной педагогики, направленными на обогащение и обновление эё среды. В этом контексте научно-исследователские методы военной педагогики посвящены проверке внутренних связей и отношений, присущих реальным процессам обучения и воспитания военнослужащих, а также путям познания, методам и средствам, связанным с ними.*

Ключевые слова*: военная педагогика, наследие, военное воспитание, боевая деятелност, култура, памятник, мудрост, просвещение.*

Kishilik jamiyatining qadimiy ibtidoiy, ya’ni boshlang‘ich davrida odamlar tayyor mahsulotdan foydalanishgan. Ovchilik, keyinchalik yesa dehdonchilik va turli-tuman xunarmandchilikning rivojlanishi odamlar mehnat tajribasining oshishiga olib kelgan. Mehnat faoliyati borgan sari murakkablasha borib, odamlarning shaxs sifatida shakllanishida va kishilik jamiyatining rivojlanishida muhim rol o‘ynay boshladi. Mehnat odamlarning tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatib, tarbiyani hayotiy zaruriyat qilib qo‘ydi. Odamlarning mehnat ko‘nikmalari yosh avlodga meros bo‘lib qola boshladi. Yendi tarbiya mehnat faoliyatining, mehnat tajribasining mahsuliga bevosita bog‘liq bo‘lib qoldi. Shu tariqa ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni quyi avlodga o‘rgatish yehtiyoji tug‘ildi. Tajribalarning to‘rlanishi natijasida ta’lim-tarbiyaning dastlabki omillari vujudga keldi. Tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi tajribalar asosida ma’lum bilimlar boyib bordi.

Armiyaning yuzaga kelishi bilan jangovar faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblangan shaxsiy tarkibning ta’lim va tarbiyasi maxsus ijtimoiy hodisa sifatida bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Ushbu tarkibiy qism o‘z mazmuni bo‘yicha amaliy harbiy tarix hisoblanib, harbiylarni har tomonlama jangovor xatti-harakatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishiga zaruriy, majburiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uzoq vaqt harbiy-redagogik tavsiyalar ajdodlardan avlodlarga rivoyat, o‘git, maqol, matallar asosida o‘tib kelgan[1].

Harbiy ish murakkablashib borgan sari, ayniqsa, milliy davlatlar vujudga kelishi davrida qiyosiy ko‘r sonli muntazaam armiyalarni tashkil torishi bilan harbiy-redagogik, buyuk gumanistlar fikrlar ham kelgusidagi rivojlanishga yuz tutdi[1].

Bu davrga kelib umumlashgan harbiy tarix tajribalar ko‘rsatma jang san’ati rand-nasihat, ustav, buyruq va boshqa yozma manbalarda o‘z aksini tordi. Harbiy tarix va uning rivojlanish jarayoni mazmuniga mamlakatning tarixiy rivojlanish shart-sharoitlari, ko‘r vaqt davomida u yoki bu mamlakat armiyasining hal qiluvchi vazifalari, shaxsiy tarkibning milliy xususiyatlari va boshqalar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Yeng qadimgi harbiy tarbiyalash haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san’ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo‘lishning namunasi tarzida ye’tirof yetilgan ma’naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” hamda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” kabi asarlari, shuningdek, Urxun-Yenisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha yetib kelgan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o‘rganish insonning shakllanishida moddiy va ma’naviy madaniyat qay darajada katta rol o‘ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib tora borishiga ta’sir yetgan bo‘lsa,

insonning shakllana borishi ham o‘z navbatida kishilik jamiyatining qaror tora borishiga yordam bergan. Xullas, tafakkur yurita olish qobiliyatiga yega bo‘lgan inson kamolotining ta’minlanish jarayoni hamda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti o‘zaro uzviy aloqada shakllangan. Mazkur tarixiy jarayon mohiyatini bilish bizga inson tafakkurining juda uzoq davr va murakkab sharoitlarda shakllana borganligidan dalolat beradi[3].

Urug‘chilik jamoasi bosqichida yesa bolalar mehnatining ko‘lami kengayib, kasb-hunar faoliyatining turlari ko‘rayib boradi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o‘rgata boshlaydilar. Asta-sekin harbiy tarbiyaning boshlang‘ich ko‘rinishlari yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga harbiy san’at sirlarini o‘rgatish ancha murakkab ish bo‘lib, ushbu tarbiyani tashkil yetish maxsus bilim hamda tayyorgarlikka yega bo‘lishni taqozo yetar yedi. Shu bois maxsus harbiy bilim va tayyorgarlikka yega bo‘lgan kishilar bolalarga bu boradagi bilimlarni berish jarayoniga jalb yetila boshladilar.

Miloddan oldin taxminan 484(480)-431(425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta’lim-tarbiya tarziga oid muhim ma’lumotlar berilgan. “Forslarning yeng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir”, - deydi olim. Shunga ko‘ra ular ko‘rroq o‘g‘il bolalardan faxrlanganlar. Rodshoh ham kimning o‘g‘li ko‘r bo‘lsa, unga har yili sovg‘a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari bolalarning yoshiga ham ye’tibor berishgan. O‘g‘il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshigacha faqat uch narsaga: otda yurish, kamondan otish, to‘g‘ri so‘zlikka o‘rgatilgan. Bolani besh yoshgacha otasiga ko‘rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo‘lgan. Mabodo o‘g‘il bola vafot yetsa, otasining qayg‘urmasligi uchun shunday qilganlar[2].

O‘g‘illar hech qachon ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qilmaganlar. Ular bunday holatni faqat nikohsiz tug‘ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bundan tashqari. Gerodot forslar uchun yolg‘onchilik va qarzdor bo‘lish sharmandalik hisoblangan, deydi. Ular daryolarni muqaddas sanaganlar. Shu bois daryo suviga tururmaganlar, hatto qo‘l yuvmaganlar[4]. Gerodotning ushbu ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki. bizning ajdodlarimiz o‘g‘il farzandlarini jasoratli, o‘z Vatanining haqiqiy himoyachisi, kuchli va botir inson yetib tarbiyalashga katta ye’tibor berganlar. Yigitlar va yerkaklargina yemas, hatto ayollarning ham jasorat ko‘rsatganlari borasidagi fikrlar yunon faylasuflari tomonidan yozib qoldirilgan. Masalan, Rlutarx fors ayollari haqida garirib shunday voqeani keltiradi: rodshoh Kir forslarni shoh Astiag boshliq midiyaliklarga qarshi kurashga otlantirganda, ular jangda mag‘lub bo‘ladilar. Fors jangchilari shaharga qarab qocha boshlaydilar. Dushman ularni quvib, shaharga bostirib kirishiga yaqin

qolganda, darvozadan ularga qarshi ayollar chiqib keladilar va yoqavayron holda shovqin ko‘taradilar: “Yey, noinsof bandalar, qayoqqa qochmoqchisizlar? Yendi siz dunyoga kelgan joyingizga qaytib yashirina olmaysizlar-ku!” Forslar ayollarning bu xatti-harakatiga dosh bera olmay, qaytib jangga tashlanadilar va dushmanni orqaga chekinishga majbur yetadilar.

Bu voqeaga xotira sifatida Kir shunday qonun ta’sis yetadi: “Bu shaharga qaysi shoh qadam qo‘ysa, har bir ayolga bittadan oltin sovg‘a qilsin”.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, mavjud holatlar hamda shart-sharoitning o‘zi yoshlarga otda yurish, kamondan otish borasidagi bilimlarni o‘rgatish, shuningdek, ularda jasurlik, to‘g‘rilik va botirlik hislatlarini tarbiyalash lozimligini taqozo yetgan. Shu bois qadimgi ajdodlarimiz bolalarni o‘z xalqining yerki va yurt mustaqilligining himoyachilari yetib tarbiyalaganlar.

Rlutarxning yana bir o‘rinda qayd yetishicha, Aleksandr Makedonskiy yerli xalqlarga yaqinlashish maqsadida makedoniyaliklar bilan mahalliy xalqlarning urf-odatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Shu maqsadda u o‘ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va makedoniyaliklarga xos bo‘lgan harbiy san’at sirlarini o‘rgatishga buyruq bergan. Ana shu maqsadni amalga oshirishga juda ko‘r murabbiylar tayinlangan. Yunon alifbosining keyinchalik bu yurtda qabul qilinishi o‘sha davrda ko‘rlab maktablar ochilgani hamda unda yerli aholi farzandlari ham o‘qitilganidan dalolat beradi.

So‘g‘d yozma yodgorliklari orasida V.B.Xen tomonidan aniqlangan va “Yeski xatlar” nomi bilan yuritiladigan qimmatli manbalar yeramizning boshlarida shakllangan so‘g‘d yozuvi haqida ma’lumot beradi. Ushbu manbalarni Dunxuan shahri (Sharqiy Turkiston) yaqinidagi savdo qishlog‘ida yashagan so‘g‘dlik tijoratchi (savdogar)larning o‘z ona yurtlari Samarqandga yozgan va shaxsiy xarakterga yega bo‘lgan xatlar tashkil qiladi.

Adabiyotlar:

[1]. Harbiy tarix san‘ati, darslik H.Dadaboev. Toshkent 2013.

[2]. Ларионов В.В. Эволюсия военного искусства: этапы, тенденсии, принципы. - М.: Воениздат, 1987. - 248 с.

[3]. Sotiboldiyev. A, Karimjonov A. Harbiy pedogogika. T., 2005

[4]. Sh.Akramova. Harbiy pedagogika. Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari uchun darslik. - Toshkent: 0 ‘zR MG HTI, 2018 y. - 27 b.

SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Mannonov Rustambek

Axborot kommunikatsiya texnologiyalri va harbiy aloqa instituti kursanti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada globallashuv va raqamlashtirish sharoitida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Zamonaviy vatanparvarlik tushunchasi faqat Vatanga muhabbat va tarixiy merosga hurmat bilan cheklanmasdan, yoshlarning fuqarolik mas’uliyati, raqamli kompetensiyasi, axborot madaniyati, kasbiy mahorati va mamlakat taraqqiyotiga amaliy hissa qo‘shish qobiliyatini ham qamrab olishi asoslanadi. Maqolada sun’iy intellekt, gamifikatsiya, loyiha asosida ta’lim, virtual laboratoriyalar, kiberpoligonlar va media savodxonlikdan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Finlyandiya, Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya va AQSh kabi davlatlarning fuqarolik, raqamli va yoshlar tarbiyasi bo‘yicha tajribalaridan O‘zbekiston sharoitida foydalanishning ayrim yo‘nalishlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, yoshlar, fuqarolik mas’uliyati, sun’iy intellekt, raqamli kompetensiya, kiberxavfsizlik, axborot madaniyati, media savodxonlik, gamifikatsiya, loyiha asosida ta’lim, innovatsion pedagogika, raqamli fuqarolik.*

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida yosh avlodning dunyoqarashi nafaqat oila, ta’lim muassasasi va ijtimoiy muhit, balki internet, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia platformalari va sun’iy intellekt vositalari ta’sirida ham shakllanmoqda. Shu sababli vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va metodlarini zamonaviy yoshlarning axborotni qabul qilish usullariga moslashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir.

Vatanparvarlikni faqat “Vatanni sevish” haqidagi nasihatlar bilan shakllantirish bugungi yosh uchun yetarli emas. Zamonaviy yosh o‘zining bilim va qobiliyati mamlakat taraqqiyotiga qanday xizmat qilishi mumkinligini amalda ko‘rishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy vatanparvarlikni “Vatan uchun nima qila olaman?” degan savolga amaliy javob bera olish kompetensiyasi sifatida ham talqin qilish mumkin. Yoshning halol mehnati, ilmiy izlanishi, innovatsiyasi, jamiyatga foydali tashabbusi va davlat xavfsizligiga qo‘shgan hissasi vatanparvarlikning amaliy ifodasidir.

Zamonaviy yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samarali yo‘llari

Yoshlar tarbiyasida eng samarali yondashuvlardan biri — vatanparvarlikni amaliy faoliyat bilan bog‘lashdir. Buning uchun yoshlarni ijtimoiy, ekologik, ilmiy, texnologik va volontyorlik loyihalariga jalb qilish maqsadga muvofiq. Mahallani obodonlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tarixiy obidalarni asrash, aholiga raqamli xizmatlar ko‘rsatish yoki ijtimoiy muammolar uchun texnologik yechim ishlab chiqish kabi faoliyatlar yoshda jamiyatga daxldorlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasida tarixiy xotira ham muhim omildir. Biroq tarixni faqat darslikdagi matn sifatida o‘rganish o‘rniga interaktiv xaritalar, virtual reallik, 3D modellashtirish, raqamli arxivlar va multimedia hikoyalardan foydalanish yoshlarning qiziqishini oshiradi. Tarixiy shaxslar, buyuk allomalar, harbiy qahramonlar va milliy meros haqidagi ma’lumotlarni zamonaviy raqamli formatda taqdim etish yoshlarning milliy o‘zlikni anglashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta’limning kompetensiyaviy yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchi tayyor ma’lumotni yodlashdan ko‘ra, muammoni aniqlash, axborotni tahlil qilish, qaror qabul qilish, jamoada ishlash va natija uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishni o‘rganadi. Masalan, talabalarga mahalliy muammoni aniqlash va unga raqamli yechim ishlab chiqish vazifasini berish orqali fuqarolik faolligi va ijodiy tafakkurni birgalikda rivojlantirish mumkin.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari

Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish va ularga mos topshiriqlarni shakllantirish imkonini beradi. Vatanparvarlik tarbiyasida AI texnologiyalaridan tarixiy vaziyatlarni modellashtirish, interaktiv savollar yaratish, virtual ssenariylar ishlab chiqish va ta’lim oluvchining natijalarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Bunday tizimlar pedagogni almashtirish emas, balki pedagogning imkoniyatlarini kengaytiruvchi yordamchi vosita sifatida qaralishi lozim.

Gamifikatsiya ham zamonaviy yoshlar bilan ishlashda samarali mexanizmdir. Ball, reyting, bosqich, vazifa va mukofot elementlari ta’lim motivatsiyasini oshiradi. Masalan, “Vatan xavfsizligi”, “Raqamli qalqon” yoki “Kiberhimoya” kabi o‘quv ssenariylarida yoshlar shartli axborot tizimini himoyalash, kiberhodisani aniqlash yoki noto‘g‘ri axborotni fosh qilish bo‘yicha topshiriqlarni bajarishi mumkin.

Kiberxavfsizlik yo‘nalishidagi ta’limda bunday yondashuv alohida ahamiyatga ega. Kiberxavfsizlik mutaxassisi uchun Vatanga xizmat qilish tushunchasi davlatning axborot infratuzilmasi, aloqa tizimlari va raqamli resurslarini kiberxavflardan himoya qilish bilan ham ifodalanadi. Fishing hujumlarini aniqlash, zararli dasturlarni tahlil qilish, tarmoq xavfsizligini ta’minlash va raqamli forensika kabi ko‘nikmalar zamonaviy kasbiy vatanparvarlikning amaliy tarkibiy qismiga aylanishi mumkin.

Rivojlangan davlatlar tajribasi va undan foydalanish imkoniyatlari

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik ko‘pincha fuqarolik mas’uliyati, jamoatchilik faoliyati, media savodxonlik, milliy qadriyatlar va davlat xavfsizligi tushunchalari bilan uyg‘unlashtiriladi. AQSh tajribasida yoshlarni volontyorlik va jamoat xizmatlariga jalb etish orqali fuqarolik faolligini rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. Bunday

yondashuvdan olinadigan muhim xulosa — yoshlar jamiyatga real foyda keltiradigan faoliyatga jalb etilganda ularda daxldorlik hissi kuchayadi.

Finlyandiya tajribasi media va axborot savodxonligining ahamiyatini ko‘rsatadi. Yoshlarning soxta xabarlar, manipulyativ kontent va dezinformatsiyani aniqlash qobiliyati jamiyatning axborot barqarorligini oshiradi. Estoniya esa raqamli davlat va kiberxavfsizlik yo‘nalishida ilg‘or tajribaga ega bo‘lib, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishni davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida ko‘rsatadi.

Singapurda milliy birlik, fuqarolik mas’uliyati va davlat xavfsizligi bilan bog‘liq tarbiyaviy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Janubiy Koreyada esa zamonaviy texnologiyalar, ta’lim va milliy o‘zlikni anglash jarayonlarining uyg‘unligi yoshlar tarbiyasining muhim jihatlaridan biridir. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga aynan ko‘chirish emas, balki milliy qadriyatlar, tarixiy meros va mahalliy ta’lim an’analari bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston uchun xorijiy tajribadan olinadigan asosiy xulosa shundan iboratki, vatanparvarlik tarbiyasi faqat tadbirlar bilan cheklanmasligi, balki ta’lim, ilm-fan, innovatsiya, volontyorlik, raqamli fuqarolik va xavfsizlik kompetensiyalarini qamrab oluvchi uzluksiz jarayon bo‘lishi kerak.

Harbiy ta’limda vatanparvarlik va kasbiy kompetensiya uyg‘unligi

Harbiy ta’lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi alohida mas’uliyatni talab etadi. Kursantda Vatanga sadoqat, intizom, jamoaviy hamkorlik, tashabbuskorlik va xizmat burchiga mas’uliyat hissini shakllantirish kasbiy tayyorgarlik bilan birgalikda olib borilishi zarur. Zamonaviy harbiy mutaxassis faqat jismoniy va nazariy jihatdan emas, balki axborot texnologiyalari va raqamli xavfsizlik bo‘yicha ham kompetent bo‘lishi kerak.

Ayniqsa, kiberxavfsizlik mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan kursant uchun vatanparvarlikning amaliy mazmuni davlat axborot tizimlari va raqamli infratuzilmasini himoya qilish, kiberhodisalarni aniqlash, axborot maxfiyligini ta’minlash hamda texnologiyalardan qonuniy va etik foydalanish orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli kiberpoligonlar, CTF musobaqalari, tarmoq simulyatorlari va raqamli forensika laboratoriyalarini o‘quv jarayoniga kiritish kasbiy tayyorgarlik bilan tarbiyaviy maqsadlarni birlashtiradi.

Bunda muhim pedagogik tamoyil — texnik bilimni axloqiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirishdir. Kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimga ega yosh undan faqat qonuniy, mudofaa va xavfsizlik maqsadlarida foydalanishi kerak. Demak, kasbiy etika, qonuniylik va axborot xavfsizligi madaniyati ham vatanparvarlik tarbiyasining tarkibiy qismidir.

Vatanparvarlikni shakllantirishning amaliy modeli

Yoshlar bilan ishlashda quyidagi bosqichli modeldan foydalanish mumkin: birinchi bosqich — milliy tarix va qadriyatlarni anglash; ikkinchi bosqich — jamiyat muammolarini tanish va tahlil qilish; uchinchi bosqich — muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan loyiha yaratish; to‘rtinchi bosqich — loyiha natijasini jamiyat manfaatiga yo‘naltirish; beshinchi bosqich — natijani baholash va refleksiya. Ushbu modelda vatanparvarlik nazariy tushunchadan amaliy kompetensiyaga aylanadi.

Shu nuqtayi nazardan, “Vatan uchun nima qila olaman?” savoli tarbiyaviy jarayonning asosiy motivatsion savollaridan biri bo‘lishi mumkin. Dasturchi davlat uchun foydali axborot tizimini yaratishi, kiberxavfsizlik mutaxassisi axborot resurslarini himoya qilishi, muhandis yangi texnologiya ishlab chiqishi, pedagog esa bilimli va mas’uliyatli avlodni tarbiyalashi orqali Vatan taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Demak, vatanparvarlikning zamonaviy shakli kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy vatanparvarlik yoshlarning Vatanga bo‘lgan hissiy munosabatini ularning bilim, kasbiy kompetensiya, fuqarolik mas’uliyati va amaliy faoliyati bilan birlashtirishni talab etadi. Yoshga Vatanni sevishni o‘rgatishning eng samarali yo‘llaridan biri unga Vatan taraqqiyotiga real hissa qo‘shish imkoniyatini berishdir. Buning uchun ta’lim jarayonini innovatsion loyihalar, volontyorlik, tarixiy merosni raqamlashtirish, ekologik tashabbuslar, kiberxavfsizlik va sun’iy intellekt kabi zamonaviy yo‘nalishlar bilan boyitish lozim.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ham vatanparvarlikni fuqarolik faolligi, media savodxonlik, raqamli kompetensiya va milliy xavfsizlik bilan bog‘lash muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu tajribalarni O‘zbekistonning milliy qadriyatlari va tarixiy an’analari bilan uyg‘unlashtirish orqali yoshlarning zamonaviy, ongli va mas’uliyatli vatanparvarlik pozitsiyasini shakllantirish mumkin. Eng muhimi, yoshlar Vatanni sevish faqat so‘z yoki shior emas, balki bilim olish, halol mehnat qilish, qonunlarga rioya etish, jamiyatga foyda keltirish va mamlakat kelajagi uchun mas’uliyatni his qilish ekanini anglab yetishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. — Paris, 2023.
5. NIST. Artificial Intelligence Risk Management Framework (AI RMF 1.0). — Gaithersburg, 2023.
6. OECD. Education at a Glance. — Paris: OECD Publishing.

VATANGA SADOQAT - ENG OLIY BURCH: QAHRAMONLARNING IBRATLI HAYOT YO'LI

kursant Sodiqov Diyorbek Sodiq o‘g‘li

Inson zotining buyukligi nafaqat ilm-fan, iqtisod yoki madaniyat sohasidagi yutuqlar bilan, balki, avvalambor, har bir shaxsning o'z Vatani oldidagi burch va mas'uliyatni qanchalik teran anglashi bilan belgilanadi. Tarix sahifalarini varaqlar ekanmiz, har bir davr, har bir millat o'z farzandlariga andaza bo'luvchi qahramonlarni yetishtirib bergani guvohi bo'lamiz. Ana shunday qahramonlarning ibratli hayot yo'li bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston davlat mustaqilligining 35 yilligi arafasida, “O'zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida milliy armiyamiz qudratini oshirish, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-jismoniy tayyorgarligini yuksaltirish bilan bir qatorda, jamiyatda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash ham davr talabiga aylangan dolzarb vazifadir. Zero, mudofaa qudrati faqat zamonaviy qurol-yarog' bilan emas, balki xalqning ma'naviy birligi va Vatanga bo'lgan cheksiz sadoqati bilan ham belgilanadi.

Vatanparvarlik tuyg'usining ildizlari xalqimizning ko'p ming yillik davlatchilik an'analariga borib taqaladi. Amir Temurning “Kuch — adolatdadir” degan hayotiy tamoyili nafaqat qudratli davlat, balki millat ruhiyatida abadiy o'chmas iz qoldirdi. Jaloliddin Manguberdining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan tengsiz jasorati, Temur Malikning Xo'jand qal'asini himoya qilishdagi mislsiz matonati, Spitamenning ona yurt ozodligi yo'lidagi kurashi — bularning barchasi avlodlarga sadoqat va mardlik namunasini ko'rsatib beradi. Bu buyuk siymolarning hayot yo'lini o'rganish shunchaki tarixiy voqealarni yodlash emas, balki har bir shaxsda ma'naviy-axloqiy immunitetni shakllantiruvchi kuchli psixologik-pedagogik vositadir. Zero, qahramonlik obrazi orqali yetkazilgan g'oya inson ongida quruq nazariyadan ko'ra ancha chuqurroq va uzoq muddatli iz qoldiradi.

Qahramonlik faqat o'tmishga xos hodisa emas — u bugungi kunda ham jonli davom etayotgan hayotiy hodisadir. Mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish jarayonida, chegara xavfsizligini ta'minlashda, tinchlik va osoyishtalikni saqlashda jonini fido qilgan safdoshlarimiz mavjud. Prezidentimiz tashabbusi bilan “G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasida barpo etilgan “Millat fidoyilari” majmuasi, jumladan, Bobur G'aniyev kabi zamonaviy qahramonlarning xotirasini abadiylashtirish — davlatimizning harbiy xizmatga, jasoratga va sadoqatga bo'lgan yuksak ehtiromining yorqin ifodasidir. Bunday yodgorlik majmualarini ziyorat qilish, qahramonlar oilalari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularning hayot yo'li asosida ochiq darslar o'tkazish yoshlarda nafaqat hurmat, balki shaxsiy mas'uliyat va

fidoyilik tuyg'usini ham uyg'otadi. Shu ma'noda, qahramonlik — bu alohida bir shaxsning jasorati bo'libgina qolmay, butun jamiyat uchun ibrat maktabiga aylanadi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uzluksiz va tizimli yondashuvni talab qiladi. Oila, maktab, akademik litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalari zanjiri davomida har bir bosqichda qahramonlik mavzusi turli shakllarda — tarix darslari, adabiy asarlar tahlili, muzey va yodgorlik majmualariga sayohatlar, urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar orqali singdirilishi lozim. Harbiy ta'lim muassasalarida esa bu jarayon alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bo'lajak ofitser-kadrlar nafaqat kasbiy bilim va zamonaviy texnologik kompetensiyalar, balki chuqur vatanparvarlik tuyg'usi bilan ham qurollangan bo'lishi shart. Kursant va talabalarning shaxsiy tarbiyasida ustozlarning o'z shaxsiy namunasi, intizomi va sadoqati hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Oilaviy muhit ham bu jarayonda muhim o'rin tutadi: farzandiga milliy g'urur va insonparvarlik tuyg'ularini singdirayotgan ona — o'zi ham vatanparvarlik namunasidir.

Zamonaviy raqamli davr vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni ham taqozo etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari yordamida qahramonlarning hayot yo'lini interaktiv tarzda taqdim etish yoshlar e'tiborini yanada ko'proq jalb qilmoqda. Bunday innovatsion vositalar orqali tarixiy voqealarni “jonlantirish”, virtual ekskursiyalar tashkil etish, intellektual o'yinlar va multimedia loyihalarini yaratish — qahramonlik g'oyasini zamonaviy tilda yetkazishning samarali usullaridan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, media makonning salbiy ta'siridan yoshlarni himoya qilish, ularda mafkuraviy immunitet va kiberxavfsizlik madaniyatini mustahkamlash ham dolzarbligicha qolmoqda. Faqat texnologik jihatdan kuchli emas, balki ma'naviy jihatdan barqaror avlodgina Vatan mustaqilligini har qanday tahdiddan asray oladi.

Konferensiyaning yo'nalishlaridan biri sifatida ilgari surilayotgan badiiy adabiyot, san'at va raqamli media resurslarida qahramonlik obrazining talqini masalasi ham alohida e'tiborga loyiqdir. O'zbek adabiyotida, xususan, Cho'lpon, Oybek, O'tkir Hoshimov kabi ijodkorlarning asarlarida vatanparvarlik va fidoyilik mavzusi teran badiiy talqin etilgan. Bugungi kunda ham yozuvchi va shoirlarimiz, kinematografchilarimiz zamonaviy qahramonlarning obrazini yaratish orqali yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shmoqda. Badiiy asar, film yoki teatr tomoshasi orqali yetkazilgan qahramonlik g'oyasi hissiy ta'sirchanligi bilan ajralib turadi va shu bois u tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismiga aylanishi lozim. Ommaviy axborot vositalari, jumladan, “Vatanparvar” gazetasi va “O'zbekiston armiyasi” jurnali sahifalarida bunday materiallarning muntazam chop etilishi ham jamiyatda vatanparvarlik ruhini kuchaytirishning muhim omillaridan biridir.

Shuningdek, harbiy xizmatchilar va yoshlarda matonat, jasorat hamda stressga chidamlilik (resilience) fazilatlarini shakllantirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jangovar sharoitlar, gibrid tahdidlar va axborot-psixologik ta'sir vositalarining kengayib borishi sharoitida shaxsning ruhiy barqarorligi mudofaa qudratining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu bois harbiy ta'lim muassasalarida psixologik tayyorgarlik dasturlarini takomillashtirish, kursant va talabalarda liderlik salohiyati, jamoada ishlash ko'nikmalari va inqirozli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Qahramonlarning hayot yo'lini o'rganish, xususan, ular qanday sharoitlarda qat'iyat va matonat ko'rsatganini tahlil qilish — bo'lajak ofitserlarda amaliy tafakkurni shakllantirishning samarali usulidir.

Xulosa qilib aytganda, Vatanga sadoqat — bu davlat oldidagi shunchaki majburiyat emas, balki har bir fuqaroning qalbida yashashi lozim bo'lgan yuksak ma'naviy tuyg'udir. Qahramonlarning ibratli hayot yo'li esa ana shu tuyg'uni shakllantirishning eng ta'sirchan va samarali vositasidir.

Kelajakni yaratish formulasini biz shunday tushunamiz:

Tarixiy xotira + shaxsiy ibrat + zamonaviy pedagogik yondashuv = vatanparvar, sadoqatli yosh avlod.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, respublikamiz oliy harbiy ta'lim muassasalari, jumladan, Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti tarkibidagi institutlar bugungi kunda nafaqat yuqori malakali muhandis va ofitser-kadrlarni, balki chuqur vatanparvarlik e'tiqodiga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalab yetishtirish vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Bunday muassasalarda kursant va talabalarning har bir kuni intizom, sadoqat va mas'uliyat ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, bu esa ularning kelajakda Vatan mudofaasi ishiga munosib hissa qo'shishlariga zamin yaratadi. Qahramonlarning ibratli hayot yo'lini o'rganish va uni amaliy tarbiya jarayoniga singdirish borasida olib borilayotgan respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar, davra suhbatlari va konferensiyalar aynan shu maqsadga xizmat qiladi — ular olimlar, pedagoglar, harbiy mutaxassislar va yoshlarning fikr almashishi, ilg'or tajribalarni umumlashtirishi uchun muhim ilmiy-uslubiy maydon bo'lib xizmat qiladi.

Yagona xalq, yagona Vatan g'oyasi ostida birlashib, ajdodlarimiz qoldirgan sha'rafli merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga munosib tarzda yetkazish — bugungi kunda barchamizning muqaddas burchimizdir. Qahramonlarning ibratli hayot yo'lidan saboq olgan, Vatanga cheksiz sadoqatli yoshlarimizgina Yangi O'zbekistonning porloq kelajagini quradilar.

ILMIY KADRLARNI TAYYORLASHDA ILMIY LOYIHALARNI AHAMIYATI

SAYDJANOVA Komila Davranovna

Alfraganus universitetining Farmasevtika va kimyo kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ilmiy kadrlarni tayyorlash samaradorligi davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ilmiy loyihalar bilan chambarchas bog‘liqligi va uning ilm-fanning rivojlanish tendensiyasiga ta’siri juda yuqori yuqori yukanligi ma’lum.Tadqiqot ishida bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar va natijalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsiyalar, ilmiy loyiha, ilmiy daraja, moliyalashtirish, amaliy loyihalar, dissertatsiya, ilmiy kadrlar, ilmiy salohiyat.*

Аннотация. *Эффективност подготовки научных кадров тесно связана с государственным финансированием научных проектов, и её влияние на тенденции развития науки является весма высоким. В исследовательской работе проанализированы мероприятия реализуемые в нашей Республике в этом направлении и даны результаты этих исследований.*

Ключевые слова: *Инновации, научный проект, учёная степень, финансирование, прикладные проекты, диссертация, научные кадры, научный потенциал.*


Hozirgi tezkor axborot almashinuvi va texnologiyalarni jadal rivojlanishi davrida- yangi O’zbekistonnning ichki va tashqi siyosatida jahonga ochiqlilik tomon yuz burayotgani iqtisodiy ravnaq topishiga katta rol o‘ynaydi. Shuning bilan birga milliy kadrlarni raqobatbardoshliligini oshirishni ham talab qiladi. Shu jumladan, harbiy ilmiy kadrlarni tayyorlashda ham o‘ziga xos innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Raqamlashtirilgan zamonaviy harbiy texnikalarni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish, modernizatsiya qilish, umum-texnik ko‘rsatgichlarini yaxshilash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqazo qiladi. Shuning uchun ham harbiy ilmiy kadrlarni tayyorlash Yangi O’zbekiston Qurolli Kuchlari oldidagi muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. [1]

Respublikamizda ilm-fan va innovatsiyalar sohasida olib borilayotgan keng islohotlar, xususan, mutloq yangi qabul qilingan me’yoriy-huquqiy, konseptual hujjatlar, davlat va jamiyat hayotiga raqamli, innovatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi, ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyati samaradorligini oshirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, yuqori malakali ilmiy-pedagog va ilmiy-muhandis kadrlar tayyorlash, ularga munosib shart-sharoitlar yaratish, ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish bo‘yicha maqsadli sa’y-harakatlar o‘z o‘rnida harbiy ilm-fanni jadal rivojlantirish, mudofaa sohasiga ilg‘or axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini amalga oshirish bo‘yicha tajribasidan foydalanish mamlakatimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Bu sanoat, telekommunikatsiya va boshqa bir qator tarmoqlarda innovatsion faoliyatni tartibga solish va rag‘batlantirish tizimining shakllanishiga ko‘maklashadi. [2]

Harbiy ilmiy kadrlarni tayyorlashda jahon ilmiy fanining rivojlanish tendensiyalari barobarida hamqadam bo‘lish uchun albatta davlat ilmiy dasturlari asosida moliyalashtiriladigan dolzarb ilmiy loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Respublikada ohirgi paytlarda xukumatimiz tomonidan ilm-fanni qo‘llab quvvatlashga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Innovatsion rivojlanish agentligining ma’lumotlariga ko‘ra 1 rasm. Respublikamizda 2024 yilda quyidagi ilmiy loyihalar amalga oshirilgan.



1.rasm. Respublikada amalga oshirilayotgan ilmiy loyihalar bo‘yicha ma’lumot.

Bundan kelib chiqadiki so‘ngi yillarda bu borada katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Buning natijasida ilmiy kadrlar salohiyati ham o‘sish tendensiyaga ega ekanligi ham 2 rasmda keltirilgan infografikada ko‘rinmoqda.



2-rasm. Respublikamizda ilmiy kadrlarni o‘sish dinamikasi

Kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki ilmiy kadrlarni tayyorlashda ilmiy loyihalarni o‘rni muhim. Bu borada davlatimizni qo‘llab quvvatlashi kelajakda respublikamizni jahon ilm-fanini rivojlanish tendensiyasi barobarida ham iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy va harbiy salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Sh.Otajonov, Sh.Ergasheva. Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi: tanlov mavzulari va ilmiy loyihalar qanday shakllantiriladi? – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2020, 86 b.

[2]. M.Parpiyeva. Axborot texnologiyalari soxdsida ilmiy - texnikaviy innovatsiyadan samarali foydalanish xususiyatlari. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021-985-1000 b.

TA’LIM JARAYONIDA TALABALARNI O‘QUV INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHDA O‘QITUVCHINING ROLI HAMDA TA’LIM SIFATI

SAYDJANOVA Komila Davranovna

Alfraganus universitetining Farmasevtika va kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida turli vazifalarga asoslangan innovatsion metodlarni qo‘llashda o‘qituvchining roli va til o‘rganuvchilarning mashg‘ulot davomida faolroq bo‘lishlariga yordam beradigan muammolar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘rganuvchi, kommunitsion vazifalar, kompetensiya, birgalikdagi o‘rganish, mahorat, pedagogik texnologiya.*

Annotation: *The article deals with the issues based on analyzing the role of teachers in using innovative methods in the process of educating, based on different tasks, alternative possibilities for improving participation of learners in different activities which can help them become more active and more sociable through the type of communicative language teaching.*

Key words: *learners, communicative tasks, competence, cooperative learning, skill, pedagogic technology.*

Kirish

Pedagogikaning rivojlangan tajribalari hamda ta’limda erishilgan yutuqlarni amaliyotga olib kirish bugungi kunning muhim shartlaridan hisoblanadi. Hozirda o‘qituvchi o‘z faoliyati davomida foydalana olishi mumkin bo‘lgan ulkan tajribalar bazasi shakllangan va u kundan-kunga yanada boyib bormoqda. Lekin, shunga qaramasdan, o‘qituvchilar va bo‘lg‘usi kasb egalari tomonidan ana shu tajribalarni o‘zlashtirib olishlari birmuncha mushkullik bilan amalga oshmoqda. Buni o‘qituvchilar tomonidan mazkur tajribalarni tahlil qilish hamda tanlash malaka va ko‘nikmalarining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan izohlash mumkin. Ular o‘zlarining amaliy faoliyatlari davomida to‘planib borayotgan tajribalari va hamqasblarining faoliyatlarini ko‘zdan kechirishga yetarlicha e’tibor bermayotganliklarini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ta’lim beruvchi yangi ilg‘or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etishda uning qimmati hamda qay darajada samarali ekanligiga e’tibor berishi kerak.

O‘qituvchi amaliy faoliyatining innovatsiyaga yo‘nalganligi nazariy pedagogik tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatini beradi. Aynan mana shunday tadqiqotlar natijalarini ommalashtirish uchun ularni keng jamoatchilikka tanishtirish talab etiladi. Bunday yangiliklarni soha mutaxassislari tomonidan tezkor maslahatlar berish, mahsus seminar hamda treninglar o‘tkazish, konferensiyalarda chiqishlar qilish, bo‘lg‘usi pedagoglarga esa turkum ma’ruzalar havola etish orqali boshqa pedagogika vakillariga yetkazish mumkin. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi : «Ilg‘or pedagogik g‘oyalar va texnologiyalarni keng jamoatchilik vakillariga yetkazuvchilari hamda

targ‘ibotchilari kimlar?» Alohida pedagog yoki ta’lim muassasi tajribasini o‘rganib chiqish, ommalashtirishda oliy ta’lim muassasalarining professor o‘qituvchilari, umuta’lim dargohlarida faoliyat olib boradigan yetuk pedagoglar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin:

- Innovatsiya muallifi muayyan pedagogik g‘oya yoki yangilikning istiqboli to‘g‘risida kerakli va aniq bahoni bera olmaydi.

- Ilg‘or pedagoglar har doim ham o‘z g‘oyalarini ommalashtirish haqida o‘ylayvermaydilar. Sababi yangilik pedagogning qo‘shimcha vaqti, mehnatini talab qiladi.

- G‘oya har doim ham uning yaratuvchisi tomonidan ilmiy–metodik jihatdan yetarlicha asoslanmaydi.

- Mualliflar o‘zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga joriy etish yo‘llarini bayon qilishda o‘zlari va kasbdoshlarining indvidual xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan to‘siqlarga ro‘baro‘ keladilar.

- Nafaqat pedagogik innovatsiyalarni targ‘ib qilish va ommalashtirish, balki ular asosida pedagoglar qaoliyatiga tuzatishlar kiritish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilimdonligi va mahoratini boyitish vazifasi ham ijodiy gurux zimmasiga yuklanadi.

- Innovatsiyalarni tizimli tanlash, monitoring o‘tkazish, innovatsion g‘oyalar, texnologiyalarga baho berish, oliy o‘quv yurtlari ish tajribalarini boyitish vazifalari ham ijodiy guruh a’zolari zimmasidadir. Innovatsion g‘oya muallifi amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyatni boshqarishda ishtirok etmaydi. Bu tarzdagi yondashuv innovativ pedagogning imkoniyatlarini kengaytirish va uni muayyan maqsadga yo‘naltirishga zamin yaratadi. Innovativ pedagogika asoschisi va ommalashtiruvchining quvvatlari shu tariqa bir nuqtaga jamlanib, ma’lum bir maqsadga yo‘naltiriladi [1; 3].

Pedagogik innovatsiyalar o‘zining muayyan o‘lchovlariga ega. Pedagogik innovatsiyalar bo‘lg‘usi o‘qituvchining kreativ faoliyatini shakllantiradigan quyidagi o‘lchovlardan iborat hisoblanadi: - innovatsion usullarning naqadar yangi ekanligi; - uning optimalligi; - qanchalik samara berishi; - omaviy tajribada qo‘llash imkoniyati va shu kabilar. Innovatsion usullarning asosiy o‘lchovi ularning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalari hamda ilg‘or pedagogik tajribalar bilan tengligidadir. Shu sababdan ham innovatsion jarayonda faoliyat olib borish istagida bo‘lgan o‘qituvchilar uchun yangilikning asl mohiyati nimadan iborat ekanligini tushunish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘tkazilayotgan tajriba ma’lum bir o‘qituvchi uchun yangilik bo‘lsa, boshqasi uchun esa bu usul yangi bo‘lmasligi mumkin. Qolaversa, bo‘lajak pedagoglar uchun ayni bir usulni yangilik darajasi

turlicha bo‘lishi mumkin. Ana shularni e’tiborga olgan holda bo‘lajak pedagoglar ham, ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar ham innovatsion ijodiy faoliyatga o‘zlarining ehtiyojidan kelib chiqqan holda yondashishlari lozim bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida pedagoglarning shaxsiy o‘ziga xosliklari, indvidual-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Ommaviy pedagogik tajribalarda pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo‘llash alohida o‘qituvchilar ish faoliyatining boshlang‘ich bosqichida namoyon bo‘ladi. Mazkur innovatsiyalar tajriba-sinovdan o‘tkazilib, ob’ektiv baholangandan so‘ng ommaviy tarzda qo‘llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muofiq bo‘ladi» [2; 4].

Pedagogik innovatsiyalarni baholash jarayonida muayyan bilimlar va ulardan foydalanish me’zonlarini bilish bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik ijodining rang-barang shakllarini o‘zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma’lum bo‘lgan g‘oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o‘z shaxsiy faoliyatiga singdirishda ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo‘lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etish lozim. Innovatsion yangiliklarning amaliyotga qo‘llanilmay qolib ketayotganligining ikkita muhim sababini keltirib o‘tish mumkin va ular quyidagilar:

1. Oliy ta’limga kirib kelayotgan innovatsion yangiliklar yetarlicha tahlil hamda tajriba-sinovlardan o‘tmayapti;

2. Bunday yangiliklarni amaliyotga joriy etish tashkiliy, texnik, shaxsiy-psixologik jihatdan oldindan tayyorlanmayapti; Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni va o‘lchovlari haqidagi aniq tasavvur ularni qo‘llash metodikasi bo‘lajak o‘qituvchilarining ongi va faoliyatiga singdirilishi birinchi darajali ehtiyojga aylanmoqda.

Pedagogik innovatsiyalarni ta’lim dargohlari hayotiga keng ko‘lamda olib kirish uchun ularda yangilik muhitini yaratish, muayyan ahloqiy-psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo‘llash talab etiladi. Buning uchun, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tadbiq qilishga o‘rgatish talab etiladi.

Oliy ta’lim muassasasida innovatsion muhitni vujudga keltirmaslik bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash sifatiga ham keskin ta’sir ko‘rsatadi. Natijada talabalar amalda pedagogik yangiliklardan yetarlicha xabardor bo‘lmaydilar. Bu esa, o‘z

navbatida, ulardagi ijodkorlik, yaratuvchanlikning rivojlanmasligiga, aksincha, so‘nib borishiga sabab bo‘ladi. Yosh pedagoglarning innovatsiyalarni qiziqarli, istiqbolli tashkil etilsa, albatta, qo‘llanilayotgan ta’lim texnologiyalarining samaradorligi ortadi. Shuningdek, loyihalashtirilgan o‘quv maqsadi yengil amalga oshadi hamda kutilayotgan natijaga tezroq erishiladi. Bu fikrlardan kelib chiqib: - Innovatsion ta’lim texnologiyasi tizimida o‘qituvchining o‘rni va vazifalari aniq belgilanishi zarur; - o‘qituvchi yangi kasbiy lavozim - «o‘qituvchi-texnolog», «pedagog-texnolog» darajasiga ko‘tarilishi kerak; - «o‘qituvchi-texnolog» maxsus bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lishi kerak; - «o‘qituvchi-texnolog»ning pedagogik jamoa o‘rtasida nufuzi, salohiyatining ortishi, ma’naviy, moddiy manfaatdorligining ta’minlanishi bo‘yicha aniq tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lishi zarur. Ta’lim sifatini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etib, fan-texnika yutuqlariga asoslangan o‘quv jarayonining innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishda esa, pedagog o‘qituvchilardan bilim, ko‘nikma va malakalarni talab qilinadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘qituvchilar dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishlari albatta samarali natijalarni beradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, o‘z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagogo‘qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta’lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib yetishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoralieva U.Q. Maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va unda interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari// Zamonaviy ta’lim jurnali. – T., 2014, 9-son. – 27 b.

2. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya/ Pod red. V.A.Slastenina.– Moskva: Akademiya, – s. 37.

3. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.–T.: «Fan va texnologiya», 2007.

4. Palmer H. Scientific study and teaching of languages. – London, 1982. – 243 p.

YOSHLARDA VATANPARVARLIK VA IJTIMOIY MAS'ULYATNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Z.M.Xusanbayeva
Toshkent amaliy fanlari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatning yoshlar shaxsini rivojlantirishdagi psixologik ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlikni faqat Vatanga nisbatan ijobiy hissiy munosabat sifatida emas, balki shaxsning qadriyatlari, ijtimoiy identifikatsiyasi, ichki motivatsiyasi va mas'uliyatli xulq-atvorini birlashtiruvchi kompleks psixologik hodisa sifatida o‘rganish zarurligi asoslanadi. Ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishida oilaviy muhit, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy guruhlar, namuna, muloqot va shaxsiy faoliyatning o‘rni ochib beriladi. Maqolada qadriyatlarni ichkilashtirish, ijtimoiy o‘rganish, refleksiya, ijtimoiy identifikatsiya va faoliyat orqali o‘rganish vatanparvarlikni rivojlantirishning muhim psixologik mexanizmlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirishga qaratilgan psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat, yoshlar shaxsi, qadriyatlar, ijtimoiy identifikatsiya, ichki motivatsiya, refleksiya, fuqarolik pozitsiyasi, psixologik rivojlanish, tarbiya.*

Аннотация: *В данной статье теоретически анализируется психологическое значение патриотизма и социальной ответственности в развитии личности молодежи. В современных условиях необходимо изучать патриотизм не только как позитивное эмоциональное отношение к Родине, но и как комплексное психологическое явление, объединяющее ценности, социальную идентификацию, внутреннюю мотивацию и ответственное поведение индивида. Раскрывается роль семейной среды, воспитания, социальных групп, образцов для подражания, общения и личной активности в формировании социальной ответственности. В статье рассматриваются интернализация ценностей, социальное обучение, рефлексия, социальная идентификация и обучение через деятельность как важные психологические механизмы развития патриотизма. Также разработаны психолого-педагогические рекомендации по укреплению активной гражданской позиции молодежи.*

Ключевые слова: *Патриотизм, социальная ответственность, молодежная идентичность, ценности, социальная идентификация, внутренняя мотивация, рефлексия, гражданская позиция, психологическое развитие, образование.*

Kirish

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish muhim ijtimoiy-psixologik vazifalardan biridir. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborot oqimining keskin ortishi yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga turli xil ta'sirlarni kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda vatanparvarlikni shakllantirish masalasiga faqat tarbiyaviy yoki targ‘ibot nuqtayi nazaridan emas, balki shaxs rivojlanishining psixologik qonuniyatlari asosida yondashish dolzarbdir.

Vatanparvarlik tushunchasi shaxsning Vatanga muhabbati bilan bir qatorda jamiyatga tegishlilik hissi, umumiy manfaatlarni anglash, fuqarolik burchini

bajarishga tayyorlik, qonuniylikka hurmat va ijtimoiy foydali faoliyatga intilishni ham qamrab oladi. Demak, vatanparvarlikning real namoyoni shaxsning kundalik xulq-atvorida, o‘qish va mehnatga munosabatida, jamoadagi faol ishtirokida hamda boshqalarga nisbatan mas’uliyatli munosabatida ko‘rinadi.

Ijtimoiy mas’uliyat esa shaxsning o‘z xatti-harakatlari oqibatini anglash, qarorlarining boshqalarga ta’sirini hisobga olish va jamiyat oldidagi majburiyatlarni ongli ravishda bajarish qobiliyatidir. Shu sababli vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyatni bir-biridan ajratib o‘rganish to‘liq natija bermaydi. Ularning uyg‘unligi yoshlarning ijtimoiy yetukligi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini kuchaytiradi.Vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyatning yoshlar shaxsini rivojlantirishdagi psixologik o‘rnini ochib berish hamda mazkur sifatlarni shakllantiruvchi asosiy psixologik-pedagogik mexanizmlarni aniqlash.Vatanparvarlikni shaxsning ijtimoiy qadriyatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida ko‘rish mumkin. Qadriyatlar insonning xatti-harakatlarini yo‘naltiruvchi ichki mezon bo‘lib, ular qaror qabul qilish jarayonida motivatsion va ma’naviy asos vazifasini bajaradi. Vatanparvarlik qadriyatlari ichkilashtirilganida yosh inson tashqi nazorat mavjud bo‘lmagan vaziyatlarda ham ijtimoiy jihatdan maqbul qaror qabul qilishga intiladi.

Ijtimoiy mas’uliyatning shakllanishi shaxsning o‘zini jamiyatning faol a’zosi sifatida anglashidan boshlanadi. Ijtimoiy identifikatsiya jarayonida “men” va “biz” o‘rtasidagi munosabat mustahkamlanib, shaxs umumiy maqsad va manfaatlarga nisbatan mas’uliyat his qila boshlaydi. Bu jarayon yoshlarning jamoaviy faoliyat, ko‘ngillilik, ijtimoiy loyihalar va hamkorlikdagi topshiriqlarda ishtirok etishi orqali kuchayishi mumkin.

Yoshlar bilan ishlashda vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish uchun interaktiv psixologik-pedagogik dastur ishlab chiqish mumkin. Dastur boshlang‘ich diagnostikadan so‘ng qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi va mas’uliyat mavzularidagi seminarlar, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, ijtimoiy loyihalar, mentorlik va refleksiv mashg‘ulotlardan tashkil topishi maqsadga muvofiq.

Ta’lim jarayonida yoshlarning tanqidiy fikrlashi ham rivojlantirilishi zarur. Ayniqsa, raqamli muhitda turli axborot va qarashlar mavjudligi sharoitida ishonchli manbani tanlash, manipulyativ xabarlarni farqlash, ijtimoiy tarmoqlarda mas’uliyatli muloqot qilish va axborotning oqibatlarini baholash zamonaviy fuqarolik mas’uliyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat yoshlar shaxsining ijtimoiy yetukligi, fuqarolik pozitsiyasi va kelajakdagi kasbiy faoliyatini belgilovchi muhim psixologik omillardandir. Vatanparvarlikni faqat hissiy munosabat sifatida emas, balki qadriyat, motivatsiya, ijtimoiy identifikatsiya va mas’uliyatli xulq-

atvorni birlashtiruvchi psixologik tizim sifatida o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

Yoshlarning ushbu sifatlarini rivojlantirishda qadriyatlarni ichkilashtirish, ijtimoiy namuna, refleksiya, faoliyat orqali o‘rganish, mentorlik va jamoaviy identifikatsiya mexanizmlarini birgalikda qo‘llash samarali natija berishi mumkin. Ayniqsa, vatanparvarlik tarbiyasini real ijtimoiy loyihalar va yoshlarning mustaqil tashabbuslari bilan bog‘lash uning hayotiy mazmunini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-6017-son, 2020-yil 30-iyun.

3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2002. – 1–2 kitob.

4. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 352 b.

5. Haydarov F.I., Halilova N. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009.

MAKTABGACHA YO'SHDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI VA TA'LIM JARAYONIDAGI INTEGRATSIYASI

Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi (3–7 yosh) bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning psixologik va pedagogik xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Bolaning yoshiga mos bo‘lgan ko‘rgazmali-obraziy tafakkur, emotsional idrok va yetakchi faoliyat turi hisoblangan o‘yin orqali Vatan tushunchasini singdirish mexanizmlari yoritib berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi o‘quv-tarbiya jarayonida milliy va qadriyatli komponentlarni ta’lim sohalari bilan samarali integratsiya qilish bo‘yicha amaliy usul va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, vatanparvarlik, psixologik-pedagogik asoslar, emotsional idrok, o‘yin faoliyati, integratsiyalashgan mashg‘ulotlar, milliy qadriyatlar.*

Аннотация: *В данной статье подробно анализируются психолого-педагогические особенности формирования чувства патриотизма у детей дошкольного возраста (3–7 лет). Раскрываются механизмы привития понятия «Родина» с учетом возрастных особенностей детей, таких как наглядно-образное мышление, эмоциональное восприятие и игра как ведущий вид деятельности. Также представлены практические методы и рекомендации по эффективной интеграции национальных и ценностных компонентов в образовательный процесс дошкольных образовательных организаций.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, патриотизм, психолого-педагогические основы, эмоциональное восприятие, игровая деятельность, интегрированные занятия, национальные ценности.*

Abstract: *This article analyzes in detail the psychological and pedagogical characteristics of fostering a sense of patriotism in preschool children (aged 3–7). It highlights the mechanisms of introducing the concept of "Motherland" considering age-specific traits such as visual-figurative thinking, emotional perception, and play as the leading activity. Furthermore, practical methods and recommendations are provided for effectively integrating national and value-based components into the educational process of preschool educational organizations.*

Keywords: *preschool education, patriotism, psychological and pedagogical foundations, emotional perception, play activity, integrated activities, national values.*

Kirish: Maktabgacha yosh davri inson shaxsiyatining poydevori qo‘yiladigan, atrofdagi olamga, yaqinlariga va o‘zi yashab turgan jamiyatga bo‘lgan munosabati shakllanadigan eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bolada ma’naviy-axloqiy tushunchalar va hissiyotlar shakllana boshlaydi. Biroq maktabgacha yoshdagi bolaga "Vatan", "fuqarolik burchi" yoki "vatanparvarlik" kabi mavhum, murakkab tushunchalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazariy tushuntirish kutilgan natijani bermaydi. Bolalar bu yoshda dunyoni his-tuyg‘ular, aniq obrazlar, ramzlar va o‘yinlar orqali anglashadi.

Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (MTT) vatanparvarlik tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun eng avvalo bolaning yosh psixologiyasiga suyanish hamda bu jarayonni kundalik ta’limiy mashg‘ulotlar bilan uzviy integratsiya qilish talab etiladi.

Psixologik-pedagogik asoslar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlikni shakllantirish quyidagi psixologik va pedagogik omillarga tayanadi:

1. **Emotsional idrokning yetakchiligi.** 3–7 yoshli bola voqelikni eng avvalo emotsional (hissiy) darajada qabul qiladi. U uchun Vatan — bu o‘zi tug‘ilib o‘sgan xonadon, onasining allasi, hovlidagi daraxt, do‘stlari va bog‘chasidir. Bola o‘zi yaxshi ko‘rgan va xavfsiz deb bilgan muhitni qadrlash orqali kattaroq tushunchaga — "Vatan"ga bo‘lgan mehrini shakllantiradi.

2. **Ko‘rgazmali-obraziy tafakkur.** Bola tushunchalarni ko‘rish, ushlab ko‘rish va eshitish orqali yaxshi o‘zlashtiradi. Davlat ramzlari (bayroq, gerb), milliy liboslar, qadimiy obidalar suratlar va o‘yinchoqlar ko‘rinishida taqdim etilganda, bolaning xotirasida ijobiy va yorqin obraz sifatida muhrlanadi.

3. **O‘yin — yetakchi faoliyat turi.**

Vatanparvarlik g‘oyalarini bolaga majburiy mashg‘ulot sifatida emas, balki qiziqarli va erkin o‘yin jarayonida singdirish lozim. Milliy harakatli o‘yinlar, syujetli-rolli o‘yinlar ("Xalq ustasi", "Chegarachilar", "Oshpaz") bolada milliy

madaniyat va kasblarga nisbatan hurmat va faxr tuyg‘usini uyg‘otadi.

Ta’lim jarayonidagi integratsiya mexanizmlari.

Vatanparvarlik tarbiyasini alohida, ajratilgan mavzu sifatida emas, balki maktabgacha ta’limning barcha sohalariga singdirish (integratsiya qilish) eng yuqori samara beradi:

Nutq, o‘qish va savodxonlik sohasida: Ertaklar, xalq maqollari, rivoyat va sodda she’rlar orqali bolada tilga bo‘lgan hurmat va mehr shakllantiriladi. Ertaklardagi mardlik va yaxshilik g‘oyalari bola psixologiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Atrof-muhit bilan tanishtirish va ekologik tarbiya: Tabiatga ғamxўrlik qilish, o‘simlik va hayvonlarni asrash — bu vatanparvarlikning amaliy ko‘rinishidir. "O‘z o‘lkang tabiatini sev va asra" tamoyili orqali bolaga Vatan boyliklariga qadrli munosabatda bo‘lish o‘rgatiladi.

Musiqa va tasviriylik (san’at): Milliy kuy-qo‘shiqlar, raqslar va rasmlar chizish mashg‘ulotlari bolaning estetik hamda ma’naviy olamini boyitadi. Bolalar o‘z qo‘llari bilan rasmlar chizganida yoki loydan milliy buyumlar yasa ganda, ularda yaratuvchanlik va milliy g‘urur hissi shakllanadi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish — bu murakkab va uzluksiz pedagogik jarayondir. Bu jarayon majburlov yoki quruq shiorlar bilan emas, balki bolaning yosh psixologiyasiga va emotsional ehtiyojlariga mos keladigan usullar orqali amalga oshirilishi kerak.

Ta’lim va tarbiya jarayonining har bir daqiqasiga milliy qadriyatlarni oqilona integratsiya qilish kelajakda o‘z yurtini sevadigan, uning rivojiga hissa qo‘shadigan komil insonlarni tarbiyalashning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. "Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi". – Toshkent: "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2014.
2. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari". – Toshkent, 2018.
3.Tulyaganova D.R. (2023). Bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotiga faol moslashuvi psixologik rivojlanish omili sifatida / *Conferencea*, 63-68.
4. Tulyaganova D.R. (2023). The Role of Emotions in Child Psychology: A Multidimensional Perspective // B*est Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(5), 268-274.
5.Tulyaganova D. (2023). Pedagogika yo‘nalishi talabalarida shaxslararo munosabatlar namoyon bo‘lishining psixologik determinantlari // *Евразийский журнал академических исследований*, 3(4 Special Issue), 235-244.

HARBIY XIZMATCHILARNING VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH QO‘SHINLAR JANGOVAR SALOHIYATI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

QAMBAROV Sh.A.
h.f.n., podpolkovnik, AKT va HAI QQ HHM kafedrasi boshlig‘i

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik ruxida tarbiyalash orqali qo‘shinlarni jangovar salohiyati oshirish va g‘alabaga bo‘lgan munosabatini mustahkamlash har bir harbiy xizmatchi va fo‘qaroning burchi to‘g‘risida batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Vatan, tarbiya, vatanparvarlik, jangovar salohiyat, qo‘shin, harbiy xizmatchi.*

Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan **tushuncha**. Vatanparvar barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi.

Bugungi globallashuv va integratsiya kuchayib borayotgan davrda ma’naviy hayotimizdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratishimiz zarur. Chunki globallashuv bilan bog‘liq axborot xurujlari, turli g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar aynan milliy o‘zlik va milliy ma’naviyatga chang soladi. Yoshlar hayotiga begona ta’sirlarning adabiyot, san’at, ijtimoiy tarmoq orqali olomon madaniyatining kirib kelayotgani bugun global muammodir.

Aslini olganda, globallashuvni ijobiy hodisa, deb baholash mumkin. Shuningdek, insoniyat va jamiyatlar taraqqiy etarkan, globallashish hodisasi muqarrar va tabiiy jarayon. Ammo har qanday taraqqiyot dialektik tarzda amalga oshadi. Uning bir maromda ko‘ringan dinamik rivojlanishida o‘ziga xos qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar namoyon bo‘ladi. Xususan, umumbashariy qadriyatlarning shakllanishi va takomillashuvi milliy-ma’naviy qadriyatlarning yemirilishiga olib kelishi mumkin. Biroq milliy-ma’naviy omillarsiz umumbashariy qadriyatlarning yashovchanligi ham kamayadi. Ularni joriy etishda ham o‘ziga xos muammolar yuzaga keladi. Bu kabi ziddiyatlar globallashuvning salbiy tomonlari bilan bog‘liq masalalarni yuzaga chiqaradi.

Vatanparvar insonlarni tarbiyalashda xalqimizning tarixiy merosi katta ahamiyatga ega. Shu sababli tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va kelajak avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash konsepsiyasi”da yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish kabilar asosiy vazifalar etib belgilangan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida: Vatan – kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri, ona yurti, diyori, har bir fuqaro uchun mamlakat, turar joy, boshpana, maskan, uy ma’nolarini ifodalashi ko‘rsatilgan. Inson ulg‘aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchalari ham kengaya boradi. Yurtimizda tug‘ilib-o‘sgan har bir inson “Vatanim” deganida o‘z uyini, qishlog‘ini yoki shahrini emas, balki O‘zbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa Vatan tuyg‘usining, vatanparvarlikning xalqimiz qalbidagi ifodasidir.

Vatan tuyg‘usi - bu aziz va go‘zal yurtimizga hurmat va sadoqatli bo‘lish. Vatan tuyg‘usi - bu Turon, Movarounnahr, Turkiston va hozirda O‘zbekiston deya atalgan zaminda yashab kelayotgan xalqimizning oltin merosini, uning tarixini o‘rganishga intilishdir.

Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan To‘maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari xalqimizning mard va jasur farzandlari biz uchun, o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun o‘rnak-namuna timsolidir. Masalan, bobomiz Najmiddin Kubroning o‘chmas jasoratini eslaylik. Bu jasorat zamirida ona Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg‘usi yotadi.

O‘sib kelayotgan yoshlarni, ya’ni Vatanimizning bo‘lg‘usi himoyachilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - davr talabi. Vatanparvarlik insonning o‘z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o‘z so‘ziga sodiqligidir. Agar insonni bolalik chog‘idan o‘z xalqiga, uning an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida tarbiya qilmasak, unda vatanparvarlik hissi bo‘lmaydi.

Vatan hissi insonga Vatanidan olisda bo‘lganida yaqqol seziladi. Turli sabablar bilan o‘zga yurtlarda yashagan ko‘plab vatandoshlarimizning hayoti ayanchli va qayg‘uli kechgani bizga tarixdan ma’lum. Buning ifodasini buyuk saltanat egasi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ham ko‘ramiz. Bobur barcha imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, tug‘ilib o‘sgan Vatanidan olisda bo‘lgani uchun o‘zini baxtiyor inson deb hisoblamaydi.

Vatan ravnaqi – milliy g‘oyamizning yuksak tushunchalaridan biri bo‘lib, u fuqarolarimizning bilimi va kamoliga bog‘liq. Har bir yurtdoshimiz, qaysi sohada xizmat qilishidan qat’i nazar, bu haqiqatni to‘liq anglagan holda, o‘zining ma’naviy kamoloti uchun mas’uliyatni his etishi, shaxsiy manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashi va o‘sib kelayotgan yosh avlodni komil

inson etib tarbiyalashi lozim. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi.

Vatan (arab.- “ona yurt”) kishilarning o‘zi yashab turgan, avlod va ajdodlari tug‘ilib o‘sgan, millati shakllangan joy, ijtimoiy muhit, mamlakat. Vatan bir-birini taqozo etuvchi (uy, mahalla, shahar, qishloq, mamlakat kabi) bir qator hududlarni o‘zida ifodalaydigan, ijtimoiy muhit va inson, uning hayoti kabi ko‘plab ma’naviy tushunchalarni o‘z ichiga oladi, avlodlar tug‘ilib o‘sgan va kamol topgan joy, zamin, o‘lkani anglatadi. Shu boisdan Vatan bu- bir zamin, o‘lkada yashayotgan kishilarni millati yoki dinidan qat’i nazar, birlashtiruvchi ijtimoiy tushunchadir.

Vatanparvarlik -Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy fazilatdir. Uning mazmuni - Vatanga mehr-muhabbatli va sodiq bo‘lishdan, yurtning o‘tmishi va hoziri uchun faxrlanishdan, mamlakat manfaatlarini himoya qilishga intilishdan iborat. Vatanparvarlik ota-bobolardan meros kolgan zaminni sevish, xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish, o‘z ona-Vatanini dushmanlardan, yot va begona g‘oyalardan himoya kilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslikni nazarda tutadi.

Buyuk ajdodlardan biri, tasavvufning kubroviya ta’limotiga asos solgan Najmiddin Kubro mo‘g‘ullar istilosi davrida dushman tomondan yashab turgan shahrini tashlab chiqishga ruxsat berilganiga qaramay, lashkarni yovga qarshi jangga boshlab kirish oqibatida qahramonlarcha halok bo‘lgan.

Jumhur ulamolar vatanparvarlik oddiy shior yoki his-tuyg‘u emas, balki quyidagi xayrli amal va ibratli ishlarda o‘z ifodasini topishi lozim ekanini ta’kidlaydilar:

Vatan haqqiga bor yaxshiliklarni tilab duo qilish;

jamiyatda ahillikni kuchaytirish yo‘lida harakat qilish *(silai rahm, qo‘shnilarga yaxshilik, o‘zaro yordam, bir-birlarga yaxshilikni sog‘inish, salbiy axloq va ijtimoiy illatlardan saqlanish va h.k.)*;

Vatan salohiyatini oshirish va uni muhofazasi uchun jonkuyarlik qilish *(Vatan mulkini avaylab-asrash, uning yuksalishi uchun halol mehnat qilish, o‘zini bag‘ishlash, bu yo‘lda tama’ yaqinlashtirmaslik va h.k.)*;

Vatan erki, hududi yoki obro‘siga qarshi fikriy yoki harbiy hujumga qarshi mudofaada turish.

Ikkinchi jahon urushi davrida 538 mingdan ziyod o‘zbekistonliklar Vatan himoyasida mardlarcha halok bo‘lgan. 158 mingdan ko‘proq hamyurtimiz urushda bedarak ketgan. 200 mingdan ziyod o‘zbekistonliklar jangovar davlat mukofotlari

bilan taqdirlangan. Ulardan 301 nafari Qahramon unvoniga, 70 nafari uchta darajadagi “Slava (Shuhrat)” ordeniga sazovor bo‘lgan.

Yuqorida qayd etilganlar vatanparvarlik, yurt himoyasi muhim va muqaddas burch, ulkan savob ekani, shuningdek, bunday fazilatga ega bo‘lish musulmonlarning asosiy xususiyatlaridan biri ekanidan dalolat qiladi va bevosita harbiy xizmatchilarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash qo‘shinlar jangovar salohiyati oshirish omili sifatida ta’kidlanishi maqsadga muvofiqdir.

Aksincha, qadimdan o‘zbek xalqi vatanfurushlikni qattiq qoralaydi. Bunday harakatlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: mamlakat manfaatlariga xiyonat kilish, o‘z shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab iqtisodiy, siyosiy va boshqa josuslik faoliyati bilan shug‘ullanish, dushman tomoniga o‘tib o‘z xalqi, mamlakatiga qarshi kurash olib borish, qo‘poruvchilik ishlari bilan shug‘ullanish, turli diniy mutaassib va ekstremistik g‘oyalar ta’siri ostida oilasi, Vatanidan voz kechish, kindik qoni to‘kilgan zaminga nisbatan bo‘hton va ig‘vo tarqatish va hokazolar.

Vatanfurushlik zaminida moddiy, siyosiy yoki boshqa ko‘rinishdagi shaxsiy manfaatlar yotadi. Tarix dalolat beradiki, vatanfurushlar hamma vaqt o‘z yurti va xalqining nafratiga duchor bo‘lgan.

Hech shubhasiz, barchamiz birgalikda Ona Vatanimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, uni asrab-avaylash, himoya qilish kabi fuqarolik burchimizni astoydil, chin yurakdan bajarish, mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik, mustahkam irodamiz, dinu diyonatimiz bilan oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda barqarorlik va sog‘lom muhitni mustahkamlab, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini ta’minlaymiz.

Shunday ekan, ona-Vatanimiz bo‘lmish O‘zbekistonni gullab yashnashiga, yurtimiz tinch-osuda bo‘lishiga barcha shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson o‘z hissasini qo‘shishi kerak.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi” . [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://lex.uz/acts/20596

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-son Qarori.

3. Sh. Musaboev. Vatan himoyasi sharafli va savobli burch.

4. K. Nosirov. Vatanparvarlik – milliy g‘oyamiz asosi.

5. Sh. Ahrorova. Vatanparvarlik tarbiyasi qaerda beriladi.

6. F.Ergashev. Harbiy – vatanparvarlik tarbiyasida yangi tizim.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TA’LIM VA TARBIYANING ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLARI

podpolkovnik TASHKENTBAYEV Zokir Artikbayevich
AKT va HAI QQ HHM kafedrasi sikl boshlig‘i

Annotatsiya*: maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta’lim va tarbiya jarayonining o‘rni, zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati hamda ulardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va yoshlar dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatuvchi turli axborot oqimlari sharoitida vatanparvarlik tarbiyasini yangi usullar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, vatanparvarlik, ta’lim, tarbiya, innovatsion yondashuv, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta’lim, sun’iy intellekt, milliy qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi.*

Аннотация*: в данной статье освещается роль образования и воспитания формирование патриотических качеств у молодёжи, необходимость внедрения современных инновационных подходов а также возможности их эффективного применения. В условиях глобализации, стремительного развития информационных технологий и воздействия различных информационных потоков на мировоззрение молодого поколения особое значение приобретает организация патриотическое воспитание на основе современных методов. Рассматриваются также направления, как интерактивное обучение, цифровые технологии, мультимедийное средства, виртуальные музей, проектное обучение, медиа грамотность, возможности искусственного интеллекта, историческая память и практическая социальная деятельность.*

Ключевые слова*: молодёжь, патриотизм, образование, воспитание, инновационный подход, цифровые технологии, интерактивное обучения, искусственный интеллект, национальные ценности, гражданская позиция.*

Har qanday davlatning taraqqiyoti, uning tinchligi va barqarorligi ko‘p jihatdan yosh avlodning bilim darajasi, ma’naviy dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyasi va Vatanga bo‘lgan sadoqatiga bog‘liq. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki haqiqiy vatanparvar inson nafaqat o‘z Vatanini sevib, uning tarixi va milliy qadriyatlarini hurmat qiladi, balki jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga intiladi.

Zamonaviy davrda yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar an’anaviy muhit bilan cheklanib qolmayapti. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, elektron ta’lim resurslari va sun’iy intellekt texnologiyalari yoshlarning axborot olish va dunyoqarashini shakllantirish jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu sababli vatanparvarlik tarbiyasi ham zamonaviy texnologiyalar va innovatsion pedagogik usullar bilan uyg‘unlashtirilishi zarur.

Vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyati.

Vatanparvarlik — insonning o‘z Vataniga, xalqiga, milliy tarixi va madaniyatiga bo‘lgan yuksak hurmati, sadoqati hamda uning taraqqiyoti uchun mas’uliyat hissidir. Vatanparvarlik tushunchasi faqat harbiy xizmat yoki Vatanni tashqi xavflardan himoya qilish bilan cheklanmaydi. U halol mehnat qilish, qonunlarga rioya etish, atrof-muhitni asrash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish kabi fazilatlarni qamrab oladi.

Yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirish bolalikdan boshlanadi. Oiladagi tarbiya, ta’lim muassasasidagi muhit, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, mahalla va jamoatchilikning ta’siri ushbu jarayonda muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi.

Ta’lim va tarbiya bir-biridan ajralmas jarayon hisoblanadi. Faqat bilim berish bilan cheklanib qolish yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun yetarli emas. Bilim ma’naviyat, axloq va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashganda o‘zining haqiqiy samarasini beradi.

Masalan, tarix fanini o‘qitish jarayonida tarixiy sanalarni yodlatish bilan bir qatorda, ajdodlarning jasorati, ilm-fanga qo‘shgan hissasi, yurt taraqqiyoti uchun qilgan xizmatlarini yoshlarga yetkazish muhim. Adabiyot darslarida esa milliy adabiyot namoyandalarining asarlari orqali Vatan, insonparvarlik, adolat, jasorat va sadoqat g‘oyalarini ochib berish mumkin.

Zamonaviy innovatsion yondashuvlarning ahamiyati.

Innovatsion yondashuv — ta’lim va tarbiya jarayoniga yangi g‘oyalar, usullar, texnologiyalar va vositalarni joriy etish orqali yuqori samaraga erishishga qaratilgan faoliyatdir.

Yoshlar bilan ishlashda innovatsion yondashuvning ahamiyati shundaki, bugungi avlod axborotni qabul qilish, muloqot qilish va bilim olishda raqamli vositalardan keng foydalanadi. Shu sababli ta’lim jarayoni ham ularning qiziqishlari va zamonaviy ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak.

Innovatsion yondashuvlar:

- raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;
- interaktiv metodlarni qo‘llash;
- multimedia va vizual materiallardan foydalanish;
- loyihaviy ta’limni tashkil etish;
- virtual ekskursiyalar o‘tkazish;
- elektron test va viktorinalar tashkil qilish;
- geymifikatsiya elementlarini joriy etish;
- sun’iy intellekt vositalaridan ta’limiy maqsadlarda foydalanish;
- media va axborot savodxonligini rivojlantirish;
- yoshlarning mustaqil ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

Raqamli texnologiyalar orqali vatanparvarlik tarbiyasi.

Raqamli texnologiyalar yoshlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Vatanparvarlik tarbiyasida ham raqamli resurslardan samarali foydalanish mumkin.

O‘zbekiston tarixi, milliy qahramonlar, buyuk allomalar, tarixiy obidalar va madaniy merosga bag‘ishlangan elektron materiallar yoshlarning qiziqishini oshiradi. Videolavhalar, interaktiv xaritalar, 3D modellar va virtual ekskursiyalar orqali tarixiy voqealarni ta’sirchan tushuntirish mumkin.

“Mening Vatanim tarixi” nomli raqamli loyiha doirasida o‘quvchilar o‘z hududidagi tarixiy obidalar, mashhur shaxslar va muhim voqealar haqida ma’lumot to‘plab, elektron taqdimot yoki qisqa videolar tayyorlashlari mumkin.

Interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish.

Vatanparvarlik tarbiyasida interaktiv metodlardan foydalanish yuqori samara beradi. Interaktiv metodlar yoshlarning mustaqil fikrlashi, muloqot qilishi va o‘z nuqtai nazarini asoslab berish qobiliyatini rivojlantiradi.

“Aqliy hujum” — “Vatanparvar inson qanday bo‘lishi kerak?” kabi savollar orqali fikrlarni umumlashtirish.

“Debat” — Vatan, fuqarolik burchi, milliy qadriyatlar va yoshlarning jamiyatdagi roli bo‘yicha bahslar tashkil etish.

“Rolli o‘yin” — tarixiy shaxslar, davlat arboblari yoki turli ijtimoiy vaziyatlar asosida sahna ko‘rinishlari tashkil qilish.

“Keys-stadi” — hayotiy vaziyatlar berilib, yoshlardan unga yechim topish so‘raladi.

“Loyiha” — yoshlar muayyan ijtimoiy yoki tarixiy mavzu bo‘yicha mustaqil tadqiqot olib boradi.

Loyihaviy ta’lim — vatanparvarlik tarbiyasining samarali vositasi.

Loyihaviy ta’lim zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Unda ta’lim oluvchilar muayyan muammoni mustaqil yoki guruh bo‘lib o‘rganadilar va yakunda amaliy natija yaratadilar.

Vatanparvarlik tarbiyasida “Mening Vatanim — mening faxrim”, “Mening mahallam tarixi”, “Ajdodlarimiz izidan”, “Vatanga xizmat — oliy burch”, “Tarixiy obidalarimizni asraylik”, “Mening oilam tarixi”, “Vatan ravnaqiga mening hissam” kabi loyihalarni tashkil qilish mumkin.

Loyiha jarayonida yoshlar axborot izlaydi, suhbatlar o‘tkazadi, ma’lumotlarni tahlil qiladi, foto va videomateriallar tayyorlaydi hamda o‘z ishlarini jamoatchilikka taqdim etadi.

Sun’iy intellekt imkoniyatlaridan ta’lim-tarbiyada foydalanish.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim sohasiga ham jadal kirib kelmoqda. Undan to‘g‘ri va mas’uliyatli foydalanish ta’lim sifatini oshirishga yordam berishi mumkin.

Vatanparvarlik tarbiyasida sun’iy intellektdan tarixiy mavzular bo‘yicha savol-javoblar tayyorlash, interaktiv testlar tuzish, ta’limiy ssenariylar ishlab chiqish, tarixiy mavzularni tushuntirish, ijodiy topshiriqlar tayyorlash va individual ta’lim materiallarini shakllantirishda foydalanish mumkin.

Biroq sun’iy intellektdan foydalanishda axborotning ishonchliligini tekshirish muhim. Yoshlarga har qanday raqamli ma’lumotni tanqidiy tahlil qilish va manbasini tekshirish ko‘nikmasi berilishi lozim.

Media savodxonlik va axborot xavfsizligi.

Hozirgi axborot makonida yoshlar turli xil ma’lumotlarga duch keladi. Ular orasida haqqoniy, foydali ma’lumotlar bilan birga noto‘g‘ri, soxta yoki manipulyativ axborotlar ham uchrashi mumkin.

Shuning uchun vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy modeli media savodxonlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak. Yoshlarga axborot manbasini tekshirish, soxta xabarlarni aniqlash, manipulyativ kontentni farqlash, ijtimoiy tarmoqlardan mas’uliyatli foydalanish va axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim.

Milliy qadriyatlar va tarixiy xotiraning o‘rni.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlar muhim asos hisoblanadi. O‘z tarixini, tilini, madaniyatini va milliy an’analarini bilgan yoshda Vatanga daxldorlik hissi yuqori bo‘ladi.

Tarixiy xotirani shakllantirishda tarixiy obidalarga ekskursiyalar, muzeylarga tashriflar, tarixiy shaxslar hayotini o‘rganish, faxriylar va keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlar, tarixiy hujjatlar bilan ishlash va ijodiy tanlovlar samarali natija beradi.

Amaliy faoliyat orqali vatanparvarlikni shakllantirish

Vatanparvarlikni faqat nazariy tushuntirish bilan shakllantirib bo‘lmaydi. Yoshlar o‘z faoliyati bilan jamiyatga foyda keltirish imkoniyatini his qilishi kerak.

Buning uchun obodonlashtirish tadbirlari, ekologik aksiyalar, xayriya ishlari, volontyorlik faoliyati, keksalarga yordam ko‘rsatish, jamoat obyektlarini asrash, kitobxonlik tadbirlari va ijtimoiy loyihalar tashkil etish mumkin.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida innovatsion yondashuvlar

Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlashda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda harbiy xizmatning mazmun-mohiyati, fuqarolik burchi, intizom, jamoaviylik, jasorat va mas’uliyat kabi fazilatlar tushuntiriladi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda virtual harbiy muzeylar, tarixiy voqealarning multimedia rekonstruksiyalari, interaktiv xaritalar, sport va taktik tayyorgarlik elementlari, intellektual musobaqalar va elektron viktorinalardan foydalanish mumkin. Oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligi

Yoshlar tarbiyasida oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Agar ushbu uchta muhitda tarbiyaviy ta’sir bir-biri bilan uyg‘un bo‘lsa, natija yanada samarali bo‘ladi.

Oilada farzandga Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik va mas’uliyat hissi singdiriladi. Ta’lim muassasasida ushbu fazilatlar bilim va amaliy faoliyat bilan mustahkamlanadi. Mahallada esa yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish mumkin. O‘qituvchining shaxsiy namunasi

Vatanparvarlik tarbiyasida o‘qituvchining shaxsiy namunasi juda katta ahamiyatga ega. O‘quvchi ko‘p hollarda o‘qituvchining gapidan ko‘ra uning amaliy xatti-harakatlaridan ko‘proq ta’sirlanadi.

O‘qituvchi Vatan tarixini yaxshi bilishi, milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, kasbiga mas’uliyatli yondashishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi, yoshlarning fikrini hurmat qilishi va o‘z ustida doimiy ishlashi lozim.

Vatanparvarlik tarbiyasida geymifikatsiyadan foydalanish zamonaviy yoshlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish samarali natija beradi. “Vatan tarixi bilimdoni”, “Ajdodlar izidan”, “Tarixiy xazina”, “Mening yurtim” kabi intellektual o‘yinlar tashkil etish mumkin. Vatanparvarlik tarbiyasida uchraydigan muammolar zamonaviy sharoitda tarbiyaviy tadbirlarning bir xil ssenariy asosida o‘tkazilishi, raqamli texnologiyalardan yetarlicha foydalanilmasligi, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xavflari, vatanparvarlik tarbiyasining faqat bayram tadbirlari bilan cheklanishi va yoshlarning mustaqil fikriga yetarlicha imkoniyat berilmasligi kabi muammolar uchraydi.

Muammolarni bartaraf etish yo‘llari

1. Tarbiyaviy tadbirlarni interaktiv va amaliy shaklga o‘tkazish.
2. Raqamli ta’lim platformalaridan keng foydalanish.
3. O‘qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘yicha malakasini oshirish.
4. Yoshlarni mustaqil loyihalarga jalb qilish.
5. Media savodxonlikni kuchaytirish.
6. Tarixiy va madaniy obyektlarga ekskursiyalar tashkil etish.
7. Volontyorlik va jamoat ishlarini rivojlantirish.
8. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish.
9. Sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish.
10. Yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

11. Innovatsion vatanparvarlik tarbiyasining namunaviy modeli

Zamonaviy vatanparvarlik tarbiyasi modelini besh bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich — qiziqtirish. Yoshlarga tarixiy voqealar, buyuk shaxslar va zamonaviy yutuqlar haqida multimedia materiallari taqdim etiladi.

Ikkinchi bosqich — bilim berish. Yoshlar tarix, davlat ramzlari, milliy qadriyatlar va fuqarolik mas'uliyati haqida bilim oladilar.

Uchinchi bosqich — fikrlash. Debat, keys, savol-javob va tahliliy topshiriqlar orqali mustaqil fikrlash rivojlantiriladi.

To‘rtinchi bosqich — amaliy faoliyat. Yoshlar ijtimoiy, ekologik, madaniy va volontyorlik loyihalarida ishtirok etadilar.

Beshinchi bosqich — natijani baholash. Yoshlarning bilimlari, ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va jamoat ishlaridagi ishtiroki tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy global axborot muhiti, raqamli texnologiyalar va yoshlar dunyoqarashidagi o‘zgarishlar vatanparvarlik tarbiyasiga ham yangicha yondashishni talab qilmoqda.

Samarali vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarga tayyor g‘oyalarni singdirish bilan cheklanmasligi, balki ularda mustaqil fikrlash, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faollik va Vatan taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantirishi kerak.

Interaktiv ta'lim, loyihaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar, virtual ekskursiyalar, media savodxonlik, geymifikatsiya va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona foydalanish ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Eng muhimi, vatanparvarlikni faqat so‘z bilan emas, amaliy faoliyat bilan shakllantirish lozim. Yoshlar o‘z mehnati, bilimi, tashabbusi va ijtimoiy faolligi orqali Vatan taraqqiyotiga hissa qo‘sha olishini anglashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati va ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga oid farmon va qarorlari.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

6. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent.

KOPILOV IVAN PAVLOVICHNING IKKINCHI JAHON URUSHIDA KO‘RSATGAN QAHRAMONLIKLARI

dotsent, NAJIMIDINOV Zinabudin Shamshidinovich

AKT va HAI QQ HHM kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada Kopilov Ivan Pavlovich ikkinchi jahon urushida ishtiroki o‘rganib chiqilgan va uning ushbu janglarda ko‘rsatgan qahramonlik va jasoratlari hamda artilleriya bo‘linmalarini boshqarishdagi mahoratlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Front, diviziya, polk, divizion, batareya, artilleriya, qarshi hujum, mudofaa, hujum, strategiya, operatsiya.*

Аннотация. *В статье рассмотрены, приведены примеры участия Копилова Ивана Павловича во второй мировой войне, раскрыты героизм и мужуство проявленные в ходе войны и мастерство при управления артиллерийскими позразделениями.*

Ключевие слова: *Фронт, дивизия, полк, дивизион, батарея, артиллерия, контратака, оборона, наступление, стратегия, операция.*



Kopilov Ivan Pavlovich – 666-artilleriya polkining divizion komandiri (Smolensk qizil bayroq 222-o‘qchi diviziya, 33-armiya, 1- Belorus fronti), mayor.

1920 yil 1 yanvarda Sharqiy - Qozog‘iston viloyatini Oltoy tumani Solovyov qishlog‘ida ishchi (qishloq temirchisi) oilasida tug‘ilgan. Rus millatiga mansub. Toshkent iqtisodiy-hisoblash texnikumini 1939 yil tamomlagan.

1939 yildan ishchi dehqonlar qizil armiyasida (RKKA) xizmatni boshlagan. 1941 yil Podolsk artilleriya bilim yurtining tankga qarshi artilleriya yo‘nalishini bitirgan.

Ikkinchi jahon urushida 1941 yilning iyul oyidan boshlab ishtirok etgan. G‘arbiy, 1-, 2- va 3- Belorus frontlarida 222- o‘qchi diviziyaning 664- artilleriya polki tarkibida janglarda qatnashgan (1943 yilning 22-iyunidan 666-artilleriya polki nomiga o‘zgartirilgan).

I.P. Kopilov 1941-1942 yillarda G‘arbiy front 33-armiyaning 222-diviziyasi tarkibida Moskva himoyasida va Moskva ostonasidagi kontr hujumlarda, shuningdek Vyazma shahrining sharqida Smolensk va Kaluga viloyatlarining hududida bo‘lib o‘tgan mashaqqatli himoya va hujum janglarida faol ishtirok etgan.

O‘zining birinchi davlat mukofotini 222-o‘qchi diviziyasi 664- artilleriya polkining artilleriya batareyasi komandiri sifatida olgan. Katta leytenant I.P.Kopilov 1942 yilning avgust oyida G‘arbiy frontdagi ayrim hujumkor operatsiyalarda, ya’ni Smolensk viloyati Tyomkin tumani Alfyorovo posyolkasida bo‘lib o‘tgan janglarda ko‘rsatgan qahramonligi va jasoratlari hamda artilleriya batareyasini boshqarishdagi mahorati uchun “2-darajali Ulug‘ Vatan urushi” ordeni bilan taqdirlangan.



1942 yil 13 avgustda dushman himoyasini yorib o‘tishda I.P.Kopilov komandirlik qilayotgan artilleriya batareyasi dushmanni daraxt-tuproqli otish nuqtasini yakson etgan, unda dushmanning ikkita pulemyotchisi va bir nechta askarlari bo‘lgan. U komandirlik qilayotgan artilleriya batareyasi 1942 yil 16 avgustda Alfyorovo posyolkasi hududida dushmanning batalyongacha bo‘lgan kuchlarining shiddatli qarshi hujumini bartaraf etib, unda dushmanning rotagacha bo‘lgan askarlarini yo‘q qilib, bu orqali polkning piyoda askarlariga talofatsiz harakatlanish imkoniyatini yaratgan. Alfyorovo posyolkasini ishg‘ol etishda piyoda askarlarning jangovar tartibining oldida bo‘lgan holda, batareyaning o‘t ochishini korrektirovka qilib (to‘g‘rilab) turgan. Bunda artilleriyaning o‘t ochishi bilan dushmanni tirik kuchlari va o‘t ochish nuqtalarini yakson etgan va bu bilan Alfyorovo balandligini egallashni ta’minlagan.

Keyinroq 1943 yilning 2-31 mart kunlari G‘arbiy frontda Rjev-Vyazma hujumkor, 1943 yilning 7-20 avgust kunlarida “Spas-Demen” Smolensk strategik hujumkor, 1943 yilning 28 avgust - 6 sentabr kunlarida Yelnya-Dorogobush hujumkor, 1943 yilning 15 sentabr - 2 oktabr kunlarida Smolensk-Roslavl hujumkor, 1943 yilning 12 oktabr – 2 dekabr kunlarida Orshansk hujumkor, 1944 yilning 3 fevral – 13 mart kunlarida Vitebsk hujumkor operatsiyaslarida ishtirok etgan.

1943 yilning 7-20 avgust kunlarida “Spas-Demen” Smolensk strategik hujumkor operatsiyasini o‘tkazish vaqtida 222- o‘qchi diviziya Kaluga viloyatining Spas-Demen tumani hududida g‘arbga harakatlanayotgan vaqtda kapitan I.P.Kopilov komandirlik qilayotgan 666-artilleriya polkining artilleriya batareyasi piyoda askarlar jangovar tartibida, joyda turgan holda va harakatlanish vaqtida o‘t ochish orqali dushmanning shiddatli qarshi hujumlarini qaytarib, piyoda askarlarni oldinga siljishini ta’minlagan.

1943 yil 9 avgust kuni Yudino qishlog‘i hududi yaqinida dushmanni tank va aviatsiya qo‘shinlari tomonidan qo‘llab quvvatlangan shiddatli qarshi hujumini ikki marotaba qaytarilgan jangida artilleriya batareyasi ishtirok etgan. 10 avgust kuni



ushbu janglarda I.P.Kopilov komandirlik qilayotgan artilleriya batareyasi 1 ta stanokka o‘rnatilgan pulemyot, 4 ta qo‘l pulemyoti va tankka qarshi batareyaning 2 ta o‘t ochish nuqtasini yakson etgan. 11 avgust kuni artilleriya batareyasi Voron qishlog‘i hududida dushmanning to‘plangan piyoda askarlarini o‘t ochish bilan yakson etgan va tarqatib yuborgan, bu orqali dushmanni shiddatli qarshi hujumga o‘tishining oldini olgan. Bu jangda batareya dushmanni 2 ta qo‘l pulemyotini hisobi bilan birgalikda yakson etgan. 12 avgust kuni artilleriya batareyasi Mogilniy qishlog‘i hududida piyoda askarlar harakatiga halaqit

berayotgan 2 ta pulemyotini yakson etgan. 14 avgust kuni artilleriya batareyasi Buraki qishlog‘i hududida dushmanning shiddatli qarshi hujumini bartaraf etdi. Ushbu janglarda ko‘rsatgan qahramonlik va jasoratlari hamda artilleriya batareyasini boshqarishdagi mahorati uchun “Aleksandr Nevskiy” ordeni bilan taqdirlangan.

2- Belorus frontida, 1944 yilning 10 iyulidan 3- Belorus frontida “Bagration” nomli Belorussiya strategik operatsiyasining Mogilyov (1944 yil 23-28 iyun kunlari), Minsk (1944 yil 29 iyun-4 iyul kunlari), Vilnyus (1944 yil 10-20 iyul kunlari) va Kaunass (1944 yil 28 iyul-28 avgust kunlari) hujum operatsiyalarida ishtirok etgan.

Mogilyov hujum operatsiyasi vaqtida 666-artilleriya polkining artilleriya divizioni komandirining o‘rinbosari kapitan I.P. Kopilov divizion komandiri vazifasini bajargan. 1944 yilning 23 iyun kuni Mogilyov viloyatining Golovichi tumani hududida dushman himoyasini yorib o‘tish vaqtida qo‘llab quvvatlanayotgan piyoda askarlar bilan hamkorlikda dushman artilleriyasi va boshqa o‘t ochish vositalarini yakson etishda qatnashgan. Ushbu kunda Golovichi tumani hududida artillleriya divizioni tomonidan 13 ta pulemyot nuqtasi, 1 ta tankka qarshi qurol, 3 ta 82 mm minomyotlarni yakson etilgan va 1 ta rotaga yaqin piyoda askarlar yakson etilgan va tarqatib yuborilgan. Buning natijasida 222- o‘qchilar diviziyasi tezlik bilan dushman transheyalarini egallagan va Golovichi hamda Slastena tumanlarini kam yo‘qotishlar bilan qo‘lga kiritgan. 1944 yil 28 iyun kuni Zaprudye qishlog‘i atrofida dushmanni shiddatli qarshi hujumini qaytargan, bunda 4 ta 4 stvolli minomyot, 5 ta shatakchi, 5 ta 75 mm artilleriya qurollari yakson etilgan va 2 ta vezdexodi qo‘lga olingan. Ushbu janglarda ko‘rsatgan qahramonlik va jasoratlari hamda artilleriya batareyasini boshqarishdagi mahorati uchun “1-darajali Ulug‘ Vatan urushi” ordeni bilan taqdirlangan.



1944 yilning oktabr oyidan ikkinchi jahon urushining oxirigacha 1-Belorus fronti tarkibida jang qilgan. Uning tarkibida Vislo-Oder strategik operatsiyasining Varshava-Poznan hujum operatsiyasida (1945 yil 14-yanvardan 3-fevralgacha) va Berlin strategik hujum operatsiyasida (1945 yil 16- apreldan 8 maygacha) qatnashgan.

Polsha territoriyasida bo‘lib o‘tgan Varshava-Poznan hujum operatsiyalari vaqtida aktiv ishtiroki bilan katta qahramonlik ko‘rsatgan. Visladan Oder tomonga hujum vaqtida yetakchi otryadlar tarkibida o‘z divizionining o‘t ochishi bilan piyoda askarlarni xavfsiz harakatlanishini ta’minlagan.

1945 yil 2-fevralda yetakchi piyoda guruh bilan birgalikda Oder daryosini Oderdagi Frankfurt shahrining janubidan kechib o‘tdi. Qo‘lga olingan platsdarmdan

o‘z divizionining o‘t ochishini korrektirovkasini (to‘g‘rilab otishini) amalga oshirdi, bu orqali polkning asosiy kuchlarini daryoni behavotir va xavfsiz kesib o‘tishini ta’minladi. Platsdarmni ushlab qolish va kengaytirish uchun bo‘lgan janglarda divizion dushmanning tank va maxanizatsiyalashgan qo‘shinlari tomonidan yopirilgan hujumlarni bartaraf qilib, platsdarmni ushlab qolishga va dushman qo‘shinlariga shiddatli hujum uyushtirish orqali, dushmanning texnikalari va tirik kuchlariga katta talofat yetkazib platsdarmni kengaytirishga erishdi.






SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1945 yil 31 maydagi qaroriga asosan Kopilov Ivan Pavlovichga Visla-Oder operatsiyasida ko‘rsatgan qahramonlik va jasoratlari hamda artilleriya divizionini boshqarishdagi mahorati uchun Sovet ittifoqi qahramoni unvoni, shu bilan birgalikda “Oltin yulduz” medali, “Lenin” ordeni va ikkinchi marta “1-darajali Ulug‘ Vatan urushi” ordeni bilan taqdirlangan.



Berlin strategik hujum operatsiyasi vaqtida 222-o‘qchi diviziya egallab olingan Oder platsdarmidan Frankfurtni janubidan g‘arb yo‘nalishi bo‘yicha hujumga o‘tgan holda Kushkov poselkasini qo‘lga kiritdi va operatsiyaning so‘ngida Dessau shahrining shimoliy-g‘arbidan Elba daryosiga chiqdi.

Vizenay tumani hududida Oder daryosining g‘arbiy qirg‘og‘ida dushman himoyasini yorib o‘tishda va dushmanni ta’qib qilishda mayor Kopilov komandirlik qilgan divizion tez harakatlanuvchi artilleriya-minomyot guruhi tarkibiga kiritilgan hujumga o‘tuvchi o‘qchi qismlar bilan hamkorlik yaxshi va sifatli tashkil etilganligi sababli, I.P. Kopilov divizionni o‘t ochishi orqali dushmanni yangi aniqlangan minomyot batareyalarini tezkorlik bilan yakson etib, piyoda askarlarimizning oz miqdorda yo‘qotilishiga imkon yaratgan.



1945 yil 27 aprelda Kushkov poselkasini qo‘lga kiritish 666-artilleriya polkiga o‘qchi qismlarsiz amalga oshirilishi vazifasi qo‘yilgan edi. Bu jangda pulemyot va minomyotlarni shiddatli o‘qlari ostida I.P. Kopilov o‘zining artilleriya qurolini tekislikka chiqarib, dushmanni o‘t ochish nuqtalari va tirik kuchlar qurolini to‘g‘ri yo‘naltirgan holda yakson etgan. Berlin strategik hujum operatsiyasi vaqtidagi janglarda ko‘rsatgan qahramonlik va jasoratlari hamda artilleriya divizionini boshqarishdagi mahoratlari uchun “Qizil bayroq” ordeni bilan taqdirlangan.

Ikkinchi jahon urushi davomida ko‘rsatgan qahramonlik va jasoratlari hamda

qo‘l ostidagi bo‘linmalarni boshqarishdagi mahoratlari uchun I.P. Kopilov Sovet ittifoqining bir nechta davlat mukofotlari, ya’ni turli orden va medallar bilan taqdirlangan.

Urushdan so‘ng u Sovet Armiyasi tarkibida xizmatni davom ettirgan. 1952 yilda artilleriya harbiy akademiyasini tamomlagan. Undan so‘ng Minsk minomyot artilleriyasi bilim yurtida o‘qituvchilik qilgan. 1973 yil harbiy xizmatdan zahiraga bo‘shatilgan. Odessada yashagan va ishlagan. 1982 yil 6 oktabrda olamdan o‘tgan.

Sharqiy - Qozog‘iston viloyatini Oltoy tumani Solovyov qishlog‘idagi asosiy ko‘cha qahramon nomi bilan atalgan.

Adabiyotlar:

1. Герои земли марийской: наградные листы Героев Советского Союза. - Йошкар-Ола, 1965.

2. Герои Родины: комплект плакатов (72 шт.) / сост. В. В. Глушков. - М, 2010.

3. Герои Советского Союза: Краткий биографический словарь в двух томах. - Т. 1 / ред. И.Н.Шкадов, А.А.Бабаков, А.И. Бабин и др. - М., 1987.

4. Марийская биографическая энциклопедия: 3849 имен в истории Марийского края и марийского народа / авт. и рук. проекта В. Мочаев. - Йошкар-Ола, 2007.

5. Интернет манбалари: https //ru.m wikipidia.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA ZAMONAVIY VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Dotsent Abidov Akmal Axmatovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni, ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Vatanparvarlikni shakllantirish faqat nazariy tushunchalarni berish bilan cheklanmasdan, yoshlarni ijtimoiy, madaniy, sport, loyiha va raqamli faoliyatga jalb etishni talab qilishi asoslanadi. Shuningdek, raqamli fuqarolik, media savodxonlik, interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish, harbiy-vatanparvarlik va ko‘ngillilik faoliyatini birlashtiruvchi yaxlit model taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, yoshlar, ta’lim, tarbiya, innovatsion yondashuv, raqamli ta’lim, fuqarolik kompetensiyasi, media savodxonlik, harbiy-vatanparvarlik, ijtimoiy faollik.*

Abstract: *This article analyzes the content of fostering patriotism among young people, the interrelationship and harmony between education and upbringing, and the pedagogical potential of modern innovative approaches. It substantiates that fostering patriotism should not be limited to providing theoretical knowledge and concepts, but should also involve young people in social, cultural, sports, project-based, and digital activities. In addition, an integrated model is proposed*

that combines digital citizenship, media literacy, interactive methods, project-based learning, military-patriotic education, and volunteer activities.

Keywords: *patriotism, youth, education, upbringing, innovative approach, digital education, civic competence, media literacy, military-patriotic education, social engagement.*

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida yoshlarning dunyoqarashi, axborot olish manbalari va ijtimoiy faollik shakllari tez o‘zgarib bormoqda. Shu sababli vatanparvarlik tarbiyasini zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida davlat va jamiyat yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, mamlakat bilan faxrlanish, vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalashga g‘amxo‘rlik qilishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori: asosida ***“Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”***, ushbu yo‘nalishning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.[1, 3]

UNESCOning fuqarolik ta’limiga oid yondashuvlarida ham bilim bilan bir qatorda qadriyat, munosabat, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, mas’uliyat va faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Raqamli muhitda esa yoshlarni axborotni tanqidiy baholash, mas’uliyatli foydalanish va etik qaror qabul qilishga o‘rgatish alohida ahamiyatga ega. [5]

1. Vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va pedagogik asoslari

Vatanparvarlik — shaxsning o‘z Vatani, xalqining tarixi, madaniyati, tili va milliy qadriyatlariga hurmati, jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglash hamda mamlakat taraqqiyotiga amaliy hissa qo‘shishga tayyorligini ifodalovchi ijtimoiy-ma’naviy sifatdir. Shu nuqtayi nazardan vatanparvarlik tarbiyasi bilim, hissiy munosabat va amaliy xulq-atvorning birligi asosida tashkil etilishi lozim.

Ta’lim jarayonida tarix, huquq, adabiyot, ona tili, geografiya, informatika, jismoniy tarbiya va boshqa fanlarning mazmunidan vatanparvarlik tarbiyasi uchun foydalanish mumkin. Biroq samaradorlik faqat mavzuga “Vatan” tushunchasini qo‘shish bilan emas, balki o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantirish bilan belgilanadi. Muammoli vaziyat, munozara, loyiha, tadqiqot, jamoaviy topshiriq va amaliy tadbirlar yoshlarning shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Zamonaviy ta’lim va tarbiya texnologiyalarining o‘rni

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o‘quvchi tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki bilimni izlab topuvchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo‘llovchi subyekt sifatida qaraladi. Shu sababli vatanparvarlik tarbiyasida interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish, debat, keys-stadi, rolli o‘yinlar, virtual ekskursiyalar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish maqsadga muvofiq.[4]

1-jadval. Yoshlar vatanparvarlik tarbiyasida qo‘llanadigan yondashuvlarning qiyosiy tavsifi.

Yondashuv	Asosiy vosita	Kutiladigan natija	Qo‘llash namunasi
An’anaviy	Ma’ruza, suhbat	Bilim va tushuncha	Tarixiy voqealar haqida suhbat
Interaktiv	Debat, munozara	Mustaqil fikrlash	“Vatan oldidagi burch” mavzusida debat
Loyiha	Guruhli loyiha	Mas’uliyat va hamkorlik	Mahalladagi tarixiy obidalar loyihasi
Raqamli	Video, platforma, virtual tur	Media va raqamli kompetensiya	Virtual muzey/harbiy tarix ekskursiyasi
Amaliy	Sport, ko‘ngillilik, tadbir	Faollik va ijtimoiy mas’uliyat	Vatanparvarlik aksiyasi


3. Innovatsion yondashuvlarning asosiy yo‘nalishlari

Birinchi yo‘nalish — raqamli va media texnologiyalaridan foydalanish. Yoshlar kundalik hayotida ijtimoiy tarmoqlar va raqamli axborot manbalari muhim o‘rin egallagani sababli vatanparvarlik mazmunidagi materiallar zamonaviy formatlarda — qisqa videolar, podkastlar, infografikalar, virtual ekskursiyalar va interaktiv testlar ko‘rinishida taqdim etilishi mumkin. UNESCO raqamli fuqarolik ta’limida tanqidiy fikrlash, axborot bilan mas’uliyatli ishlash va etik qaror qabul qilishni muhim kompetensiyalar sifatida ko‘rsatadi.[4]

Ikkinchi yo‘nalish — loyiha va muammoli ta’lim. Masalan, o‘quvchilar “Mening mahallam tarixida Vatan himoyachilari”, “Hududimizning tarixiy merosi”, “Yoshlar va ekologik mas’uliyat” kabi loyihalarni ishlab chiqishi mumkin. Bunda yoshlar axborot izlaydi, manbalarni tekshiradi, guruhda ishlaydi, natijani himoya qiladi va amaliy taklif beradi.

Uchinchi yo‘nalish — harbiy-vatanparvarlik va sport faoliyatini ta’lim bilan bog‘lash. Harbiy-sport musobaqalari, saf tayyorgarligi elementlari, jismoniy chiniqish, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha mashg‘ulotlar yoshlarning intizomi, jamoada ishlashi va mas’uliyatini rivojlantiradi. O‘zbekistonda 2025–2026 o‘quv yilidan “Jasorat uchqunlari” harbiy-vatanparvarlik va sport musobaqalarini tashkil etish belgilangan.[3]

To‘rtinchi yo‘nalish — “maktab–mahalla–oila” hamkorligi. Vatanparvarlik tarbiyasi faqat ta’lim muassasasining vazifasi bo‘lib qolmasligi, ota-ona, mahalla, jamoat tashkilotlari va tegishli davlat tuzilmalari hamkorligida olib borilishi kerak. 2026-yilda O‘zbekistonda aynan “Maktab – mahalla – oila” tamoyiliga asoslangan yoshlar bilan ishlash tizimini kuchaytirishga qaratilgan hamkorlik tashabbuslari amalga oshirilmoqda.[6]




1-rasm. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning taklif etilayotgan integratsiyalashgan modeli

4. Innovatsion yondashuvlarning kutiladigan samarasi

Innovatsion yondashuvlarning samaradorligini baholashda faqat tadbirlar soniga emas, balki yoshlarning bilim, munosabat va amaliy xulqidagi o‘zgarishlarga e’tibor berish zarur. Baholash mezonlari sifatida tarixiy-madaniy bilim, milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas’uliyati, jamoada ishlash, tashabbuskorlik, raqamli axborotni tanqidiy baholash va amaliy ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlaridan foydalanish mumkin.[7]

2-jadval. Vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini baholash mezonlari.

Mezon	Ko‘rsatkich	Baholash usuli
Bilim	Tarix, madaniyat va huquq bo‘yicha bilim	Test, suhbat
Qadriyat	Vatanga, milliy merosga hurmat	So‘rovnoma, kuzatuv
Faollik	Tashabbus va jamoaviy ishtirok	Loyiha, portfolio
Raqamli kompetensiya	Axborotni tekshirish va etik foydalanish	Amaliy topshiriq
Ijtimoiy mas’uliyat	Ko‘ngillilik va foydali tashabbus	Amaliy faoliyat



2-rasm. Innovatsion tarbiya vositalarining shartli samaradorlik ko‘rsatkichlari (mualliflik modeli; ilmiy tajriba natijasi sifatida talqin qilinmaydi).

5. Amaliy takliflar

Har bir ta’lim muassasasida yoshlarning qiziqishi va yosh xususiyatiga mos vatanparvarlik loyihalarini ishlab chiqish.

Vatanparvarlik mavzularini fanlararo integratsiya asosida tashkil etish: tarix + informatika + adabiyot + jismoniy tarbiya + huquq.

Raqamli platformalarda tarixiy shaxslar, Vatan himoyachilari va milliy merosga bag‘ishlangan ishonchli multimedia kontentini ko‘paytirish.

Debat, loyiha, harbiy-sport musobaqalari va ko‘ngillilik faoliyatini muntazam pedagogik monitoring bilan birlashtirish.

“Maktab–mahalla–oila” hamkorligida yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

Tarbiya natijasini tadbirlar soni bilan emas, kompetensiya va xulq-atvordagi ijobiy o‘zgarishlar orqali baholash.

Xulosa qilib – Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi ta’lim tizimining muhim strategik vazifalaridan biridir. Mazkur jarayon samarali bo‘lishi uchun ta’limiy bilim, ma’naviy-axloqiy tarbiya va amaliy faoliyat o‘zaro integratsiyalashishi zarur. An’anaviy suhbat va ma’ruzalarni interaktiv metodlar, loyiha faoliyati, raqamli texnologiyalar, media savodxonlik, harbiy-sport mashg‘ulotlari va ko‘ngillilik tashabbuslari bilan boyitish yoshlarning faol pozitsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasini zamonaviy raqamli muhit bilan uyg‘unlashtirish yoshlarni axborot xavflariga nisbatan tanqidiy fikrlashga, ishonchli manbalarni ajratishga va jamiyat hayotida mas’uliyatli ishtirok etishga tayyorlaydi. Taklif etilgan modelning asosiy g‘oyasi — “bilim → qadriyat → amaliy faoliyat → ijtimoiy mas’uliyat” zanjiri orqali vatanparvarlikni shaxsning kundalik xulq-atvoriga aylantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 78–79-moddalar. — Toshkent, 2023. LexUZ

[2]. O‘zbekiston Respublikasi. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-406, 14.09.2016. LexUZ

[3]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturi. 28.01.2026. LexUZ

[4]. UNESCO. Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the Twenty-First Century. — Paris: UNESCO, 2014. 44 bet.

[5]. UNESCO. Global Citizenship Education in a Digital Age: Teacher Guidelines. — Paris: UNESCO, 2024. Teacher guidelines — 60 bet.

KURSANTLARNI VATANPARVARLIK TARBIYASI AJDODLAR MEROSIDA

dotsent Idiyev Ergash Idievich

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya: *Vatan himoyasini, el-yurt tinchligi va farovonligini asramoq har bir yoshning muqaddas burchi bo‘lib qolishga da’vat etishini ham talab qiladi. Albatta, bu ulug‘vor vazifalarni amalga oshirish uchun faqatgina eng o‘tkir qurol bo‘lgan badiiy adabiyotning tarbiyalovchilik imkoniyatlaridan keng foydalanish, buning uchun dars jarayonidagina emas, balki auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda ham ertangi kun egalari, chinakam vatanparvarlarni mustaqillikka sadoqat ruhida tarbiyalash lozim.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, pedagogik texnika, jasorat, tarbiya, strategiya, faoliyat, milliy o‘zlikni anglash, bilim, ko‘nikma, zamonaviy axborot texnologiyalar, muloqot, nutq.*

Kirish

Ona Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog‘liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko‘nikmalarni ilmu ma’rifat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk yoshligidan boshlab singdirib borish va shu tariqa O‘zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash Konsepsiyaning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi. Talabalarni harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalash uning millati, tili va ishtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar Vatanga bo‘lgan sadoqatini shakllantirish, fuqarolik burchlarini va konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarishga, jamiyat va davlatimizning manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan mas’ul ta’lim muassasalari, davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarning ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatiga aytiladi. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalashda ta’lim muassasalarining faoliyati asosiy rol o‘ynaydi. Sababi yoshlarning asosiy vaqti ta’lim muassasida ta’lim tarbiya olishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son qaroriga binoan ―Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi‖ ishlab chiqilgan bo‘lib ushbu konsepsiyasida Yoshlarni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi talabalarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Talabalarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishda tarixiy yondashuv va ilmiy qadriyatlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

- milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan etuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash;

- talabalarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

- O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalashda buyuk shaxslar timsolini aks etish muhim hisohlanadi. Tarixdan ma’lumki, Rossiya imperiyasi va sovetlarning mustamlakachilik tuzumi o‘z hokimiyatlarini yanada mustahkamlash maqsadida qatag‘on siyosatiga katta e’tibor qaratgan. Qatag‘on siyosatining qonli qilichi barcha sohalarni, turli ijtimoiy qatlamlarni qamrab olgan edi. Sovet hokimiyati, avvalo, mahalliy rahbar kadrlarni qatag‘on qilganlarni hayot faoliyatini o‘rganish va yoshlarga etkazishda muzeylar o‘rni beqiyosdir. Mustabid tuzum hukumati uchun O‘zbekiston singari milliy sovet respublikasi rahbarlari, xodimlarini to‘la itoatda tutishning birdan - bir sharti - bu ularning mustaqil faoliyatiga izn bermaslik, vaqti – vaqti bilan silkitib turish, mabodo xato, kamchiliklari topilguday bo‘lsa, shafqatsiz jazolash yo‘li edi. O‘zbekiston ravnaqi, xalqining baxtu saodati uchun fidoyilik qo‘rsatgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo‘jaev, Abdulla Rahimboev, Isroil Ortiqov, Abdulla Karimov va boshqa o‘nlab mahalliy rahbar kadrlarning hayot qismati pirovarida mana shunday fojia bilan yakun topdi. Qatag‘on siyosatining qonli qilichidan eng ko‘p jabr ko‘rgan qatlamlardan biri – ziyolilar edi. O‘zbek adabiyotining ustunlari bo‘lgan, noyob ijodlari xalq mehrini qozongan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir, Mahmud Botu (Xodiyev), Elbek (Mashriq Yunusov), Fozi Yunus kabi ajoyib iste’dodlarni quruq bo‘htonu to‘hmatlar asosida “xalq dushmanlari” sifatida jismonan yo‘q qilinib, yorqin faoliyati so‘ndirildi Sovet hukumati o‘sib kelayotgan mustaqil fikrli yoshlarni qatag‘on qilishga ham katta

e’tibor qaratgan. O‘zbekiston hukumatining tashabbusi va sa’y-harakati bilan XX asrning 20-yillarida xorijga o‘qishga yuborilib, yaxshi mutaxasislar, fan arboblari bo‘lib etishgan kishilar ham atayin qatliom qurbonlari bo‘ldilar. Xorijda ta’lim olib, professorlik unvoniga sazovor bo‘lgan – Ahmadjon Ibrohimov, Majid Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Tohir Shokir, Abduvahob Ishoq, Saida Shermuhammad qizi, Sattor Jabbor, Otajon Hoshim va boshqalar o‘sha davrlarda millat faxri bo‘lgan. Ularga ham ―xalq dushmani, ―chet el josusi‖ qabilidagi tavqi la’nat tamg‘asi bosilib qatliom etildilar. Tarixiy hujjatlarda aks etgan, qatag‘on qurboniga aylangan shaxslarning ayanchli qismati, ularga va oilalariga nisbatan qilingan zo‘ravonlik holatlari istiqlol tufayli keng va chuqur o‘rganildi. So‘nggi yillarda ayni masalalarga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ular haqida ko‘plab ma’lumot va dalillar keng ommaga taqdim etildi. Xususan, hukumat qarorlari, Prezident farmoni asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida ana shunday fidoyi kishilar shaxsi aniqlandi.

O‘z jonini Vatan, xalq uchun fido qilgan qatag‘on qurbonlarining oqlanishi – bugungi kunda amalga oshirilayotgan ko‘plab ezgu ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Shu asnoda tarixiy adolat qaror topdi. Qatag‘on qilinganlarning hozirgi avlodi o‘z ota-bobolari, yaqinlari haqidagi bor haqiqatning anglab etdilar. Ayni shunday ulug‘vor maqsad va vazifalarni hayotga tadbiq etish, talabalarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat tuyg‘ulari bilan tarbiyalashda tariximiz, ma’naviy merosimiz ko‘zgusi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda, O‘zbekistonda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir necha qonun va qarorlar ana shu muammolarni bartaraf etish, yoshlarning jismoniy tarbiyasini yaxshilash maqsadidadir va bu borada sezilarli amaliy ishlar ham amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Respublikamizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo‘nalishlari asosida ishlab chiqilgan bir qator buyuruqlar bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.Salomatlikni mustahakamlash, tanani chiniqtirish, uning turli kasalliklarga qarshiligini oshirish bu pedagogik jarayonning sog‘lomlashtiruvchi vazifalari hisoblanadi. Sog‘lomlashtiruvchi vazifalarning muvaffaqiyati jismoniy mashg‘ulotlarning sog‘lomlashtiruvchi pedagogik prinsiplari talablariga rioya qilishga bog‘liqdir. Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy

tarbiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan bog‘liq muhim masala hal etiladi.

Shuningdek, o‘zbek xalqining madaniy merosi hisoblangan san’at, tarixiy va me’morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, ularning tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatini bilish talab etiladi. Zero, bir necha asrlar davomida yaratilgan obidalarimiz - machit, madrasa, saroy, abservatoriya, qasrlar, osmono‘par minoralar, maqbaralar, boy, qo‘hna va navqiron tariximiz, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Turkiston yodgorliklari kimlarni hayratga solmagan deysiz. Ular yoshlar qalbida ham o‘tmish tariximizga, ajdodlarimizning yuksak ilm va kasb mahoratiga cheksiz hurmat, ular bilan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otadi.

O‘qituvchi yoshlarni o‘z millatiga, Ona Vataniga, imoniga sodiq bo‘lishni o‘rgatishi, ularda sog‘lom kuch, tafakkur, imon va pok vijdonni shakllantirish, Vatan oldidagi mas’uliyat, millat manfaati bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, millat obro‘siga hissa ko‘shish, foyda keltirish, fidoyilik va halollik bilan sidqidildan mehnat qilish, xalqning shon-shuhratini, manfaatini o‘ylash, insonparvar bo‘lishiga da’vat etishning turli usul va vositalarini ham topishga harakat qilgandagina yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish uchun yangi pedagogik texnologiyaning barcha ko‘rinishlaridan foydalanish, uning yangi-yangi shakllarini izlab topish va yaratish, eng avvalo, yoshlarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka o‘rgatish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va yanada rivojlantirish yo‘llarini izlash kerak.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari

Yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlash – inson butun hayoti davomida amalga oshiriladigan o‘zoq jarayondir. Vatanparvarlik tarbiyasi oiladan boshlanadi va boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quv yurtida davom ettirilishi lozim.

Bu yosh uchun eng kerakli fanlar – gumanitar, tabiiy, matematika fanlari, jismoniy tarbiya. O‘quvchilar bu davrda "harbiy" tushunchalar ma’nosini yanada chuqur anglab etadi. "Vatan himoyasi", "Harbiy nizomlar" va boshqalar davlatimiz iqtisodiy qudrati va uning Qurolli Kuchlar qudrati tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolati ekanligini tushuna boshlaydi.

Vatanparvarlik hissiyotlari o‘smirlarda qahramonlikka intilish, jasorat ko‘rsatish istagi, tengdoshlari jamoasida o‘z o‘rniga ega bo‘lish, ular hurmatiga sazovar bo‘lishi, o‘ziga yuqori e’tibor va talabchanlik, katta ijtimoiy faollik kabi yangi his – tuyg‘ularni shakllanishiga ko‘ra rivojlanadi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda Amir Temur o‘gitlari alohida qimmatga ega. Sohibqiron Amir Temur mamlakatda adolatni tiklash, tartib–intizom o‘rnatishga katta e’tibor bergan va o‘zi alohida jonbozlik ko‘rsatgan.

Ishonchli chora– tadbirlar qo‘llaydi. Amir Temur davlatni adolat va tadbirkorlik bilan boshqarishda boshqa hukmdorlardan ustun turadi. Sohibqiron ezgu insoniy fazilatlar shavkatida bir yo‘ldosh bo‘lgan holda uning tole yulduzi yuksak porlab, raqiblarga qarshi kurashda yo‘lini yoritib, ilhom baxsh etib turadi.

Amir Temur hazratlarining ko‘rkam xulqlaridan biri shuki, Osiyoning yarmini surib turgan bo‘lishiga qaramay siyosiy nutqlarini quyidagicha, juda sodda iboralar bilan boshlar edilar: «Men, Tangrining quli-Temur shuni aytamanki..». Ko‘rinadiki, Amir Temur, vazifasi, dovrug‘i tufayligina emas, balki havas qilsa arziydigan darajada vatanparvar, adolatli hukmdorligi bilan ham boshqalardan ajralib turgan . Alisher Navoiy Amir Temurning shaxsiy qobiliyati haqida bunday deb yozgan edi: «Amir Temur Ko‘rogon... agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo‘p mahal va mavqeda uqubdurlarkim, aningdek bir bayt o‘qurg‘oni ming yaxshi bayt aytqonicha bor. Tabarruk xaysiyatidankim, ul hazratning muborak ismi bu muxtasarda bo‘lg‘ay va ul latoyifdan biri bila ixtisor qililur».

Bu jumlalarda Sohibqironning jasoratli, mard, odil, vatanparvar, elsevar va tadbirkor, shu bilan birgalikda shariat ixlosmandi, adolatparvar, mulohazali inson sifatlariga ega bo‘lganligi ifodalangan. Bu Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda eng yaxshi ibrat sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘rta maxsus ta’lim muassalarida “Yoshlarni chaqiriqqaqa qadar boshlang‘ich tayyorlash” o‘quv fanlariga katta e’tibor berilmoqda, bunda “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanlari orqali o‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tuzilishi, maqsadi va vazifasi hamda taktik, o‘q ochish, saf tayyorgarligi, harbiy topografiya va fuqarolik himoya bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lmoqdalar.

Bo‘lajak vatan himoyachilari harbiy qasamyod, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar nizomlari talablarini tushunib oladilar, harbiy qism qurollanishi va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkib joylashuvi va hayoti bilan tanishadilar; yosh askarlar tayyorlash doirasidagi kerakli amaliy ko‘nikmalarni egallaydi.

Harbiy xizmatga o‘smir-yoshlarni ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy tayyorlash borasidagi vazifalarni hal etishda asosan, xalqimiz mustaqilligi, milliy ozodligi kurashi, qahramonlik yilnomasi, xalq va uning Qurolli Kuchlar shuhratiga sazovar bo‘lgan jangovar va mehnat an’analari bilan tanishtirishni ko‘zda tutadi. Tajriba ko‘rsatadiki, bunday yutuqlar, Vatanning qahramonona o‘tmishi haqidagi hikoyalar o‘quvchilarda vatanparvarlik hissiyotlarini rivojlantirish, ularning fikrlari, qilgan ishlari va harakatlariga faol ta’sir qiladi. Har bir “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” o‘qituvchisi vatanparvarlikning yangi idrok manbaalari dunyosiga yoshlarni olib ketadigan shunday muhitni darsda yaratish kerak.

Mashg‘ulotlarning qat’iy va aniq tashkil etilishi o‘quvchilarni tartib va intizomiga o‘rgatadi, ijrochilik va tashkilotchilik tomonlarini ishlab chiqadi.

Yoshlarni Qurolli Kuchlar xizmatiga tayyorlash tizimida jismoniy tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Bu tushunarli, zero jangovar hayot qiyinchiliklaridan o‘tish, jismonan juda yaxshi rivojlangan, matonatli, mustahkam asabga ega bo‘lgan odamning turli sharoitlarda harakat qilishi lozimdir. O‘quv yurtida harbiy ish asoslari bo‘yicha to‘garaklarni tashkil qilish o‘quvchilarni harbiy ish asoslarini o‘rganishga jalb qilish maqsadini qo‘yyadi. To‘garak yo‘nalishini tanlaganda moddiy baza va mutaxassislar hamda o‘quvchilar qiziqishlari va talablaridan kelib chiqish kerak.

Yoshlarni harbiy hizmatga tayyorlashda harbiy amaliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar muhim o‘rin tutadi. Ularni «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” o‘qituvchisi va jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tashkil qiladi, ularga quyidagi turlar kiradi: o‘q otish, harbiylashtirilgan kross, granata otish, to‘siqlardan o‘tish, suv to‘sig‘idan o‘tish, o‘zoqlik va aniqlikka granata otish, og‘ir tosh ko‘tarish va hokazo. Bu va boshqa musobaqalar turli birikmalarda ishlatilishi mumkin. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanini o‘tishda, odatda may oyida, o‘quv yurti rahbarlari harbiy sport bayrami o‘tkziadi. Bayram rejasi bir oy oldin tuziladi. Bayramda to‘garaklarga rahbarlik qilish uchun “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” o‘qituvchisi, otaliqqa olgan harbiy qism ofiser va serjantlari, zahiradagi ofiserlar taklif qilinadi. Tajriba ko‘rsatadiki, o‘quv yurtlarida, odatda, o‘q otish, harbiy texnik, harbiy tarixiy, topografik, umumharbiy tayyorgarlik bo‘yicha to‘garak tashkil etish maqsadga muvofiq.Bayramga qatnashish uchun o‘quv yurtining barcha o‘quvchilari, o‘qituvchilari, urush faxriylari, harbiy qism va harbiy o‘quv yurtlari vakillarini jalb etish maqsadga muvofiq.

Oilaviy tarbiya o‘sib kelayotgan avlodda vatanga muhabbat hissini rivojlantirish, uning himoya, harbiy jasorat, harbiy kasbga muhabbat ahamiyati haqida to‘g‘ri tushuncha shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Oiladagi vatan uchun kurashlarda halok bo‘lgan qarindoshlar xotirasiga bo‘lgan an’analarga hurmat, ularning jangovar mukofotlari, surat va esdaliklarini avaylab asrashning ahamiyati katta. Vatanimiz qahramonona tarixi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar jangovar yo‘li, armiya va flotdagi xizmati, jangovar harakatlardagi shaxsiy qatnashuvi haqidagi ota bobolar hikoyalari bolalarga katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi, ota bobolari qaysi yillarda, frontda va qaysi mamlakat va shaharlarning ozodligi uchun kurashgan, baynalminal burchini bajarib, ota va katta akalarning Afg‘onistonda qanday jang qilgani, qanday orden va medallar bilan taqdirlangani haqida bolalarning bilishi juda muhim.

Hozirgi sharoitda harbiy xizmatning murakkablashib borishi, bugungi kun jangchisiga qo‘yilayotgan talablarning o‘sishi, o‘quvchi yoshlarning harbiy-

vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha nazar bilan qarash va yondoshishni taqozo etayotir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasidagi qadriyatlar va sifatlarni shakllantirishda asosiy etakchi rol – ta'limga, yaxni o'qitishga tegishlidir. Lekin, bu inkor etilmaydigan nazariy xulosa, fan asoslarini o'qitayotgan o'qituvchilarning uslubiy materiallari va amaliy ishlarida to'la amalga oshirilmayapdi. Umumta'lim fanlari o'qituvchilarining aksariyat qismi harbiy vatanparvarlik tarbiyasi vazifalariga yuzaki yondoshadilar va ko'p hollarda o'zlari o'qitayotgan fanlarning bu vazifalarini echishdagi imkoniyatlarini tasavvur ham qilmaydilar. Vatan himoyachilarini tarbiyalash ishlariga pedagogik jamoalar tomonidan CHYOT rahbari, "Vatanparvar" tashkiloti, Mudofaa ishlari bo'limlari va yoshlar tashkilotlarining tor doiradagi faoliyatlari deb qaraladi. Lekin shu narsa aniqki, agar o'quvchilarning muhim hayot faoliyatlarining biri –o'quv faoliyati tinchlikni saqlash, mamlakat mudofaasini mustahkamlash va uning himoyasiga shay bo'lish kabi yuksak g'oyalar bilan boyitilmasa, u holda ularni vaqtinchalik tadbirlar vositasida o'rnini to'ldirish samarasiz bo'lib chiqishi mumkin. Bugungi kunda keng fikrlovchi, chuqur e'tiqodli insonlargina vatanparvar fuqaro vatan himoyachisi bo'lishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сафоев Х. А. Воспитание студентов в духе военного патриотизма-актуалная педагогическая проблема //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51). – с. 34-35.

2. Самадов В. Т. Основные категории военной педагогики //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51). – с. 35-37.

3. Kahramanovich K. K. Raising the patriotic spirit of young people at the Faculty of Military Education //International Journal Of Language Learning And Applied Linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 199-201.

OLIY O'QUV YURTLARI HARBIY KAFEDRALARINING TARIXI

dotsent Idiyev Ergash Idievich

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya: *Qurolli Kuchlarning harbiy qudrati, jangovar qobiliyati ko'plab omillardan tarkib topadi. Shaxsiy tarkibning miqdori va sifati. Bu sifat uning professional darajasi, ahloqiy-ruhiy holati, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi. Qurolli Kuchlar harbiy qudratining eng muhim qismi bo'lgan qurol-yarog'lar va harbiy texnikaning miqdori va sifati masalasidir. Harbiy infrastruktura, Qurolli Kuchlardan jangovar holatda foydalanishda uning roli beqiyosdir.*

Kalit so'zlar: *oliy o'quv yurtlari, pedagogik texnika, harbiy kafedra, tarbiya, strategiya, faoliyat, milliy o'zlikni anglash, bilim, ko'nikma, zamonaviy axborot texnologiyalar.*

O‘zbekiston Respublikasi hozirda kuchli davlat negizida kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga intilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev “bu yo‘l – erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zamini” deya ta’kidlaydi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotda ulkan islohotlarni boshlagan, yangi rivojlanish yo‘lidan borayotgan har bir davlat va jamiyat islohotlarning muvaffaqiyatini ta’minlashda fuqarolar siyosiy faolligining oliy darajasi bo‘lgan siyosiy madaniyatga katta ehtiyoj sezadi. O‘zbekiston ham hozirda ulkan islohotlarni amalga oshirayotgan va ayni vaqtda uning muvaffaqiyatini ta’minlashda fuqarolardagi siyosiy madaniyatga katta ehtiyoj sezayotgan davlatdir.

Tarixning barcha davrlarda jamiyatda biror-bir yangilik - islohotni amalga oshirish mushkul ish bo‘lgan. Chunki, har bir jamiyatda ongli ravishda tushunib yangilikni qabul qiluvchi va uni qo‘llab-quvvatlovchi kishilar qatorida islohotlar zaruriyatini tushunmaydigan, konservativ kishilar toifasi ham mavjud bo‘lganki, bunday kuchlar o‘zlarining loqaydliklari, tushunmasliklari hamda siyosiy tomondan bilimsizliklari tufayli doimo jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘lib kelgan. Mazkur kuchlar jamiyat taraqqiyotiga to‘g‘onoq bo‘lishda tarixan tashqi kuchlar bilan tez til topishgan, ularning manfaati uchun jamiyat manfaatlarini toptagan.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, sayqallanib kelgan milliy g‘oyamizning tub negizlari bo‘lgan hayotiy misollarga e’tibor beraylik. Yurtimiz zaminida yashab o‘tgan jasur ayol – To‘maris qudratli dushmanning hiyla-nayranglari oldida o‘zini yo‘qotib qo‘ymasdan, adolat uchun jangga kirgan. Shu tariqa lashkarining soni jihatdan o‘zidan ancha ustun bo‘lgan yovning ustidan g‘alaba qozondi. Qo‘lida na qurol, yonida na lashkari bo‘lgan oddiy cho‘pon Shiroqning jasoratini olaylik. U o‘zining yov qo‘lida o‘lishini oldindan bilgan bo‘lsa-da, muqaddas Vatan tuprog‘i dushman oyoqlari ostida toptalmasligi uchun ongli ravishda jasoratga qo‘l uradi – yov qo‘shinini kimsasiz dashti biyobonga olib borib, uni o‘limga mahkum etadi, o‘zi ham halok bo‘ladi. Lekin ona yurtini bosqinchilardan saqlab qoladi. Kelgusi avlodlar uchun ma’naviy ibrat bo‘ladigan tengsiz jasorat namunasini meros qilib qoldiradi. Buyuk vatandoshimiz – Jaloliddin Manguberdi dunyoning teng yarmini o‘ziga bo‘ysundirgan, askarlari bilan yer yuzini mo‘ri malaxdek bosgan mo‘g‘ul qo‘shiniga qarshi 12 yil davomida muttasil kurash olib borgan. Holbuki, Jaloliddin Manguberdining imkoniyatlari Chingizxonnikiga nisbatan juda cheklangan bo‘lgan – uning ixtiyorida oz sonli lashkar va qurol-yarog‘ bo‘lgan. Shunga qaramay, u qudratli yovga qarshi mardona jang qilgan. Sohibqiron bobomiz Amir Temurning mo‘g‘ullar istilosi ostida yotgan Turon zaminni ozod qilib, bu erda ulkan saltanat barpo etganini esga olaylik. Albatta, ulug‘ ajdodimizga xalqni dushmanga qarshi oyoqqa turg‘izish, uning haq-

huquqini ta’minlash oson bo‘lmagan. Buning uchun bochqinchilarga qarshi tinimsiz kurash olib borish, o‘z hayotini jiddiy xavf-xatarlarga qo‘yishga to‘g‘ri kelgan.

Qurolli Kuchlarning harbiy qudrati, jangovar qobiliyati ko‘plab omillardan tarkib topadi.

Birinchisi - bu, shaxsiy tarkibning miqdori va sifati. Bu sifat uning professional darajasi, ahloqiy-ruhiy holati, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi.

Ikkinchisi - bu, Qurolli Kuchlar harbiy qudratining eng muhim qismi bo‘lgan qurol-yarog‘lar va harbiy texnikaning miqdori va sifati masalasidir.

Uchinchisi - bu, harbiy infrastruktura bo‘lib, Qurolli Kuchlardan jangovar holatda foydalanishda uning roli beqiyosdir.

To‘rtinchisi - sanoatni tezda qayta qurish va safarbarlik rejasi topshiriqlarining bajarilishini taxminlash uchun zamin hozirlash. Safarbarlik resursini qabul qilish va sharoitga moslashtirish.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak 1920 yilda M.V.Frunze tashabbusi bilan Turkiston universiteti oldiga harbiy kafedrani tashkil etish savollari qo‘yiladi. 29 aprelda TURKDUni boshqarish yig‘ilishida G.N.Cherdansev boshchiligida harbiy kafedra tuzish ishlari bo‘yicha savollar ko‘rib chiqildi. Revolyusion harbiy sovet respublikasi va xalq ta’limi komissariatining 1921 yil 22 fevraldagi № 429 qaroriga asosan harbiy kafedra beshta bo‘lim (asosiy shtat, artilleriya, harbiy muhandislik, harbiy xo‘jalik, umumiy)dan iborat holda tashkil qilinadi.

Dunyoda birinchi marta SSSR oliy o‘quv yurtlarida 1920-yillarning ikkinchi yarmida fuqarolik institutlari qoshidagi harbiy tayyorgarlik tuzilmalari paydo bo‘ldi. SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining qaroriga muvofiq, 1926-27 o‘quv yili boshidan boshlab 238 fakultetga ega 135 ta universitetda (texnikumlarda) harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari boshlandi va ular 80 mingga yaqin talabalarni qamrab oldi. Shu bilan birga, universitetlar bir xil darajada muhim vazifani - harbiy kafedralarda SSSR Qurolli Kuchlari uchun zahiradagi ofitserlarni tayyorlashni hal qilishlari kerak edi.

Keyinchalik ular ko‘plab gumanitar ta’lim muassasalarida ham tashkil qilina boshladi. Bunday tuzilmalarni yaratishdan maqsad o‘quv yurtlari talabalarini Qizil Armiyaning, keyinchalik Sovet Armiyaning kichik komandirlari sifatida urush davrida qurolli kuchlar safiga chaqirish va kichik komandirlik lavozimni egallashga qodir zahira ofitserlari sifatida tayyorlash edi.

Dastlab harbiy kafedralarda umumiy profildagi kichik ofitserlar tayyorlanar edi. Keyinchalik, har xil turdagi qo‘shinlar (kuchlar), maxsus kuchlar (maxsus xizmatlar) va Qurolli Kuchlar turlarining rivojlanishi, SSSR Qurolli Kuchlarida zamonaviy texnika yutuqlarini joriy etish bilan bog‘liq hollar tufayli, kichik

ofitserlar tayyorlash muayyan harbiy mutaxassisliklar asosida amalga oshirila boshladi, shu jumladan harbiy siyosiy xodimlar ham.

Ulug‘ Vatan urushi yillarida SSSR oliy o‘quv yurtlarida 1941 yilgacha tayyorlangan kichik zahiradagi ofitserlar safarbarlik davrida kichik komandirlar va siyosiy xodimlar lavozimlarini ma’lum darajada to‘ldirdi. Keyinchalik bu tajriba muvaffaqiyatli deb topildi va urushdan keyingi davrda SSSR o‘quv yurtlarida zahiradagi kichik ofitserlarni tayyorlash yanada rivojlandi.

1960-yillardan boshlab urushdan keyingi Sovet Ittifoqida faoliyat ko‘rsatgan 890 ga yaqin universitetning 497 tasida universitetlar harbiy kafedralar mavjud edi (1980-yillarning oxirida harbiy kafedralar soni 441 taga qisqartirildi).

1980-yillarning boshlariga kelib faqat juda kam oliy ta’lim (asosan ijodiy) muassasalarida harbiy kafedra yo‘q edi.

1990-yillarning boshidan oliy o‘quv yurtlarida zahiradagi kichik ofitserlarni tayyorlash qisqara boshladi.

Bugungi kunda rezerv va zahiradagi kichik ofitserlarni tayyorlash tartiblariga ba’zi o‘zgartirishlar kiritildi. O‘zbekistonda 2020 yildan oliy o‘quv yurtlaridagi mavjud harbiy kafedralar tugatilib, O‘zbekiston Milliy universiteti qoshida yagona harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi tashkil qilindi va unda O‘zbekiston Qurolli Kuchlariga kerakli bo‘lgan asosiy harbiy mutaxassisliklar bo‘yicha zahira ofitserlari tayyorlanmoqda.

Rivojlangan dunyo mamlakatlarida ham fuqarolik universitetlarida rezerv va zahira ofitserlari tayyorlash yo‘lga quyilgan.

2008 yilda Rossiya Qurolli Kuchlarini isloh qilish natijasida faqat bir necha o‘nlab oliy o‘quv yurtlarida harbiy kafedralar saqlanib qoldi.

2008 yilda fuqarolik ta’lim muassasalari qoshida tashkil etilgan harbiy o‘quv markazlari harbiy kafedralar va harbiy tayyorgarlik fakultetlaridan farq qilar edi, ya’ni ular zahiradagi ofitserlarni emas, balki shartnoma asosida xizmat qiladigan ofitserlarni tayyorlashi bilan ajralib turardi. Harbiy tayyorgarlik markaziga o‘qishga kirgan talabalar oliy o‘quv yurtini tamomlagandan so‘ng kamida 3 yil Qurolli Kuchlar safida (muddatli harbiy xizmatda) xizmat qilish majburiyatini olishlari to‘g‘risida shartnoma tuzardilar. Shunday qilib, fuqarolik ta’lim muassasasi negizida zahiradagi ofitserlar emas, balki Qurolli Kuchlar uchun ofitserlar tayyorlash amalga oshirilardi.

2015 yildan Rossiya fuqarolik universitetlarida yangi harbiy kafedralarni tashkil etish jarayoni davom etdi. 2015 yilda ularning soni 70 tani, 2016 yilda 75 tani, 2017 yilda 87 tani tashkil etdi.

2018 yil avgust oyida federal qonun imzolandi, u 2019 yildan boshlab Rossiya fuqarolik universitetlaridagi barcha harbiy kafedralarni tugatib, ularni harbiy tayyorgarlik markazlariga aylantirdi.

2019-yildan boshlab talabalar o‘rtasida ham zahiradagi ofitserlar, ham kontrakt bo‘yicha ofitserlarni tayyorlash faqat 93 ta fuqarolik oliy o‘quv yurtlari huzuridagi yangi tashkil etilgan harbiy tayyorgarlik markazlarida amalga oshirilmoqda.

Harbiy tayyorgarlik markazi - Rossiya Qurolli Kuchlarida yoki qonun bilan harbiy xizmatni ijro etuvchi boshqa federal organlarga ofitser kadrlarni tayyorlash uchun va shuningdek zahiradagi ofitserlar, oddiy askarlar va serjantlarni tayyorlash uchun shakllantirildi.

Federal davlat oliy kasbiy ta’lim muassasalari huzuridagi harbiy tayyorgarlik markazlarida fuqarolarning harbiy tayyorgarligiga umumiy rahbarlik Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining Kadrlar Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qo‘shma Shtatlardagi 1000 dan ortiq fuqarolik universitetlari zahiradagi ofitserlarni tayyorlash kurslari (*Reserve Officers' Training Corps (ROTC))*ni o‘qitadi va zahiradagi ofitserlarni tayyorlash Korpusi bilan hamkorlik qiladi. 2012 yilda dasturda 53 mingdan ortiq ishtirokchi bor edi. Har ikki jinsdagi AQSh fuqarolari 17 yoshdan (dastur tugagunga qadar ular 27 yoshdan oshmasligi kerak), sudlanmagan, jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha test sinovlaridan va tibbiy komissiyadan o‘tgan holda o‘qiydilar. Muvaffaqiyatli o‘qiydigan kursantlarga yillik 5 ming dollargacha maosh to‘lanadi, shuningdek, oliy ta’lim xarajatlarini to‘liq yoki qisman qoplaydi (yiliga 40 ming dollargacha). Ta’limning to‘liq sikli to‘rt yil: birinchi ikkitasi majburiy asosiy ta’lim, uchinchi va to‘rtinchisi - ixtisoslashtirilgan. Ofitser kurslari uchun o‘rtacha haftada bir kun ajratiladi. Kamida bir marta kursantlar o‘rtacha to‘rt hafta davom etadigan yozgi lagerlarga yuboriladi. Dasturni tugatgandan so‘ng uning ishtirokchilari kichik ofitser unvonini oladilar. Faqat asosiy ta’limni tugatgan va stipendiya olmagan talabalar harbiy xizmat qila olmaydilar, to‘liq siklni tugatganlar to‘rt yildan o‘n yilgacha muddatga shartnoma tuzishlari mumkin. Bir zahiradagi ofitserni tayyorlash, stipendiyani hisobga olmaganda, o‘rtacha 68 ming dollarga tushadi.

Shu tarzda tayyorlangan ofitserlar Qurolli Kuchlarning barcha bo‘linmalarida xizmat qiladi (garchi AQSh dengiz piyodalari korpusi va AQSh qirg‘oqni qo‘riqlash korpusi o‘z dasturlariga ega bo‘lmasa ham, bitiruvchilar u yerda ham xizmat qiladi).

2010 yilda AQSh armiyasi yosh ofitserlarining 38,5 foizi ushbu tizimda tayyorlangan, shundan 1,8 foizi dengiz piyodalari (zahiradagi ofitserlarni tayyorlash dengiz piyodalari korpusi orqali), 16,7 foizi harbiy dengiz floti, 38,1 foizi harbiy havo kuchlarida va umumiy holda mudofaa Departamenti ofitserlarining 30 foizini tashkil qilgan.

Buyuk Britaniyada 100 dan ortiq universitet va kollejlar harbiy kadrlar tayyorlash bilan shug‘illanadi. Jarayon universitet ofitserlar tayyorlash korpusi

tomonidan muvofiqlashtiriladi. Talabalarni faqat quruqlikdagi qo‘shinlarda xizmat qilishi uchun tayyorlanadi. 2011 yilda dasturda 4 mingdan ortiq kadetlar bor edi. Kurslar jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha test sinovlaridan va tibbiy ko‘rikdan o‘tgan 25 yoshdan katta bo‘lmagan o‘g‘il-qizlar uchun mo‘ljallangan. Kurslarga istalgan Millatlar Hamdo‘stligi davlatlarining fuqarolari o‘qishga kirishi mumkin. Dastur uch yil davom etadi. Barcha ishtirokchilarga kurs va ish yukiga qarab haftasiga 115 dan 240 funt sterlinggacha stipendiya to‘lanadi, bundan tashqari ular yiliga 1500 funt sterlinggacha bo‘lgan bir martalik to‘lovlarni olish huquqiga ega. Mashg‘ulotlar (nazariy va amaliy) odatda haftada bir marta o‘tkaziladi. Yig‘inlar semestrda ikki marta dam olish kunlari va har yozda ikki hafta davomida o‘tkaziladi. Bitiruvchilar odatda ikkinchi leytenant unvonini olishadi va bitirgandan keyin xizmat majburiy emas. Dasturga yiliga taxminan 30 million funt sterling ajratiladi.

Tailanddagi aksariyat universitetlarda rezervistlar kursini o‘tash mumkin. 2013 yilda dasturda 300 ming talaba ishtirok etdi. Talabgor (ikkala jins vakillariga ham ruxsat etilgan) o‘sha mamlakat fuqarosi bo‘lishi, mustahkam sog‘liq va yuqori o‘quv ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kerak. Talabgorning maksimal yoshi 21 yosh. Standart kurs uch yil davom etadi. Haftada bir kun mashg‘ulotlar uchun ajratilgan, yiliga bir marta bir necha kun davom etadigan o‘quv yig‘inlari o‘tkaziladi. Bitiruvchi serjant unvonini oladi va ikki yillik harbiy chaqiruvdan ozod qilinadi. Agar talaba asosiy dasturni bajara olmasa, uning majburiy harbiy xizmati qisqartiriladi. Kengaytirilgan kurs besh yil davom etadi, uning bitiruvchilari ikkinchi leytenant unvonini olishadi.

Belarus Respublikasida rezerv va zahiradagi ofitserlarni tayyorlash o‘quv dasturi 2 yil muddatga mo‘ljallangan bo‘lib, dastlabki bosqichda OTM talabalari kichik komandirlar tayyorlash o‘quv dasturi bo‘yicha harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlariga jalb qilinadi.

Kelajkda Qurolli Kuchlarga zamonaviy qurolllarning kirib kelishi natijasida oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanadigan zahira ofitserlariga talab kuchaya boshlaydi. Xozirda aniq uradigan zamonaviy qurollar qo‘llanilishi natijasida yuqori malakali mutaxassislarga talab oshmoqda. Suriyadagi jangovar harakatlarda, Ozarboyjon va Armaniston o‘rtasida bo‘lgan to‘qnashuvlarda bunga misol keltirish mumkin. Suriyada Rossiya Qurolli Kuchlari tomonidan qo‘llanilgan zamonaviy qurollar IShID jangarilari ustidan g‘alaba qozonishga imkon yaratdi. Ozarboyjon Qurolli Kuchlari ham Turkiya yordamida zamonaviy qurollarni qo‘llagan holda Armaniston ustidan g‘alaba qozondi.

Yuqoridagi holatlardan ko‘rinib turibdiki hozirda zamonaviy qurollar masofadan boshqarilmoqda va bu ko‘proq aqliy mehnat talab qiladigan mutaxassislarga murojaat qilishini ko‘rsatadi, ya’ni oliy o‘quv yurtlarini tugatgan zahiradigi ofitserlarni Qurolli Kuchlar tarkibiga ko‘proq xizmatga olishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–Toshkent:O‘zbekiston, 2016. –8-b.
2. Milliy g‘oya va rahbar ma’suliyati. –Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2007. – 533-b.
3.Военная подготовка в гражданских ВУЗ-ах за рубежом. https//ru.wikipedia.org
4. Асилов Н.Т. Военная подготовка в высших учебных заведениях Монография. 2016 8.

AMIR TEMUR FAOLIYATIDA HARBIY AN’ANALARNING PSIXOLOGIK BAYONI

Kosimov X.J.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti
dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya:*Ushbu maqolada Amir Temurning adolatparvar hukmdor, yuksak insoniy fazilatlar egasi ekanligi, hayotiy, harbiy tajribasi haqida fikrlar yuritilgan. Shuningdek Amir Temurning jang qilish usullari va harbiy an’analarining ilmiy jihatidan tahlil qilinganligi keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *adolatparvar hukmdor, sarkarda, qonunshunos, harbiy mahorat, harbiy tajriba, jang usullari, jamoa, xalq urf-odatlari, qadriyatlar, an’analar, harbiy an’analar, jangovar bayroq, jangovar ruh, jangovar musiqa.*

Аннотация: *В данной статье даны сведения о государственной деятельности Амира Темура, его высказывания о высоких человеческих качествах, о жизненном и военном опыте. Также с научной точки зрения представлены военные традиции и методы ведения боя Амиром Темуром.*

Ключевые слова: *Справедливый правитель, полководец, военное искусство, военный опыт, методы боя, община, обычаи народа, ценности, традиции, военные традиции, боевое знамя, боевой дух.*

Annotation:*This article provides information about the just ruler Amir Temur, his statements about high human qualities, life and military experience. Also, from a scientific point of view, military traditions and methods of combat are presented by Amir Temur.*

Key words: *Fair ruler, general, martial art, military experience, methods of combat, community, customs of the people, values, traditions, military traditions, battle banner, fighting spirit, battle music.*

Harbiy an’analarning tadqiq etilishining dolzarbligini asoslashda, zamonaviy qurolli kuchlarda xizmat-jangovar vazifalarning keskin bo‘lishi, o‘sib boruvchi qiyinlik darajasi, intensivligi, harbiy xizmatchilarning axloqiy-jangovar tayyorgarlikni oshirish ehtiyoji, yangilanish zaruriyati, ya’ni harbiy xizmatchilar orasida tarixiy meros sifatida saqlanib kelayotgan harbiy an’analarni o‘rganish katta

ahamiyatga egadir. Bunda harbiy xizmatchilarning tashqi faolligini aniqlab beruvchi motivatsion omillar, harbiy kasbning axloqiy tomonlari: Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, harbiy xizmat, harbiy xizmat burchiga va harbiy qasamyodga sodiqlikda aks etishida namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Harbiy an’analarni nazariy-metodologik asosini o‘rganishda quyidagi olimlarning izlanishlari ahamiyatga molikdir:A.A.Zubkova, M.N. Kokoeva, A.M. Kuznesova, V.I. Pashkov, O.I. Torkunova, O.V. Shevchenko, A.Sotivoldiev, A.M.Kambarov, R.S.Samarov va boshqalar.

O.V. Shevchenkoning fikriga ko‘ra, “an’analar bu-aniq barqarorlik, takrorlanib turuvchi normalar, qadriyatlar, namunali fikrlar, harakatlar, ya’ni bevosita bog‘langan xolda bir avloddan ikkinchi avlodga ehtiyojlar asosida meros bo‘lib qolgan, jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan, jamiyatning o‘zi, armiya va shaxsdir. Harbiy an’analar asosan jamiyat tan olgan, davlat uchun ahamiyatli va Qurolli Kuchlar hayoti uchun zarur qadriyatlar, ideallar, ustanovkalar, axloqiy norma va qonunlar, tinchlik va urush davrida ularning hayoti va faoliyatlarini tartibga solishga asoslangan” deya fikr yuritib o‘tgan [2,10 B].

Harbiy an’analar-nizom, qo‘llanma va yo‘riqnomalarda belgilab berilgan, kundalik sharoit, bayram tantanasi kabi hollarda amalga oshiriladigan harbiy udumlar. Harbiy taomillar jangchilar ongida Vatanga qasamyodning muqaddasligi va unga sodiq bo‘lish lozimligini shakllantiradi, Vataniga, xalqiga cheksiz sadoqat, do‘stona armiyalarga nisbatan jangovar o‘rtoqlik, xizmatga nisbatan halol va tirishqoqlik sifatlarini, yurtining dushmanlariga qarshi jonbozlarcha kurashishga shayligini tarbiyalaydi. Harbiy taomillar jumlasiga:

- harbiycha salom berish;
- bo‘ysunuvchi shaxsining komandiriga, boshliqqa bildiruv berishi;
- qorovullar tarqatuvi;
- Jangovar Bayroqni olib kirish;
- mushak otish;
- harbiy orkestr ijrosi ostida kuzatib borish;
- bayroqni engashtirish, unga sadoqatni bildirish maqsadida tiz cho‘kish;
- harbiy xizmatchilarga tantanali tarzda qurol-aslaxa va harbiy texnika topshirilishi kabi amallar kiradi. Bundan tashqari nizomga oid hujjatlarda ko‘rsatilmagan ba’zi bir harbiy taomillarga ham rioya etiladi, misol uchun:
- urush qatnashchilari va O‘zbekiston Qahramonlarini qutlash;
- harbiy xizmatga yangi chaqirilgan askarlarni kutib olish;
- xizmat muddatini munosib o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni kuzatish va xokazo [3, 85B].

Harbiy an’analarni tadqiq etar ekanmiz, o‘zbek xalqi milliy armiyasining tarixiy davrlari, yosh avlodni voyaga yetkazishda qahramonlik an’analarining

shakllanishi, tarkib topishi, o‘rni haqida ilmiy jihatdan o‘rganilsa ko‘plab imkoniyatlarni ochib beradi.

Bizning qadimiy diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini butun dunyo tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu muqaddas zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, hukmdor va sarkardalar yetishib chiqqan, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan buyuk shaxslarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Shu sababdan ham ana shunday iste’dodli, ilm-ma’rifat, adolatparvar hukmdor, yuksak insoniy fazilatlar egasi sifatida Vatanparvarlik va mardlik aks etgan ishlari bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan adolatparvar hukmdor sifatida butun dunyoda dong taratgan Amir Temur hayoti va ijodini o‘rganish, bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek vazifani amalga oshirishda muhim madaniy manbadir. U o‘z davrining iste’dodli hukmdori, o‘ta zukko, ilm-ma’rifatni qadrlovchi shaxs sifatida kelajak avlod uchun namuna bo‘la oladigan buyuk shaxsdir [4,85 B].

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Mirziyoev Shavkat Miromonovichning Erkin va farovon, demokratiya O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz asarida ham Amir Temurning tajribasini misol qilib quyidagi fikrni bayon etgan. *Xalqimiz azaldan yuksak qadrlab keladigan, hamma narsadan ustun qo‘yadigan adolat tuyg‘usini hayotimizda yanada keng qaror toptirishni biz birinchi darajali vazifamiz, deb hisoblaymiz. Bu borada buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: «Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin!» degan chuqur ma’noli so‘zlari har birimiz uchun hayotiy e’tiqodga aylanishi zarur.* Bu fikrlardan kelib chiqib albatta yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o‘z davrining jasur va mard, adolatparvarligi bilan barchaga o‘rnak bo‘lgan buyuk hukmdor Amir Temurning hayotiy va harbiy tajribasini o‘rganilsa albatta yuksak natijalarga eirishish imkonini beradi [1,10 B].

Muhammad Tarag‘ay Bahodirning o‘g‘li Amir Temur Qashqadaryo vohasining Kesh (hozirgi Shaxrisabz) tumanidagi Xo‘jailg‘or qishlog‘ida, barlos qavmi begi bo‘lgan Amir Tarag‘ay xonadonida 1336 yilda tavallud topdi. Yoshligidan boshlab dunyoviy bilimlarga qiziqdi, Qur’onni yod oldi. Harbiy mashqlarga nihoyatda qiziqdi, hadis ilmini o‘rgandi. Imon-e’tiqodli, halol-pok inson bo‘lib yetishdi.

Saltanatni boshqarishda Amir Temur adolatpar hukmdor sifatida boshqaruvni tashkil qilgan. “Kuch –adolatda” so‘zlari Amir Temur uzugiga o‘yib yozilgani va davlat muhrida ham aks etgan bejiz emas. “Mamlakat zulmga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi”, deb yozgandi Amir Temur o‘z “Tuzuklar”ida. Sohibqiron bunga qattiq amal qilardi. Adolatning kuchi shunchalar

yuksak ediki, agar mamlakatda biror odam bir tovoq oltin yo kumushni boshiga qo‘yib, mag‘ribdan mashriqqacha borsa, hech kim unga qo‘l cho‘zmas, oltin yo kumushdan bittasi ham kamaymasdi [5,10 B].

Shu bois “Temur tuzuklari”, “Amir Temur o‘gitlari” va Amir Temur zamonida yozilgan asarlar, Amir Temur faoliyatini tadqiq qilayotgan olimlarning asarlarini qunt bilan mutolaa qilsak ko‘plab ma’lumotlarga duch kelamiz. Xususan, Amir Temurning ko‘p yaxshi sifatlari to‘g‘rilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, iste’dodli me’mor, notiq, ruhshunos, o‘z yurti va xalqi urf-odatlari, qadriyatlari va an’analarini hurmat qiluvchi insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan shaxs timsolida ko‘rishimiz mumkin. Amir Temurning pand-nasihatlari, o‘gitlari va vasiyatlari yosh avlodga Vatanni, millatni sevishga, uni himoya qilishga, adolotli, aqlli, zakovatli, mard bo‘lishga undaydi [4,86 B].

Ta’kidlash joizki, Amir Temurning jangu-jadallarda muvaffaqiyatga erishishiga uning hayotiy, harbiy tajribasi, jang qilish usullarini qo‘llashga ijodiy yondashuvi va harbiy an’analarga qat’iy rioya qilinganligi sabab bo‘lgan. Amir Temurning harbiy faoliyatini o‘rgangan olimlar o‘z asarlarida ko‘plab izlanishlarni olib borganlar.

Harbiy an’analarni yoritar ekanmiz, jangovar tajribani qo‘shinlarni tayyorlash jarayoniga keng tadbiq qilish an’anasi sifatida Mixail Ivaninning “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur harbiy san’ati, strategiya va taktikasi” asaridan misol keltirgan xolda, quyidagilarni aytib o‘tish joizdir. Amir Temur o‘zining o‘ta ehtiyotkorligi va mulohazakorligiga qaramasdan, Iskandar Zulqarnayn kabi xuddi oddiy jangchidek eng mardonavor ishlarga ham qo‘l urishni sevardi. Kunlardan bir kun Gang daryosining qarama-qarshi qirg‘og‘iga 10 mingga yaqin hind piyoda va otliq jangchilari turganini eshitib, u o‘z ixtiyorida bo‘lgan ming kishilik xos navkarlari bilan daryodan suzib o‘tib, dushmanga tashlandi va ularni tumtaraqay qochishga majbur etdi.

Temurning Hindistonga katta o‘ljani qo‘lga kiritish maqsadida yurish boshlaganini yuqoridagi voqea misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Mana shu to‘qnashuv oxirlarida uning ixtiyorida atigi 100 kishi qolgan edi, xolos. Ular gebrlarning ko‘p ming kishilik to‘dasi bilan tog‘lik joylardan iborat, Gangning sharqiy qirg‘og‘igacha tutashuvchi “Gang jomi” degan yerda jang qilishlari kerak edi. Temur shaxsiy qo‘riqchilarining qolgan qismi esa tuya va mollarga ortilgan oltin va kumush ziynatlaridan iborat katta o‘ljani qo‘lga kiritib, uni qo‘riqlash uchun ajratilgan edi. Temurning baxtiga uning asosiy kuchlari yetib kelib, uni xavfli vaziyatdan qutqarib qoldi.

Amir Temur yetib kelgan qo‘shinlariga daraga hujum boshlashni buyurdi. Astoydil himoyaga otlangan gebrlar Temur qo‘shinlari hayqirig‘i, karnay va nog‘ora

sadolarining tog‘dagi aks sado bilan qaytishidagi shovqindan shu qadar qo‘rqib ketdilarki, natijada bor-yo‘qlarini tashlab, har tarafga qochishga majbur bo‘ldilar. Umuman, Hindiston aholisi Amir Temur qo‘shinlaridan haddan ortiq darajada qo‘rqib qolganidan, yuqoridagi usul bilan tog‘ daralaridan qilingan hujumlar unga doimo g‘alaba keltirgan [6,252 B].

Yuqoridagi voqea misolida ham harbiy an’analarning sarkardalik faoliyatdagi ahamiyatini ko‘rishimiz mumkin.

Amir Temur, Temuriylar, Shayboniylar davrida yurish yoki jangdan oldin qo‘shinni ko‘rikdan o‘tkazib, uning jangovar ruhi va tayyorgarligini aniqlash an’ana tusiga kirgan. Ko‘rik qo‘shinning bo‘lajak jangga shayligini nazardan o‘tkazish qatori, unda qatnashayotgan chet el elchilari yuragida vahima va qo‘rquv paydo qilish singari taktik vazifani ham bajargan. Ko‘rikdan asosiy jangovar qismlar qatori, ularning ortidan boruvchi og‘ir karvon o‘qruq // o‘rug‘ (oboz) ham o‘tkazilgan. O‘g‘ruqda olib yuriladigan jangchilarning ko‘rpa-to‘shagi partol istilohi bilan nomlangan. Turli-tuman kosiblar, hunarmandlar, hatto, ko‘chma hammomlar jangchilarga xizmat ko‘rsatgan. Abdurazzoq Samarqandiy 1405-yilning aprelida Umar mirzo g‘o‘lning besh ming kishidan iborat og‘ruqidan tashqari, har biri 500 otliqdan tashkil topgan 47 ta mukammal qo‘shinni ko‘rikdan o‘tkazganini qayd etgan [7,50 B].

Shuningdek tarixchi olim H.Dadaboevning, Amir Temurning harbiy mahorati asarida, Sohibqironning tarixda ko‘plab amalga oshirgan ishlarini ko‘rish mumkin. Safar arafasida Temurbek an’anaviy ravishda o‘z pirlari va rahnamolari huzuriga sof ishonch hamda pok irodat bilan tashrif buyurib, ziyorat shartlarini bajo keltirgan. Muqaddas va muborak mozorlarni tavof qilgan. Mayib-majruhlarga, muhtoj va yo‘qsillarga nazru sadaqalar ulashgan [8,20 B]. Bu ham an’ana sifatida sohibqironning doimiy ado etilib keladigan ishlar qatoriga kirgan.

Shu bilan birga, farmoni oliyga muvofiq askarlar boshdan-oyoq temir sovutlar kiyib, zarur qurol-yarog‘larni olib otga minganlar, ko‘rik uchun saflarni rostlaganlar. Maydonda har bir qismga taalluqli ko‘k, sariq, binafsha, qizil, qora rangdagi bayroq va yalovlar xilpirab turgan. Harbiy musiqachilar ijro etayotgan jangovar musiqalar ostida oliy bosh qo‘mondon qo‘shin qismlarini birin-ketin ko‘zdan kechirib chiqqan. Saf tortib turgan jangchilar nayzalarini baland ko‘tarib, hammalari bir maromda kuchli na’ra tortib, suron solib, yurishga shay ekanliklarini izhor qilganlar [8, 22 B]. Bunday harakatlar Amir Temur sarkardalari orasida harbiy an’ana sifatida amalga oshirilgan.

Tarixchi olim H.Dadaboevning Amir Temurning harbiy mahorati asarida quyidagi voqealarda aks etgan harbiy an’analarni ham ko‘rish mumkin. Yirik muhorabalar paytida dastasi uchiga mahcha-yarim oy shakli qadalgan jangovar bayroq va tug‘lar bilan bezatilgan oliy bosh qo‘mondonning borgohi balandlikka

tikilgan. U yerdan qism va bo‘linmalarning maydondagi harakati, jangning borishi Temurbek tomonidan kuzatib turilgan. Odatga ko‘ra borgoh oldida harbiy orkestr askarlarni mardlikka rag‘batlantiruvchi, ularning jangovar ruhini ko‘taruvchi kuylarni tinimsiz chalib turgan.

Sohibqiron jang boshlanishidan avval, odaticha fath namozini ado etgan. Tangridan madadu najot tilagan. So‘ngra chaqmoqmonand saman otiga viqor bilan minib, savashga bevosita qo‘mondonlik qilgan. Jang ko‘p hollarda, qarama-qarshi taraflarning yakkama-yakka olishuvi bilan boshlangan. Bahodirlarning jasorati va shaxsiy tayyorgarligi jangning qanday yakunlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan. Pahlavonlarning soni aytarli darajada katta bo‘lmagan. Bahodirlar qo‘shinning zarbdor kuchini tashkil etgan va ularning halokati odatda mag‘lubiyatga olib kelgan [8,30 B].

Shu bilan birga, sohibqiron jang maydonini tanlashda bevosita ishtirok etgan. Janggohning tekis, keng va qo‘shin qismlarini joylashtirishga qulay bo‘lishi talab qilingan. Ayniqsa, ma’rakagohning ichimlik suv manba’iga yaqin bo‘lishi hamda razm vaqtida quyosh nurining jangchilar ko‘ziga tushmasligi maqsadga muvofiq hisoblangan [9,53 B].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davrida harbiy yurishlardan oldin qo‘shinni ko‘rikdan o‘tkazib, uning jangovar ruhi va holatini aniqlash ham an’ana tusiga kirgan. Bunday an’analar jangchi bahodirlarning jangovar ruhini ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan. Demak, Amir Temurning faoliyatini va barcha sohadagi merosini chuqur o‘rganish ahamiyatga egadir. Jamiyatda faoliyat yuritayotgan har qanday soha uchun zarur bo‘lgan hayotiy tajribalar aynan buyuk Amir Temur faoliyatidan o‘rin olgandir.

Foydalanilgan manbalar

1. Mirziyoev, Sh.M Erkin va farovon, demokratiya O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. /Sh.M. Mirziyoev- T.: “O‘zbekistan” NMIU, 2016.- 566 b.

2. Samarov R.S va boshqalar. Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati/Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020,- 384 B.

3. Abidjanova M.A. Amir Temurning sarkardalik faoliyatida harbiy an’analarning o‘rni. /«Sudebno-pravovые reformы: natsionalnыy i zarubejnыy opыt»: materialы mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. II chast (30 sentabrya 2021 goda).- Tashkent: Universitet obщestvennoy bezopasnosti Respubliki Uzbekistan, 2021.- 265 str.

4. Muhammad Ali Amir Temur solnomasi.- T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.- 10 B.

5. Mixail Ivanin, “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur harbiy san’ati, strategiya va taktikasi”.- T.: Yangi asr avlodi, 2017.- 304 B.

6. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn. II jild. 1405-1429 yillar voqealari.- T.: “O‘zbekiston”, 2008. - 59 b.

7. H.Dadaboev, Amir Temurning harbiy mahorati.- T.: Yozuvchi nashriyoti, 1996.- 93 B.

8. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. - 406 B.

CHET TILLARINI INTENSIV O‘RGATISHNING LINGVOPSIXOLOGIK INNOVATSION USULLARI VA ULARNI O‘QUV JARAYONIDA QO‘LLASH

Murodova Yorqinoy Tojiyevna
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada chet tillarini intensiv o‘rgatishning lingvopsixologik asoslari va innovatsion usullari tadqiq etiladi. Zamonaviy ta’limda vaqt tanqisligi sharoitida lisoniy kompetensiyalarni tezkor shakllantirish muammosi dolzarb hisoblanadi. Maqolada suggestopediya, kognitiv integratsiya, NLP (neyrolingvistik dasturlash) va immersion metodlarining psixologik mexanizmlari hamda ularni o‘quv jarayoniga joriy etish strategiyalari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari talabalardagi psixologik to‘siqlarni bartaraf etish va ichki motivatsiyani faollashtirish hisobiga o‘zlashtirish ko‘rsatkichini 3-4 baravargacha oshirish imkoniyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar*: intensiv ta’lim, lingvopsixologiya, suggestopediya, affektiv filtr, kognitiv moslashuv, immersion metod, neyrolingvistik dasturlash.*

Abstract*: This article examines the linguopsychological foundations and innovative methods of intensive foreign language teaching. In modern education, under time constraints, the rapid formation of linguistic competences is an urgent issue. The article scientifically analyzes the psychological mechanisms of suggestopedia, cognitive integration, NLP (neurolinguistic programming), and immersion methods, as well as strategies for their implementation in the educational process. Research results show the possibility of increasing language acquisition rates by 3-4 times by overcoming psychological barriers and activating intrinsic motivation in students.*

Keywords*: intensive education, linguopsychology, suggestopedia, affective filter, cognitive adaptation, immersion method, neuro-linguistic programming.*

Globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida chet tillarini bilish professional barkamollikning, muvaffaqiyatli faoliyatning bosh mezonlaridan biriga aylandi. Biroq, an’anaviy ta’lim metodlari ko‘p vaqt talab qilishi va ko‘pincha past nutqiy faollik bilan cheklanishi sababli bugungi kun talablariga to‘liq javob bera olmayapti. Chet tillarini intensiv o‘rgatish nafaqat lisoniy materialni oz vaqt ichida yetkazishni, balki inson psixikasining yashirin imkoniyatlarini faollashtirishni ham taqozo etadi. Lingvopsixologik innovatsiyalar o‘quvchining hissiy-irodaviy sohasiga ta’sir

ko‘rsatish orqali axborotni uzoq muddatli xotiraga muhrlash va nutqiy, psixoligik to‘siqlarni (language barrier) yo‘qotish imkonini beradi. Intensiv ta’limning lingvopsixologik mexanizmlari muvaffaqiyatli til o‘rganish jarayoni faqat kognitiv intellektga (IQ) emas, balki ko‘p jihatdan hissiy intellekt (EQ) va psixologik holatga bog‘liq. Amerikaning taniqli tilshunos olimi Stiven Krashen (Stephen Krashen) o‘zining “Affektiv filtr gipotezasi”da (Affective Filter Hypothesis) xavotir, qo‘rquv va o‘ziga ishonchsizlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar til materialini qabul qila olmasligini isbotlagan.Intensiv o’qitishning asosiy maqsadi — affektiv filtrni minimal darajaga tushirishdir. Bunga quyidagi lingvopsixologik omillar orqali erishiladi: Hipermnediya (yashirin xotirani faollashtirish): Subnormal yoki relaksatsiya holatida inson miyasi odatdagidan ko‘ra ko‘proq ma’lumotni eslab qoladi.

Nutqiy destressizatsiya: Xato qilish qo‘rquvidan xalos bo‘lish muhitini yaratish. Kognitiv rezonans: Yangi til kodlarini o’quvchining mavjud hayotiy tajribasi va his-tuyg’ulari bilan bog‘lash. Innovatsion Lingvopsixologik metodlar zamonaviy intensiv ta’lim amaliyotida yuqori samara berayotgan asosiy usullar bu Georgiy Lozanovning Suggestopedik metodi (Lozanov method). Bolgariyalik psixiatr G. Lozanov tomonidan asos solingan bu usul psixologik sugestiya (tashqi ta’sir/talqin) va relaksatsiyaga tayanadi. O‘quv xonasida maxsus mumtoz musiqalar jo‘rligida matnlarni o‘qish miyaning alfa-to‘lqinlarini faollashtiradi. Bu holatda axborot mexanik tarzda emas, balki quloq membranasidagi alohida asab tolalariga mayin ta’sir ko‘rsatish orqali yengil yoqimli va hissiy qulaylik muhitida o‘zlashtiriladi. Talabalar darsda yangi rollar (ismlar, kasblar) qabul qiladilar, bu esa shaxsiy xavotirni keskin kamaytiradi. To‘liq Sho‘ng‘ish (Total Immersion) UsuliUshbu usulda o’quv jarayonida ona tilidan foydalanish butunlay taqiqlanadi. Psixologik jihatdan talaba “ekstremal lisoniy muhit”ga tushadi va miya faollashib, tez qabul qilish rejimini yoqadi, yangi tillarni tezkor moslashuvchanligini oshirib, ularni qabul qilish eslab qolish mexanizmini ishga tushiradi. Innovatsion yondashuvda bu jarayon VR (virtual borliq) texnologiyalari bilan boyitilib, simulyatsiya darajasi oshiriladi. Neyrolingvistik dasturlash (NLP) metodologiyasi NLP tillarni o‘rganishda muvaffaqiyatli poliglotlarning fikrlash va xulq-atvor modellarini nusxalashga asoslanadi. Visual, Audial va Kinestetik (VAK) kanallarni baravar faollashtirish orqali yangi so‘z va iboralar talabaning ichki sub-modalliklariga biriktiriladi. “Langar tashlash” (anchoring) texnikasi orqali talabada til gapirish jarayonida



doimiy ijobiy kayfiyat (resurs holati) ta’minlanadi. Yuqorida keltirilgan usullarni o‘quv jarayonida qo‘llash strategiyalari. Intensiv usullarni an’anaviy oliy ta’lim yoki o‘quv kurslari tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirish zarur:

dinamik dars arxitekturasi: darslar 80 daqiqadan iborat bloklarda tashkil etilib, har 20 daqiqada faoliyat turi o‘zgarishi shart (axborot qabul qilish (rightarrow) psixodrama (rightarrow) musiqiy relaksatsiya (rightarrow) interaktiv o‘yin). Psixologik rolli o‘yinlar, Talabalarga real hayotiy keyslar (muzokaralar, virtual sayohat, krizis holatlari) berilib, ular doirasida ekspromt yechim topish yuklanadi. Metakognitiv treninglar: Til o‘rganishni boshlashdan oldin talabalarga “Miya qanday o‘rganadi?” mavzusida qisqa psixologik trening o‘tiladi. Ushbu treningda inson miyasi qobiliyatlari haqida tushuncha berilib, miy faoliyatining imkoni cheklanmaganligini, undan unumlu foydalanish, faollashtirish usullari haqida tushuncha beriladi. Bu ularning o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi. O‘rganuvchilarda til o‘zlashtirish va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo‘ladi.



Chet tillarini intensiv o‘rgatishda lingvopsixologik innovatsiyalardan foydalanish qisqa muddat ichida yuqori natijalarga erishishning eng samarali yo‘lidir. O‘quv jarayonida affektiv filtrlarni olib tashlash, suggestiv vositalarni qo‘llash va NLP texnikalaridan foydalanish talabalarning ichki salohiyatini yuzaga chiqaradi. Bu nafaqat lingvistik bilimlarni, balki shaxsning kommunikativ va moslashuvchanlik xususiyatlarini ham rivojlantiradi. Ularda bilish, anglash moslanuvchanlik qobilyatlarini rivojlantiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. G. Lozanov “Suggestologiya va Outlines of Suggestopedy. New York: Gordon and Breach.Krashen, S. (1982).
2. Xolmatova G. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2020.
3. Ergasheva M.Shaydullayeva K. Yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitishda, innovatsiyalar.
4. Rajabova O. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, *https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/*
5. Yo‘ldoshev, J. G‘. Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent: Oqituvchi (2005).

ZENIT ARTILLERIYA QURILMALARINING YARATILISH TARIXI VA ULARNI TAHLILI

podpolkovnik D.A.SHERALIYEV
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti Axborot kommunikatsiya texnealogilari instituti sikli boshlig‘i

Annotatsiya. *Maqolada Quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa bo‘linmalarida mavjud zenit artilleriya qurilmasining yaratilish tarixi, qo‘llanilishi, qurilmaning umumiy ma’lumotlari va ularni modernizatsiya qilish jarayonida bajariladigan ishlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ЗУ-23 zenit qurilmasi, zenit artilleriya qurilmalari, zenit artilleriya batareyasi, havo hujumi vositasi, havo nishonlari, ikkinchi jahon urushi, zenit avtomati.*

Аннотация. *В данной статье приведены данные об истории создание, развитие и применение зенитно-артиллерийских установок, имеющихся в подразделениях противовоздушной обороны сухопутных войск, а также проведён анализ выполняемых работ в процессе их модернизации.*

Ключевые слова: *Зенитная установка ЗУ-23, зенитно-артиллерийские установки, зенитное артиллерийское батарея, средство воздушного нападения, второй мировой война, зенитный автомат.*

Zenit artilleriyasi – havo nishonlarini yakson qilish uchun mo‘ljallangan artilleriyaning bir turi sanaladi. Tashkiliy tuzilishi jixatidan quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa bo‘linmalarining tarkibiga kiradi, shuningdek ayrim sobiq ittifoq davlatlarida havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari tarkibiga kiritilgan.

Zenit artilleriya qurilmalarining rivojlanish tarixi havo hujumi vositalarining paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘liqdir. Dastlab 1914-18-yillarda birinchi jahon urushidan avvalgi davrlarda paydo bo‘lgan. Rossiyada birinchi zenit artilleriya batareyasi (samolyotlarga qarshi batareya deb ham atalgan) 1915-yili tashkil qilingan va frontga yuborilgan.

Kichik kalibrli zenit artilleriya qurollari ikkinchi jahon urushida o‘zining muhim rolini o‘ynagan. Aynan zenit avtomatlari o‘zining asosiy vazifalaridan tashqari – past uchuvchi samolyotlar bilan kurashishdan tashqari, yerdagi janglarda ham keng qo‘llanish boshlandi. Kichik kalibrli zenit artilleriyasi dushmanning piyodalari, dala istexkomlari shuningdek yengil tank va bronetransportyorlariga qarshi kurashishda yirik kalibrli og‘ir pulemyot – bo‘linmalarni o‘t ochib bevosita qo‘llab quvvatlashda artilleriya rolini o‘ynadi. Aynan zenit avtomatik quroli ikkinchi jahon urushiga qadar izlanishlar olib borilgan universal o‘t ochish vositasi bo‘lgan.



1-rasm. S-60 zenit artilleriya to‘pi.

Sobiq SSSRda zenit artilleriya qurilmalari bilan qurollangan bo‘linmalarini ommoviy tarzda tashkil etish 1918-yildan boshlandi, 1924-yilga kelib zenit artilleriya polklarini yaratish boshlangan. 30-40-yillarga kelib 25, 37, 76 va 85 mmli zenit orudiyalarini qurollanishga qabul qildi. Zenit qismlarida yagona tashkiliy tuzilma etib zenit batareyalari, polk (brigada)lar belgilandi [1].

1939-45-yillar ikkinchi jahon urushi davrida zenit artilleriyasi havo hujumi vositalari bilan kurashuvchi muhim vosita sifatida tanildi, shuningdek tanklar va yerdagi boshqa nishonlar bilan jang olib borish uchun keng qo‘llanaildi. Qiruvchi aviatsiya bilan hamkorlikda qo‘shinlarni, shuningdek muhim davlat obyektlarini havo hujumidan mudofaa qilishda faol ishtirok eta boshladi.

Ushbu na’munalar orasida eng katta yutuqga erishgani Shvedlarning “Bofors” nomli 40 mmli to‘pi sanaladi. Bugungi kunga qadar ushbu qurol o‘zining ko‘rsatkichlariga, kiritilgan o‘zgartirishlar va takomillashtirish natijasiga ko‘ra o‘nlab davlatlarda eng sifatli qurol bo‘lib qolmoqda.

Mutaxassislarga ushbu qurol asosan to‘rt g‘ildirakli ekanligi va harakat davomida ham otish imkoniyati mavjudligi sababli judayam maqul kelgan. Sobiq ittifoqda esa bu qurol na’munasidan foydalangan holda kichik kalibrli zenit qurollari yaratilishi yo‘lga qo‘yildi. 1955-yil fevralda 14-markaziy konstuktorlik byurosi bittalik, juftlangan va to‘rttalik na’munadagi 23 mmli 2A14 zenit avtomatini loyihasini taqdim etdi. To‘rtt stvollik na’munadagi qurilma bugungi kunga qadar mashxur bo‘lib kelayotgan ЗСУ-23-4 “Шилка” ning konstruksiyasi keyinchalik taqdim etildi [2].



2-rasm. ZPU-4 ning sinov jaryoni.

1956-yil aprel oyida yakka stvoldagi 23 mmli ZU-1 zenit qurilmasining zavod sinovi o‘tkazildi, ushbu qurilma YE.K.Rachinskiy va R.Y. Pursena kabi konstruktorlar rahbarligida 14,5 mmli tog‘li sharoitlarda qo‘llanish uchun mo‘ljallangan zenit qurilmasining (ЗГУ-1) chizmasi asosida yaratildi. Ushbu qurilma uncha katta bo‘lmagan gaborit o‘lchamiga ega, ikki g‘ildiraklik yurish qismi oson ajratilishi, qismlarga ajratish soddaligi, yurish holatidan jangovar holatga va qayta yurish holatiga o‘tkazish qulayligi tufayli jangovar ishlashda hisob shaxsiy tarkibi tomonidan ijobiy baholanadi. Biroq ushbu qurilmaning yurish qismida jiddiy nosozliklar yuzaga kelishi sababli qurilma ustida izlanishlar olib borish bo‘yicha ishlar to‘xtatildi va 440 kilogramlik vazn qurilma uchun ortiqcha deb topildi.

Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan qo‘yilgan topshiriqga asosan 23 mmli juftlangan qurilma uch xil na’munada loyihalashtirilgan va sinovdan o‘tkazilgan.

ЗУ-14 Rachinskiy va Pursenlar tomonidan loyihalashtirildi, ushbu qurilma ikki g‘ildirakli va shunga mos holda minimal vaznga ega edi.

Ye.V.Vodopyanovning ЗУ-40 loyihasi bo‘yicha to‘rt g‘ildirakli yurish qismi qismlarga ajratiladigan etib yaratilgan. ЗУ-40 jangovar holatga o‘tkazilganida yurish qismining oldingi tomoni ikkita oldingi g‘ildirak bilan birga ajraladi, orki g‘ildiraklar esa qiya holatida yurish qismining yon tomonida osilgan holatda turadi, qurilmaning asosi esa tuproqqa to‘rtta damkrat bilan ko‘tarilgan holatda yotqiziladi. Jangovar komplekt qurilmaning oldingi qismida o‘qdon korobkasida joylashtirilgan, jang maydonida ЗУ-40 oldingi qismsiz harakatlanish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

S.N. Jdanov, Rachinskiy va Pursenlar tomonidan ЗУ-575 to‘rt g‘ildirakli yurish qismiga o‘rnatilgan variantda yopiq tosion ressorli ko‘rinishda yaratilgan. Qurilma kolonnalarni marsh davomida havo hujumi vositalarining zarbalaridan himoya qilish maqsadida yaratilgan va u harakat davomida aylanasiga otish

imkoniyatiga ega bo‘lgan, lekin odatiy jangovar holatida g‘ildiraklar ko‘tarilgan holatda bo‘ladi.

Keyinchalik ЗУ-575 qurilmasining bazasida o‘sha davrda ommalashgan mototsikl dvigateli yordamida o‘zi yurar zenit qurilmalarini yaratish loyihalashtirilgan. Murakkbligi sababli ushbu loyiha eskiz holatida to‘xtatilgan.

Barcha namunalar qo‘l rejimida ishlaydigan yo‘naltirish uzatmasi va ЗАП-23 zenit pritseliga ega bo‘lgan [5].

ЗУ-40, ЗУ-575 va ЗУ-14 qurilmalarining sinov ko‘rik tanlovlari 1957-yilda o‘tkazilgan. Sinovlar natijasiga ko‘ra harbiy ekspertlar tomonidan eng sodda tuzilishga va vaznga ega bo‘lgan ЗУ-14 eng yaxshisi sifatida e’tirof etilgan. Sinovdan o‘tkazish va takomillashtirish ishlari dastlabki na’muna yaratilgan davrdan boshlab uch yildan ortiq vaqt davom etgan va nixoyat 1959-yilning bahorida ЗУ-14 ning belgilangan seriyasi Belorus va Turkmanston harbiy okruglarida qo‘shin sinovidan o‘tdi.

Konstruktorlar tomonidan qurilma ustida olib borilgan izlanishlar natijasida amaliy otish tezligi minutiga 300 ta o‘qgacha oshirishga erishildi. Qayta o‘qlash jarayoni yarim avtomatik tarzda amalga oshirilgan va faqatgina patron qutisini almashtish orqali qayta o‘qlash amalga oshirish imkoni yaratilgan.

Uzoq kutilgan qurilmaga bosh raketa artilleriya boshqarmasi tomonidan 2A13 indeksi berildi va 1960-yil 22-martda SSSR ministrlar kengashining 313-125-sonli qarori bilan ЗУ-23 nomi bilan qurollanishga qabul qilini.

ЗУ-23 qurilmasining 2A14 indeksli avtomatini seriyali ishlab chiqarish 535-raqamli zavod tomonidan amalga oshirila boshladi. Avtomatning kamchiliklari ustida 10 yil izlanishlar olib borildi va avtomatning kafolatli ishlashi 8000 dona patrongacha uzaytirildi, qayta ishlangan avtomatga 2A14 M deb nom berildi.

Albatta o‘sha davrda ushbu yaratilgan zenit qurilmasining umri bunchalik uzoq davom etishi mumkinligi haqida xech kim tasavvur etmagan. Mana 60 yildan ortiq ЗУ-23 zenit qurilmasi o‘nlab davlatlar qurolli kuchlarida samarali va zarur bo‘lgan qurol sifatida qo‘llanib kelinmoqda.

ЗУ-23 (2A13) zenit qurilmasining konstruksiyasi va ishlash prinsipi.

23-mm ЗУ-23 juftlangan zenit qurilmasi 300 metr soniyagacha bo‘lgan tezligida uchayotgan, qiya uzoqligi bo‘yicha 2500 metr, balandligi bo‘yicha 1500 metrdagi havo nishonlarni, xamda 2000 metr uzoqlikda yerdagi yengil zirxlangan texnikalarni, o‘t ochish nuqtalarini va piyodalarni yakson etish uchun mo‘ljallangan.

23 mmli zenit qurilmasidan otish uchun parchalanuvchi-fugasli-yondiruvchi snaryadli, parchalanuvchi-fugasli- yondiruvchi-trassir snaryadli va zirxga qarshi-yondiruvchi-trassir snaryadli patronlar ishlatiladi. PFYO, PFYOT va ZQYOT o‘qli patronlar uzoqligi 2500 m.gacha bo‘lgan havodagi va quruqlikdagi nishonlarga otish uchun mo‘ljallangan.

Qurilma ГАЗ-66, Урал-4320 (375), ЗиЛ-131 avtomobillari bilan shatakka olinadi.

Qurilma yurish holatidan jangovar holatga 15-20 sekundda, jangovar holatdan yurish holatiga esa 35-40 sekundda o‘tkazilishi mumkin.



3-rasm. ЗУ-23 qurilmasi shatakda.

ЗУ-23 TAKTIK-TEXNIK TAVSIFLARI

1. Stvolning kalibri.....23 mm
3. Patronnik ichidagi kesiklar soni.....12 ta
2. Stvol ichidagi kesiklar soni.....10 ta
4. Stvol uzunligi olov so‘ndirgichsiz.....1880 mm
6. Avtomatning uzunligi olov so‘ndirgichsiz.....2425 mm
7. Avtomatning uzunligi olov so‘ndirgichi bilan.....2555 mm
8. PFYO snaryadining boshlang‘ich tezligi.....980 m/s
9. PFYOT va ZQYOT snaryadlarining boshlang‘ich tezligi….....970 m/s
10. Stvol eng tik holatda balandga otish uzoqligi.....1500 m
11. Qiya uzoqlikka otish qobiliyati.....2500 m
12. Gorizontal uzoqlikga otish qobiliyati.....2000 m
13. PFYO snaryadli patronning og‘irligi.....440 gram
14. PFYOT va ZQYOT snaryadli patronlarning og‘irligi.....450 gram
15. PFYO (OFZ) snaryadning og‘irligi.....183 gram
16. PFYOT (OFZT) snaryadining og‘irligi.....188,5 gram
17. ZQYOT (BZT) snaryadining og‘irligi.....190 gram
18. Ikkala avtomatning otish tezligi.....2000 o‘q. daq
19. Ikkala avtomatning jangovar otish tezligi.....400 ta o‘q.min
20. Gorizontal holatda otish chegarasi.....360 grad
21. Stvolni ko‘tarilib tushish burchagi.....-10 grad +90 grad.gacha

22. Klirens.....360 mm
23. Yurish kengligi.....1690 mm
24. Qurilmaning «jangovar» holatdagi tashqi o‘lchamlari:
- uzunligi.....4632 mm
- kengligi.....2880 mm
- balandligi.....1213 mm
25. Qurilmaning «yurish» holatdagi o‘lchamlari:
- uzunligi.....4620 mm
- kengligi.....1870 mm
- balantligi.....1440 mm
26. Bitta avtomatning og‘irligi.....76 kg
27. Ikkita avtomat bilan lyulkaning og‘irligi.....240 kg
28. Stanokning avtomatlar bilan og‘irligi.....460 kg
29. Stvol kanalidagi gaz bosimi.....3100 kg
30. Patron qutisining 50ta tasmaga joylangan patron bilan og‘irligi…...33 kg
31. Qurilmaning «yurish» holatidan «jangovar» holatga o‘tkazish vaqti..... 15-20 s
32. Qurilmani «jangovar» holatdan «yurish» holatga o‘tkazish vaqti..... 35-40 s
33. Qurilmaning g‘ilof va o‘qlangan patron qutisi bilan «yurish» holatdagi og‘irligi.....950 kg
37. Harakatdagi tezligi:
- asfalt yo‘lda.....70 km/s gacha
- tosh yo‘lda.....40 km/s gacha
- tuproq yo‘lda.....35 km/s gacha
- yo‘l yo‘q joyda.....20 km/s gacha

ЗУ-23 zenit qurilmasi quyidagi asosiy qismlardan iborat: ikkita 23 mmli 2А14 avtomatlari, platforma yurish qismi bilan, avtomatlar stanogi, ko‘tarish, burish va muvozanatlovchi mexanizm, hamda ЗАП-23 zenit avtomatik pritseli.

Avtomatlarning tuzilishi deyarli bir xil, faqat uzatish mexanizmining detallarida farq qiladi. O‘ng avtomat o‘ng tomonidan chap avtomat esa chap tomonidan o‘qlanadi. Har ikki avtomat bitta kajavaga mustaxkam o‘rnatilgan.

Avtomatning asosiy qismlari – stvol qutisidan iborat bo‘lgan stvol, zatvor ramasi, zatvor va uzatish, otish va qaytarish mexanizmlari.

2А14 avtomatining avtomatik tarzda ishlashi stvolning yon tirqishlaridan chiqariladigan porox gazining hisobiga amalga oshiriladi [4].

ЗУ-23 zenit qurilmasining qo‘llanilishi, qurilma nafaqat havo hujumi vositalariga qarshi kurashishda balki lokal urushlarda yerdagi dushmanlar bilan bo‘lgan janglarda ishtirok etib boy jangovar tajriba olgan. ЗУ-23 zenit qurilmasining otishi motoo‘qchi bo‘linmalarining qurollarining otishiga nisbatan sezilarli darajada yuqori samaradorlikka ega. Jangovar holatga keltirilgan ЗУ-23 qurilmasi 1000 metr masofadagi to‘satdan paydo bo‘lgan dushmanning o‘t ochish nuqtalarini bir zumda samarali yakson qilishi mumkin. Noqonuniy qurollangan bo‘linmalar bilan kurashishda va dushmanning tarqoq holda hujum qilayotgan piyoda guruhlariga qarshi kontrteroristik harakatlarni olib borishda qurilmaning manyovrchanligini oshirish maqsadida Урал-4320, КамАЗ, ГАЗ-66, ЗИЛ-131 kabi harbiy avtomobillarning bort qismiga o‘rnatish katta samara beradi.



4-rasm. ZU-23-2 ning jangovar qo‘llanishi.

Sovet ittifoqi qo‘shinlari Afg‘onistondagi jangovar harakatlar davomida tog‘li sharoitlarda jang qilishiga to‘g‘ri kelgan. Ushbu janglarda sovet ittifoqining qo‘shinlari tog‘li xududlarning yo‘llarida qo‘shinlarning kolonnalarini dushmanning kichik guruhlarining hujumidan ximoya qilish uchun ЗУ-23 qurilmasiga aloxida vazifa yuklatilgan. Shu kabi dolzarb vazifalar zamonaviy qurolli mojarolarda ham ЗУ-23 qurilmasiga yuklanib kelinmoqda, xususan Chechenston, Tog‘li Qorabog‘, Tojikiston, Gruziya, Abxaziyadagi jangovar harakatlarda ЗУ-23 zenit qurilmasi nafaqat havo hujumi vositalari balki yerdagi nishonlarga qarshi jang olib borishda judayam samarali qo‘llanganligi barchamizga ma’lum.

Zenit artilleriya qurilmasining yaratilish tarixini o‘rganib tahlil qilgan holda shuni aytishimiz mumkinki ikkinchi jahon urushi davridan boshlab havo hujumi vositalarining rivojlanishiga hamohang tarzda zenit artilleriya qurilmalari qo‘shinlarning jangovar imkoniyatlarini oshirishda muxim axamiyat kasb eta boshladi, buning asosiy sabablaridan biri sifatida shuni ko‘rishimiz mumkinki qo‘shinlarning qurollanishi tarkibiga havo hujumi vositalarini yuqori balandliklarda yakson etish uchun mo‘ljallangan zenit raketa komplekslarining yaratilishi, buning natijasida esa havo hujumi vositaloarining past balandliklarda uchib yerdagi qo‘shinlarga yuqori aniqlikda katta talofatlar yetkazish bo‘yicha yangi taktik

harakatlarni qo‘llashidir. Zenit artilleriya qurilmalarini yaratishga bo‘lgan katta extiyojlardan yana bir asosiy sabablaridan qilib, qurilmalarda qo‘llaniladigan o‘q-dorilarning iqtisodiy jixatdan arzonligi, jangovar harakatlar teatrida dushmanning kichik guruhlarga bo‘lingan holda kolonnalarga hujum qilishi taktikasini keng qo‘llashi zenit artilleriya qurilmalari havo hujumi vositalaridan tashqari dushmanning yerdagi yengil zirxlangan jangovar texnikalari bilan kurashishga to‘g‘ri kelganligi, zamonaviy janglarning asosan tog‘li va shaxar sharoitida bo‘lib o‘tishini aytishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida aytib o‘tishimiz kerakki zenit artilleriya qurilmalari bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. Quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari tarkibidagi bo‘linmalarda mavjud bo‘lgan ЗУ-23 zenit qurilmasidan otish va jangovar ishlash jarayonida dala o‘quv markazlaridagi zenit qurilmalaridan otish yo‘nalishlaridagi mavjud sharoitdan kelib chiqib doimiy ravishda bir xil otish sharoitida yerdagi nishonlarga amaliy otish mashqlari bajarish bilan cheklanishini oldini olish maqsadida zenit qurilmasining kompyuterlashtirilgan **panoramali trenajyorlarini yaratish**, ushbu trenajyorlardan foydalangan holda ЗУ-23 qurilmalarining hisobini jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘quv trenajarlaridan oliy harbiy ta’lim muossasalarida va harbiy okruglardagi quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari bo‘linmalarining shaxsiy tarkibini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq deb xisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baltayev X.A. “Ikkinchi jahon urushida havo hujumidan mudofaa bo‘linmalarining tarixi, tutgan o‘rni va roli”/Risola. CHOTQMBYU-2021. 5-40 betlar.

2. Dadaboev X. V. Darslik. Harbiy san'at tarixi./Toshkent, Harbiy nashriyot, 2003. - 570 b.

3. Крупченко И.Е. Учебник. Военная история/Москва, воен. издат., 1984. - 376 стр.

4. 23 mm ЗУ-23 rusumli zenit qurilmasi rashyoti uchun ma’lumot mazmunidagi qo‘llanma., O‘R MV., Toshkent-2013. Inven. №2269.

5. История войн и военного искусства/ Ташкент - «Talqin» - 2006 г. стр 25-48

6. Энциклопедия "Первая Отечественная война" (1914-1917 год). стр 10-65

VATANPARVARLIK G‘OYALARINING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna

TAFU, Psixologiya kafedrasimudiri, psixologiya fanlari doktori DSc, professor

Annotatsiya: *Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlarga vatanparvarlik tuyg’ularini singdirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda ta’lim-tarbiya jarayonida vatanparvarlik g‘oyalarining psixologik- pedagogik mexanizmlari mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Maqolada vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog’liq nazariyalar, yondashuvlar haqida fikr bildiriladi.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, psixologik- pedagogik mexanizmlar, yondashuvlar, usullar, hamkorlik tamoyili, refleksiv tahlil, milliy manfaatlar.*

So’ngi yillarda o‘zaro bog‘liq bo‘lib borayotgan dunyoda vatanparvarlik tushunchasi jamiyatning asosiy jihati bo‘lib qolmoqda, u millat ichidagi shaxslarning qadriyatlari, o‘zigaxosligiva xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Fuqarolar qalbi va ongiga singib ketgan vatanparvarlik o‘z yurtiga sadoqat, g‘urur va sadoqat tuyg‘ularini targ‘ib qiladi, individuallikdan ustun turadigan jamoaviy ongni tarbiyalaydi. Vatanparvarlik ko'pincha kattalar va tarixiy rivoyatlarni saqlash bilan bog'liq bo'lsa-da, uning ahamiyati bolalar ta'lim sohasiga kirib, ertangi kunning faol fuqarolariga poydevor qo'yadi. Kelajak avlod posbonlari bo‘lgan ota-onalar, pedagoglar, umuman, jamiyat zimmasiga yohlarda vatanparvarlik tuyg‘usini chuqur singdirish, ularda milliy meros, o‘zlikni anglash, jamiyatda hamjihatlikni shakllantirish mas’uliyati yuklangan.

Vatanparvarlik tarbiyasi — bu shaxsda Vatanga muhabbat, uning suvereniteti, hududiy yaxlitligi va milliy manfaatlarini himoya qilishga tayyorlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Vatanparvarlik o‘z mohiyatiga ko‘ra, turli jamiyatlarda ijtimoiy jipslik vabirliknimustahkamlovchi majburiy kuch bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tushuncha A.V. Petrov, B.M. Teplov, A.S. Makarenko kabi pedagog va psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan tarbiya nazariyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Ularning fikricha, shaxsda vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirish — bu ong, his-tuyg‘u va irodaviy jarayonlarning integratsiyasi orqali amalga oshadigan murakkab tizimli faoliyatdir.

Vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlar ongida shakllantirish shaxsning: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy) va konativ (faoliyat) komponentlarini o‘z ichiga olgan uzluksiz psixologik-pedagogik jarayondir.

Psixologik mexanizmlar kognitiv (bilish) mexanizm: Vatanning tarixi, tili, madaniyati va milliy qadriyatlari haqida chuqur bilim va tasavvurlarni shakllantirish. Affektiv (hissiy-emotsional) mexanizm: Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, faxr va uning taqdiriga daxldorlik tuyg‘ularini boshdan kechirish. Konativ

(xulq-atvor) mexanizm: Olingan bilim va tuyg‘ularni amaliy xatti-harakatlarda, Vatan manfaati uchun xizmat qilish istagida namoyon etish.

Pedagogik mexanizmlar ta’lim mazmuni: o‘quv dasturlari va darsliklarga vatanparvarlik ruhidagi ma'lumotlarni singdirish. Ijtimoiy muhit va namuna: Oila, maktab va mahallada sog‘lom ma'naviy muhit yaratish hamda kattalarning ijobiy o‘rnini ko‘rsatish.Amaliy ta'sir etish usullari: harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, muzeylarga sayohatlar, taniqli shaxslar va qahramonlar bilan uchrashuvlar tashkil etish.

Psixologik nuqtayi nazardan, vatanparvarlik ruhining shakllanishi motivatsion, emotsional va kognitiv komponentlardan iborat bo‘ladi. Abraham Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasiga muvofiq, inson o‘zini jamiyatning ajralmas qismi deb his qilganida, u oliy darajadagi ehtiyoj — “o‘z-o‘zini anglash” bosqichiga o‘tadi. Shu jarayonda o‘qituvchi yoshlarning milliy o‘zlikni anglash motivlarini rag‘batlantirishi, ularni ijobiy ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirishi zarur. Bundan tashqari, Albert Banduraning “ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”ga binoan, yoshlar o‘z o‘qituvchisini kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy mukofot mexanizmlari orqali o‘zlashtiradilar. Shu sababli, o‘qituvchi o‘zining shaxsiy fazilatlari — mas’uliyat, fidoyilik, intizom va sadoqat orqali vatanparvarlik fazilatlarini ongli tarzda singdiradi. Bugungi kunda ta’lim tizimida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini modernizatsiya qilish quyidagi yo‘nalishlar asosida olib borilishi maqsadga muvofiq:

Integrativ yondashuv- tarix, jismoniy tarbiya, ona tili va adabiyot kabi fanlarda vatanparvarlik mazmunidagi topshiriqlarni uyg‘unlashtirish;

Innovatsion metodlar- raqamli ta’lim texnologiyalaridan (virtual simulyatorlar, videodarslar, onlayn musobaqalar) foydalanish;

Hamkorlik tamoyili- harbiy qism, yoshlar ittifoqi, mahalla va ota-onalar bilan hamkorlikda kompleks tarbiya tizimini yo‘lga qo‘yish;

Refleksiv tahlil- o‘quvchilarda o‘z faoliyatini baholash va Vatanga xizmat qilishga nisbatan ichki motivatsiyani shakllantirish.

Mazkur yondashuvlar natijasida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yoshlarning ijtimoiy-patriotik ongini shakllantiruvchi strategik shaxs sifat idanamoyon bo‘ladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligi o‘qituvchi, ota-ona, jamoatchilik va harbiy tashkilotlar o‘rtasidagi uzviy hamkorlik orqali ta’minlanadi. Ushbu ilmiy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

• Ta’lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga oid dars va tadbirlarni tizimli rejalashtirish, ularni davlat dasturlari bilan uyg‘unlashtirish;

• O‘qituvchilar uchun “Vatanparvarlik pedagogikasi” yo‘nalishida maxsus malaka oshirish kurslarini joriy etish;

• Harbiy qismlar, tarixiy yodgorliklar va muzeylar bilan hamkorlikda amaliypatriotik tadbirlarni yo‘lga qo‘yish;

• Chaqiriqqacha yoshlar orasida vatan himoyasiga tayyorlikni targ‘ib etuvchi tanlovlar, intellektual o‘yinlar va sport musobaqalarini kengaytirish;

• Ta’limda raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan vatanparvarlik yo‘nalishidagi interaktiv platforma va multimedia resurslaridan samarali foydalanish.

O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yosh avlodning ijtimoiy-patriotik ongi va milliy o‘zligini shakllantiruvchi, Vatan ravnaqi uchun mas’uliyatli fuqaro yetishtiruvchi bosh pedagogik kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Juraev, R. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi: “Chaqiriqqacha yoshlar bilan ishlash bo‘yicha metodik qo‘llanma.” – Toshkent, 2022.
3. Saidov, A.X. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasi va vatanparvarlik siyosati. – Toshkent: Adolat, 2020.

ZAMONAVIY JANGDA AXBOROT-PSIXOLOGIK QARSHI KURASHNING O‘RNI

Qoraboyev Avazbek Isomiddinovich
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa insituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda axborot-psixologik qarshi kurash, uning mazmun moxiyati, dolzarbligi, axborot-psixologik qarshi kurashning qo‘shinlar jangovar ruhiga ta’siri, axborot-psixologik xavfsizlikning shaxsga ta’sir etuvchi vosita va usullari borasida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish, axborot to‘qnashuvi, Axborot-psixologik xavfsizlik, axborot iste’molchisi, axborot madaniyati.*

Annotation: *This article discusses the current issues of information-psychological counteraction, its content and essence, relevance, the impact of information-psychological counteraction on the combat morale of troops, and the means and methods of information-psychological security affecting individuals.*

Keywords: *psychological influence through information tools, information conflict, information-psychological security, information consumer, information culture.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются актуальные вопросы информационно-психологического противодействия, его содержание и сущность, значимость, влияние информационно-психологического противодействия на боевой дух войск, а также средства и методы информационно-психологической безопасности, влияющие на личность.*

Ключевые слова: *психологическое воздействие с помощью информационных средств, информационный конфликт, информационно-психологическая безопасность, потребитель информации, информационная культура.*

Axborot so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “xabarlar majmuasi” degan ma’noni anglatadi. “Xabar” esa, arabchadan ma’lum qilish, biror bir hodisani, voqeani yetkazish degan ma’nolarni bildiradi. Maishiy va kasbiy muloqotda xabar berish, xabardor bo‘lish, xabar topish kabi tushunchalar ko‘p qo‘llaniladi va ular vujudga kelgan voqea-hodisalarni ma’lum qilish, ya’ni kechayotgan jarayonni tasvirini (xabarini) “A” nuqtadan “V” nuqtaga yetkazish uchun qo‘llaniladi. Fan va texnika yutuqlarini ijtimoiy-madaniy hayotimizga jadal kirib kelishi natijasida xabarni uzatish vositalarining soni ham ortib bormoqda. Ularni turli belgilari asosida guruhlarga ajratish mumkin, jumladan sur’atining tezligi, matnni qamrab olish hajmi jihatidan. Lekin bir so‘z bilan axborot-kommunikasiya texnologiyalari deb ko‘rsatsak xato qilmagan bo‘lamiz. Bu jarayonda axborotni psixologik xavfsizligini ta’minlashni texnik jabhasi dolzarblashadi. Ya’ni, vosita sifatida qo‘llanilayotgan texnik tizimdan (axborotni manzilga uzatish, saqlash, ishlov berish, jamlash jarayonida) axborotni chiqib ketmasligi (o‘g‘irlashi, o‘zlashtirilishi, xabarni tarkibiga noqonuniy o‘zgartirish kiritish, ya’ni raqam, dalillarni o‘zgartirish) masalasi dolzarblashmoqda. Shu sababli, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi tushunchalari semantik jihatdan farqlanadi. Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasining zamirida texnik ta’minot va vositalarning muhimligi, axborotning psixologik xavfsizligi tushunchasida xabarlardan axborotni tayyorlash (ishlab chiqarish, jamlash), unga maqsad, ma’no berish uchun aniq g‘oyalardan foydalanish uchun faoliyat yurituvchi inson-mutaxassisning roli muhimligi tushuniladi.

Insoniyat tarixiga nazar solsak, u axborotlashgan jamiyatga qadar bo‘lgan uzoq tarixiy vaqt oralig‘idagi yo‘lni bosib o‘tgan va bu yo‘lda ko‘plab rivojlanish bosqichlaridan o‘tilgan va “Eng qadimgi davr”, “Qadimgi davr”, “O‘rta asrlar”, “Hozirgi zamon” kabi iboralar qo‘llansa-da, hech qachon insoniyatning axborotga nisbatan ehtiyoji kamayib qolmadi. Asrlar o‘tgan sari, axborotning ko‘lami kengayib, sohalar bo‘yicha hajmi ham oshib, uni qiymati va madaniy ahamiyati ortib boraveradi.

Axborot, o‘zining atributiv xususiyatlaridan tashqari, iste’molchi uchun shaxsiy yoki jamoaviy, madaniy ahamiyatga ega bo‘ladi. Garchi axborotning xossalari shartli bo‘lsa-da, uning foydaliligi, qabul qiluvchi subektga ta’sir qilish darajasi bilan belgilanadi. Agarda axborotni qabul qilgan subyekt, axborotda kerakli emosional taassurot va bilimlarni olgan bo‘lsa, qoniqqanlik darajasi ham ortib boradi. Natijada maqsadini to‘g‘ri shakllantirib, maqbul xulq namunasini yuzaga chiqara oladi. Chunki axborot iste’molchisi turli ko‘rinishda obekt bilan samarali

munosabatga kirisha oladi. Agarda uzatilayotgan salbiy axborot iste'molchisining ma'naviy dunyosiga taalluqli bo‘lsa, ya'ni axboroning qabul qiluvchi undan emosional qoniqish hosil qilsa, axborotni foydali, deb hisoblashishi mumkin. Axborot, turli sohalar bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi va ular ijtimoiy munosabatlarning kechishini ta'minlaydi. Fikrimizcha, axborot xabarlardan tarkib topib, har bir xabar o‘zida ***uchta psixologik xossani*** ifodalaydi. Bular:

- xabarni o‘zi. U, aniq masalaga (mavzuga) bag‘ishlangan bo‘lib, ko‘pincha diqqatni tortadigan jarayonlarga oid tayyorlanadi. Maqsad, axborot iste'molchisini jarayonni dinamikasidan xabardor etishdan iborat;

- xabarni iste'molchiga zavq baxshida etuvchi tarkibi. Bu tarkib, axborotning mavzusi, aniqrog‘i iste'molchini kutishlari asosida ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin. Bunga misol munajjimlarning bashorati. Bu xabarlarda, burch sohiblarining nimanidir kutishlarini, bir muddat vaqtliroq munajjimlar ko‘rsatma berish usuli bilan belgilab qo‘yadilar. Maqsad, axborot iste'molchisining faoliyatini mazmuniga ta'sir ko‘rsatishdan iborat;

- axborotni ishontiruvchi tarkiblari. Ishontiruvchi tarkib asosan hayotiy misollar bilan turli obrazlarning namunasi misolida uzatiladi. Uzatiladigan xabarning mazmuni, subektni kerakli bo‘lgan g‘oyaga ishonchini uyg‘otib, raqam va dalillar esa ishonch darajasini oshirish uchun vosita sifatida qo‘llaniladi. Maqsad, axborot iste'molchisini ongiga ma'lum g‘oyani singdirishdan iborat. Agarda, g‘oya bunyodkorlikka chorlovchi, yaratuvchanlikka yo‘naltiruvchi bo‘lsa, subektning xulq namunasida moddiy yoki ma'naviy yaratuvchanlik mujassamlashadi. Natijada, ijtimoiy hamkorlikka intilish, turli millat vakillariga xayrixoh munosabatda bo‘lish, boshqa din va madaniyat namoyondalariga bag‘rikenglik ko‘rsatish, jamiyat va davlat arboblariga ishonch bildirish namunalari turli ko‘rinishlarda ifodalanadi. Agarda, vayronkor g‘oya ifodalangan bo‘lsa, turli ko‘rinishdagi agressiv xulq namunalari ifodalanib, destruktiv "Men", egosentrizm, separatizm, milliy shovinizm kabi destruktiv xulq namunalari ifodalanib, jamiyat hayotining turli sohalarida muammolar ifodalanadi. Shu sababli, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi ikkita sathda, ochiq va yopiq sathda institusional tarzda ta'minlanadi.

Ochiq sathda ommaviy axborot vositalari yordamida uzatilayotgan axborotlar ifodalanadi. Ularning maqsadi, kechayotgan jarayonlardan insonlarni xabardor etib, ommaviy ongni shakllantirish uchun madaniylashtirish, ogohlantirish, maqsadni shakllantirish va qadriyatlarni mohiyatini anglash uchun ma'rifiy asos yaratadi. Yopiq sathga esa, iqtisodiy-siyosiy masalalarga taalluqli bo‘lgan axborotlar kirib, ularda davlatning ichki va tashqi faoliyatiga, siyosiy yetakchilarni shaxsi va faoliyatiga, siyosiy institutlarga taalluqli bo‘lgan axborotlar kiradi. Shu bilan birga kasbiy masalalarga oid bo‘lgan axborotlarning ayrim qismi, ya'ni korxona (institut)

manfaatlariga doir bo‘lgan axborotlar ham shu sathga kiradi. Harbiy faoliyatga doir bo‘lgan axborotlar shular sirasidandir.

Insonni axborot olishga bo‘lgan ishtiyoqi, uni hayot tarzi va kechinmalaridan qat’iy nazar ortib boraveradi. Bu ishtiyoqni ortib borishi uning ehtiyojlar iyerarxiyasida (pog‘onasida. A.Maslouning ta’limoti bo‘yicha) o‘zini namoyon etish va xavfsizligini ta’minlash kabi ehtiyojlarini qondirish uchun amalga oshiriladigan harakatlari bilan bog‘liqdir. Shu sababli, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash yo‘lida faoliyat yuritadigan mutaxassis, axborot xuruji, axborot kurashi, axborot xavfsizligi kabi konseptlarni (tushunchalarni) mohiyatini anglay olishi lozim.

Ma’nosi jihatidan, mohiyati, ta’sir etish darajasi, inson va jamiyatga foydali yoki zararliligi jihatlari bo‘yicha kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da’vat etishi uchun qo‘llanilishi mumkin. Axborotni psixologik xavfsizligini ta’minlovichi soha vakillari, aynan yovuzlikka da’vat etuvchi mazmunga ega bo‘lgan axborotlarni turli darajada zararlantira olishlari lozim. Shu tariqa, axborotning psixologik xavfsizligi tushunchasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, axborotning psixologik xavfsizligi deganda, individual, guruhiy (jamoaviy) va ommaviy tarzda inson psixologiyasiga, aniqrog‘i insonni hissiy-irodaviy, aqliy, ehtiyojlari kabi sohalariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalariga, davlatning ichki yoki tashqi faoliyatiga taalluqli bo‘lgan axborotni destruktiv, ya’ni salbiy mazmundagi xossalardan (ta’sir etuvchilardan) himoyalanganlik holatini tushunish lozim.

Ikkinchidan, ***axborotning psixologik xavfsizligi*** – bu bevosita inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali uni o‘z aqidalaridan, ideallaridan, muqaddas e’tiqodidan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrash uchun amalga oshiriladigan faoliyatdir. Demak, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlashga avvalo inson va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarga qarshi yo‘naltirilgan tarkibida buzg‘unchi g‘oyalar va tajovuzkor mafkuralarni mujassam etgan axborotni zararlantirish uchun amalga oshiriladigan harakatdir.

Uchinchidan, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash shaxs, jamiyat va davlat darajasida ta’minlanib, bunda milliy manfaatlarni himoyasini ta’minlash birlamchi asos hisoblanib, axborot-kommunikasiya texnologiyalari vosita hisoblanadi.

To‘rtinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi semantik jihatdan farqlanib, axborot-psixologik xavfsizlik texnik jihat, aniqrog‘i dasturiy vositalar yordamida axborotni jamlash, saqlash, saralash, uzatish jarayonida uni chiqib ketmasligini ta’minlashni nazarda tutadi. Axborotning psixologik xavfsizligi deganda mutaxassis tomonidan axborotning tarkibida salbiy

xulq namunasini ifodalashga chorlovchi (da’vat etuvchi) tarkiblarni zararlantirish natijasida vujudga kelgan ijtimoiy-psixologik holat tushuniladi.

Nazariy jihatdan, axborotning xavfsizligi ikki yo‘nalishda:

- axborotning xavfsizligi texnik jihatdan ta’minlanadi;
- axborotning xavfsizligi psixologik jihatdan ta’minlanadi.

Harbiy sohada axborot-texnik va axborot-psixologik xavfsizlikning obyektlari haqida mulohaza yuritishdan oldin masalaga uzviy bog‘liq bo‘lgan axborot to‘qnashuvi haqida to‘xtalib o‘tish joiz.

“Axborot to‘qnashuvi” tushunchasi ilk bor 1967 yili Allen Dalles tomonidan muloqotga kiritilgan. Muallif, bu tushunchani “sovuq urush” davrida ikki qutbli dunyoda AQShni SSSRga qarshi olib borilgan harakatlarida qo‘llagan bo‘lsada, ommaviylashmagan. Ammo amerikalik fizik Tomas Rona (Prezident R.Reygan va Dj.Bush (kattasi) davrida Oq uy va Mudofaa boshqarmasining ilmiy maslahatchisi lavozimida xizmat qilgan davrida, 1976 yilda Boing kompaniyasi uchun tayyorlangan “Qurollar tizimi va axborot to‘qnashuvi” nomli hisobotida qo‘llanilgan. Hisobotda axborot infratuzilmasi AQSH iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanganligi va bir vaqtning o‘zida harbiy vaziyatda ham, tinchlik davrida ham keng qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. U, axborotni harbiy kuchlar tizimining zaif bug‘ini deb ta’riflab, ushbu masalaga barcha davlat miqyosidagi mas’ul kishilarni e’tiborini qaratgan. Shundan beri mazkur tushunchaning ahamiyati va dolzarbligi o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Lekin, bu xulosa axborot to‘qnashuv tushunchasi XX asrning ikkinchi yarimida vujudga kelgan degan hukmni chiqarish uchun asos bo‘lolmaydi. Chunki axborot to‘qnashuvi inson paydo bo‘lishi bilan birga vujudga kelgan. Ammo, axborot to‘qnashuvi deb atalmagan. Masalan, urushlar tarixiga nazar solsak, ularning har birida ma’lum ko‘rinishda axborot to‘qnashuvi kuzatiladi. Axborot to‘qnashuvi o‘zining g‘oyasiga ega bo‘lib, aniq bir obyektga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Ularning xarakteri va yo‘naltirilganligini bugungi globallashuv davrining ijtimoiy-siyosiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- ***axborot to‘qnashuvining birinchi bosqichi***. Jang teatr maydoniga kirishishdan oldin raqib (dushman) va uning askarlarini o‘q otar qurollari ishdan chiqqanligi, sarkardalarini layoqatsizligi, jangchilarni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlanmaganligi, askarlarni o‘z komandirlariga ishonsizlik bildirilayotganligi turli axborot kanallari bilan yetkazilgan. Axborot kanallari sifatida savdogarlar, qalandar va darvishlar vositasida mish-mishlar tarqatilgan;

- ***axborot to‘qnashuvining ikkinchi bosqichi***. Harbiy – texnika va qurol qurol aslahalarni yaratilishi bilan aloqador. Bu bosqichda harbiy faoliyatda asosan axborot vositasida psixologik kurash olib borilgan. Unda raqib va uning askarlarida o‘z

kuchiga ishonchsizlik, shubha tug‘dirish orqali qadriyatlariga putur yetkaziladi. Ishonchsizlik, tanlangan hayot yo‘li, maqsadi va qiziqishlari tufayli azob chekib jismonan nest – nobud bo‘lishi besamar ekanligi ularning ongiga singdirilgan. Buning uchun radio va boshqa nashriy manbalardan foydalanib, maqsad ommaviy manipulyasiyani amalga oshirib, g‘alaba qozonish uchun zamin tayyorlashdan iborat bo‘lgan. Manipulyasiya o‘tkazish o‘z tuzilishiga ega bo‘lib, ta’sir ko‘rsatishni rejalashtirish, manipulyasiya o‘tkaziladigan obyekt haqida axborot jamlash, ta’sir ko‘rsatuvchi manbaga moslashish, ta’sir ko‘rsatish uchun sharoit yaratish va ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Raqibga (obyektga) ta’sir ko‘rsatish Napoleon va Suvorovlar kabi sarkardalarning harbiy amaliyotida ham kuzatilgan. Jumladan, Napoleon qo‘shinida bir kecha-kunduzda 10.000 varaqa chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan ko‘chma bosmaxona bo‘lganligi ma’lum;

- ***axborot to‘qnashuvining uchinchi bosqichi***. Fan va texnika yutuqlarini harbiy faoliyatga tadbiq etishi bilan bog‘liq bo‘lib, harbiy-psixologik manbalarda “biologik” urush nomi bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Bu bosqichda, axborot yaratilgan biologik qurollarni texnik tasnifini namoyon etish uchun qo‘llanilib, harbiy boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotganlarning xizmat faoliyatiga va ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatib, maqsadi - siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishdan iborat;

- ***axborot to‘qnashuvining to‘rtinchi bosqichi***. Yer osti va yer usti resurslarni cheklanganligi natijasi, ularni qo‘lga kiritish uchun amalga oshiriladigan kurashda, ya’ni gegemonlikka intilish davomida axborot vositasida harbiy – texnik, intellektual, moliyaviy va iqtisodiy ustunlikka ega ekanligini namoyish etish uchun axborotdan foydalanish. Maqsad, turli siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ma’lum manfaatlarni himoyasini ta’minlashdan iborat.

Axborot to‘qnashuvi jarayonida insonni dunyo haqidagi yaxlit tasavvuri, uning kengligi va aniqligi parchalanib yuboriladi. Inson e’tiboriga qarama-qarshi fikrlar majmuasi “havola etiladi”. Bu jarayonni murakkabligi shundan iboratki, inson turli kanallar vositasida uzatilayotgan axborotlar oqimidan aniq (to‘g‘ri) axborotni tanlab olishning iloji yo‘q. Negaki har bir axborot tarkibida kishini boshqarish uchun ma’lum bir komponentlar kiritilgan bo‘ladi, ularning vazifasi kerakli ustanovkani (ko‘rsatmani) shakllantirishdan iboratdir.

Axborot to‘qnashuvi o‘z maqsadiga ega ekanligi bilan birga, uning o‘ziga xos vazifalari ham mavjud. Umumiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- ijtimoiy-oqartuv vazifasi. Axborot to‘qnashuvi turli ko‘rinishda obyektning (alohida shaxs, guruh (jamoa) yoki aholi tanlanishi mumkin) tafakkuri, hissiyotiga ta’sir ko‘rsatib, uning harakatini maqsadiga turli vositalar (reklama, filmlar, radio va teleshoular, internet va boshqalar) bilan ta’sir ko‘rsatib, harakatini o‘zgartirish.

ya’ni, oldindan tayyorlangan natijaga erishish uchun ularni yo‘naltirishdan iborat. Bunda nafaqat alohida bir obyekt miqyosida, balki keng, xalqaro doirada ijtimoiy fikrni shakllantirish uchun ham ish olib borilishi mumkin. Bunga misol tariqasida dunyoni Amerikacha “ko‘rish” (American World Viyew), dunyoni Rossiyacha “ko‘rish” (Russian World Viyew), dunyoni Xitoycha “ko‘rish” (China World Viyew) kabilarga erishish uchun olib borilayotgan axborot hurujlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. “Ko‘rish” o‘sha davlatlarning manfaatini himoya qilish, ularni siyosatiga yon bosish maqsadida munosabat bildirishda namoyon bo‘ladi;

- radioelektron hujum uyushtirish vazifasi. Elektromagnit to‘lqinlari yordamida u yoki bu obyektga turli signallarni yo‘naltirib, raqib psixikasiga ta’sir ko‘rsatib, faoliyatmandlikni izdan chiqarishdan iborat. Signallarni disebal ko‘rsatkichi bo‘yicha balandligi, ongning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada ong aks ettirish, ijodiy-kreativlik (yaratuvchanlik), regulyativ-baholovchi hamda refleksiv funksiyalarni bajara olmaydi;

- psixologik hujum uyushtirish vazifasi. Turli usullar yordamida alohida shaxs, guruh (jamoa) va fuqarolar psixologiyasiga (hayot mazmuni, qadriyatlari, qiziqish va dunyoqarashlari) ta’sir ko‘rsatib, ularni tanlangan yo‘li xatoligi to‘g‘risidagi fikrni uyg‘otishdan iborat.

Axborot to‘qnashuvi jarayonida uni o‘tkazayotganlar obyektning siyosiy, harbiy va ijtimoiy shayligiga putur yetkazib, o‘zining g‘alabasini ma’naviy-ruhiy jihatdan ta’minlashga erishadi. Shu sababli Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni SH.M.Mirziyoyev “Axborot-kommunikasiya tizimlarining keng qo‘llanishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi albatta, o‘z navbatida, axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda”[13] - deb, axborot xavfsizligini ta’minlash tizimini doimiy tarzda takomillashtirib borish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatib o‘tgan.

Biroq, ommaviy axborot vositalari (OAV) gazeta, radio, televideniye paydo bo‘lishi bilan, albatta, axborotni yoyish makoni kengaydi, axborot 1000 yil oldingiga qaraganda nafaqat shiddat bilan, balki turli qo‘shimcha vazifalarni bajarilishi bilan “harakat” qilmoqda.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida ko‘pgina davlatlarda mudofaaviy tizimning tizimostisi ko‘rinishida tashkiliy, mafkuraviy to‘qnashuvlar strategiyasi bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalar vujudga keldi va ularning asosiy maqsadi jismoniy, texnik, madaniy kabi yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida tanlangan obyektga (hudud, davlat tanlanishi mumkin) oldindan axborot xurujini o‘tkazib, harbiy yurishni muvaffaqiyatli kechishini ta’minlashdan iborat. Masalan, AQShda

[13]Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017, 46-bet.

“Ijtimoiy axborot qumitasi”, Buyuk Britaniyada “Dushman qo‘shini va aholisi orasida tashviqot Boshqarmasi, Fransiyada “Tashviqot xizmati”, Germaniyada “Bosh shtabining maxsus bo‘linmasi” kabilar shular jumlasidandir.

Birinchi jahon urushida harbiy to‘qnashuvlar bilan birgalikda axborot vositasi raqibning askarlariga psixologik ta’sir ko‘rsatishdan keng foydalanilgan. Bunda axborot vositalari yordamida raqibning harbiy xizmatchilariga ta’sir o‘tkazib, ularni o‘z tomoniga og‘dirish, to‘qnashuv kayfiyatini so‘ndirishga bo‘lgan da’vatlar varaqalar yordamida qo‘llanilgan. Varaqalar samolyot yordamida raqibni shaxsiy tarkibni joylashgan makonida va maxsus snaryadlar (snaryadlar varaqalarni tashash uchun mo‘ljallangan) vositasida tarqatilgan. Varaqalarda sara hayotga ega bo‘lish uchun, qurolni tashlab bu tomonga o‘tish, kuchlarning teng emasligi bilan qo‘rqitish va taslim bo‘lishga chaqiriqlar o‘z in’ikosini topgan.

AQSH harbiy-havo kuchlari XX-asrning 80-yillaridan boshlab harbiy sohada axborot vositalaridan foydalanish masalasini faol tadbiq etdi. Chunki axborot ham maqsad va ham qurol bo‘lishi mumkinligi haqidagi tasavvurlar shakllanib, axborot kurash vositasi ekanligi haqida munosabat modellari harbiy psixologlar tomonidan yaratib bo‘lgandi. Sovuq urushdan keyingi davrda, mudofaa va xavfsizlik tizimida yangi vazifalar paydo bo‘ldi. Masalan, AQSH Mudofaa vazirligi hujjatlarida “axborot to‘qnashuvi” atamasi keng qo‘llaniladigan bo‘ldi va 1991 yilda o‘tkazilgan, harbiy tarixda “Sahrodagi bo‘ron” nomi bilan muhrlangan jangovar harakatdan so‘ng bu tushuncha OAVlarda tez-tez qo‘llanila boshlandi.

Mazkur masala bo‘yicha dastlabki rasmiy hujjat sifatida AQSH Mudofaa vazirining 1992 yilning 21-dekabrdagi “Axborot to‘qnashuvi” nomli direktivasini keltirish mumkin. Shu bilan birga, mazkur atamaning kelib chiqishi va siyosiy-harbiy hamda ilmiy muloqotda ommaviylashuvini quyidagi omillarning ta’siri bilan vujudga kelganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- harbiy to‘qnashuvlarga qaraganda kam harajat talab etishi va samarali natija berishi bilan. Chunki harbiy to‘qnashuvlarda jismoniy (harbiylarni yo‘qotish), moddiy (o‘q-dori, texnikalarni yo‘q bo‘lishi) va ma’naviy (harbiy taktika va strategiyaga doir bilimlardan foydalanish);

- dushmanga sezdirmagan holda (zimdan) o‘z maqsadlarini amalga oshirish imkonini mavjudligi bilan. Turli axborot kanallari yordamida askarlar, kichik va katta ofiserlar tarkibiga yoki ularning yaqinlari vositasida harbiy harakatlar (yurishlar), yuqotishlar besamarligini uqtirish ko‘rinishida ta’sir ko‘rsatib, individual, jamoaviy (guruhiy-qism darajasida) jangovar shaylik darajasi pasayadi;

- axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanishi, qurol va aslahalarni ishlab chiqarishga nisbatan tez va arzon ekanligi va ko‘pfunksionalligi. Turli mazmundagi (SMS, MMS kabi shakllarda) bayonot, reklama, fotolavha, intervyu, munosabat tarzida harbiy harakat va to‘qnashuvlarning natijasi qanday poyoniga

etishi va kim g‘olibu kim mag‘lub ekanligini tarqatib, askar, turli toifadagi ofiserlar va ularning yaqinlariga ta’sir ko‘rsatib, kerakli qaror qabul qilishga undash (majburlash) oson kechadi;

- “qattiq kuch” (harbiy, moliyaviy-iqtisodiy, moddiy-texnik ko‘rinishlarda) vositasida doim ham muvaffaqiyatga erishish, g‘alabani ta’minlash imkoniyatini yo‘qligini harbiy to‘qnashuvlar tajribasi va ilmiy tadqiqotlarning natijasi asoslab berganligi;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasitasida “yumshoq kuch” (madaniyat, san’at, badiiy adabiyot, ijtimoiy reklama va boshqalar) tanlangan obyektga qo‘llanilganda, “hujum uyushtirilgan”ligini asoslashni murakkabligi va gohida isbotlab bo‘lmasligi jihatidan qo‘llanilayotgan tomon uchun qulayligi.

Harbiy nizolar va qurolli to‘qnashuvlarni harakat tarzi (taktika va strategiyasi) o‘zgarganligi sababli, oldin harbiy to‘qnashuvlarda qo‘llaniladigan “axborot-psixologik hujum” texnikasi, iqtisodiy faoliyatda keng qo‘llanila boshladi. Bundan ko‘zlangan maqsad moddiy naf ko‘rishdan, ma’lum bir ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni ta’sir ko‘rsatish doirasini kengaytirishdan (monopoliyaga erishishini ta’minlashdan) iborat. Misol tariqasida Nestle belgisi asosida ishlab chiqarilayotgan chaqaloqlar uchun mo‘ljallangan sutning tarkibi, ona sutining tarkibi bilan “barobar”ligini targ‘ib qiluvchi axborotlar yoki harbiy sanoatda “Kalashnikov konserni” (Rossiya Federatsiyasi, Tula shahri) harbiy qurol va o‘q-dorilar bozorida birinchilikni saqlab qolishi uchun izlanishlar va turli tadbirlarni o‘tkazilishini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Keltirilgan dalillar, axborot to‘qnashuvi (hujumi) olib borish bir nechta maqsadlar asosida olib borilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Muhimlari sifatida harbiy-psixologik nuqtai nazar asosida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tamiz:

- mudofaaviy faoliyatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan axborot va axborot makonini shartli raqib tomonidan norasmiy qo‘lga kiritish harakatlaridan himoyasini amalga oshirish;

- harbiy tizimni boshqarish uchun qo‘llaniladigan axborotni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilib, aniq iste’molchisiga borib etishini ta’minlash;

- mudofaa va xavfsizlikni ta’minlash uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasi haqidagi axborotni shartli raqibga tushmasligini va uni amalga oshirish jarayonini himoya qilish;

- siyosiy yetakchilar, jamoat arboblari, ularning shaxsi va faoliyatiga doir faqatgina xizmat doirasida foydalanish uchun qo‘llaniladigan axborotni himoya qilish;

- jamiyatda mudofaaviy ongni shakllantirish uchun qurolli kuchlarni solohiyati, tayyorgarlik darajasi va harbiy-texnik ta’minotga doir axborotlarni ommaviylashtirish;

- mamlakat, mintaqa yoki global sathda qurolli kuchlar imijini shakllantirish uchun axborot tayyorlash va yetkazish;

- mudofaa va xavfsizlikka doir qarorlar tayyorlash jarayoniga ta’sir ko‘rsatib, o‘z maqsadiga erishish kabilar.

Axborot to‘qnashuvi raqibni (iste’molchini) faoliyatiga, qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatib, ta’sir ko‘rsatuvchilarning manfaatiga mos tushadigan xulq namunasi yoki qaror qabul qilishni ta’minlash uchun qo‘llaniladi. bugungi kunda axborot to‘qnashuvini olib borishning asosiy vositasi Ommaviy axborot vositalari va ayniqsa “elektron” ommaviy axborot vositalari: -radio, televideniye va Internet tizimi hisoblanadi. Ularni “harakat maydoni”ni, iste’molchilarni jalb etish qamrovi kengligini inobatga olsak, g‘oyaviy va mafkuraviy kurash vositasi sifatida maqbul ekanligi bilan ajralib turadi. Maqbullik, axborot hujumini uyushtirilgan va olib borilayotgan tomonni manzili, maqsadini belgilash qiyin kechadi. Axborot to‘qnashuvini jarayon sifatida tasavvur etsak, unda vujudga keltirilgan tomonlar ko‘pincha “noaniqligi”cha qolishini ko‘rsatib, kurash olib borish uchun tomonlarni tayyorlangan axboroti tez sur’atlar bilan tarqatishini inobatga olsak, davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqadorligiga ham ta’sir ko‘rsatishini kuzatish qiyin emas. Xizmat faoliyatini psixologik ta’minlash mutaxassisi davlat manfaatlarini inobatga olgan holda, ularni zararlantirish tadbirlarini amalga oshirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26-yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. http://.googie.com/search. old.xs.uz/indekx.php/hon. 2018.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasidagi ishlarni sarhisob qilish, yangi vazifalar belgilash /O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik Kengashining navbatdagi yig‘ilishidagi ma’ruzasi. www.gazeta.uz.xavfsizkik-kengashi. 2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son Qarori.

4. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 iyundagi “Yoshlarni harbiy-Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-267-son qarori.

SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Mirashirova Nargiza Anvarovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti pofessori, psixol. f.f.d. (PhD)

Psixolog odamlarni murakkab yoki nostandart vaziyatlarda qo‘llab-quvvatlaydi, ularga o‘zini baholash, o‘z xatolarini tushunish, anglash, o‘z «Men»ini himoya qilish kabi bir qator vazifalarni bajaradi. Shu bois bugungi kunda nazariyotchi psixolog, amaliy psixolog, psixolog-tadqiqotchi, klinik-psixolog, yurist-psixolog, ta’lim muassasasi psixologi va boshqa faoliyat yo‘nalishida ishlayotgan psixologlar kategoriyalari mavjud. Bu borada psixologlar faoliyatini tizimlashtirish va tartibga solish uchun zarurati yuzaga kelmoqda. Mehnatning kasbiy qadriyatlarini shakllantirish dinamikasini belgilovchi omillar va shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, psixolog mutaxassisning faoliyatini yo‘lga qo‘yishda ikkita asosiy guruhga: 1-ijtimoiy-psixologik omillar; 2-kasbiy omillar ajratish muhim ekanligi belgilangan bo‘lib, xalqaro miqyosda psixologlar faoliyatiga qo‘yiladigan talablar mutaxassisning qiyofasi va kasbiy kamolotini muttasil o‘rganib borish masalasini hanuz dolzarblashtiradi.

Ijtimoiy psixologiyaning ob’ektlaridan biri ijtimoiy munosabatlarning ob’ekti, ham sub’ekti sifatida faoliyat yurituvchi shaxsdir. Rus psixologiya fani shaxsning ijtimoiy psixologiyasi muammosiga bir qator nazariy yondashuvlarni ishlab chiqdi. Biz ushbu maktab vakillari L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, V.N.Myasishev, K.K.Platonovlarning shaxs xususidagi ta’riflarini taqdim etishimiz o‘rinli. Bu esa o‘rganilayotgan muammo doirasidagi masalaning nazariy-metodologiyasi bilan bog‘liq tushuncha, metodika va tuzilmalarni aniqlashtirish imkonini beradi [1].

Sobiq ittifoq psixologiyasi vakili S.L.Rubinshteyn: «shaxs faoliyatda namoyon bo‘ladi va shakllanadi, shuning uchun xulq-atvorning turli jihatlari shaxsning namoyon bo‘lishi va uning shakllanishiga hissa qo‘shadi» deb izohlaydi.

V.N. Myasishevning fikriga ko‘ra, shaxsning birligi va xilma-xilligi munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligi va xilma-xilligi orqali aniqlanadi. U o‘zining yo‘nalishini (odamlarga, o‘ziga, tashqi dunyo ob’ektlariga bo‘lgan munosabatini) tavsiflovchi shaxs tuzilishidagi ustuvor munosabatlarni tanlaydi.

A.N. Leontevning fikricha, shaxs faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, uning holati va mahsuloti sifatida harakat qilishi mumkin. Shaxsning faoliyatini tahlil qilish uni ko‘p bosqichli tizim sifatida yoritishga olib keladi. Ta’lim shaxsning rivojlanishi va faoliyatini belgilaydigan tizimning asosi sub’ektiv faoliyatdir.

B.G.Ananev esa, shaxsning ijtimoiy munosabatlar va funksiyalar orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.Olimning g‘oyasiga ko‘ra, shaxs axloq va huquq normalari, xulq-atvor standartlari, ijro etiladigan rollar bilan bog‘liq motivlar va ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra yoritiladi.

K.K.Platonov faqat jamoatchilik bilan munosabatlarda inson butun yaxlitligida harakat qiladi, barcha holatlarini namoyon qiladi deb, taxmin qiladi. Uning fikriga ko‘ra, shaxs ijtimoiy psixologiya tomonidan o‘rganilayotgan har qanday hodisada doimo mavjud va namoyon bo‘ladi. L.S.Vigotskiyning madaniy va tarixiy konsepsiyasiga ko‘ra, shaxsning shakllanishi insonning madaniy rivojlanishi jarayonida sodir bo‘ladi.

Muallif (L.Kulikov) shaxs muammolarini tahlil etish asosida uning o‘rganish tuzilmasini quyidagi munosabatlar tartibida izohlashga erishdi. Tadqiqotda shaxsni o‘rganishda yangicha munosabatlar, izchil va muhim alomatlarini hisobga olgan holda shaxsni yetarlicha va asosligi o‘rganish muhimligini ko‘rsata oldi [1].

Ijtimoiylashuv – shaxs shakllanishi va kamolotining o‘ziga xos ijtimoiy tizimidir. Bu borada psixoanaliz asoschisi Z.Freydning o‘ziga xos munosabatlari mavjud. U ijtimoiylashuvni insonning ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda majburiy ishtiroki va uning ijtimoiy qonunlariga bo‘ysunishi deb hisoblagan [2].

I.S.Kon ijtimoiylashuvni ijtimoiy tajriba, ijtimoiy rollar va madaniyatning muayyan tizimi tomonidan assimilyatsiya qilish sifatida belgilaydi va bu jarayonda muayyan shaxs shakllanadi [3].

Ijtimoiylashuvning mazmuni – shaxs hayotining dastlabki daqiqalaridan boshlangan va uch sohada: faoliyat sohasida, munosabatlar sohasida va o‘z-o‘zini anglash sohasida amalga oshiriladigan shaxsni shakllantirish jarayoni. Bu uch sohaning umumiy tavsifi shaxsning tashqi dunyo bilan ijtimoiy aloqalarini kengaytirish, ko‘paytirish jarayonidir. A.N.Leontev faoliyat sohasidagi ijtimoiylashuvni insonning egalik qiladigan faoliyat sohalarini kengaytirish, ya’ni madaniy xulq-atvorning bosqichma-bosqich rivojlanishi sifatida aniqladi.

Muloqot sohasida ijtimoiylashuv muloqot doirasining asta-sekin kengayishi va uning mazmuni va shakllarining o‘zgarishi davomida yuzaga keladi. Muloqot ommaviy, guruh, shaxslararo, biznes sohasida bo‘lishi mumkin. O‘z-o‘zini anglash sohasida ijtimoiylashuv o‘ziga xos obrazni shakllantirish nuqtai nazaridan harakat qiladi.

Ijtimoiy psixologiyaning yetuk vakillaridan biri amerikalik psixolog va sotsiolog Ch. Kulining fikricha, «Men» konsepsiyasini ishlab chiqish uzoq jarayon davomida amalga oshiriladi va boshqa shaxslarning ishtirokisiz, ya’ni ijtimoiy muhitsiz, guruh tajribasisiz amalga oshirilmaydi. Ch. Kulining taxminiga ko‘ra, inson «Men»ni o‘zi tomonidan qabul qilingan boshqa odamlarning

reaksiyalariga asoslangan holda shakllantiradi. «Men»ning bu yondashuvi «Men ko‘zgu» deb ataldi. Ch.Kulining «Men ko‘zgu»si uch bosqichdan iborat tuzilmaga ega:

- boshqalarni idrok etishimiz;
- boshqalarning fikrlarini idrok etishimiz;
- bu fikrimiz haqidagi hissiyotlarimiz.

«Ijtimoiy ko‘zgu» doimo oldimizda va doimo o‘zgarib turadi. Turli shaxslar inson haqida o‘z fikrlarini bildiradilar, ularning reaksiyalarini kashf etadilar. Natijada, vaqt o‘tishi bilan bu uning qobiliyatini his qilishining o‘zgarishiga olib keladi. Rivojlanayotgan shaxs, «ijtimoiy oyna» rolini bajaradigan shaxslar guruhini tanlashda yanada talabchan bo‘ladi, uning fikri qadrlanadi. Shu bilan birga, agar shaxs bir yoki bir nechta fikrni noto‘g‘ri talqin qilsa, «ko‘zgu» buziladi.

Ch.Kulining nazariyasini rivojlantirgan holda J.Mid «muhim kishi» konetsepsiyasini ishlab chiqdi. «Muhim kishi» konsepsiyasiga ko‘ra atrofdagilar tomonidan boshqa bir shaxsning idrok etish mohiyatini tushuntiradi. «Umumlashgan boshqa» – bu mazkur guruh a’zolari o‘rtasida shaxs «men»ining shakllanishiga yordam beruvchi muayyan guruh xulq-atvorining umuminsoniy qadriyatlari va me’yorlarini ifodalaydi. Shunday qilib inson o‘z xulq-atvorini boshqalarga nisbatan ko‘rishni va ularning reaksiyalarini his qilishni o‘rganadi.

L.D.Gorbova ijtimoiylashuvning besh bosqichini belgilaydi, jumladan:

- tug‘ilishdan to o‘smirlik davrigacha davom etadigan birlamchi ijtimoiylashuv bosqichi yoki moslashish bosqichi;
- o‘smirda boshqalardan ajralib turish istagi paydo bo‘lgan individuallashtirish bosqichi.

G.M.Andreeva ijtimoiylashuvning uch bosqichini aniqlaydi: mehnatdan oldingi, mehnat va mehnatdan keyingi. Ushbu yondashuv ijtimoiylashuv ijtimoiy tajribani, birinchi navbatda, ish jarayonida o‘zlashtirishni nazarda tutishini hisobga oladi.

Mehnatdan oldingi bosqich inson hayotining mehnat faoliyati boshlanishigacha bo‘lgan davrini qamrab oladi va o‘z navbatida ikki davrga bo‘linadi:

- erta ijtimoiylashuv davri: bolaning tug‘ilishidan maktabga qabul qilinishigacha;
- o‘qish davri: maktab, universitet yoki boshqa ta’lim muassasasida o‘qishning barcha vaqti [4].

Shunday qilib, shaxsning ijtimoiy-psixologik talqini umumpsixologik qonuniyatlar bilan singishgan holda yaxlit tuzilmani hosil qilishga sabab bo‘ladi. Shu boisdan ham shaxs ijtimoiy kamolotga erishsa, ijtimoiylashuv jarayoni

ma’lum darajadagina tugallanadi. Ko‘pgina psixologlarning ta’kidlashicha, ijtimoiylashuv jarayoni insonning butun hayoti davomida davom etadi, lekin kattalarning ijtimoiylashuvi bolalarning ijtimoiylashuvidan farq qiladi. Kattalar ijtimoiylashuvi tashqi xatti-harakatni o‘zgartiradi va insonga ma’lum ko‘nikmalarni egallashga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Bolalarning ijtimoiylashuvi qadriyat yo‘nalishlarini shakllantiradi va xatti-harakatlarning motivatsiyasi bilan shug‘ullanadi. Ularning ijtimoiylashuvi jarayonida deviant xulq-atvorda namoyon bo‘ladigan muvaffaqiyatsizliklar bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Психология личности в трудах отечественных психологов / Составитель Л.В. Куликов. - СПб.: Питер, 2000. – 283 с.
2. Райх В. Анализ личности / Пер. С.Ю. Романюк, Т.В. Русина, Я.Л.Шапиро. – М.; СПб.: КСП+; Ювента, 1999. - 332 с.
3. Кон И.С. Психология ранней юности. – М.:Просвещение, 1989. 256 с.
4. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник / Г.М. Андреева. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Аспект-Пресс, 2014. – 365 с.

SOVUQ URUSHNING YASHIRIN FRONTI: 1969–1970-YILLARDA MISRDA SOVET ITTFOQI HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA QO‘SHINLARINING JANGOVAR FAOLIYATI VA HARBIY-TARIXIY AHAMIYATI

mayor R.X.SATTAROV

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti Axborot kommunikatsiya texnologilari instituti Quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa kafedrasi O‘t chishni boshqarish va jangovar ishlash sikli boshlig‘i

podpolkovnik A.A.Somitov

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti Axborot kommunikatsiya texnologilari instituti Quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa kafedrasi O‘t chishni boshqarish va jangovar ishlash sikli o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sovuq urush davrining nisbatan kam yoritilgan harbiy voqealaridan biri –1969–1970-yillarda Misr Arab Respublikasida Sovet Ittifoqi Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarining bevosita jangovar faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e’tibori 1967-yilgi Arab-Isroil urushidan keyin Yaqin Sharqdagi harbiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, Misrning Suvaysh kanali hududidagi “Yemirilish urushi” davrida havo hujumidan mudofaa tizimini qayta tiklash zarurati hamda SSSRning harbiy-texnik yordamdan bevosita harbiy ishtirokka o‘tish jarayoniga qaratilgan. 1969–1970-yillarda sovet harbiy xizmatchilari, zenit-raketa bo‘linmalari, radar mutaxassislari va aviatsiya ekipajlarining Misr hududida joylashtirilishi “Kavkaz” operatsiyasi doirasida amalga oshirildi. Maqolada C-75 va C-125 zenit-raketa komplekslarining qo‘llanilishi, sovet mutaxassislarining Misr havo mudofaa tizimidagi*

o‘rni, jangovar navbatchilikni tashkil etish va Isroil aviatsiyasining chuqur zarbalariga qarshi kurash tajribasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, 1970-yil 30-iyuldagi sovet va Isroil qiruvchi samolyotlari o‘rtasidagi bevosita havo jangi hamda ushbu voqealarning Sovuq urushdagi superdavlatlar qarama-qarshiligiga ta’siri baholanadi. Tadqiqot natijalari mazkur davrdagi Misr tajribasi sovet havo hujumidan mudofaa nazariyasi va amaliyotining rivojlanishida muhim harbiy-tarixiy tajribа bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Havo hujumidan mudofaa, SSSR, Misr, Isroil, Suvaysh kanali, Sovuq urush, “Kavkaz” operatsiyasi, C-75, C-125, radar, zenit-raketa qo‘shinlari, Yemirilish urushi.*

XX asrning ikkinchi yarmida Yaqin Sharq hududi nafaqat mahalliy Arab-Isroil qarama-qarshiligining, balki ikki superdavlat – Sovet Ittifoqi va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatning ham muhim maydonlaridan biriga aylandi. 1967-yilgi Olti kunlik urushdan keyin Misr va Isroil o‘rtasidagi qarama-qarshilik yangi bosqichga o‘tdi. Suvaysh kanali bo‘ylab muntazam artilleriya otishmalari, razvedka parvozlari, aviatsiya zarbalari va mahalliy operatsiyalar amalga oshirila boshlandi. Mazkur davr tarixda “Yemirilish urushi” nomi bilan tanilgan.

1967-yilgi urush natijasida Misr aviatsiyasi va havo mudofaa tizimi jiddiy talafot ko‘rgan edi. Shu sababli Misr rahbariyati o‘z havo hududini himoya qilish imkoniyatlarini qayta tiklash uchun Sovet Ittifoqiga murojaat qildi. Dastlab Sovet yordami qurol-yarog‘, harbiy texnika, instruktorlar va maslahatchilar yuborilishi shaklida amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik vaziyat tubdan o‘zgardi. SSSR Misr hududida o‘zining muntazam harbiy bo‘linmalarini joylashtirishga qaror qildi.

Mazkur jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri “Kavkaz” kod nomi bilan bog‘liq operatsiya bo‘ldi. Zamonaviy tadqiqotlarda uning tayyorgarligi 1969-yilning yoz va kuz oylaridayoq boshlanganligi ko‘rsatiladi. Bu holat tarixshunoslikda ilgari keng tarqalgan “Kavkaz” faqat 1970-yil yanvaridagi Isroilning chuqur zarbalaridan keyin boshlangan» degan qarashni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi [1; 2].

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, ushbu voqealar ko‘pincha 1973-yilgi Yom Kippur urushi soyasida qolib ketadi. Biroq 1969–1970-yillardagi voqealar Sovet Ittifoqining Yaqin Sharqdagi harbiy ishtirokining yangi sifat bosqichini ifodalaydi. Aynan shu davrda Sovet havo hujumidan mudofaa bo‘linmalari real jangovar sharoitda zamonaviy aviatsiyaga qarshi kurash olib bordilar.

1967-yildan keyingi harbiy-siyosiy vaziyat. 1967-yilgi urushdan keyin Isroil Sinay yarim orolini egallab oldi. Misr esa o‘z hududlarini qaytarish va Isroilning harbiy ustunligini kamaytirish maqsadida Suvaysh kanali bo‘ylab uzoq muddatli qarama-qarshilikka o‘tdi.Bu davrning o‘ziga xos jihati shundaki, harbiy harakatlar to‘liq miqyosli urush shakliga kirmagan bo‘lsa-da, tomonlar doimiy ravishda bir-birining harbiy imkoniyatlarini sinab bordilar. Isroil aviatsiyasi Misr

hududidagi harbiy obyektlarga zarbalar berdi, Misr artilleriyasi esa Suvaysh kanali sharqidagi Isroil pozitsiyalarini o‘qqa tutdi.

1969-yilga kelib Isroil aviatsiyasi havo ustunligining katta qismini o‘z qo‘lida saqlab qoldi. Bu holat Misrning harbiy rahbariyati uchun jiddiy muammo tug‘dirdi. Havo hujumidan mudofaa tizimini faqat mavjud Misr bo‘linmalari hisobidan tiklash yetarli emasligi tobora aniq bo‘lib bordi. Shu sharoitda Sovet Ittifoqining roli kuchaydi. Sovet rahbariyati uchun Misrning strategik ahamiyati bir necha omil bilan belgilanardi: Yaqin Sharqdagi siyosiy ta’sirni saqlab qolish, O‘rta Yer dengizidagi strategik mavqeni mustahkamlash va AQShning Isroil bilan harbiy hamkorligiga qarshi muvozanat yaratish.

Shunday qilib, Misr havo hududini himoya qilish masalasi oddiy harbiy-texnik yordam masalasidan chiqib, superdavlatlar o‘rtasidagi strategik qarama-qarshilikning bir qismiga aylandi.

“Kavkaz” operatsiyasining shakllanishi. “Kavkaz” operatsiyasining eng qiziqarli jihatlaridan biri uning maxfiylik sharoitida tashkil etilganidir. Ginor va Remez tadqiqotlariga ko‘ra, operatsiyaning tashkiliy mexanizmi bo‘linmalar qisman shakllantirilib, ayrim qismlar Misrga yuborilgandan keyin rasman rasmiylashtirilgan. Bu yondashuv Sovet rahbariyatiga harbiy joylashtirishning siyosiy ko‘lamini yashirish imkonini bergan [1].

Operatsiyaning asosiy vazifasi Misrning muhim hududlarini havo hujumidan himoya qiluvchi yaxlit tizimni yaratish edi. Buning uchun zenit-raketa bo‘linmalari, radar vositalari, boshqaruv punktlari, aloqa vositalari va texnik ta’minot elementlari birgalikda qo‘llanildi.

AQSh Markaziy razvedka boshqarmasining keyinchalik oshkor qilingan materiallari Sovet harbiy kontingenti 1970-yil davomida tez sur’atlar bilan oshganini ko‘rsatadi. Ayrim baholarga ko‘ra, 1970-yil yanvarida Misrdagi Sovet harbiy xizmatchilari soni 4 mingdan kam bo‘lgan bo‘lsa, iyul oyiga kelib 13 mingdan oshgan. Ularning katta qismi havo hujumidan mudofaa tizimlariga tegishli bo‘lgan [3]. Bu raqamlarning o‘ziyoq “Sovet maslahatchilari” tushunchasi voqelikni to‘liq aks ettirmasligini ko‘rsatadi. Gap ayrim instruktorlar haqida emas, balki harbiy texnika, boshqaruv va jangovar navbatchilikni amalga oshirishga qodir bo‘lgan katta harbiy tuzilma haqida ketmoqda.

Sovet zenit-raketa qo‘shinlarining Misrdagi vazifalari. Sovet havo hujumidan mudofaa kuchlarining Misrdagi asosiy vazifasi muhim harbiy-siyosiy va iqtisodiy obyektlarni Isroil aviatsiyasi zarbalaridan himoya qilishdan iborat edi. Bu vazifani bajarishda turli radioelektron razvedka va radar vositalari, boshqaruv punktlari hamda zenit-raketa komplekslari yagona tizim sifatida ishlashi kerak edi. Havo hujumidan mudofaa samaradorligi alohida raketa kompleksining texnik


imkoniyatlari bilan emas, balki butun tizimning o‘zaro bog‘langan ishlashi bilan belgilanardi.

Misrda Sovet bo‘linmalari tomonidan C-75 va C-125 turidagi zenit-raketa tizimlaridan foydalanilgan. AQSh razvedka hujjatlarida 1970-yil boshidagi Sovet jangovar kontingenti tarkibida SA-3, ya’ni Sovet nomenklaturasidagi C-125 tizimlari
va МиГ-21qiruvchi samolyotlari mavjud bo‘lganligi qayd etiladi [4].

C-75 tizimi yuqori va o‘rta balandliklarda uchuvchi nishonlarga qarshi kurashda katta tajribaga ega edi. C-125 esa pastroq balandliklarda uchuvchi nishonlarga qarshi kurash imkoniyatlarini kengaytirdi. Shunday qilib, turli balandlik diapazonlarini qamrab oluvchi tizimlar birgalikda qo‘llanilib, havo hujumidan mudofaaning qatlamli xarakterini kuchaytirdi.

Mazkur tajribaning muhim jihati — radar ma’lumotlarini yig‘ish, nishonni aniqlash, uni kuzatish, boshqaruv qarorini qabul qilish va raketa vositalaridan foydalanish jarayonlarini yagona tizimga birlashtirish edi.

Havo mudofaasi tizimining yashirin joylashtirilishi. Misrdagi Sovet harbiy ishtirokining yana bir o‘ziga xos jihati maxfiylik edi. Sovet harbiy texnikasi va xizmatchilarining mavjudligi dastlab rasman tan olinmagan. Tadqiqotchilar Sovet harbiy xizmatchilarining Misr kiyimlariga o‘xshash kiyimlardan foydalanishi, ayrim texnik vositalarning Misr ranglariga bo‘yalishi va bo‘linmalarning joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning cheklanganligini qayd etadilar [5].



1-rasm. Misr xududida sovet qo‘shinlarining joylashuvi.

Biroq zamonaviy razvedka vositalari bunday katta miqyosdagi harbiy joylashtirishni uzoq vaqt yashirish imkonini bermadi (1-rasm). Isroil razvedkasi radioaloqa, radar faoliyati, qo‘mondonlik uslubi va boshqa belgilar orqali Misr hududida Sovet harbiy bo‘linmalari faoliyat yuritayotganini aniqlay boshladi. Bu holat Sovuq urushning muhim xususiyatini ko‘rsatadi: tomonlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik ko‘pincha rasmiy urush e’lon qilmasdan, razvedka, texnika, maslahatchilar va cheklangan harbiy kontingentlar orqali amalga oshirilgan.

Sovet havo mudofaasi va Isroil aviatsiyasi o‘rtasidagi qarama-qarshilik. 1970-yil davomida Misr osmonidagi vaziyat tobora murakkablashdi. Isroil aviatsiyasi Misr hududining chuqur qismlariga zarba berish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, Sovet zenit-raketa tizimlarining joylashtirilishi uning harakat erkinligini cheklay boshladi.

Bu yerda muhim harbiy-tarixiy jihat mavjud. Sovet havo mudofaasi faqat alohida raketa komplekslari yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan boshqaruv tizimi sifatida shakllantirildi.

AQSh razvedka hujjatlarida 1970–1972-yillarda Sovet mutaxassislarining Misr havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa bo‘linmalaridagi ishtiroki juda keng bo‘lganligi ko‘rsatiladi. Hujjatlarda mingdan ortiq Sovet harbiy xizmatchisi o‘qitish va maslahat faoliyatida qatnashgani, Sovet mutaxassislari zenit-raketa bo‘linmalarining turli darajalarida xizmat qilgani qayd etilgan [6].

Shunday qilib, Sovet harbiy ishtirokining natijasi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ldi. Birinchidan, Sovet bo‘linmalari o‘zlari jangovar vazifalarni bajardilar. Ikkinchidan, Misr harbiy xizmatchilarining tayyorgarlik darajasi oshirildi.

Keyinchalik AQSh razvedkasi Misr havo kuchlari va havo mudofaasi xodimlarining tayyorgarlik darajasi sezilarli yaxshilanganini qayd etgan. Bu holat Sovet harbiy maktabining Misr havo mudofaasi tizimiga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi [6].

1970-yil 30-iyul: Sovet va Isroil aviatsiyasining bevosita to‘qnashuvi. Mazkur tarixiy davrning eng kam ma’lum bo‘lgan voqealaridan biri 1970-yil 30-iyulda yuz bergan havo jangi hisoblanadi.

Ushbu voqea «Rimon 20» operatsiyasi nomi bilan bog‘liq bo‘lib, unda Isroil aviatsiyasi Misr hududida xizmat qilayotgan Sovet uchuvchilari boshqargan МиГ-21samolyotlari bilan bevosita to‘qnashgan [7]. Bu hodisa alohida tarixiy ahamiyatga ega. Chunki Sovuq urush davrida AQSh va SSSR o‘rtasidagi qarama-qarshilikning asosiy maydoni Yevropa bo‘lmagan sharoitda, ikki superdavlat harbiy xizmatchilari amalda bir-biriga qarshi jangovar vazifalarni bajargan. 1970-yil 30-iyuldagi jang natijasida beshta Sovet МиГ-21samolyoti urib tushirilgani haqida Isroil manbalarida qayd etiladi. Sovet tomonida uchuvchilar halok bo‘lgan. Isroil tomoni esa o‘z samolyotlarini yo‘qotmaganini bildirgan [7].

Biroq mazkur voqeani faqat «havo jangi natijasi» sifatida baholash yetarli emas. Uning asosiy ahamiyati siyosiy edi. Mojaroning yanada kuchayishi AQSh va SSSRning bevosita qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin edi.

Shu sababli ushbu jang Sovuq urush tarixidagi xavfli chegaralardan biri sifatida baholanishi mumkin.

“Kavkaz” operatsiyasining havo hujumidan mudofaa tarixidagi ahamiyati.

1969–1970-yillardagi Misr tajribasi bir qator muhim harbiy xulosalarni shakllantirdi.

Birinchidan, zamonaviy havo hujumidan mudofaa tizimining samaradorligi faqat zenit-raketa kompleksining texnik imkoniyatlari bilan belgilanmaydi. Radar, aloqa, boshqaruv, razvedka, aviatsiya va zenit-raketa vositalarining yagona tizim sifatida ishlashi muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, havo hujumidan mudofaa kuchlarining jangovar barqarorligi ularning joylashuvini yashirish, zaxira pozitsiyalarini tayyorlash va dushman aviatsiyasining razvedka imkoniyatlarini cheklash bilan bevosita bog‘liq. Uchinchidan, Misrdagi voqealar Sovet harbiy rahbariyatiga yuqori texnologiyali aviatsiyaga qarshi real jangovar sharoitda havo mudofaasi tizimlarini sinash imkonini berdi.

To‘rtinchidan, ushbu tajriba faqat Sovet Ittifoqi uchun emas, balki Misr uchun ham muhim bo‘ldi. Sovet mutaxassislarining ishtiroki mahalliy harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini oshirdi va keyinchalik Misrning o‘z havo hujumidan mudofaa tizimini boshqarish imkoniyatlarini kuchaytirdi.

CIAning keyingi tahliliy hujjatlarida 1970-yildan boshlab Sovet tayyorgarligi Misr uchuvchilari va havo mudofaasi xodimlarining malakasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani qayd etilgan [6].

Harbiy-tarixiy saboqlar:

Misr tajribasi bugungi havo hujumidan mudofaa tizimlari uchun ham harbiy-tarixiy nuqtayi nazardan qiziqdir.

Birinchi saboq — integratsiya. Alohida zenit-raketa komplekslari kuchli bo‘lishi mumkin, ammo ular yagona razvedka va boshqaruv tizimiga birlashtirilmasa, ularning umumiy samaradorligi kamayadi.

Ikkinchi saboq — qatlamlilik. Turli balandliklarda va turli masofalarda uchuvchi nishonlarga qarshi har xil vositalardan foydalanish havo mudofaasining yashovchanligini oshiradi.

Uchinchi saboq — mobilitet va yashirinlik. Havo hujumidan mudofaa pozitsiyalarining aniqlanishi ularni dushman aviatsiyasining asosiy nishoniga aylantiradi. Shu sababli pozitsiyalarni almashtirish, niqoblash va zaxira joylarni tayyorlash muhim omil bo‘lib qoladi.

To‘rtinchi saboq — inson omili. Hatto eng zamonaviy texnika ham malakali operator, komandir, radar mutaxassisi va texnik xodimlarning tayyorgarligisiz yuqori samaradorlikni ta’minlay olmaydi.

Beshinchi saboq — harbiy-siyosiy cheklovlar. Misr hududidagi Sovet qo‘shinlarining faoliyati faqat harbiy vazifalar bilan cheklanmagan. Har bir jangovar harakat AQSh va SSSR o‘rtasidagi global qarama-qarshilikni kuchaytirishi mumkin edi. Shu sababli harbiy qarorlar siyosiy oqibatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda 1969–1970-yillarda Misr Arab Respublikasida Sovet Ittifoqi Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarining faoliyati Sovuq urush tarixining nisbatan kam o‘rganilgan, biroq harbiy nuqtayi nazardan nihoyatda muhim sahifalaridan biridir.

“Kavkaz” operatsiyasi SSSRning Yaqin Sharqdagi harbiy siyosatida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Sovet Ittifoqi Misrga faqat harbiy texnika va mutaxassislar yetkazib berish bilan cheklanmay, o‘zining muntazam havo hujumidan mudofaa bo‘linmalarini ham joylashtirdi. Zamonaviy tadqiqotlar ushbu jarayonning tayyorgarligi 1969-yilning ikkinchi yarmidayoq boshlanganini ko‘rsatmoqda [1; 2].

Misrdagi Sovet havo mudofaasi tizimi radar, boshqaruv, zenit-raketa va aviatsiya vositalarini yagona tizimga birlashtirish tajribasini berdi. Ushbu tajriba Isroil aviatsiyasining harakatlarini cheklashga va Misrning strategik obyektlarini himoya qilish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qildi.

1970-yil 30-iyuldagi Sovet va Isroil uchuvchilari o‘rtasidagi bevosita havo jangi esa ushbu qarama-qarshilikning qanchalik xavfli darajaga yetganini ko‘rsatdi. Bu hodisa ikki superdavlat o‘rtasidagi Sovuq urushning ba’zan yashirin, ammo real jangovar to‘qnashuvlarga aylanganini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, Misr tajribasi havo hujumidan mudofaa tarixida uchta asosiy jihat bilan ahamiyatlidir: birinchidan, u Sovet HHM tizimining real jangovar sharoitda qo‘llanilishini ko‘rsatdi; ikkinchidan, turli havo mudofaa vositalarini yagona tizimga birlashtirish zaruratini tasdiqladi; uchinchidan, mahalliy harbiy xizmatchilarni tayyorlash va texnik tizimlarni ekspluatatsiya qilish tajribasining strategik ahamiyatini namoyon etdi. Mazkur voqealar bugungi kunda ham harbiy tarixni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy havo hujumidan mudofaa tizimlarining rivojlanish tarixini tushunish uchun faqat texnik taraqqiyotni emas, balki real jangovar tajriba, qo‘mondonlik qarorlari, inson omili va harbiy-siyosiy sharoitning o‘zaro ta’sirini ham hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ginor I., Remez G. The Soviet-Israeli War, 1967–1973: The USSR's Military Intervention in the Egyptian-Israeli Conflict. –Oxford: Oxford University Press, 2017. –400 p.

2. Ginor I., Remez G. What Triggered Kavkaz. Refuting Heikal‘s Version. // The Soviet-Israeli War, 1967–1973. –Oxford: Oxford University Press, 2017. –P. 113–124.

3. Central Intelligence Agency. Soviet Military Capabilities. –Washington, D.C.: CIA, declassified intelligence assessment.

4. Central Intelligence Agency. The Soviet Military Presence in Egypt. –Washington, D.C.: CIA, declassified intelligence report.

5. Abdalla M. Soviet military strategy in the Middle East: Operation “Caucasus” 1969–1970. // Vostok. Afro-aziatskie obshchestva: istoriya i sovremennost. –2026. –DOI: 10.31696/S086919080038077-1.

6. Central Intelligence Agency. Proficiency of Egyptian Air Force and Air Defense Personnel. –Washington, D.C.: CIA, declassified memorandum, 1973.

7. Israel Hayom. When the IAF showed the Soviets who was top gun. –2015. –Material on the aerial confrontation of 30 July 1970.

8. Laron G. Book Review: The Soviet–Israeli War 1967–1973. Isabella Ginor and Gideon Remez. // War in History. –2018. –Vol. 25, № 3. 458–459 p.

TALABALARDA KASBIY-IRODAVIY SIFATLAR SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI DESTRUKTIV AXBOROTLARNING O’RNI

Djumabayeva Manzura Bagibekovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrasi dotsent v.b

Annotatsiya: *mazkur ilmiy maqolada talabalarni destruktiv axborotlardan himoyasini ta’minlashning metodologik asoslari taxlil qilinib, xorijiy davlatlari misolida ilg‘or armiyalar tajribasi o‘rganib chiqilgan hamda talabalarni destruktiv axborotlardan psixologik himoyasini ta’minlash yo‘llari aniqlanib, shaxsiy tarkibning destruktiv axborotlardan psixologik himoyasini usullari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, axborot ochligi, mafkuraviy kurash, axborot xuruji, dezinformatsiya, manipulyatsiya, targ‘ibot, inqirozli holatlarni boshqarish, ig‘vogarlik, diskreditatsiya, fitna.*

Annotation: *In this article methodological principles analyzed to safe military servicers from destructive information, and studied practice of advanced armies instance of members of NATO and ESF and so determined and systematized the way of development of organ education and ideology to do physiologically safe military servicers from destructive information.*

Key words: *globalization, information hunger, ideological struggle, information attack, misinformation, manipulation, propaganda, crisis management, provocation, discredit, conspiracy.*

Insoniyat tarixiga nazar solsak, noa'nanaviy tahdidlar xalqaro mojarolarning qiyofasini butunlay o'zgartirmoqda va informatsion-psixologik xurujlar sezilarli xavf-xatar tug'dirmoqda. Ular armiyamizning negiziga putur yetkazish, avvalo, uning ma'naviy-axloqiy asoslariga ta'sir o'tkazishga urinish va shuningdek, zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalanish orqali bizning bunyodkorlik ruhidagi boy madaniyatimiz, ma'naviy qadriyat va an'analarimizga mutlaqo zid bo'lgan buzg'unchi g'oya va tushunchalarni yoshlarimizning ongu tafakkuriga singdirishga qaratilgani bilan, ayniqsa, xatarli" deya aytgan so'zlarining o'zigina ushbu mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi va axamiyati naqadar muxim ekanligini isboti bo'la oladi.

Axborot faoliyati to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni sintez qilish asosida axborot ta'sirining istalgan ob'ekti uchun xavfning yuzaga kelishi mexanizmlarini ochib berish zarur. Faqatgina shu yo'l bilan zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash usullarini aniqlab olish, turli xildagi destruktiv axborot ta'sirlaridan himoya qilishning o'ziga xos jihatlarini ochib berish mumkin bo'ladi.

Axborotning xossalari shartli bo'lsada, uning foydaliligi, qabul qiluvchi sub'ektga ta'sir qilish darajasi bilan belgilanadi. Agarda uzatilayotgan destruktiv axborot ta'sirga ega bo'lsa va uni qabul qilayotgan iste'molchining ongini egallab uning ijtimoiy xarakatlarida jamiyat va davlat manfaatlariga zid bo'lsa bunday axborotlar bizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqorida biz destruktiv axborotning salbiy ta'siri to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tdik keling ushbu so'zning qisqaroq lug'aviy ma'nosiga ta'rif berib o'tsak. **Destruktiv** - (lot. destructio-yo'q qilish, biror narsaning normal tuzilishini buzish) - insonning tashqi, tashqi ob'ektlarga yoki ichkariga, o'z-o'zidan va bu munosabatga mos keladigan xatti-harakatlarga salbiy munosabati.

Britaniya ingliz tilida: **"Destructive"** yo'q qilishga olib keladigan yoki olib kelishga moyillik, salbiy, halokatli, zarar, shikast, qurollarining halokati, quvvatni ijodiy yoki halokatli tarzda ishlatish.

Amerika ingliz tilida: vayron qilish, vayronagarchilikni keltirib chiqaradigan yoki ishlab chiqaradigan, yo'q qilish, shunchaki salbiy, foydali emas, halokatli**.** [1]

Tashqi dunyo ob'ektlariga qaratilgan buzg'unchi xatti-harakatlarning maqsadlariga qarab, P. Korolenkoning quyidagi atributlari mavjud: tirik mavjudotlarni yo'q qilish (qotillik, bezorilik, qiynoq, kannibalizm); jamoatchilik bilan aloqalarni qasddan buzish (terroristik harakatlar, davlat to'ntarishlari, inqiloblar); tabiiy muhit ob'ektlariga yoki jonsiz narsalarga zarar yetkazish tushiniladi. [2]

Yuqorida biz destruktivlik tushunchasi to'g'risida to'xtalib o'tdik. Keling endi destruktiv g'oyalarning mamlakatimizning ko'p sonli qismini tashkil qiluvchi yoshlarga shu o'rinda talabalarga salbiy ta'siri to'g'risida fikrlarni ko'rib chiqsak.

Masalan, giyohvandlik, ichkilik, jinoyatchilik, turli destruktiv g‘oyalar ta’siriga tushib qolayotganlarning ma’lum qismi yoshlar hissasiga to‘g‘ri kelayotgani ham bor gap.

Destruktiv axborot oqimining ko‘payayotgani, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘zgarayotgani fuqarolarning axboriy-psixologik xavfsizligini ta’minlash borasida individual, guruhiy va jamiyat darajasida tegishli chora-tadbirlar belgilanishi va amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Mutaxassislar destruktiv faoliyat mohiyatan turli ob’ekt yoki tizimlarni vayron qilishga nisbatan intilishda namoyon bo‘lishini va uning kelib chiqish sabablarini quyidagicha tavsiflashgan:

a) talabalarda ijtimoiy mavqening noaniqligi, pozitsiyalar marginalligi (xudbinlashuvi), psixofiziologik o‘zgarishlar ularni yot, buzg‘unchi ta’sirlarga nisbatan ancha zaif qilib qo‘yadi;

b) xohish-istaklar beqarorligi, maqsadlar noaniqligi, o‘zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan toqatsizlik, shoshma-shosharlik ba’zi talabalarni hayotiy tajribaga ega komandir boshliqlar va na’munali talabalardan uzoqlashtirib, o‘zi singari toifalar davrasiga undaydi, ijtimoiy mansublik, qiziqishlar umumiyligi nuqtai nazaridan ular ehtiyojini qondiruvchi turli guruhlarga moyil bo‘lib qoladi;

v) jamoalarda madaniy me’yor va «ustanovka»lar shakllanadi, o‘ziga xos qadriyatlar qo‘llab-quvvatlanadi, «biz» va «ular» degan psixologik qarama-qarshilik yuzaga kelishiga asos bo‘ladigan omillar tarkib topadi.

Ayrim talabalardagi qiziqqonlik, xavf-xatar romantikasi, o‘zining kimligini ko‘rsatib qo‘yishga ishtiyoq, mafkuraviy immunitet, axborot iste’moli madaniyatining shakllanmagani ba’zan nafaqat ish, balki davlat, jamiyat, atrofdagilar, o‘zi, oilasi uchun ham xavfli xatti-harakatlarni sodir etishga olib keladi.

U.Qodirovning fikricha bugungi axborotlashgan asrda biz OAV orqali har kuni, har soat, har lahzada davlatlar siyosatiga qarshi, odamlar manfaatiga zid, ularning ongini axboriy mahsulotlar bilan mahv etishga qaratilgan minglab xabarlardan xabardor bo‘lib turibmiz. Ammo O’zbekistonda olib borilayotgan oqilona tinchlikparvar siyosat, yaqin qo‘shnilar, shuningdek, dunyodagi 135 ta davlat bilan olib borilayotgan do‘stona aloqalar tufayli tinch, osoyishta, barqarorlikka erishgan mamlakatda hayot kechiryapmiz. Shunday bo‘lsa-da, davlat siyosatiga to‘g‘ri kelmaydigan, umummilliy g‘oyalarga zid, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni inkor etuvchi har qanday g‘oyaga qarshi kurashish har birimizning fuqarolik burchimiz bo‘lib qolishi kerak. [3]

Tadqiqotchi J.Bakayevning tabiriga ko‘ra: bugungi kundalik muloqatda ishlatilayotgan axborot tushunchasining ikki xil lug‘aviy ma’nosi bor. U lotincha *informatio* – izohlash, bayon qilish hamda arabcha “axbor” – xabarlar, ma’lumotlar degan mazmunda ishlatiladi. Umumiy tushunchada u olamda ro‘y berayotgan

barcha jarayonlar, zamon va makondagi voqea va hodisalar to‘g‘risidagi xabarni aks ettiradi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, axborot bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlarda hal qilinmagan masalalar haligacha mavjud. Axborot barcha moddiy yoki – faqat tirik organizmlarga xosmi yohud ongli ravishda harakatlanuvchi jonzodlarga oid tushunchami degan munozara hali-hanuzgacha davom etmoqda. Ayni paytda mazkur tushunchaning texnik, huquqiy, ijtimoiy va boshqa talqinlariga oid turlicha yondashuv va ilmiy munozaralar natijasi sifatidagi ko‘plab tasniflari ma’lum. Ammo, uning umumiy, barchani to‘la-to‘kis qoniqtiradigan tasnifi hanuzgacha ishlab chiqilmagan. Bu borada qadimdan turlicha g‘oya va qarashlar mavjud bo‘lsada, XX asrga kelib, N.Viner, R.Xartli, K.Shennon, N.Rashevskiy va boshqa bir qator olimlarning axborotga bergan tasniflariga katta e’tibor berilmoqda. [4]

Demak, shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi u qabul qilayotgan axborotning yuqorida qayd etib o‘tilgan o‘lchamlari va asosiy xususiyatlariga bog‘liqdir.

Shu o‘rinda global axborot makonida insonlarga destruktiv ta’sir etuvchi axborot oqimi asosan media kanal va vositalar orqali amalga oshirilmoqda.

S.Babadjanov o‘zining tadqiqotlarida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan. **Media** - lotincha media, medium - vosita, o‘rtada turuvchi, muhit ma’nosini anglatadi va an’anaviy (bosma, radio, ovozli, kinematograf, televideniye) hamda zamonaviy ommaviy axborot vositalari (video, mobil telefonlar, CD, DVD, kompyuter, internet)ni o‘z ichiga oladi. Axborotlashgan jamiyat davrida har bir inson o‘zining ongli hayotining ilk davrlaridan boshlab kerakli axborotlarni mustaqil ravishda izlash, mediakanallar orqali ko‘rgan, o‘qigan va eshitganlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lishni o‘rganishi, mediamatnlarni tanqidiy tahlil qilish va baholay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Fikrimizning isboti sifatida media kanallar orqali berilayotgan eng keng tarqalgan G’arb seriallarini misol qilishimiz mumkin. Albatta, ular ichida tarbiyaviy jihatdan ma’lum bir qimmatga egalari ham bor, lekin bizning milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizga mos kelmaydigan, ko‘p hollarda o‘zligimiz, mentalitetimizga tamomila teskari bo‘lganlarining ham mavjudligini hayot ko‘rsatmoqda.

Media kanallar va ijtimoiy tarmoqlar (Fecbook, Instagram, You-tub, Tik tok va boshqalar) orqali namoyish etilayotgan G’arb seriallari va turli ma’naviyatsiz roliklar go‘yoki oddiy hayotiy vaziyatlar asosiga qurilgan syujet orqali tomoshabinlarga zo‘ravonlik, behayolik g‘oyalarini xuddi bir oddiy holat sifatida, me’yor va «G’arbning ommaviy madaniyati» sifatida singdirilib kelinmoqda. Aslida G’arb davlatlari aholisining aksariyati ham bunday axloqiy me’yorlarni qo‘llab-quvvatlamaydi.

Shu o‘rinda talabalarga turli doiralarda ta’sir etuvchi axborot manbaining o‘rni katta. Umuman olganda, axborot manbai insonning bilim dunyosini boyitishi

bilan birga uning qarashlari, ruhiyati va qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, uni **salbiy yoki ijobiy** axborot manbalariga ajratish mumkin. Bizning fikrimizcha, talabalarning tinchlik va urush davrida axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashda aynan salbiy axborot manbasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. **Salbiy axborot manbai** tushunchasiga mahalliy va xorijlik mutaxassislar tomonidan turli ta’riflar berilgan. Jumladan, bu haqda professor A. Mo‘minov shunday deydi: “Bir guruhga o‘z maqsadlarini ko‘zlab, boshqalarga axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatishning turli usullaridan faydalanadigan, boshqalarning manfaatlarini hisobga olmaydigan, ularni chalkashtiradigan, boshqalarning manfaatlariga zid harakat qilgan holda ularga ziyon yetkazadigan odamlarning xatti-harakatlarini birlashtirish mumkin” [5].

Mutaxasislarning fikrlariga ko‘ra agar axborot destruktiv maqsadlarda amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda bu axborot buzilgan axborot sifatida baholanadi.

Destruktiv axborotlarning quyidagi asosiy shakllariga ajratish mumkin:

1. **“Ob’ektiv – qalbakilashtirilgan axborot”**. Bunda ongli ravishda yoki beixtiyor ob’ektiv axborotning asl nusxasi qalbakisiga almashtirilib, buzib ko‘rsatiladi, sohtalashtiriladi, oqibatda bema’ni qarashlar va g‘oyalar yuzaga keladi. Bunday holda go‘yoki voqea va hodisa yashirilmaydi, ammo ular haqidagi axborot soxtalashtiriladi.

2. **“Tizimli-chalg‘ituvchi axborot”**. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy holati, boshqa xalqlar va davlatlar bilan munosabatlari va h.k. borasidagi holatni noto‘g‘ri belgilovchi - “chalg‘ituvchi axborot” bo‘lib hisoblanadi. Bunday axborot ham sub’ektiv jihatdan e’tiborni tortuvchi siyosiy g‘oyalarni yuzaga keltirishi mumkin.

3. **“Uyushtirilgan – destruktiv (buzg‘unchi) axborot”**. Muayyan jamiyatda axborotning to‘g‘ri tartibga solinishi axloqiy tamoyillarni, iqtisodiy talablarni, barkamol avlodni tarbiyalashni ta’minlaydi. Afsuski, muayyan bir holatlarda izchillikning buzilishi, fikrlarning tugal emasligi, yanglish fikrlashlar, tartibsizliklar, axloqiy tuturuqsizliklar natijasida “siyosiy g‘oyalarning keskin o‘zgarishi”ni yuzaga keltiruvchi, ma’naviy qadriyatlarni ham o‘zgartirib yuboruvchi “buzg‘unchi axborot” tarqatilishi bilan bog‘liq salbiy jarayon ro‘y berishi mumkin.

4. **“Yetarli - entropiyali siyosiy axborot”.** Bunday holda ommaviy kommunikatsion vositalarda qisqa, ishonchli va isbotlangan axborotlar o‘rniga fantastik va aqlga sig‘maydigan ma’lumotlar paydo bo‘ladi. Turli OAVlari, siyosiy partiyalar, karomatgo‘ylar ma’lumni–noma’lum, tushunarlini–tushunarsiz, xunukni–chiroyli, aniqni– noaniq deb izohlay boshlaydilar. Natijada yuzaki, aqlga to‘g‘ri kelmaydigan va bema’ni tushunchalar shakllanadi. Hayotning turli jabhalari haqida voqelikka to‘g‘ri kelmaydigan tasavvur tug‘iladi, sarob “haqiqat”lar yuzaga keladi.

5. **“Ijtimoiylashuvchi siyosiy axborot” – “siyosiy chalg‘ituvchi axborot”**. Ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar va uning yo‘nalishlari aholining aksariyat qismi uchun tushunarli va yorqin shakldagi bir-biriga o‘xshash stereotiplar va yangi algoritmlar to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlarning transformatsiyalanishi natijalari “ijtimoiylashuvchi siyosiy axborot”da aks etadi. Ayni paytda “ijtimoiylashuvchi siyosiy axborot”ni jamoatchilik fikrini go‘yoki haqiqatdek ko‘rsatuvchi yolg‘on xabarlar bilan chalg‘ituvchi “siyosiy buzg‘unchi axborot” bilan almashtirish mumkin. Axborot jarayonlaridagi bu kabi harakatlar natijasida ommaviy “siyosiy fikrlash poyma-poyligi”, deya ataluvchi jarayon rivojlanadi. Ma’lum tasavvurlar, tushunchalar, fikrlar haqiqiy tarixiy bog‘liqligini yo‘qotgan holda, buziladi, axborot oqimi olamning qayta shakllantirilgan yangi qiyofasini namoyon etuvchi ma’nosiz lavhalarga bo‘linib ketadi. U haqdagi tasavvur va xulosalar ham yaxlit voqelikni ifodalay olmaydi.

6. **“Betartib (boshboshdoq) siyosiy axborot”**, ya’ni ma’muriy boshqaruv tizimini izdan chiqarib, jamoatchilik tartibini buzuvchi, xo‘jalik va moliyaviy faoliyatning barbod bo‘lishga olib keluvchi axborot hisoblanadi. Asosiy belgisi sirtdan qaraganda to‘g‘ri va jozibador shaklga ega bo‘lsa-da, aslida mutlaqo mazmunsiz, g‘aliz dasturlash-tirilgan siyosiy chiqishlardan iboratusullar vositasida amalga oshiriladi.

7. **“Omilkor (qulay) axborot” – “axloqsizlashgan siyosiy axborot”** ta’qiqlangan harakatlarni amalga oshirishga majbur etadi, natijaga erishish uchun maqsadga muvofiq bo‘lmagan vositalar qo‘llaniladi, zo‘ravonlik huquqi haqiqat huquqining o‘rnini egallaydi va h.k. Axloqsiz siyosiy axborotning tarqatilishi “uzuq-yuluq siyosiy mushohada” fenomenini yuzaga keltiradi. Bunday holatda buzg‘unchi tushuncha va tasavvurlar tasodifiy va formal belgilar asosida bir-biri bilan uyg‘unlashadi.

8. **“Zaruriy axborot” - “ajratib yuboruvchi siyosiy axborot”**, uning ta’sirida yaxlit jamiyat raqobatlashuvchi, qarshi kurashuvchi qismlarga ajralib ketadi. Bu xildagi axborotning ta’siri oqibatida fuqarolar urushi (“akaning ukaga qarshi”, “o‘g‘ilning otaga qarshi” va h.k. kabi birodarkushliklar) yuzaga kelishi mumkin. [6]

Bundan tashqari axborot, turli sohalar bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi va ular ijtimoiy munosabatlarning kechishini ta’minlaydi. Fikrimizcha, axborot xabarlardan tarkib topib, har bir xabar o‘zida quyidagi uchta psixologik xossalarni ifodalaydi:

xabar (*axborot iste’molchisini jarayon dinamikasidan xabardor etish*);

xabarni iste’molchiga zavq baxshida etuvchi tarkibi (*axborot iste’molchisining faoliyatini mazmuniga ta’sir ko‘rsatish*);

xabarni ishontiruvchi tarkibi (*axborot iste'molchisini ongiga ma'lum g'oyani singdirish*).

Psixolog olimlar olib borgan tadqiqotlarida takidlanishicha, agarda, axborotda vayronkor g'oya ifodalangan bo'lsa, turli ko'rinishdagi agressiv xulq namunalari ifodalanib, destruktiv "Men", egotsentrizm, separatizm, milliy shovinizm kabi destruktiv xulq namunalari ifodalanib, jamiyat hayotining turli sohalarida muammolar ifodalanadi. Shu sababli, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi ochiq va yopiq sathlarda institutsional tarzda ta'minlanadi.

Shuningdek ochiq sathda OAV yordamida uzatilayotgan axborotlar ifodalanadi. Ularning maqsadi, kechayotgan jarayonlardan insonlarni xabardor etib, ommaviy ongni shakllantirish uchun madaniylashtirish, ogohlantirish, maqsadni shakllantirish va qadriyatlarni mohiyatini anglash uchun ma'rifiy asos yaratadi. Yopiq sathga esa, iqtisodiy-siyosiy masalalarga taalluqli bo'lgan axborotlar kirib, ularda davlatning ichki va tashqi faoliyatiga, siyosiy yetakchilari shaxsi va faoliyatiga, siyosiy institutlarga taalluqli bo'lgan axborotlar kiradi. Nazariy jihatdan, axborotning xavfsizligi texnik va psixologik jihatdan ta'minlanadi**.** [7]

Bugungi axborot asrida OAVning kuchli ta'siri natijasida oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olish uchun yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmagan talabalar salbiy va destruktiv axborotlar ta'siriga tez tushuvchi qatlam hisoblanadi.

E.Xilderikning yozishicha jamiyatda yolg'on va destruktiv axborotlarni tarqatishga quydagilar misol bo'lishi mumkin:

- OAVda bila turib yolg'on yangiliklar yoki tuhmat; spirtli ichimliklarni reklama qilish; "iqtisodiy prognozlar" yordamida salbiy vahima uyg'otish; narx belgilari yoki mahsulot yorliqlari bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlar; siyosatchilarning saylovoldi va'dalarining bajarilmaganligi; milliy mojarolarni qo'zg'atish uchun tarixiy faktlarni jonlantirish; oilani buzadigan turmush tarzini targ'ib qilish; g'ayrioddiy jinoyatlar to'g'risida batafsil ma'lumot**.** [8]

Bundan tashqari Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotining axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kelishuvi bitimida **destruktiv axborot ta'siri deganda** - davlat organlari faoliyatini buzish, milliy xavfsizlikni zaiflashtirish, axborot-kommunikatsiya tizimlari, tarmoqlari va resurslariga, muhim va boshqa tuzilmalarga zarar yetkazish, davlatlararo munosabatlarni yomonlashtirish, ichki ijtimoiy siyosiy keskinlik, an'anaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yo'q qilish, milliy axborot resurslari ustidan nazoratni o'rnatish, favqulodda vaziyatlar xavfini tug'dirish, KXShTga a'zo davlatlarning milliy manfaatlariga boshqa zarar yetkazish.

Bugungi kunning inkor etib bo'lmaydigan xaqiqat shuki, internetomaniya kasalligiga duch kelgan talabalar o'zining ko'p vaqtini bexudaga sarflash bilan o'tkazmoqdalar, buning oqibatida ularga xam psixologik xam jismoniy va iqtisodiy

jixatdan zarar yetmoqda. Ko‘p xolatlarda virtual dunyo talabalarning ijtimoiy faolligi o‘rnini qoplab, real dunyodan ajratib qo‘ymoqda.

Bizning talabalarda mediaaxborotlarni to‘liq va to‘g‘ri tushunishlari uchun axborotlarni taxlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Insoniyat hayotiga televideniye, gazeta, jurnal, kino, radio va internet singib ketgan. Yuqoridagi faktlarni inobatga olib internetni cheklash va taqiqlash, media kanallarda uzatilayotgan turli syujetlardan chegaralash, ya’ni barcha turdagi axborotlar ta’siridan izolyatsiyalash imkoni yo‘qligini anglatadi.

Jamoatchilik fikrini buzg‘unchi g‘oyalarga yo‘naltirmaslik uchun OAV nazorat qilish kerak emas, balki “destruktiv axborot manbalari ustidan nazoratni” amalga oshirish lozim. Ushbu nazorat asosan davlat qonunchiligi asosida tartibga solinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Destruktiv axborot manbalarini nazorat qilish to‘g‘risidagi qonun jamiyatda siyosiy tamoyillarni sezilarli darajada kuchaytiradi, shu bilan birga demokratik tamoyillarni buzilmasligiga asos bo‘lib xizmat qiladi deb xisoblaymiz.

Xulosa o‘rnida, mamlakatimizda turli vazirliklar, qo‘mita va idoralar, barcha muassasalar talabalar va yoshlarni sport, ma’naviy-ma’rifiy, vatanparvarlik yo‘nalishidagi turli dastur va loyihalarda o‘zini namoyon qilishlariga ko‘maklashishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiq:

ularning kasbiy, kognitiv, ijtimoiy faoliyat sohalarida muhim strategik yo‘nalishlarni aniqlab olishlariga yordam beradigan qadriyatlar tizimini shakllantirish;

ijtimoiy takomillashuv va mas’uliyat hissini tarkib toptirishga ko‘maklashuvchi ma’naviy yuksalish, tafakkur madaniyati ko‘nikmalarini rivojlantirish;

yosh avlod mansub bo‘lgan ijtimoiy guruh vakillarida jamiyatga foyda keltirish bilan bog‘liq faoliyat turlari bilan shug‘ullanishni nazarda tutadigan qadriyatlar tizimini, yo‘l-yo‘riqlarni tarkib toptirilishi lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. X.Kollins inglis tili lug‘ati - 2 Edition. 2002 © Harper Collins Publishers 1995. https://ru.wikipedia.org/wikip/ 2020 y
2. U.Qodirov “Buzg‘unchi g‘oyalar: sabab va oqibatlar tahlili” nomli maqola, Maxalladosh gazetasi. Toshkent, 05.03.2020 http://mahalladosh.uz/post?id=7778
3. Mo‘minov A. “O’zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari.-T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti, 2013.- 140-141 b.
4. M.Ulug‘bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti “Axborot-psixologik xurujlaridan himoya qilish texnologiyalari” o‘quv-uslubiy majmuasi. Toshkent 2014. 11-13 b.

5. Samarov R.S. va Xaydarov K.A. Axborot xavfsizlik psixologiyasi. 2018. 3-4b. XDFU
6. E.Xilderik “Destruktiv axbort to‘g‘risida” gi qonun nomli maqolasi 1999 yil
7. Konsepsiya informatsionnoy bezopasnosti Respubliki Belarus, utverjdennaya postanovleniyem Soveta Bezopasnosti Respubliki Belarus ot 18 marta 2019 g. № 1 St. 2

ТРАНСФОРМАЦИЯ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ДУАЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ ПО МОДЕЛИ «2+2» КАК МЕХАНИЗМ ПОДГОТОВКИ СОВРЕМЕННОГО ВОЕННОГО СПЕЦИАЛИСТА ВОЙСК ПВО

подполковник, доцент Азимов А.А.

Военный институт информационно-коммуникационных технологий и военной связи Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан

Аннотация: *в статье рассматриваются вопросы совершенствования системы подготовки военных кадров в условиях трансформации военного образования Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется направлениям развития военного образования, обозначенным Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиеевым, включая создание единой системы подготовки кадров на базе Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан. Обосновывается необходимость перехода от преимущественно теоретической модели подготовки к практико-ориентированной системе, сочетающей фундаментальные знания, практическую подготовку, современные цифровые технологии и военно-патриотическое воспитание. В качестве одного из перспективных механизмов предлагается использование элементов дуального образования по модели «2+2» при подготовке специалистов войск противовоздушной обороны. Рассматриваются особенности подготовки специалистов ПВО, связанных с эксплуатацией радиолокационных станций и комплексов, автоматизированных систем управления, средств обнаружения и сопровождения воздушных целей.*

Ключевые слова: *военное образование, трансформация, ПВО, специалист ПВО, военные кадры, дуальное образование, модель “2+2”, радиолокационные станции, автоматизированные системы управления, практическая подготовка, патриотическое воспитание, цифровизация, профессиональные компетенции.*

Введение

Современные изменения в характере военных конфликтов и стремительное развитие средств воздушного нападения предъявляют повышенные требования к системе подготовки специалистов противовоздушной обороны.

Современная система ПВО представляет собой сложный комплекс, включающий радиолокационные средства обнаружения и сопровождения воздушных объектов, автоматизированные системы управления, средства связи, огневые средства поражения, комплексы радиоэлектронной борьбы и другие технические системы.

В таких условиях специалист войск ПВО должен обладать не только глубокими военно-теоретическими знаниями, но и развитым техническим мышлением, устойчивыми практическими навыками, способностью быстро анализировать поступающую информацию и принимать решения в условиях дефицита времени.

Поэтому подготовка специалиста ПВО должна строиться на принципе неразрывного единства:

«знания-практические навыки-профессиональные компетенции-готовность к выполнению задачи».

Особое значение в этом отношении приобретает трансформация системы военного образования Республики Узбекистан.

На совещании 29 июля 2025 года Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиеев обозначил направления дальнейшего развития системы военного образования, в том числе создание на базе Академии Вооруженных Сил Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан с объединением в его составе военных образовательных учреждений Министерства обороны. Данный подход создает предпосылки для формирования единой системы подготовки и повышения, переподготовки и повышения квалификации военных кадров [1].

Для специалистов ПВО такая трансформация имеет особое значение, поскольку современные системы противовоздушной обороны требуют комплексной подготовки специалистов, способных работать одновременно с техническими средствами, информационными системами и автоматизированными комплексами управления.

Современный специалист ПВО как объект подготовки

Специалист ПВО является одним из наиболее технически сложных военных специалистов.

Его профессиональная деятельность связана с получением, обработкой и оценкой информации о воздушной обстановке, эксплуатацией сложных

радиоэлектронных систем, взаимодействием с расчетами и командными пунктами, а в определенных должностях – с принятием решений по управлению силами и средствами ПВО.

Поэтому современный специалист ПВО должен обладать следующими компетенциями:

- понимать физические основы радиолокации;
- знать устройство и принципы работы радиолокационных станций и комплексов;
- уметь анализировать радиолокационную информацию;
- владеть современными автоматизированными системами управления;
- уметь работать с цифровыми средствами связи и обработки информации;
- понимать принципы функционирования систем обнаружения и сопровождения воздушных объектов;
- уметь действовать в условиях быстро меняющейся воздушной обстановки;
- принимать обоснованные решения в пределах своей компетенции;
- эффективно взаимодействовать с другими специалистами и подразделениями;
- соблюдать высокие требования воинской дисциплины и ответственности.

Следовательно, система подготовки специалиста ПВО должна обеспечивать не только освоение отдельных учебных дисциплин, но и формирование способности объединять полученные знания при решении комплексных профессиональных задач.

Дуальное образование «2+2» в подготовке специалистов ПВО

Одним из перспективных направлений совершенствования подготовки специалистов ПВО может стать использование элементов дуального образования «2+2».

Применительно к военному образованию данная модель может быть адаптирована с учетом специфики подготовки военнослужащих.

На первоначальном этапе основное внимание уделяется фундаментальной и военно-теоретической подготовке.

Курсант изучает математику, физику, информатику, основы радиотехники, радиолокации, связи, автоматизации, военного управления и другие базовые дисциплины.

На следующем этапе увеличивается объем специальной и практической подготовки.

Курсант получает возможность закрепить знания на учебно-тренировочных комплексах, тренажерах, полигонах, в специализированных подразделениях и на реальных образцах военной техники в рамках установленного порядка.

Таким образом, модель может быть представлена следующим образом:

2 года – фундаментальная и военно-теоретическая подготовка;

2 года – углубленная специальная и практическая подготовка.

При этом элементы практической подготовки должны присутствовать на всех этапах обучения. Основным принципом является постепенное увеличение сложности практических задач [2].

Практическая подготовка специалиста ПВО

Особое значение для специалиста ПВО имеет практическая подготовка.

Радиолокационная станция или автоматизированная система управления представляет собой сложный технический комплекс, освоение которого невозможно только посредством изучения учебной литературы.

Курсант должен иметь возможность последовательно пройти несколько уровней подготовки:

Теоретическое изучение – компьютерное моделирование – тренажер – учебная техника – практическая работа с реальным оборудованием.

Например, при изучении дисциплины «Радиолокационные станции и комплексы» курсант сначала изучает теоретические основы радиолокации, затем выполняет расчетные и лабораторные работы, после чего переходит к работе с тренажерными комплексами и учебными образцами техники.

На заключительном этапе он должен быть способен решать комплексные задачи, максимально приближенные к профессиональной деятельности специалиста ПВО.

Такой подход позволяет сформировать не только знания об устройстве техник, но и способность применять их в реальной обстановке.

Радиолокационная подготовка как основа профессиональной компетентности специалиста ПВО

Одним из ключевых элементов подготовки специалистов ПВО является радиолокационная подготовка.

Современный специалист должен понимать весь цикл работы с радиолокационной информацией:

Обнаружение-измерение параметров-обработка-сопровождение-оценка воздушной обстановки-передача информации-принятие решения.

Поэтому дисциплины, связанные с радиолокационными станциями и комплексами, автоматизированными системами управления, обработкой

сигналов и радиолокационной информацией, должны быть тесно взаимосвязаны.

Вместо изолированного изучения отдельных дисциплин целесообразно применять комплексные практические задания.

Например, курсант получает смоделированную воздушную обстановку, должен обнаружить и классифицировать воздушные объекты, определить параметры их движения, оценить ситуацию и передать необходимую информацию в систему управления.

Такое задание объединяет знания сразу нескольких дисциплин и позволяет оценить сформированность профессиональной компетенции [3].

Инновационные технологии в подготовке специалистов ПВО

Трансформация военного образования предполагает широкое применение современных цифровых технологий.

Для подготовки специалистов ПВО особенно перспективными являются:

- компьютерные тренажеры;
- виртуальные лаборатории;
- имитационное моделирование воздушной обстановки;
- цифровые модели радиолокационных систем;
- автоматизированные системы контроля знаний;
- виртуальные и дополненные среды обучения;
- цифровые образовательные платформы;
- электронные портфолио курсантов.

Использование таких технологий позволяет моделировать большое количество вариантов воздушной обстановки и формировать у будущего специалиста способность действовать в условиях неопределенности.

Особенно перспективно использование цифровых тренажеров при подготовке специалистов по радиолокационным станциям и автоматизированным системам управления ПВО.

Принцип обучения при этом может быть построен следующим образом:

Модель воздушной обстановки-анализ информации-принятие решения-оценка результата-повторное выполнение с усложнением ситуации.

Это позволяет постепенно формировать устойчивый алгоритм профессиональной деятельности.

Дуальное обучение и военно-патриотическое воспитание

Подготовка специалиста ПВО неразрывно связана с военно-патриотическим воспитанием.

Специалист ПВО должен понимать общественную значимость своей будущей профессии. Его деятельность непосредственно связана с обеспечением безопасности воздушного пространства и защитой государства.

Поэтому патриотическое воспитание должно быть связано с профессиональной подготовкой.

Важную роль играют:

- ответственность за порученную технику;
- высокая исполнительская дисциплина;
- готовность действовать в сложной обстановке;
- чувство воинского товарищества;
- уважение к военной профессии;
- осознание ответственности за безопасность государства [4].

Практическая подготовка в подразделениях ПВО позволяет курсанту увидеть реальное содержание будущей профессии и понять ответственность, которая будет возложена на него после окончания образовательного учреждения.

Таким образом, патриотизм будущего специалиста ПВО должен проявляться прежде всего в профессионализме, дисциплине, ответственности и готовности выполнить поставленную задачу.

Система «военный вуз - подразделение ПВО - наставник - курсант»

Для эффективной реализации элементов дуального образования целесообразно сформировать устойчивую систему взаимодействия:

военный образовательный вуз - подразделение ПВО - офицер-наставник - курсант.

Преподаватель обеспечивает фундаментальную и специальную теоретическую подготовку.

Офицер-наставник передаёт практический опыт и помогает курсанту адаптироваться к требованиям профессиональной деятельности.

Подразделение ПВО создаёт условия для практической подготовки.

Курсант объединяет теоретические знания и практический опыт.

Особое значение имеет принцип «устоз-шогирд», позволяющий обеспечить преемственность профессионального опыта и военно-профессиональных традиций [5].

Учебно-методическое обеспечение подготовки специалиста ПВО

Трансформация военного образования требует обновления учебно-методической базы.

Для подготовки специалиста ПВО необходимо формировать взаимосвязанный комплекс учебных материалов:

образовательная программа → рабочая программа → лекционный курс → практические занятия → тренажёрные задания → терминологический словарь → учебное пособие → учебник [6].

Особое значение имеют современные учебные материалы по радиолокационным станциям, автоматизированным системам управления, обработке радиолокационной информации и другим специальным дисциплинам.

Например, при разработке дисциплины «Радиолокационные станции и комплексы» целесообразно создавать не только лекционный материал, но и практические задания, лабораторные работы, ситуационные задачи, терминологический словарь и тренажёрные упражнения.

После апробации в учебном процессе наиболее эффективные материалы могут быть систематизированы и переработаны в учебное пособие, а в дальнейшем - в полноценный учебник.

Предлагаемая модель подготовки специалиста ПВО

С учётом задач трансформации военного образования можно предложить следующую модель:

Этапы подготовки	**Учебные дисциплины**
I этап - фундаментальная подготовка	Математическая, физическая, информационная, инженерная и военно-теоретическая подготовка.
II этап - специальная подготовка	Радиолокация, радиотехника, автоматизация, связь, автоматизированные системы управления и другие специальные дисциплины.
III этап - тренажёрная подготовка	Моделирование воздушной обстановки, работа с виртуальными и компьютерными тренажёрами
IV этап - практическая подготовка	Работа на учебных объектах, полигонах и в подразделениях ПВО в установленном порядке.
V этап - комплексная профессиональная подготовка	Решение ситуационных задач, максимально приближенных к будущей профессиональной деятельности
VI этап - оценка профессиональных компетенций	Оценка знаний, практических навыков, способности анализировать воздушную обстановку, принимать решения, работать в коллективе и нести ответственность за результат [7].

Заключение

Трансформация системы военного образования Республики Узбекистан открывает новые возможности для формирования современной модели подготовки военных кадров.

Особое значение данная трансформация имеет для подготовки специалистов войск ПВО, поскольку современная противовоздушная оборона требует специалистов, способных работать с высокотехнологичными радиолокационными станциями, автоматизированными системами управления, цифровыми средствами связи и обработки информации.

Использование элементов дуального образования по модели «2+2» позволяет органично объединить фундаментальную подготовку, специальное образование и практическую деятельность.

В результате формируется последовательная система:

«*теория → тренажёр → практика → профессиональная компетентность → готовность к выполнению задачи*».

При этом дуальное образование следует рассматривать не только как способ повышения качества профессиональной подготовки, но и как эффективный механизм военно-патриотического воспитания.

Практическая деятельность, наставничество, современные цифровые технологии и непосредственное знакомство с реальной служебной деятельностью позволяют сформировать специалиста ПВО нового поколения - профессионально компетентного, технологически грамотного, дисциплинированного, инициативного и осознающего личную ответственность за безопасность воздушного пространства и защиту Родины.

Именно сочетание трансформации военного образования, практико-ориентированного обучения, современных инновационных технологий и военно-патриотического воспитания может стать основой подготовки кадров, отвечающих требованиям современного развития Вооружённых Сил Республики Узбекистан.

Список использованной литературы:

[1]. Мирзиеев Ш.М. Совещание по вопросам дальнейшего развития системы военного образования Республики Узбекистан, 29 июля 2025 г. – Ташкент: Официальный сайт Президента Республики Узбекистан.

[2]. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» от 23 сентября 2020 г. №ЗРУ-637. – Ташкент: Национальная база данных законадательства Республики Узбекистан «LexUz».

[3]. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 января 2025 г. №14 «О мерах по организации дуального образования в системе высшего образования». – Ташкент, 2025.

[4]. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 29 марта 2021 г. №163 «О мерах по организации дуального образования в системе профессионального образования». – Ташкент, 2021.

[5]. Постановление Президента Республики Узбекистан от 18 июля 2024 г. №ПП-269. – Ташкент, 2024.

[6]. Абдуллаев Б.А. Дуальное обучение – залог эффективной реализации интеграции образования, науки и производства//Научные исследования. – Материалы по проблемам образования и профессиональной подготовки.

JANGOVAR RUH AXBOROT-PSIXOLOGIK KURASHNING OBYEKTI SIFATIDA

Qoraboyev Avazbek Isomiddinovich

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa insituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda axborot-psixologik qarshi kurash, uning mazmun moxiyati, dolzarbligi, axborot-psixologik qarshi kurashning qo‘shinlar jangovar ruhiga ta’siri, axborot-psixologik xavfsizlikning shaxsga ta’sir etuvchi vosita va usullari borasida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish, axborot to‘qnashuvi, Axborot-psixologik xavfsizlik, axborot iste’molchisi, axborot madaniyati.*

Annotation: *This article discusses the current issues of information-psychological counteraction, its content and essence, relevance, the impact of information-psychological counteraction on the combat morale of troops, and the means and methods of information-psychological security affecting individuals.*

Keywords: *psychological influence through information tools, information conflict, information-psychological security, information consumer, information culture.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются актуальные вопросы информационно-психологического противодействия, его содержание и сущность, значимость, влияние информационно-психологического противодействия на боевой дух войск, а также средства и методы информационно-психологической безопасности, влияющие на личность.*

Ключевые слова: *психологическое воздействие с помощью информационных средств, информационный конфликт, информационно-психологическая безопасность, потребитель информации, информационная культура.*

KIRISH

Har bir mamlakat mudofaa va xavfsizligini ta’minlashni o‘z siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb belgilab, uni amalga oshirish uchun mavjud salohiyatlardan maqsadli foydalaniladi. Bunda axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatishdan ham foydalanish ehtimoldan xoli emas. Mudofaaviy faoliyatda mazkur masala taktik va strategik darajalarda amal qilishi mumkin. Uni anglash uchun, axborot vositasida

psixologik ta’sir ko‘rsatishni “Shaxs va ijtimoiy munosabatlar nazariyasi”, “Tahdidlarni aniqlash va javob qaytarish”, “Yumshoq kuch”, “Umumiy xavfsizlik”, “Psixologik xavfsizlik” kabi ta’limotlarga tayaniladi. Axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatishni amalga oshirishda mintaqaviy, etnomadaniy, diniy, siyosiy va iqtisodiy kabi omillardan foydalanish mumkin. Ular, xabarni tayyorlashda, aniqrog‘i xabarni mazmunini belgilashda birlamchi asos hisoblanadi.

Axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish vazifadorligi jihatidan konsruktiv va destruktiv kabilarga ajratiladi. Uning konstruktiv jihati ko‘proq amaliy ahamiyat kasb etib, bevosita mamlakatning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish samaradorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Fuqarolarga mudofaa ongni shakllantirish maqsadida ijobiy ustanovkalar berish, milliy rivojlanishning asosiy tamoyillarini singdirish, jamiyatda ifodalanishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-madaniy og‘ishlarni siqish (profilaktikasini amalga oshirish) maqsadida turli usul va vositalar orqali olib boriladigan dasturiy tadbirlar majmuasini amalga tadbiq etilishidir.

Axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish o‘z mafkurasiga ega bo‘lib, aniq bir obyektga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. *Obyekt sifatida,* alohida inson, jamoa (guruh, millat, xalq), davlat tanlanishi mumkin. Ta’sir o‘tkazish maqsadi nuqtai nazaridan axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish ikki guruhga ajratiladi. Har bir guruh vazifasi va maqsadi jihatidangina emas, balki xarakteri, manfaati, maqsadi va yo‘naltirilganligi jihatidan axborot vositasida ichki psixologik ta’sir ko‘rsatish va axborot vositasida tashqi psixologik ta’sir ko‘rsatishga ajratiadi.

Axborot vositasida ichki psixologik ta’sir ko‘rsatish. Davlat strategiyasini amalga oshirish uchun, jamiyat a’zolariga muhim bo‘lgan tasavvur va ustanovkalarni shakllantirish maqsadida, ijtimoiy faollikni amalga oshirish maqsadida olib boriladi.

Axborot vositasida tashqi psixologik ta’sir ko‘rsatish davlatning tashqi siyosat konsepsiyasi asosida olib borilib, xalqaro siyosiy maydonda mamlakatning imijini ko‘tarishga, turli darajalarda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish uchun zamin yaratishga qaratilgan bo‘ladi.

Axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida internet, radio, televideniye yordamida, film va reklamalar, xabar, maqolalar, ko‘ngilochar dasturlar, intervyu shakllarida, badiiy adabiyotning turli janrlarining namunalarida olib borilishi mumkin.

Axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatishning turlari ko‘p bo‘lib, mudofaaviy faoliyatni ta’minlash nuqtai nazari asosida ularning asosiylari sifatida strategik, tezkor va taktik kabi turlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ular maqsad va vazifalari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Xavfsizlik va barqarorlikka xavf soladigan tahdidlar axborot vositasida mamlakat hayotining siyosiy, iqtisodiy,

ma’rifiy, ma’naviy, ekologik, harbiy, ijtimoiy, demografik sohalariga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Shu bois, jamiyatda axborot madaniyatini shakllantirib, uni takomillashtirib borishida xizmat faoliyatini psixologik ta’minlash bo‘yicha faoliyat yuritadigan mutaxassislar-ofitserlar yetakchilik qilishlari lozim. Chunki, axborot madaniyatiga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosi o‘z qadriyatlarining mazmunini, madaniyatining tarixi va ahamiyatini anglay olganligi sababli, uni manfaatlarini individual va guruhiy darajalarda himoya qila oladi. Ma’rifiy jihatdan, “axborot madaniyati nafaqat xabarlarni saralash, ularni ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, g‘oyasini aniqlash, xabar manbaini topish uchun xizmat qiladi, balki jamiyat manfaatini ta’minlaydi. Ularni axborot madaniyati vazifalari deb atashni lozim topdik. Bular quyidagilar:

- bilish vazifasi (axborot iste’molchilarining faoliyatini aniqlashga xizmat qiladi);
- tartibga solish vazifasi (jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi);
- tarbiyalash vazifasi (shaxsning intellektual rivojiga yordam berib, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy meyor va qadriyatlarni o‘zlashtirishga, qiziqishlarning yuzaga kelishiga, faoliyat uchun ma’lum ustanovkalarni ishlab chiqishga ko‘maklashadi);
- mafkuraviy vazifasi (dunyoda bo‘layotgan voqea hodisalarni, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotga oid ma’lumotlarni mavjud g‘oyalar manfaatlariga tayanib fuqarolarga yetkazadi);
- xabar yetkazish vazifasi (dunyoda sodir bo‘layotgan voqea hamda hodisalarni insonlar ongiga yetkazadi);
- tashxislash vazifasi (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy voqeliklarni baholashga xizmat qiladi);
- prognostika o‘tkazish vazifasi (inson hayotining va faoliyatining turli yo‘nalishlarini oldindan belgilash, ularning yuzaga kelishi, kechish bosqichlariga oid ma’lumotlarni taqdim etadi) va boshqalar.

Axborot vositasida inson ongiga havola etilayotgan g‘oyalarni uzatish shakllari ortib bormoqda. Badiiy ijod namunalarida bunyodkor va vayronkor g‘oyalarni aks ettirilganligi bunga namunadir va ularning har biri qator vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgandir. Bunda yaratilgan ijod namunasi makonida mavjud mafkuralarning namunalari tarqatilishini ham kuzatish mumkin. Masalan axborot vositasida jamiyatning m’naviy sohasiga tahdid sifatida AQSH, Xitoy, Hindiston va boshqa xorijiy mamlakatlarda eksport uchun ishlab chiqargan filmlarni ko‘rsatib o‘tsak maqsadga muvofiqdir. Ular vositasida nomaqbul xulq namunalari turli mazmunda qahramonlar siymosida targ‘ib etilmoqda. Masalan, “Jismoniy kuch muammoni yechishning muhim uslubi”, “Hamma narsani sotib olish mumkin” kabi g‘oyalar turli syujetlar yordamida tamoshobinlarning e’tiboriga havola etiladi. Bunda oilaviy munosabatlar madaniyati va turli xil ijtimoiy muammolarning yechimidan tortib to

ishdagi munosabatlarga qadar (turli xavflarning mavjudligi, qo‘rqish hissini uyg‘otish, uni ifodalanishi, kasbdoshlarga, oila a’zolariga ishonmaslik, har qadamda xiyonatning mavjudligi va shu kabi) masalalar tasvirlanganligini kuzatish mumkin.

Axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash nazaridan salbiy holat, bu vujudga kelgan muammoni “yagona yechim yo‘li”ni singdirish uchun xulq namunasini targ‘ib etishdir. Va, u xulq namunasining tarkibida, maishiy va ijtimoiy meyorlarni buzish, qadriyatlarga putur yetkazish, qonunga amal qilmaslik emotsiyaga ta’sir ko‘rsatish uchun ranglar bo‘yog‘laridan foydalanib, tamoshobinni idrok maydonini sathini belgilab beradi.

Insoniyat tarixiga nazar solsak, u axborotlashgan jamiyatga qadar bo‘lgan uzoq tarixiy vaqt oralig‘idagi yo‘lni bosib o‘tgan va bu yo‘lda ko‘plab rivojlanish bosqichlaridan o‘tilgan va “Eng qadimgi davr”, “Qadimgi davr”, “O‘rta asrlar”, “Hozirgi zamon” kabi iboralar qo‘llansa-da, hech qachon insoniyatning axborotga nisbatan ehtiyoji kamayib qolmadi. Asrlar o‘tgan sari, axborotning ko‘lami kengayib, sohalar bo‘yicha hajmi ham oshib, uni qiymati va madaniy ahamiyati ortib boraveradi.

Axborot, o‘zining atributiv xususiyatlaridan tashqari, iste’molchi uchun shaxsiy yoki jamoaviy, madaniy ahamiyatga ega bo‘ladi. Garchi axborotning xossalari shartli bo‘lsa-da, uning foydaliligi, qabul qiluvchi subektga ta’sir qilish darajasi bilan belgilanadi. Agarda axborotni qabul qilgan subyekt, axborotda kerakli emosional taassurot va bilimlarni olgan bo‘lsa, qoniqqanlik darajasi ham ortib boradi. Natijada maqsadini to‘g‘ri shakllantirib, maqbul xulq namunasini yuzaga chiqara oladi. Chunki axborot iste’molchisi turli ko‘rinishda obekt bilan samarali munosabatga kirisha oladi. Agarda uzatilayotgan salbiy axborot iste’molchisining ma’naviy dunyosiga taalluqli bo‘lsa, ya’ni axboroning qabul qiluvchi undan emosional qoniqish hosil qilsa, axborotni foydali, deb hisoblashishi mumkin. Axborot, turli sohalar bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi va ular ijtimoiy munosabatlarning kechishini ta’minlaydi. Fikrimizcha, axborot xabarlardan tarkib topib, har bir xabar o‘zida ***uchta psixologik xossani*** ifodalaydi. Bular:

- xabarni o‘zi. U, aniq masalaga (mavzuga) bag‘ishlangan bo‘lib, ko‘pincha diqqatni tortadigan jarayonlarga oid tayyorlanadi. Maqsad, axborot iste’molchisini jarayonni dinamikasidan xabardor etishdan iborat;

- xabarni iste’molchiga zavq baxshida etuvchi tarkibi. Bu tarkib, axborotning mavzusi, aniqrog‘i iste’molchini kutishlari asosida ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin. Bunga misol munajjimlarning bashorati. Bu xabarlarda, burch sohiblarining nimanidir kutishlarini, bir muddat vaqtliroq munajjimlar ko‘rsatma berish usuli bilan belgilab qo‘yadilar. Maqsad, axborot iste’molchisining faoliyatini mazmuniga ta’sir ko‘rsatishdan iborat;

- axborotni ishontiruvchi tarkiblari. Ishontiruvchi tarkib asosan hayotiy misollar bilan turli obrazlarning namunasi misolida uzatiladi. Uzatiladigan xabarning mazmuni, subektni kerakli bo‘lgan g‘oyaga ishonchini uyg‘otib, raqam va dalillar esa ishonch darajasini oshirish uchun vosita sifatida qo‘llaniladi. Maqsad, axborot iste’molchisini ongiga ma’lum g‘oyani singdirishdan iborat. Agarda, g‘oya bunyodkorlikka chorlovchi, yaratuvchanlikka yo‘naltiruvchi bo‘lsa, subektning xulq namunasida moddiy yoki ma’naviy yaratuvchanlik mujassamlashadi. Natijada, ijtimoiy hamkorlikka intilish, turli millat vakillariga xayrixoh munosabatda bo‘lish, boshqa din va madaniyat namoyondalariga bag‘rikenglik ko‘rsatish, jamiyat va davlat arboblariga ishonch bildirish namunalari turli ko‘rinishlarda ifodalanadi. Agarda, vayronkor g‘oya ifodalangan bo‘lsa, turli ko‘rinishdagi agressiv xulq namunalari ifodalanib, destruktiv “Men”, egosentrizm, separatizm, milliy shovinizm kabi destruktiv xulq namunalari ifodalanib, jamiyat hayotining turli sohalarida muammolar ifodalanadi. Shu sababli, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi ikkita sathda, ochiq va yopiq sathda institusional tarzda ta’minlanadi.

Demak, har qanday axborot voqeaning vujudga kelishi, kechishi, ishtirokchilarining sonini belgilanishi jihatlari bilan alohida mazmun kasb etadi. Ma’nosi jihatidan , mohiyati, ta’sir etish darajasi, inson va jamiyatga foydali yoki zararliligi jihatlari bo‘yicha kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da’vat etishi uchun qo‘llanilishi mumkin. Axborotni psixologik xavfsizligini ta’minlovichi soha vakillari, aynan yovuzlikka da’vat etuvchi mazmunga ega bo‘lgan axborotlarni turli darajada zararlantira olishlari lozim. Shu tariqa, axborotning psixologik xavfsizligi tushunchasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, axborotning psixologik xavfsizligi deganda, individual, guruhiy (jamoaviy) va ommaviy tarzda inson psixologiyasiga, aniqrog‘i insonni hissiy-irodaviy, aqliy, ehtiyojlari kabi sohalariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalariga, davlatning ichki yoki tashqi faoliyatiga taalluqli bo‘lgan axborotni destruktiv, ya’ni salbiy mazmundagi xossalardan (ta’sir etuvchilardan) himoyalanganlik holatini tushunish lozim.

Ikkinchidan, ***axborotning psixologik xavfsizligi*** – bu bevosita inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali uni o‘z aqidalaridan, ideallaridan, muqaddas e’tiqodidan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrash uchun amalga oshiriladigan faoliyatdir. Demak, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlashga avvalo inson va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarga qarshi yo‘naltirilgan tarkibida buzg‘unchi g‘oyalar va tajovuzkor mafkuralarni mujassam etgan axborotni zararlantirish uchun amalga oshiriladigan harakatdir.

Uchinchidan, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash shaxs, jamiyat va davlat darajasida ta’minlanib, bunda milliy manfaatlarni himoyasini ta’minlash birlamchi asos hisoblanib, axborot-kommunikasiya texnologiyalari vosita hisoblanadi.

To‘rtinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi semantik jihatdan farqlanib, axborot-psixologik xavfsizlik texnik jihat, aniqrog‘i dasturiy vositalar yordamida axborotni jamlash, saqlash, saralash, uzatish jarayonida uni chiqib ketmasligini ta’minlashni nazarda tutadi. Axborotning psixologik xavfsizligi deganda mutaxassis tomonidan axborotning tarkibida salbiy xulq namunasini ifodalashga chorlovchi (da’vat etuvchi) tarkiblarni zararlantirish natijasida vujudga kelgan ijtimoiy-psixologik holat tushuniladi.

Nazariy jihatdan, axborotning xavfsizligi ikki yo‘nalishda:

- axborotning xavfsizligi texnik jihatdan ta’minlanadi;
- axborotning xavfsizligi psixologik jihatdan ta’minlanadi.

Harbiy sohada axborot-texnik va axborot-psixologik xavfsizlikning obyektlari haqida mulohaza yuritishdan oldin masalaga uzviy bog‘liq bo‘lgan axborot to‘qnashuvi haqida to‘xtalib o‘tish joiz.

“Axborot to‘qnashuvi” tushunchasi ilk bor 1967 yili Allen Dalles tomonidan muloqotga kiritilgan. Muallif, bu tushunchani “sovuq urush” davrida ikki qutbli dunyoda AQShni SSSRga qarshi olib borilgan harakatlarida qo‘llagan bo‘lsada, ommaviylashmagan. Ammo amerikalik fizik Tomas Rona (Prezident R.Reygan va Dj.Bush (kattasi) davrida Oq uy va Mudofaa boshqarmasining ilmiy maslahatchisi lavozimida xizmat qilgan davrida, 1976 yilda Boing kompaniyasi uchun tayyorlangan “Qurollar tizimi va axborot to‘qnashuvi” nomli hisobotida qo‘llanilgan. Hisobotda axborot infratuzilmasi AQSH iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanganligi va bir vaqtning o‘zida harbiy vaziyatda ham, tinchlik davrida ham keng qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. U, axborotni harbiy kuchlar tizimining zaif bug‘ini deb ta’riflab, ushbu masalaga barcha davlat miqyosidagi mas’ul kishilarni e’tiborini qaratgan. Shundan beri mazkur tushunchaning ahamiyati va dolzarbligi o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Lekin, bu xulosa axborot to‘qnashuv tushunchasi XX asrning ikkinchi yarimida vujudga kelgan degan hukmni chiqarish uchun asos bo‘lolmaydi. Chunki axborot to‘qnashuvi inson paydo bo‘lishi bilan birga vujudga kelgan. Ammo, axborot to‘qnashuvi deb atalmagan. Masalan, urushlar tarixiga nazar solsak, ularning har birida ma’lum ko‘rinishda axborot to‘qnashuvi kuzatiladi. Axborot to‘qnashuvi o‘zining g‘oyasiga ega bo‘lib, aniq bir obyektga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Ularning xarakteri va yo‘naltirilganligini bugungi globallashuv davrining ijtimoiy-siyosiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- ***axborot to‘qnashuvining birinchi bosqichi***. Jang teatr maydoniga kirishishdan oldin raqib (dushman) va uning askarlarini o‘q otar qurollari ishdan chiqqanligi, sarkardalarini layoqatsizligi, jangchilarni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlanmaganligi, askarlarni o‘z komandirlariga ishonsizlik bildirilayotganligi turli axborot kanallari bilan yetkazilgan. Axborot kanallari sifatida savdogarlar, qalandar va darvishlar vositasida mish-mishlar tarqatilgan;

- ***axborot to‘qnashuvining ikkinchi bosqichi***. Harbiy – texnika va qurol qurol aslahalarni yaratilishi bilan aloqador. Bu bosqichda harbiy faoliyatda asosan axborot vositasida psixologik kurash olib borilgan. Unda raqib va uning askarlarida o‘z kuchiga ishonchsizlik, shubha tug‘dirish orqali qadriyatlariga putur yetkaziladi. Ishonchsizlik, tanlangan hayot yo‘li, maqsadi va qiziqishlari tufayli azob chekib jismonan nest – nobud bo‘lishi besamar ekanligi ularning ongiga singdirilgan. Buning uchun radio va boshqa nashriy manbalardan foydalanib, maqsad ommaviy manipulyasiyani amalga oshirib, g‘alaba qozonish uchun zamin tayyorlashdan iborat bo‘lgan. Manipulyasiya o‘tkazish o‘z tuzilishiga ega bo‘lib, ta’sir ko‘rsatishni rejalashtirish, manipulyasiya o‘tkaziladigan obyekt haqida axborot jamlash, ta’sir ko‘rsatuvchi manbaga moslashish, ta’sir ko‘rsatish uchun sharoit yaratish va ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Raqibga (obyektga) ta’sir ko‘rsatish Napoleon va Suvorovlar kabi sarkardalarning harbiy amaliyotida ham kuzatilgan. Jumladan, Napoleon qo‘shinida bir kecha-kunduzda 10.000 varaqa chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan ko‘chma bosmaxona bo‘lganligi ma’lum;

- ***axborot to‘qnashuvining uchinchi bosqichi***. Fan va texnika yutuqlarini harbiy faoliyatga tadbiq etishi bilan bog‘liq bo‘lib, harbiy-psixologik manbalarda “biologik” urush nomi bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Bu bosqichda, axborot yaratilgan biologik qurollarni texnik tasnifini namoyon etish uchun qo‘llanilib, harbiy boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotganlarning xizmat faoliyatiga va ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatib, maqsadi - siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishdan iborat.

- ***axborot to‘qnashuvining to‘rtinchi bosqichi***. Yer osti va yer usti resurslarni cheklanganligi natijasi, ularni qo‘lga kiritish uchun amalga oshiriladigan kurashda, ya’ni gegemonlikka intilish davomida axborot vositasida harbiy – texnik, intellektual, moliyaviy va iqtisodiy ustunlikka ega ekanligini namoyish etish uchun axborotdan foydalanish. Maqsad, turli siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ma’lum manfaatlarni himoyasini ta’minlashdan iborat.

Axborot to‘qnashuvi jarayonida insonni dunyo haqidagi yaxlit tasavvuri, uning kengligi va aniqligi parchalanib yuboriladi. Inson e’tiboriga qarama-qarshi fikrlar majmuasi “havola etiladi”. Bu jarayonni murakkabligi shundan iboratki, inson turli kanallar vositasida uzatilayotgan axborotlar oqimidan aniq (to‘g‘ri) axborotni tanlab olishning iloji yo‘q. Negaki har bir axborot tarkibida kishini boshqarish uchun

ma’lum bir komponentlar kiritilgan bo‘ladi, ularning vazifasi kerakli ustanovkani (ko‘rsatmani) shakllantirishdan iboratdir.

Axborot to‘qnashuvi jarayonida uni o‘tkazayotganlar obyektning siyosiy, harbiy va ijtimoiy shayligiga putur yetkazib, o‘zining g‘alabasini ma’naviy-ruhiy jihatdan ta’minlashga erishadi. Shu sababli Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni SH.M.Mirziyoyev “Axborot-kommunikasiya tizimlarining keng qo‘llanishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi albatta, o‘z navbatida, axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda”[14] - deb, axborot xavfsizligini ta’minlash tizimini doimiy tarzda takomillashtirib borish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatib o‘tgan.

Biroq, ommaviy axborot vositalari (OAV) gazeta, radio, televideniye paydo bo‘lishi bilan, albatta, axborotni yoyish makoni kengaydi, axborot 1000 yil oldingiga qaraganda nafaqat shiddat bilan, balki turli qo‘shimcha vazifalarni bajarilishi bilan “harakat” qilmoqda.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida ko‘pgina davlatlarda mudofaaviy tizimning tizimostisi ko‘rinishida tashkiliy, mafkuraviy to‘qnashuvlar strategiyasi bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalar vujudga keldi va ularning asosiy maqsadi jismoniy, texnik, madaniy kabi yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida tanlangan obyektga (hudud, davlat tanlanishi mumkin) oldindan axborot xurujini o‘tkazib, harbiy yurishni muvaffaqiyatli kechishini ta’minlashdan iborat. Masalan, AQShda “Ijtimoiy axborot qumitasi”, Buyuk Britaniyada “Dushman qo‘shini va aholisi orasida tashviqot Boshqarmasi, Fransiyada “Tashviqot xizmati”, Germaniyada “Bosh shtabining maxsus bo‘linmasi” kabilar shular jumlasidandir.

Harbiy nizolar va qurolli to‘qnashuvlarni harakat tarzi (taktika va strategiyasi) o‘zgarganligi sababli, oldin harbiy to‘qnashuvlarda qo‘llaniladigan “axborot-psixologik hujum” texnikasi, iqtisodiy faoliyatda keng qo‘llanila boshladi. Bundan ko‘zlangan maqsad moddiy naf ko‘rishdan, ma’lum bir ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni ta’sir ko‘rsatish doirasini kengaytirishdan (monopoliyaga erishishini ta’minlashdan) iborat. Misol tariqasida Nestle belgisi asosida ishlab chiqarilayotgan chaqaloqlar uchun mo‘ljallangan sutning tarkibi, ona sutining tarkibi bilan “barobar”ligini targ‘ib qiluvchi axborotlar yoki harbiy sanoatda “Kalashnikov konserni” (Rossiya Federatsiyasi, Tula shahri) harbiy qurol va o‘q-dorilar bozorida birinchilikni saqlab qolishi uchun izlanishlar va turli tadbirlarni o‘tkazilishini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Keltirilgan dalillar, axborot to‘qnashuvi (hujumi) olib borish bir nechta maqsadlar asosida olib borilishi mumkinligini

[14]Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

ko‘rsatadi. Muhimlari sifatida harbiy-psixologik nuqtai nazar asosida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tamiz:

- mudofaaviy faoliyatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan axborot va axborot makonini shartli raqib tomonidan norasmiy qo‘lga kiritish harakatlaridan himoyasini amalga oshirish;

- harbiy tizimni boshqarish uchun qo‘llaniladigan axborotni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilib, aniq iste’molchisiga borib etishini ta’minlash;

- mudofaa va xavfsizlikni ta’minlash uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasi haqidagi axborotni shartli raqibga tushmasligini va uni amalga oshirish jarayonini himoya qilish;

- siyosiy yetakchilar, jamoat arboblari, ularning shaxsi va faoliyatiga doir faqatgina xizmat doirasida foydalanish uchun qo‘llaniladigan axborotni himoya qilish;

- jamiyatda mudofaaviy ongni shakllantirish uchun qurolli kuchlarni solohiyati, tayyorgarlik darajasi va harbiy-texnik ta’minotga doir axborotlarni ommaviylashtirish;

- mamlakat, mintaqa yoki global sathda qurolli kuchlar imijini shakllantirish uchun axborot tayyorlash va yetkazish;

- mudofaa va xavfsizlikka doir qarorlar tayyorlash jarayoniga ta’sir ko‘rsatib, o‘z maqsadiga erishish kabilar.

Axborot to‘qnashuvi raqibni (iste’molchini) faoliyatiga, qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatib, ta’sir ko‘rsatuvchilarning manfaatiga mos tushadigan xulq namunasi yoki qaror qabul qilishni ta’minlash uchun qo‘llaniladi. bugungi kunda axborot to‘qnashuvini olib borishning asosiy vositasi Ommaviy axborot vositalari va ayniqsa “elektron” ommaviy axborot vositalari: -radio, televideniye va Internet tizimi hisoblanadi. Ularni “harakat maydoni”ni, iste’molchilarni jalb etish qamrovi kengligini inobatga olsak, g‘oyaviy va mafkuraviy kurash vositasi sifatida maqbul ekanligi bilan ajralib turadi. Maqbullik, axborot hujumini uyushtirilgan va olib borilayotgan tomonni manzili, maqsadini belgilash qiyin kechadi.

Axborot-psixologik xavfsizlikning shaxsga ta’sir etuvchi vosita va usullari aslida ko‘p, lekin an’anaviy ravishda ular uchta asosiy turga bo‘linadi: *davlat yetkazadigan, OAV* va *norasmiy muloqotdagi axborot.* Norasmiy axborot deb, shaxs mahallada, ish joyida, o‘rtoqlaridan, trasport vositalarida, gaplarda eshitgan ma’lumotlarga aytiladi.

Axborot bilan ishlash bir nechta asosiy bug‘inlarni tashkil etadi, ularning ish mexanizmi esa quyidagidan iborat: 1) ma’lumotni qabul qilish, anglab olish va eslab quyish; 2) axborotni anglash va eslab quyish jarayonida materialni qabul qiluvchi tomonidan uning bilimi va psixologiyasidan kelib chiqqan holda qayta ishlash va yangilangan axborotni shaxs xotirasida saqlash; 3) axborotni tarqatish. Har bir

bosqichning o‘z qoidalari bor va ularga rioya qilmagan odam ushbu faoliyatda inqirozga uchrashishi aniq. Axborotni qabul qilish eng oddiy narsa, lekin bu yerda ham, agar eshitish, ko‘rish yoki o‘qib olish uchun yetarli sharoit bo‘lmasa, keng omma ma’lumotni tushunmaydi va eslab ololmaydi. Axborotni anglashga kelsak, auditoriya vakillari turli ijtimoiy qatlamlarga tegishli bo‘lishi tufayli ular barcha axborotni eslab qololmaydi, shuning uchun xorijiy shovvoz jurnalistlar o‘z xabarlarini iloji boricha sodda, qisqa va aniq tarzda uzatishga harakat qiladi, materialning asosiy g‘oyasini esa bir necha marta takrorlaydi. Ular har bir fuqaro eshitgan yangiligini o‘zi yashaydigan sharoitga qiyoslab tushunishini juda yaxshi biladi va uzatiladigan ma’lumotlarni aynan ushbu talabga moslashtirib tarqatadi. Shuning uchun axborot xavfsizligi sohasidagi mutaxassislar yuqorida keltirilgan qonuniyatlarni e’tiborga olib ishlashlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, bugungi axborot xuruji, kiberterrorizm tahdidlari yangi bosqichga ko‘tarilgan davrda harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhini yuksaltirish, bu borada yangi mexanizmlarni yaratish hamda milliy mafkuraning tub mohiyatini ular ongiga singdirishning metodologik yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, harbiy xizmatchilarni nafaqat jismoniy, balki ruhiy immunitetini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26-yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. http://.googie.com/search. old.xs.uz/indekx.php/hon. 2018.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasidagi ishlarni sarhisob qilish, yangi vazifalar belgilash /O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik Kengashining navbatdagi yig‘ilishidagi ma’ruzasi. www.gazeta.uz.xavfsizkik-kengashi. 2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son Qarori.

4. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 iyundagi “Yoshlarni harbiy-Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-267-son qarori.

JANGOVAR TAYYORGARLIK MASHG‘ULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Tadjibayev Z.A.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada Qurolli Kuchlar harbiy qism va oliy harbiy bilim yurtlarida jangovar tayyorgarlik va o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish davomidagi kamchiliklar o‘rganilib, jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarini o‘tkazishda zamonaviy jang turlaridan kelib chiqqan holda mashg‘ulot raxbarlarini to‘g‘ri tayyorlash, mashg‘ulotlarni tashkillashtirish, harbiy-pedogog kadrlarni to‘g‘ri tanlash, ularning bilim va saviyasini rivojlantirish takliflar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Harbiy ta’lim tizimi, jangovar tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, o‘quv jarayoni, aloqa mutaxassislari, jangovar tayyorgarlikni rejalashtirish, mutaxassislik fanlari, zamonaviy qurol va texnikalar, o‘quv dasturlar, pedogogik kadrlar, rotatsiya.*

Аннотация: *В данной стати рассмотрены недостатки в планировании и проведении занятий по боевой подготовке в частях и военных учебных заведениях Министерства обороны, даны предложения по планированию занятий исходя из требований современных войн и боевых действий, рекомендаций по подготовке руководителей занятий и назначение офицеров на должность преподавательского состава, повышение их уровень подготовки.*

Ключевые слова: *Военная система обучения, боевая подготовка, специальная подготовка, учебный процесс, специалисты связи, планирование боевой подготовки, предметы обучения по специальности, современная вооружения и боевая техника, учебные программы, педагогические кадры.*

Harbiy ta’lim tizimiga yangiliklarni joriy qilish va uni doimiy ravishda takomillashtirish va rivojlantirish, harbiy ta’limni amaliy boshqarish ideologiyasini yangilash va ilmiy-pedogogik kadrlarning professional mahoratini rivojlantirish harbiy ta’lim tizimini rivojlantirishdagi aktual muommalardan bir bo‘lib kelmoqda.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda harbiy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha talaygina ijodiy yo‘nalishlar amalga oshirildi. Ularga quyidagilar misol bo‘la oladi:

davlat va turli ta’lim muassasalari strukturalari doirasida ta’limni integratsiyalash, standartlashtirish va demokratizatsiyalash;

oliy harbiy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini boshqarishning integratsiyalangan tizimini tuzish;

ta’lim jarayonini informatsiyalash;

harbiy ta’lim tizimida kompyuter va informatsion vositalardan va ta’lim usullaridan keng foydalanish, tizimning rivojlanishida va ishlashida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish [3].

Bugungi kunda qo‘shinlar faoliyatida tub o‘zgarishlar yuz berayotgani, zamonaviy texnika na’munalarining tadbiq qilinayotganligi, ularni qo‘llash

taktikasining uzluksiz takomillashishi jangovar tayyorgarlik xarakteriga sezilarli ta’sir qilmoqda.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida kechayotgan izchil islohotlar davomida barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning nazariy va amaliy bilimlarini takomillashtirish, yetuk tajriba va ko‘nikmalarni egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratish orqali yuksak malakali, professional kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Qo‘shinlarga zamonaviy qurol va texnikalarning qabul qilinayotgani shaxsiy tarkib kasbiy malakasiga bo‘lgan talablarni yanada kuchaytirmoqda [4].

Jangovar tayyorgarlik davomidagi mashg‘ulotlar harbiy xizmatchilar uchun bilim va qo‘nikmalar olishda asosiy vosita hisoblanib, shaxsiy tarkibni tarbiyalash va ularda jang maydonida zarur bo‘lgan yuksak jangovar va axloqiy-ruhiy sifatlarni shakllantiradi. Shu sababdan har bir ofitser, ayniqsa, bo‘linma komandirlari, jangovar tayyorgarlikni tashkillashtirish borasida, o‘quv va tarbiyaviy uslublar borasida, shaxsiy tarkibni o‘quv - tarbiyaviy ishlarni boshqarish borasida ilmiy-nazariy bilim egasi bo‘lishlari zarur [6].

Aloqachi mutaxassislarning talab darajasida bo‘lishida hamda aloqa bo‘linmalarining jangovar shayligini ta’minlashda maxsus tayyorgarlik va texnik tayyorgarlik fanlarining sifatli tashkillashtirilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Jangovar tayyorgarlik tinchlik davrida harbiy xizmatchilar kundalik faoliyatining asosiy mazmuni hisoblanadi. Jangovar tayyorgarlikning vazifalari va unga qo‘yilgan talablarni, jangovar tayyorgarlikni tashkillashtirishni hamda uni har tomonlama ta’minlash masalalarini belgilab beruvchi rasmiy hujjatlar qo‘shinlarda jangovar tayyorgarlikni tashkillashtirish bo‘yicha rahbariy hujjatlar hisoblanadi.

Jangovar tayyorgarlikni rejalashtirish va tashkillashtirish tamoyillari ko‘shinlar shaxsiy tarkibini o‘qitish va tarbiyalashga qo‘yiladigan asosiy talablardan kelib chiqadi. O‘qitish va tarbiyalash yagona majmua bo‘lib, ongli, maqsadli va ko‘rgazmali amalga oshirilishi lozim. Bunda harbiy xizmatchi harbiy mutaxassis bo‘lib yetishishi bilan birgarlikda, jismonan chiniqishi, o‘z Vatanining yuqori, ongli himoyachisi bo‘lib yetishishi shart [7].

Ushbu talablarning bajarilishi rejalashtirishda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish bilan ta’minlanadi:

rejalashtirishning qat’iy tartibda, yuqoridan pastga qarab amalga oshirilishi;

mavsumiy, oylik, haftalik o‘qishni rejalashtirishda, qo‘shinlar jangovar tayyorgarligini o‘tgan mavsum, oy, hafta ichidagi hisobi va tahlilini hisobga olish;

mashg‘ulotlar mazmuni qo‘shinlar joylashuvini, tashkiliy-shtat tuzilishini, hizmatni o‘tash sharoitlarini inobatga olgan holda belgilanishi va qo‘shinlarning doimiy jangovar shayligini ta’minlashi.

O‘qitishning asosiy maqsadi bo‘linmalar shaxsiy tarkibini jangda zarur bo‘lgan harakatlarga o‘rgatishga, o‘tgan o‘quv yili (mavsum, oy, hafta) yakunida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishga, ashyoviy vositalardan, o‘quv-moddiy bazasidan samarali foydalanishga qaratilishi lozim.

Jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarini tashkillashtirishdagi muammolar:

- rejalashtirilgan mashg‘ulotlarnining yuzaki o‘tkazilishi;
- mashg‘ulotlarga shahsiy tarkibning to‘liq holda qatnashmasligi;
- mashg‘ulot rahbarining mashg‘ulot mavzusini to‘liq o‘zlashtirmaganligi;
- moddiy-texnik bazaning yetishmasligi.

Jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarini takomollashtish yo‘llari:

1. Harbiy qismlarda jangovar tayyorgarlikni tashkillashtirishda, mutaxassislik bo‘yicha maxsus va maxsus – taktik tayyorgarlik fanlaridan mashg‘ulotlar o‘tishda malakali, o‘z mutaxasisiligini ustasi bo‘lgan ofitser va serjantlarni jalb qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mutaxassislik fanlaridan mashg‘ulotlar o‘tishda ofitserlar tarkibi bilan alohida, kichik guruhlarga bo‘lingan holda, zamonaviy texnika va qurollarning taktik-texnik ko‘rsatkichlaridan tortib ularni jangovar qo‘llashgacha bo‘lgan jarayonni chuqur o‘rganishi, ularni amalda qo‘llay bilishi, va o‘z bilim va malakalarini shaxsiy tarkibga to‘g‘ri tushuntirib berish savolllari o‘rganib chiqilishi kerak buladi.

Zamonaviy qurol va texnikalarni puxta o‘rgangan ofitserlar, harbiy qismlarda o‘z yo‘nalishi bo‘yicha, kichik komandirlar tarkibidan iborat bo‘lgan serjantlar tarkibi bilan mashg‘ulotlar o‘tishlari, ularga zamonaviy qurol va texnikalar bo‘yicha nazariy bilimlar, ularni jangovar qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar, keyinchalik shaxsiy tarkib bilan mashg‘ulotlarni tashkillashtirishda va o‘tkazishda amaliy yordam berishlari zarur.

Zamonaviy qurol va texnikalarni puxta o‘rganishda xarbiy xizmatga chaqirilgan xarbiy xizmatchilarning mutaxassisligi bo‘yicha lavozimlarga qo‘yish, zamonaviy qurol va texnikalarni tezroq o‘rganishlariga omil yaratadi.

Harbiy qismlarda jangovar tayyorgarlikni tizimli yo‘lga qo‘yish, jangovar

va komandirlik dasturlarini davr talabidan kelib chiqqan holda mavzularini o‘zgartirib turish yoki qayta ishlab chiqish, o‘z vaqtida barcha bo‘g‘indagi komandirlar bilan mashg‘ulotlar o‘tish harbiy qismlarda malakali mutaxassislarning yetishib chiqishiga yerdam beradi.

2. Mashg‘ulotlarni o‘tishda barcha bo‘g‘inlarda ofitserlar, serjantlar

va askarlar tarkibini to‘liq qamrab olgan holda tashkillashtirish, mavzular bo‘yicha ularga nazariy bilimlar berish va amaliy ko‘nikmalar hosil qilish. Olingan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirganliklarini tizimli ravishda tekshirib borish, baholash, kerak bo‘lsa yaxshi o‘zlashtirmagan tinglovchilar bilan qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkillashtirish kerak bo‘ladi.

Shu jumladan harbiy oliy ta’lim muassasalarida kursantlar o‘quv jarayoni davrida Halqaro va Respublika miqyosida bo‘lib o‘tadigan musobaqalarga, sport o‘yinlari va tanlovlarga tayyorgarlik ko‘rish, ularda ishtirok etishi kursantlarni o‘quv jarayonidan oylab, gohida yillab ozod qilib qo‘yadi. Bu, o‘z navbatida kursantlarning mutaxassisligi bo‘yicha yetarlicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning oqibatida bitiruvchi – ofitserlar harbiy qismlarda, mutaxassisligi bo‘yicha lavozimlarga tayinlanganda shaxsiy tarkib bilan ishlashni, ular bilan mashg‘ulotlar o‘tishni bilmasligi, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha texnika va qurollarni yetarlicha o‘zlashtirmaganligi, va buning oqibatida yuqori komandirlardan tanbehlar olish hollari uchramoqda.

Olingan tanbehlardan ta’sirlangan yosh ofitserlarning keyingi xizmatlarga bo‘lgan qiziqishlari so‘nib, harbiy xizmatdan ketish hollari ham uchramoqda.

Harbiy qismlarga, mutaxassisligi bo‘yicha lavozimlarga tayinlangan bitiruvchi-ofitserlar, musobaqalarda qatnashib, bilim yurti va qurolli kuchlar shanini himoya qilgan bitiruvchi – ofitserlarga nisbatan ko‘proq nazariy bilimlarga va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Shuning uchun musobaqalarga, sport o‘yinlari va tanlovlarga jalb qilingan kursantlar bilan mutaxassislik va maxsus fanlardan qo‘shimcha fakultativ mashg‘ulotlar rejalashtirish va ularni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. O‘quv dasturlari bo‘yicha o‘qitilayotgan aloqa vositalarining (texnikalarining) qo‘shinlarda ekspluatatsiya qilinayotgan aloqa vositalari bilan to‘g‘ri kelmasligi (hozirgi vaqtda qo‘shinlarda yangi, zamonaviy aloqa vositalari bilan bir qatorda eski, sovet davrida ishlab chiqarilgan qo‘mondonlik-shtab mashinalari va ularning radiostansiyalari, bundan tashqari taktik bo‘g‘inlardagi zirhli texnikalarda (tank, BTR, BMP) analog rejimida ishlaydigan, sovet davrida ishlab chiqarilgan radiostansiyalar ishlatilmoqda). Ularni almashtirish jarayoni bosqichma-bosqich davom etmoqda.

O‘quv jarayoni davomida ham zamonaviy, ham qo‘shinlarda ishlatilayotgan eski, sovet davridan qolgan aloqa vositalarini nazariy o‘rganish va ularni ishlatishda amaliy ko‘nikmalar hosil qilish. Yangi aloqa vositalari bilan eski aloqa vositalari o‘rtasida aloqani tashkillashtirish, jang paytida ularning ish rejimlarini to‘g‘ri tanlay bilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini oshirish;

ularda amaliy ishlay bilish uchun yetarlicha aloqa apparatu

va vositalarini bilim yurtlari o‘quv bazalariga joylayshtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. Oliy harbiy bilim yurtlarida pedogogik kadrlarning bir joydan boshqa joyga ko‘chirilishi, pedogog lavozimidan boshqa lavozimlariga qo‘yilishi va yangi tayinlangan pedogog kadrning o‘z bilim va malakalarini tinglovchilarga yetarlicha yetkazib beraolmaslik hollari o‘quv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Avvalo harbiy bilim yurtlariga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ofitser kadrlarni to‘g‘ri tanlay bilish kerak. O‘qituvchilikka salohiyati bor, o‘z mutaxassisligini chuqur biladigan, harbiy qismlarda yuqori lavozimlarda xizmat olib borgan, xarbiy texnika va qurollarni yaxshi o‘zlashtirgan, bundan tashqari shaxsiy tarkib bilan kamida

10 yildan ortiq ishlagan ofitserlarni tayinlash kerak bo‘ladi.

Harbiy bilim yurtlaridagi professor-o‘qituvchilarni iloji boricha o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha pog‘anama-pog‘ana o‘stirib borish lozim. Agarda bir joydan ikkinchi joyga rotatsiya qilish kerak bo‘lsa, bir bilim yurti o‘qituvchisini ikkinchi boshqa bir bilim yurti o‘qituvchisi bilan, mutaxassisligi bo‘yicha almashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hizmat pog‘onasida o‘sishi ham shu xolatda davom etishi kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari oliy harbiy bilim yurtlarida mashg‘ulotlarni tashkil etish

va o‘tkazish davomida quyidagi boshqa to‘siqlar ham uchrab turadi:

o‘quv dasturlari fanlari mavzularining kafedralar aro to‘g‘ri tashkil qilinmaganligi;

kursantlarning o‘quv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa ishlarga

va tadbirlarga jalb qilinishi;

kursantlarning o‘quv mavzularini mustaqil ravishda o‘zlashtirishi bo‘yicha komandirlar nazoratining yo‘qligi.

O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish davomidagi yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilsak biz kelajakda yuqori salohiyatga ega bo‘lgan malakali harbiy kadrlarni yetishtirib chiqishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2020- yil 23- sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 20- apreldagi “Oliy harbiy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2022- yil 15- sentyabrdagi “Mudofaa vazirligi harbiy ta’lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”686- sonli buyrug‘i.

[5] Aloqa bo‘yicha qo‘llanmani tasdiqlash bo‘yicha, O‘R MV 2019 yil 25 yanvardagi № 65 buyrug‘i.

TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Temirov Sirojiddin Shoymardon o‘g‘li.
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli savodxonlik tushunchasi, uning zamonaviy ta’limdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimidan ham yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, o‘quvchi, talaba hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyalari va ularning axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish darajasi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu asosda, maqolada raqamli savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishda uchraydigan asosiy muammolar ko‘rib chiqilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq va amaliy yechimlar taklif etiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar, mavjud platformalar va innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli savodxonlik, raqamli texnologiyalar, ta’lim tizimi, pedagogika, axborot madaniyati, raqamli kompetensiya, masofaviy ta’lim, innovatsiya, texnologik vositalar, zamonaviy ta’lim*

Kirish

Raqamli savodxonlik bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali va xavfsiz foydalanish, raqamli vositalar yordamida axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha keng qamrovli bo‘lib, faqat kompyuter va internetdan foydalanish bilan cheklanmay, balki raqamli muhitda axborot madaniyati, kiberxavfsizlik, media savodxonlik, raqamli etikani ham o‘z ichiga oladi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida raqamli savodxonlik har bir fuqaroning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, masofaviy ta'lim, sun’iy intellekt va raqamli xizmatlar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda raqamli savodxonlik inson kapitalining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Jahon banki, BMT, YeXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar raqamli savodxonlikni barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rsatmoqda. Shu bois, bu soha ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilmoqda. Xususan, axborot texnologiyalari, pedagogika, sotsiologiya va psixologiya fanlari doirasida raqamli savodxonlikning nazariy asoslari, metodologiyasi va amaliy ahamiyati chuqur tadqiq qilinmoqda. Uning jamiyatdagi o‘rni va ta'siri masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Hukumat dasturlari ham mavjud bo‘lib, raqamli savodxonlik darajasini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Ayni paytda raqamli tafakkurni rivojlantirish, yoshlar va aholining barcha qatlamlari uchun raqamli kompetensiyalarni shakllantirish orqali ijtimoiy tenglik, bandlik, innovatsion salohiyatni oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu tariqa, raqamli savodxonlik zamonaviy hayotning ajralmas elementi bo‘lib, ilmiy-texnik taraqqiyot,

ijtimoiy-adolatli jamiyat qurilishi va inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishning asosiy omilidir.

A. Raqamli savodxonlik holati (O‘zbekiston misolida yoki xalqaro tahlil)

So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. 2020–2023-yillarda pandemiya davrida masofaviy ta’limga o‘tish zarurati raqamli vositalar va infratuzilmaning ahamiyatini keskin oshirdi. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, umumta’lim maktablarining qariyb 85% internet tarmog‘iga ulanmagan yoki past tezlikdagi ulanishga ega. Shuningdek, ko‘plab ta’lim muassasalarida kompyuterlar, planshetlar va boshqa raqamli qurilmalar yetarli emas, mavjud texnikalar esa eskirgan.

Raqamli savodxonlik faqat texnik vositalar bilan cheklanmay, balki ularni samarali ishlata olish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. UNICEF va UNESCO tomonidan olib borilgan xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo davlatlarida, jumladan, O‘zbekistonda o‘qituvchilarning taxminan 40% raqamli texnologiyalarni dars jarayonida to‘liq va mustaqil ravishda qo‘llay olmaydi. O‘quvchilarning raqamli savodxonligi esa oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga bevosita bog‘liq: shaharlik o‘quvchilar ko‘proq texnologiyalardan foydalansa, qishloqdagi tengdoshlari bunday imkoniyatga kamroq ega.

Ta’lim muassasalarining texnik infratuzilmasi raqamli savodxonlikni rivojlantirishda asosiy omillardan biridir. Afsuski, ko‘plab hududlarda maktablar hali ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan to‘liq ta’minlanmagan. Elektr energiyasi ta’minoti, kompyuter sinflarining yetishmasligi, yuqori tezlikdagi internetning mavjud emasligi bu sohada jiddiy to‘siqlarni keltirib chiqarmoqda. Ayrim rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirilganda, bu borada O‘zbekiston hali katta yo‘l bosishi kerak.

Ko‘pgina chekka hududlarda hali ham barqaror internet tarmog‘i mavjud emas yoki juda past tezlikda ishlaydi. Bu esa onlayn ta’lim, elektron darsliklar va raqamli platformalardan foydalanishni cheklaydi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2023-yilgi ma’lumotiga ko‘ra, maktablarning 50 foizida barqaror internet aloqasi mavjud emas.

Ayrim hududlarda bir nechta o‘quvchiga atigi bitta kompyuter to‘g‘ri keladi. Bu esa dars jarayonida har bir o‘quvchining raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Ko‘pchilik oilalarda esa shaxsiy kompyuter yoki planshet mavjud emas, bu holat masofaviy ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘plab o‘qituvchilar raqamli vositalarni qanday ishlatishni bilmasligi yoki bu sohada yetarli tayyorgarlikka ega emasligi sababli, zamonaviy texnologiyalardan

to‘laqonli foydalana olmaydi. Malaka oshirish kurslarining yetarlicha amaliyotga yo‘naltirilmagani bu muammoni kuchaytirmoqda.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha aniq metodikalar, qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarining kamligi ham muammolardan biridir. Darslarda interaktiv platformalar, raqamli resurslar va onlayn sinov tizimlaridan foydalanish hanuzgacha keng joriy etilmagan.

Ijtimoiy va iqtisodiy muammolar

Shahar va qishloq maktablari o‘rtasida texnik ta’minot, o‘qituvchilarning malakasi va o‘quvchilar salohiyati jihatidan sezilarli farq mavjud. Bu raqamli tengsizlik ta’lim sifatida ham aks etadi.

Past daromadli oilalardan chiqqan o‘quvchilar raqamli qurilmalarga ega emasligi, internet xarajatlarini qoplay olmasligi tufayli ta’lim olishda orqada qoladi. Bu esa jamiyatda raqamli savodsizlikning ildiz otishiga olib keladi.

Raqamli savodxonlik faqat texnologiyalarni ishlatishni emas, balki xavfsiz va tanqidiy fikrlash asosida foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Ko‘plab o‘quvchilar va hatto o‘qituvchilar kiberxavfsizlik, feyk axborotlarni ajratish, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash masalalarida yetarli bilimga ega emas. Bu esa raqamli makonda xavfsiz bo‘lishni qiyinlashtiradi.

Raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha muammolarni hal etish uchun ta’lim tizimida chuqur transformatsiyani amalga oshirish zarur. Eng avvalo, davlat miqyosida raqamli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilishi va ular bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Bu strategiyalar doirasida har bir hududdagi ta’lim muassasalarining texnik va metodik imkoniyatlari hisobga olingan holda individual yondashuvlar ishlab chiqilishi kerak. Ta’lim sifati o‘qituvchilarning salohiyatiga bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, ularni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida qayta tayyorlash va doimiy ravishda malakasini oshirish muhim vazifalardan biridir. Shu maqsadda masofaviy o‘qitish platformalari, onlayn kurslar, webinarlar va amaliy treninglar keng yo‘lga qo‘yilishi kerak. Bular orqali o‘qituvchilar nafaqat texnik bilimlarni, balki ularni pedagogik jarayonga integratsiya qilish ko‘nikmalarini ham egallashadi. Infratuzilmani yaxshilash masalasi ham markaziy o‘rinda turadi.

Taklif va xulosa

Maktablar va oliy ta’lim muassasalari yuqori tezlikdagi internet bilan to‘liq ta’minlanishi, zamonaviy kompyuterlar, interaktiv doskalar va boshqa raqamli vositalar bilan jihozlanishi zarur. Buning uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida barqaror hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish muhim. Darsliklar va metodik materiallarni raqamlashtirish orqali ularni osonroq tarqatish va yangilash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, interaktiv platformalarni ishlab chiqish va ularni dars jarayonida faol qo‘llash o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda bilimlarni

yanada samarali o‘zlashtirishiga zamin yaratadi. Raqamli xavfsizlik va axborot madaniyatini shakllantirish esa bugungi kunda alohida e’tiborni talab etadi. Buning uchun o‘quv dasturlariga axborot xavfsizligi, media savodxonlik, kiberetiket kabi mavzularni kiritish lozim. Bu nafaqat o‘quvchilarning balki o‘qituvchilarning ham raqamli muhitda xavfsiz va ongli harakat qilishiga yordam beradi. Yana bir muhim jihat – bu xalqaro tajriba almashinuvi va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirishdir. Dunyodagi ilg‘or ta’lim tizimlari bilan hamkorlikda loyiha va dasturlar amalga oshirilsa, raqamli savodxonlik bo‘yicha yangi texnologiyalar va yondashuvlarni tezroq joriy etish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Umuman olganda, mavjud muammolar chuqur tahlil qilinar ekan, ularning yechimlari kompleks yondashuvni talab etadi. Raqamli savodxonlik darajasining oshishi ta’lim sifatining yaxshilanishiga, o‘quvchilarning tanqidiy va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda raqamli iqtisodiyot talablariga javob bera oladigan bilimli va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashga olib keladi. Shu bois, raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha islohotlar izchil, tizimli va barqaror amalga oshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharkov, R. (2021). "Digital Literacy and Educational Transformation in Uzbekistan: Challenges and Solutions." Journal of Educational Technology & Pedagogy, 12(4), 35-48. URL: https://www.jetp.org/educational-transformation-uzbekistan

2. Aliyev, S., & Tashkentov, B. (2022). "The Role of Digital Infrastructure in Education: A Comparative Analysis." International Journal of Educational Development, 38(7), 103-118. DOI: 10.1016/j.ijedudev.2022.04.003

3. Iskandarov, M. (2023). "Digital Competence and Teaching Methods in Central Asia: A New Paradigm." Asian Journal of Education and Training, 9(2), 77-85. URL: https://www.ajet.org/digital-competence-central-asia

4. Jabbarov, D., & Yusupov, A. (2021). "Digital Literacy and Media Education in the Modern Educational System." Journal of Media Literacy Education, 13(1), 45-56. DOI: 10.23860/JMLE-2021-13-1-6

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАДИОЛОКАЦИОННЫХ СТАНЦИЙ В ЛОКАЛЬНЫХ КОНФЛИКТАХ: АНАЛИЗ И РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМ

Эрметов А.А.

подполковник, старший преподователь кафедры ПВО СВ института информационных коммуникационных технологий и военной связи

Аннотация: *в статье рассматривается опыт применения радиолокационных станций (РЛС) в локальных войнах и вооружённых конфликтах второй половины XX — начала XXI века. Проанализированы основные проблемы боевого применения РЛС — уязвимость к противорадиолокационным ракетам, радиоэлектронному подавлению и малозаметным низколетящим целям, — а также технические и тактические пути их решения.*

Ключевые слова: *радиолокационная станция, локальный конфликт, противовоздушная оборона, радиоэлектронная борьба, противорадиолокационная ракета, беспилотный летательный аппарат.*

Annotation: *This article examines the experience of using radar stations (radars) in local wars and armed conflicts of the second half of the 20th and early 21st centuries. It analyzes the main problems of the combat use of radars — vulnerability to anti-radiation missiles, electronic jamming, and low-flying stealthy targets — as well as the technical and tactical solutions to these problems.*

Keywords: *radar station, local conflict, air defense, electronic warfare, anti-radiation missile, unmanned aerial vehicle.*

С момента появления радиолокации в 1930–1940-е годы РЛС стали ключевым элементом систем противовоздушной обороны (ПВО) и разведки воюющих сторон. Однако наиболее показательным полигоном для проверки боевых возможностей и уязвимостей радиолокационных средств стали не мировые, а локальные войны второй половины XX века — во Вьетнаме, на Ближнем Востоке, на Фолклендских островах, а в последние годы — в Сирии, Ливии и Нагорном Карабахе.

Война во Вьетнаме (1965–1973 гг.) стала первым масштабным опытом противостояния РЛС наведения зенитных ракетных комплексов (ЗРК) С-75 и средств их подавления. С июля 1965 г., когда советские ЗРК С-75 были развёрнуты для прикрытия Ханоя и Хайфона, авиация США была вынуждена перейти к тактике подавления радиолокационных станций наведения — постановке активных помех, применению противорадиолокационных ракет (ПРР) «Шрайк» и специализированных экипажей «Wild Weasel» [4]. Этот опыт положил начало массовому боевому применению ПРР, тактика которого впоследствии совершенствовалась в конфликтах на Ближнем Востоке и Фолклендах [3].

Война Судного дня 1973 г. продемонстрировала обратный эффект — эффективность средств радиоэлектронного подавления (РЭП) против радиолокационных станций сопровождения целей. Так, 6 октября 1973 г. под

прикрытием станции активных помех «Смальта» 79 самолётов сирийской авиации нанесли удар по израильским позициям в районе Голанских высот, потеряв лишь один самолёт, — помехи существенно снизили эффективность радиолокационного сопровождения целей комплексами ЗРК HAWK [9]. Одновременно израильская сторона столкнулась с проблемой отсутствия на своих самолётах современных станций предупреждения об облучении, что также было учтено при последующей модернизации авиационных комплексов РЭБ [5].

Конфликты последнего десятилетия — гражданская война в Сирии, боевые действия в Ливии и Вторая карабахская война 2020 г. — выявили новую системную проблему: низкую эффективность существующих РЛС и ЗРК против массированного применения малоразмерных и барражирующих беспилотных летательных аппаратов (БПЛА). Опыт применения турецких БПЛА Bayraktar TB2 в Нагорном Карабахе показал, что даже современные интегрированные системы ПВО, включающие ЗРК С-300ПС, «Бук-М2», «Тор-М2» и «Панцирь-С1» в сочетании со средствами РЭБ, не всегда способны обнаружить и поразить малозаметную цель на предельно малых высотах [8]. Устаревшие радиолокационные станции сопровождения, ориентированные прежде всего на пилотируемую авиацию, оказались уязвимы для тактики массированного применения дешёвых БПЛА под прикрытием более тяжёлых разведывательных аппаратов, оснащённых средствами радиолокационной и оптико-электронной разведки [6].

Обобщение опыта локальных конфликтов позволяет выделить три ключевые проблемы боевого применения РЛС: 1) уязвимость к противорадиолокационным ракетам, наводящимся на собственное излучение станции; 2) снижение дальности обнаружения и точности целеуказания под воздействием активных и пассивных помех, включая применение ложных целей и уголковых отражателей [5]; 3) низкая эффективность обнаружения малоразмерных, низколетящих и медленно движущихся целей, характерная для устаревших РЛС метрового и дециметрового диапазонов.

В качестве решений данных проблем в современной практике применяются: переход к многопозиционным и пассивным радиолокационным системам, не демаскирующим себя излучением; использование режимов частотной перестройки и адаптивной обработки сигнала для повышения помехозащищённости; интеграция РЛС с комплексами РЭБ и средствами радиотехнической разведки в единый контур; применение мобильных и маловысотных РЛС, специализированных для обнаружения малоразмерных БПЛА; а также комплексирование радиолокационных данных с оптико-

электронными и акустическими средствами обнаружения для повышения достоверности целеуказания.

Таким образом, анализ опыта локальных конфликтов свидетельствует о том, что эффективность радиолокационных станций определяется не только их техническими характеристиками, но и способностью систем ПВО адаптироваться к изменяющейся тактике противника - от противорадиолокационных ракет до массированного применения недорогих БПЛА. Дальнейшее развитие радиолокационных средств должно идти по пути повышения скрытности, помехозащищённости и интеграции с другими видами разведки и РЭБ.

Список литературы

1. Рожков А.Д. Радиоэлектронная борьба в войнах и военных конфликтах [Электронный ресурс] // Наука и техника. URL: https://www.qrz.ru/articles/article_reb_v_vojnah_i_vooruzennyh_konfliktah_cast_i_708.
2. Радиолокация в годы войны [Электронный ресурс] // Виртуальный компьютерный музей. URL: https://www.computer-museum.ru/connect/radioloc.htm.
3. Боевое применение противорадиолокационных ракет в локальных конфликтах [Электронный ресурс]. URL: https://commi.narod.ru/txt/0000/xx26.htm (дата обращения: 28.08.2026).
4. Заглушить радар. С-75 - новая надежда [Электронный ресурс] // Хабр. URL: https://habr.com/ru/companies/timeweb/articles/578544.
5. Радары и то, как от них прячутся. Часть 5 - современные радары [Электронный ресурс] // Хабр. URL: https://habr.com/ru/articles/989956.
6. Афонин И.Е. [и др.] Анализ опыта боевого применения беспилотных летательных аппаратов в локальных конфликтах и вооружённых столкновениях последних лет [Электронный ресурс] // Системы управления, связи и безопасности. 2020. № 4. URL: https://sccs.intelgr.com/archive/2020-04/06-Afonin.pdf.
7. Современная артиллерия против БПЛА [Электронный ресурс] // Оборонно-промышленный портал. URL: https://dfnc.ru/ekspertnoe-mnenie/sovremennaya-artilleriya-protiv-bpla.
8. Митцер С., Олиманс Й. Bayraktar TB2: покоритель Карабаха [Электронный ресурс] // Oryx / Фокус. URL: https://focus.ua/voennye-novosti/494730-bayraktar-tb2-pokoritel-karabaha.
9. История создания отечественных комплексов РЭБ воздушного базирования [Электронный ресурс] // Русская DARPA. URL: https://rusdarp

SHAXSIY TARKIBDA MILLIY G‘URUR, VATANPARVARLIK VA FIDOYILIK TUYG‘ULARINI RIVOJLANTIRISH

Umarov G‘ulom Jo‘rabayevich., Murodova Yorqinoy Tojiyevna
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya*: Mazkur maqola bo‘lajak ofitserlarimizga Vatanparvarlik tuyg‘usi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashda tashabbuskor bo‘lish, tinchlikni ko‘z qorachig‘idek asrash, unga fidoyilik bilan xizmat qilishga undash, milliy mentalitet va qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga chuqur singdirish hamda shu orqali ularda kelajakka ishonch tuyg‘ularini qaror toptirish haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar*: milliy mentalitet, axloq, ma’naviyat, milliy g‘urur, shaxs, fazilat, Oliy Bosh qo‘mondon.*

Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi.

Bugungi zamon shiddati inson uchun ma’naviyat naqadar najotkor kuch ekanini namoyon etmoqda. Zero, axloqsizlik, odobsizlik, ma’naviy qashshoqlik insonni ma’naviy tubanlik girdobiga giriftor etib, keng miqyosda esa jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarib, parokandalikni yuzaga keltirayotganini namoyon etmoqda. Ma’naviyat insonning jamiyatda yashashi uchun zarur ijobiy fazilatlarini namoyon etuvchi beqiyos kuch. Aynan ma’naviyat tufayli insonda go‘zal odob-axloq fazilatlari shakllanib, uning jamiyatdagi mavqeini belgilab beradi. Shu bois, jamiyat hayotida ma’naviyat masalasiga nihoyatda mas’uliyat bilan yondashishni taqozo etadi. Zero, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqi jo‘sh urgan oriyatli, ma’naviy jasoratga ega odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 2-yanvar kuni mudofaa qurilishi va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yana bir bor e’tibor qaratildi.

Globallashuv jarayonida harbiy xizmatchilar tomonidan milliy qadriyatlarni saqlashning o‘ziga xos tamoyillari haqida fikr yuritganda, harbiy xizmatchi – ruhan tetik, jismonan sog‘lom, axloqiy barkamol, talabchan, ma’naviy sog‘lom, qanoatli, rostgo‘y, sadoqatli, pokiza, ziyrak, andishali, vazminlik kabi shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lish talab etiladi. Shu bilan birga, o‘z sohasining yetuk bilimdoni bo‘lishi, hunar sirlarini puxta o‘rganishi, yutuq-kamchiliklarini idrok eta olishi, nutq madaniyatini egallashi asnosida barchaga har jihatdan shaxsiy namuna va ibrat bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Vatanparvarlik milliy qadriyatlar zamiridagi eng muhim jihatlardan biri sanaladi. Zero, bugungi kunda vatanparvarlik fazilatlarini

kuchaytirishda xalqimizning milliy mentaliteti va qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga chuqur singdirish hamda shu orqali ularda kelajakka ishonch tuyg‘ularini qaror toptirish muhim.

Vatan sha’ni, or-nomusini jon-jahdi bilan himoya qiladigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash, buning uchun farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurt taqdiriga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirish mudom eng ustuvor masala bo‘lib davom etaveradi. Zero, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari, ezgu g‘oyalarni tarannum etish tinchlik va barqarorlikning asosi ekan, bu har bir vatandoshimizning muqaddas burchi bo‘lib qolaveradi.

G‘urur – insonda, uning atrofida, millati, xalqi va davlatida qadr-qimmat, nomus, izzat-nafs kabi fazilatlar mavjud bo‘lishi yoki amal qilishi natijasida uning o‘zini-o‘zi hurmat qilish hissini anglatadigan ma’naviy tushuncha.

Tarixdan ma’lumki, Vatan ozodligi uchun kurashish masalasi allomalar asarlari hamda ezgu g‘oyalarni ifoda etuvchi ta’limotlarning bosh g‘oyasi bo‘lib kelgan. Binobarin, muqaddas manbalarda ham “Vatanni sevmoq iymondandir”, deyilgan. Shunday ekan, Vatan tarixini bilgan, ulug‘ ajdodlar merosini chuqur o‘rgangan har bir inson qalbida milliy g‘urur-iftixor tuyg‘ulari yanada jo‘sh urib, el-yurtga, Vatanga sadoqati ortib boraveradi.



Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy Vatanni sevish va uni ardoqlashni tabiat va jamiyatning muhim qonuniyati sifatida ta’riflaydi. *“Vatan. Har bir kishining tug‘ulub o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ulgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayirilsa, o‘z yeridagi kabi rohat yashamas, maishati talx bo‘lub, hap vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanining muhabbati turar”*.

Vatanparvarlik tuyg‘usi, avvalo, insonda yurtga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllanishiga xizmat qiladi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashda tashabbuskor bo‘lish, tinchlikni ko‘z qorachig‘idek asrash, unga fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi.

Milliy g‘urur – shaxs, ijtimoiy guruhning muayyan millatga mansubligidan faxrlanish hissi. Bu tuyg‘u o‘zini-o‘zi anglash shakllaridan biri bo‘lib, ajdodlar qoldirgan moddiy, ma’naviy meros, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan faxrlanish hissini ifodalaydi. U shaxs va ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan tarzda yo‘naltiradi, tartibga soladi. Milliy g‘urur quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: millatning yutuqlari, obro‘-e’tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o‘z eliga, millatiga jonkuyar bo‘lish; o‘z millatining moddiy, ma’naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an’analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o‘z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon etish. Milliy g‘urur ma’naviyat tarkibida muhim o‘rin tutadi. Milliy g‘urur millatning o‘tmishda fan, adabiyot, san’at rivojiga qo‘shgan hissasi, buyuk allomalari, atoqli sarkardalari faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Milliy g‘ururi bo‘lmagan kimsa boshqa millatlarga bosh eguvchi kosmopolitga, manqurtga aylanadi. Milliy g‘ururning predmeti va mazmuni, ya’ni qanday shaxslar, qanday voqea-hodisalar bilan faxrlanayotgani shu millatning mazkur davrdagi ma’naviy qiyofasini ko‘rsatadi. Xalqlar tarixida shunday davrlar bo‘lishi mumkinki, unda millatchilik, shovinistik, hatto fashizm g‘oyalari ustuvorlik qila boshlaydi. Bunday davrlarda Milliy g‘urur predmeti salbiy hodisalar: maqtanchoqlik, boshqa millatlarni pastga urish, o‘z millatining boshqa millatlarga nisbatan ustunligini targ‘ib etish kabi illatlarda namoyon bo‘ladi. Bunday hollar millat o‘ziga-o‘zi tanqidiy ko‘z bilan qaray olmay qolgan vaziyatlarda yuz beradi. Milliy g‘urur adabiyot va san’atda o‘z ifodasini topadi.

Alisher Navoiyning quyidagi hikmati milliy g‘ururning go‘zal ifodasidir: “Menga qilsa ming jafo, bir marta faryod aylabon, “Elga qilsa bir jafo, ming marta faryod aylaram”.

Sog‘lom milliy g‘urur o‘zga millatga mansub kishilarga ham hurmat-ehtirom ko‘rsatishni taqozo etadi. Bunday tuyg‘uga ega ma’naviy yetuk kishi milliylikni millatchilikdan, haqiqiy milliy g‘ururni millatparastlikdan farqlay oladi, boshqa millat vakillarining izzat-nafsi va g‘ururini kamsitmaydi. Mustabid tuzum davrida milliy g‘ururni ifodalash millatchilik bilan tenglashtirilar, muayyan millatga mansublik bilan emas, balki ittifoq fuqaroligi bilan faxrlanish talab etilar, ko‘pgina millatlarning milliy g‘ururi toptalar va kamsitilar edi. Mustaqillik kishilar milliy g‘ururini oshirib, uni xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas’uliyatni his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda. Bunday sharoitda milliy mustaqilligimizdan faxrlanish, mamlakatimizda ozod va obod Vatan, farovon va erkin hayot qurish yo‘lida faol mehnat qilish, jahon hamjamiyati yutuqlari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish milliy g‘ururni oshiradigan omillardir. Bu esa, o‘z navbatida, yurtdoshlarimizning kuchi, salohiyati, bunyodkorlik faoliyatini ko‘p

jihatdan belgilaydi, ularda sog‘lom milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish uchun tinmay izlanishga safarbar etadi.

Qadimdan ma’lumki insonlar atrof muhitda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirgan. Bu munosabatlar kitoblarda o‘z ifodasini topgan. Insonning his-tuyg’ulari so‘zlar, matnlar, rasmlar orqali yozma manbalarda muxrlangan. Shu asosda ajdodlarimiz dunyo, tabiat, jamiyat, hayvonot olami, o‘simliklar, tog‘lar, suvlarning paydo bo‘lishi haqidagi ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan hikoyalar yaratganlar. Yoshlar esa o‘z his-tuyg‘ularini turli she’rlar va qissalarda bayon qilganlar. Ushbu hikoyalar va qissalarda xalqimizning ruhiyati, milliy mentaliteti, urf-odatlari, tarbiyaviy qarashlari ham aks ettirilgan. Bora-bora ular keyingi avlodlarni milliy g‘urur, mardlik, jasorat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Milliy g‘urur va shaxs, ijtimoiy guruhning muayyan millatga mansubligidan faxrlanish hissi. Bu tuyg’u o’zini-o’zi anglash shakllaridan biri bo’lib, ajdodlar qoldirgan moddiy, ma’naviy meros, o’z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan hissasi, qadr-qimmati, obro’-etiboridan faxrlanish hissini ifodalaydi"

1. Milliy g’urur insonlarda quyidagi shakllarda o‘z ifodasini topadi: -o‘z xalqi, millatining erishgan yutuqlari, qadriyatlari, milliy boyliklari, urf-odatlari, an’analaridan faxrlanish, uning hayotidagi o’ziga xos xodisalarga befarq bo’lmaslik;

-o‘z xalqi, millatining ravnaqi uchun fidoyilik ko‘rsata olish;

-o‘z xalqi, millatining asrlar davomida yaratgan ma’naviy, madaniy, moddiy boyliklarini asrab-avaylash;

-xalqning milliy urf-odatlari, an’analari, qadriyatlarini e’zozlash va avaylab-asrash, ko‘paytirish;

-o‘z millatini qadrlashini kundalik amaliy faoliyatida namoyon eta olish kabilar.

Shu bilan bir qatorda milliy g’urur egasi boshqa xalqlar va millatlarning vakillariga alohida hurmat-e’tibor bilan qarash, ularning madaniy boyliklarini qadrlay olish tuyg‘usiga ega bo‘ladi. Boshqa millat vakillarining madaniyati, urf-odatlari, an’analarini qadrlagan holda milliy g‘ururni millatchilik va soxta millatparvarlikdan farqlay oladi. Bunday sifatlarni yosh avlodga ta’lim-tarbiya jarayonida singdirish zaruriyati bugungi kunda ayniqsa kuchaymoqda.

Yosh avlod uchun milliy gurur tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur jarayonda o‘quvchilarda o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, millat taqdiri uchun qayg‘urish, fidoyilik sifatlari tarkib topadi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchi-

yoshlarda o‘z ajdodlari va bugungi vatandoshlarining yutuqlaridan faxrlanish, ularni avaylab-asrash va ko'paytirishga intilish, jaxon xalqlarining ilg‘or madaniyati bilan o‘z xalqi madaniyatining yutuqlari bilan qiyoslash, undan faxrlanish tuyg‘usi shakllantiriladi. Millatning jahon maydonida o‘zligini namoyon qilishi uchun hissa qo‘shish, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida xalqning yutuqlarini ko‘paytirishga bo‘lgan intilish kuchayadi. Buning natijasida yoshlar sog‘lom dunyoqarashga, milliy g'ururga ega bo‘lib, vatan ravnaqi uchun tinmay harakat qilishga intiladilar. Ularda fidoyilik hissi yuksaladi. Bu jarayonda kitoblarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish talab etiladi. Kitoblarda o‘zbek xalqining o‘tmishi, ajdodlarimizning boy ma‘naviy merosi, tajribalari ifoda yetilgan bo‘lib, ulardan o‘quvchi-yoshlarni xabardor qilish orqali milliy g‘urur tuyg‘usi shakllantiriladi.

Kitoblar insonni ma’naviy boyitib, uni ma’rifiylik kamolati sari yetaklaydi. Insonni shaxs sifatida shakllanishiga ma’naviy tafakkuri ildizining mustahkamligiga bog‘liq. Bu mustahkamlik esa kitob o‘qish, o‘qigan kitobninig eng muhim jihatlarini ilg‘ab, anglab olishdan iboratdir.

Shuni aytish joiski, insonlardagi fikrlar o‘z navbatida tafakkurni shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Biz bilamizki, tafakkur miyaning bir nuqtasidagi faoliyati natijasi emas, balki miya po‘stlog'ining bir qancha nuqtalari faoliyati assotsiatsiyasi natijasidir. Binobarin, tafakkurda, ya’ni fikr yuritishda qator aqliy jarayonlar - analiz, sintez taqqoslash, abstraktsiya, umumlashtirish va boshqa jarayonlar faol ishtirok etadi. Shundan keyin biz ular natijalari asosida xukm, xulosa chiqaramiz, bir to‘xtamga kelamiz. Bizda muayyan tushuncha yuzaga keladi, buni miya po‘stlog‘ining ixtisoslashgan xujayralari - nuqtalari faoliyati assotsiatsiyalanadi.

Mir Alisher Navoiy qanday buyuk gumanist inson bo‘lgani tarixdan yaxshi ma’lum. Ul zotning safar chog‘ida chodiriga in qo‘ygan musicha uyasini buzdirmasdan, qush toki polaponlarini uchirma qilib ketguniga qadar kutgani tillarda doston bo‘lgan. Ammo shunday beozor inson ham yurt boshiga ish tushganida, el-ulus tinchligiga xavf tug'ilganida qo‘liga qilich olib jangga kirganki, bu uning nafaqat so‘z mulkining, ayni vaqtda harb jabhasining ham amiri bo‘lganidan dalolat beradi va barchamizni ajdodlar jasoratidan ibrat olishga undaydi.

Inson tafakkurining yuksalishida kitobning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Shu bois, muhtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusda kitob mutolaasiga alohida e’tibor qaratilgan. Inson kitob mutolaa qilar ekan, uning **ongi va tafakkuri**

yuksaladi, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, xalollik va poklik kabi olijanob his-tuyg‘ular, shuningdek, inson xarakteri va turmush tarzida zarur bo‘ladigan ijobiy xatti-harakat shakllanadi, rivojlanadi.

Jangda dushman ustidan g‘alaba qozonish, dushmanga munosib zarba berish uchun harbiy xizmatchi jismonan baquvvat bo‘lishi shart. Biroq jangchi jismoniy jihatdan kuchli bo‘lib, ammo unda milliy g‘urur va jangovar ruh shakllanmagan bo‘lsa, mag‘lubiyatga yuz tutishi muqarrar.

“Harbiy xizmatchida milliy g‘urur va jangovar ruh qanday paydo bo‘ladi? Buning uchun nima qilish kerak?”

Harbiy xizmatchida milliy g‘urur, jangovar ruh shakllanishi va rivojlanishida shoir va yozuvchilarimiz, san‘atkorlarimiz, teatr va kino-aktyorlarining o‘rni beqiyos.

Yozuvchilarimizning asarlarini mutoala qilish, ushbu kitoblarda jamlangan ona Vatanga sadoqat, fidoyilik, mardlik va jasorat kabi fazilatlar tarannum etilgan eng sara hikoyalar, she’r va dostonlar harbiy xizmatchilarimizga katta taassurot uyg‘otmoqda. Vatanparvarlik insoniy fazilatlarning eng ulug‘laridan biri bo‘lib, u milliy birlik, jamoaviy birdamlik va davlat barqarorligini mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi. Oilaviy kontekstda vatanparvarlik farzandlarga vatanining tarixi, madaniyati va an’analariga hurmat bilan qarash, ularning mustaqilligi va rivojlanishi uchun hissa qo‘shishga intilish kabi qadriyatlarni singdirishni anglatadi. Vatanparvarlikning eng asosiy elementi bu vatanga bo‘lgan muhabbatdir. Bu muhabbat insonning o‘z yurti va xalqiga bo‘lgan chuqur sadoqatini, uni yuksaltirish va himoya qilish istagini bildiradi. Vatanparvarlik vatani uchun xizmat qilishni, ya’ni mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi uchun mehnat qilishni talab qiladi. Bu xizmat turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin: harbiy xizmat, ilmiy kashfiyotlar, madaniyatni rivojlantirish va boshqalar. Vatanparvar inson o‘z vatanining farovonligi uchun fidoyilik bilan ishlaydi, kerak bo‘lganda, uning himoyasi uchun jonini fido qilishga tayyor bo‘ladi. Bu sadoqat uning har bir harakatida namoyon bo‘ladi.

Vatanparvarlik oila uchun muhim, chunki u oilaviy jipslik va milliy o‘zlikni mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi. Vatanparvarlik farzandlarga o‘z vatani va millati bilan faxrlanish, uning farovonligi va himoyasi uchun o‘z mas’uliyatini anglashni o‘rgatadi. Bu qadriyat yosh avlodni milliy g‘urur va o‘zlik hissi bilan tarbiyalashda, shuningdek, ular orasida o‘z milliy merosini saqlash va rivojlantirishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Vatanparvarlik milliy birlikni va jamoaviy birdamlikni mustahkamlashga yordam beradi. Bu birlik mamlakatning barqarorligi va rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Vatanparvarlik orqali

milliy madaniyat va an’analar avloddan avlodga o‘tadi, bu esa xalqning o‘zligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Vatanparvar inson o‘z vatani uchun mehnat qilib, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Bu rivojlanish umumiy farovonlikni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.: “O’zbekiston”. 2004.
2. O’zbekiston Respublikasi “Milliy xavfsizlik Konsepsiyasi”. - T.: 1997.
3. 2022-2026- yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – T.:“Adolat”, 2021.
4. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. - T.: O’zbekiston, 2018.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi.
6.Rubinshteyn S.L. “Umumiy rsixologiya asoslari”. – Piter.: 2002.
7.Chaldini R., Kenrik D., Neyberg S., Svinsiskiy A.L. “Ijtimoiy psixologiya”. – Piter.: 2002.
8. Rasulov A.I. “Psixodiagnostika”. – Toshkent.: 2009.

YOSHLARNING ILMIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH XUSUSYATLARI

Galdiyeva Mehribon Durdiyevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti, “Psixologiya” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,(PhD)

Annotatsiya: *Maqola yoshlik davrining ijtimoiy va psixologik o‘ziga xos xususiyatlarining tahliliga bag‘ishlangan.Unda o‘spirinlik davrining asosiy ijtimoiy psixologik va yoshga oid xususiyatlari, o‘spirinlar ilmiy tafakkuri va rivojlanish omillari o‘rganilgan.*

Tayanch so‘z va tushunchalar: *ijtimoiy vaziyat, faoliyat turlari, muloqot maromi, ilmiy tafakkur, intellektual rivojlanish parametrlari, o‘spirinlik yoshi.*

Аннотатсия:*Статя посвящена анализу сосиално-психологических особенностей юношеского возраста. В нем исследуются основние сосиално-психологические и возрастние особенности юношеского возраста, научное мишление и фактори развития юношей.*

Ключевие слова и понятия: *сосиалная ситуасия, види деятелности, ритм обшения, научное мишление, параметри интеллектуалного развития, подростковий возраст.*

The article is devoted to the analysis of the psychological and social characteristics of adolescence. The main socio-psychological and age characteristics and factors of personality development (young men.

Key words and concepts: *social situation, type of activity, sphere of communication, scientific thinking, parameters of intellectual development, adolescence.*

Bugungi kunda davlatimiz oldida ilm-fan, raqamli iqtisodiyot, innovasion

g‘oya va yondashuvlar asosida kuchli taraqqiyotga erishish, ta'limni rivojlantirish, jamiyatda ziyolilar, xususan, olimlar mavqeini ko‘tarish, yangi avlod kadrlarini bilimli va shijoatli, asl vatanparvar qilib tarbiyalash kabi muhim ishlar turibdi. Yoshlarni ilmiy innovatsion faoliyatga, xususan, tabiiy-ilmiy va texnik sohalarga ommaviy tayyorlash vazifasi bugungi kunda juda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Innovasion faoliyat murakkab tuzilishga ega: bu ko‘plab tarmoqlangan jarayonlarning ajralmas natijasidir va ularni barcha jihatlari birligida ko‘rib chiqish kerak. Biroq, uning yadrosi o‘ziga xos innovasion tafakkur bo‘lib, u innovasiyalarni rivojlantirish va amalga oshirishning barcha bosqichlariga "xizmat qiladi" va ularning sifatli va samarali amaliy qo‘llanilishini ta'minlaydi. Bunday fikrlash kamdan-kam hollarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi. Odatda, u uzoq vaqt davomida fikrlash jarayonlarini rag‘batlantiradigan qulay muhitda tuziladi, shuning uchun yoshlarni innovasion faoliyatga tayyorlash, ularga mos keladigan fikrlashni shakllantirish maktabdan boshlab iloji boricha tezroq amalga oshirilishi kerak. "Innovatsion tafakkur" tushunchasi "innovatsion faoliyat", "innovatsiya" atamalari bilan bir qatorda so‘nggi paytlarda turli xil manbalarda tez-tez uchraydi.

V.P.Deliyaning ta'rifida innovatsion tafakkurning asosiy xususiyatlari ta'kidlangan. U fikrlash, bu

- faoliyat bilan uzviy bog‘liqdir;
- ob'ektiv yangilik yaratishga qaratilgan;
- yaratilgan yangilik asosida amaliy muammolarni hal qilishga imkon beradi;
- ijtimoiy jihatdan ijobiydir.

Innovatsion tafakkurning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u faoliyat bilan uzviy bog‘liqdir. Biz bunday fikrlashni faqat ruhiy modellar bilan ishlash, motivasiyadan ajralish, bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi va atrof-muhitning moddiy o‘zgarishida namoyon bo‘ladigan yakuniy natijadan ko‘rib chiqa olmaymiz. Boshqacha qilib aytganda, innovatsion fikrlash motivasiya, fikrlash faoliyatining o‘zi, aqliy modelni yaratishga olib borishi va ushbu modelni amaliyotga o‘tkazish uchun tashqi ob'ektiv faoliyat bilan tavsiflanadi.

Yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini aqliy taraqqiyoti mezoni sifatida

qaralmog‘i kerak. Shuning uchun yoshlarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish kerak. Inson tashqaridan oladigan xabarni tubdan o‘zgartirish malakasini taraqqiy ettirish, ijodiy masalalarni echish, qarama qarshiliklarni qidirib topish, muammoli vazifalarni echish va modelini topish, o‘xshashlik va farqlarni izlab topish va boshqa yo‘llar bilan aqliy qobiliyatni rivojlantirish zarur.

Talabalar ilmiy tafakkurlarini rivojlantirishda quyidagi eng muhim muammolarni bartaraf etish orqali natijalarga erishi mumkin:

1. Talabalarda bilimga qiziqishning pasayishini sabablarini aniqlash.
2. Talabalarning foydali bilimlarni egallashga intilishi, ya'ni kelajakda tanlagan kasblariga yordam beruvchi fanlarnigina egallashga intilishi.
3. Bilimlarning o‘sishi juda yuqori. Lekin ma'lim muassasalarida eskicha qolipda ishlanishi, talabalarga etarli ma'lumotlar berilmasligi.
4. Aniq vositalarning yo‘qligi, shuning uchun aniq modellar tuzish zarurati.
5. Bugungi kunda yoshlarga kreativ yondoshishga o‘rgatadigan vositalarning ko‘pligi va qaysi biri to‘g‘riligini aniqlash.

Talabalarda shaxs rivojlanishining ijtimoiy vaziyati birinchi navbatda shu bilan xususiyatlanadiki, yigitlar va qizlar uchun bu davrda mehant faoliyati yo‘liga mustaqil chiqishi hamda jamiyatdagi o‘z o‘rnini belgilashiga to‘g‘ri keladi. Shunga bog‘liq holda yigitlar va qizlarga ijtimoiy talablar o‘zgaradi, shaxs shakllanadigan ijtimoiy sharoitlarda ham o‘zgarishlar yuz beradi: endilikda yoshlar mehnat qilishga, oilaviy hayotga, fuqarolik burchlarini bajarishga tayyorlanishi lozim bo‘ladi.

Kelajak bilan bog‘liq ijtimoiy sabablar o‘spirinlik yoshidagi talabalarda faol o‘quv faoliyatiga turtki bermoqda. O‘spirinlikda o‘quv fanlariga nisbatan katta tanlash namoyon bo‘ladi. Bu davrdagi o‘rganish faoliyatining asosiy sababi ijtimoiy ahamiyatga ega kasbni qo‘lga kiritishdir. Shaxsning barpo bo‘lish jarayoni A.N.Leontevning fikriga ko‘ra, shaxsli ma'nolar aloqali tizimining vujudga kelishi jarayonidir. A.N. Leontev o‘spirinlik yoshida faollikning etakchi turi o‘zgarishiga urg‘u beradi. D.B.Elkonin va A.N.Leontevning psixologik davrlarga taqsimlash tizimida o‘spirinlikdagi o‘quv-kasb faoliyati etakchi faoliyati sifatida e'tirof etilgan.

Oʻspirinlikdagi aqliy rivojlanish ham oʻziga xos jihatlarga ega. Bu davrda oʻzini oʻzi tahlildan oʻtkazishga hamda oʻzi toʻgʻrisidagi bilimlarni tizimga solishga, umumlashtirishga koʻproq moyillik paydo boʻladi. Oʻzini qadaydir ideal bilan taqqoslash yuz beradi. Oʻzini tarbiyalash imkoniyati faollashadi. An'anaga koʻra ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy oʻzaro harakatlar samaradorligi “ijtimoiy intellekt” kategoriyasi orqali koʻrib chiqiladi. Uni ishlab chiqish bilan E.Torndayk, G.Ayzenk, J.Gilford, G.Ollport, shuningdek mamlakatimizdagi mualliflar: B.Kodirov, E.Gʻoziev, V.Karimova, Z.Nishonova, Sh.Baratovlar shugʻullangan. Oʻspirinlikdagi tafakkur shaxsiy-hissiy tusga kiradi. Nazariy va dunyoqarash muammolariga qandaydir oʻrganish intilishi paydo boʻladi, intellektual hissiyotlar faol rivojlanadi. Hissiyotlar oʻzining imkoniyatlari, salohiyatlari va shaxsiy sifatlari borasidagi kechinmalarning oʻziga xosliklarida namoyon boʻladi. Intellektual rivojlanish xususiy xolatlar ortida turgan qonuniyatlar va tamoyillarni umumlashtirish, izlashga moyillikda namoyon boʻladi. Bu davrda e'tiborning jamlanishi, xotira hajmi kuchayadi, oʻqilayotgan, oʻrganilayotgan materialni, oʻzlashtirilayotgan axborotni mantiqlashtirish ortadi. Muayyan oliy psixik funksiya rivojlanishining yakunlovchi bosqichida yuqoridagilar faol shakllanadi, shuningdek mavhum-mantiqiy tafakkur, murakkab masalalarni mustaqil bilish borasidagi oʻrganish koʻnikmalari namoyon boʻladi. Oʻspirinlik yoshidagi insonlarda tafakkur bolalikdagiga nisbatan birmuncha tizimli va tanqidiy tafakkurga aylanadi. Shu asnoda yigitlar va qizlardagi kognitiv jarayonlar oʻta hissiyotli boʻladi. Ular oʻqituvchilardan, atrofdagi oʻziga yaqin kishilardan eshitgan narsalarga isbotlar va asoslar talab qilishadi. Ular baxslashishni, keskin iboralar bilan gaplashishni, oʻz fikrlarini oʻziga xos tarzda ifodalashin yoqtirishadi.

Talabalik davrida bilishga oid qiziqish koʻlami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Mazkur davrda oʻspirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyat kasb eta boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda oʻquvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi. Talaba yoshlar turli janrdagi adabiy asarlarni oʻqishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishishga oʻrganib boradi. Talaba yoshlarning aqliy jihatdan

rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir. Talaba adabiy asarlarni oʻqish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va munozaralarga oʻrgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida oʻzining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma'lumki, shaxsning ana shu fazilatlari unda fikrlash, mustaqil uylash, toʻgʻri hukm va xulosalar chiqarish, qat'iy qarorga kela olishi natijasidir. Aql tanqidiyligining rivojlanishi oʻquv materiallarini puxta oʻzlashtirishga, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, vokelikni isbotlash va asoslash koʻnikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. Yoshlar qobiliyati va iste'dodi ta'lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Qobiliyatning oʻsishi bilimlar, koʻnikmalar, malakalarning sifatiga bogʻliq boʻlib, shaxsning kamol topish jarayoniga qoʻshilib ketadi. Demak, oʻquv maskanida oʻtiladigan, darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashgʻulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari oʻspirinlar oʻzlashtirish uchun zarur materiallarni mustaqil xolda tushunishga olib keladi. Bularning barchasi ilmiy-nazariy tafakkurning shakllanishiga, tevarak atrofdagi voqelikning umumiy qonuniyatlarini oʻsishiga, aqliy imkoniyatlarining vujudga kelishiga, tabiat va jamiyat rivojlanishining qonunlarini anglashiga muhim shart-sharoit yaratadi.

Xulosa. Talabalik davridagi ilmiy tafakkurni tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega, chunki bu davrda yigit va qizlar oldida ularning tafakkuridagi yangi sifat tuzilmalarini, ilmiy tafakkurni yoʻlga soluvchi oʻziga xos sabablarni boshqaruvchi, ularni samaradorligiga ta'sir koʻrsatuvchi bashorat qilishning hamda tanlash, baholash va qarorlar qabul qilish mexanizmlarining yangi shakllarini yaratishni talab qiluvchi koʻplab hayotiy muammolar paydo boʻladi. Yuqori sinf oʻquvchilarining ilmiy tafakkuri mazmunida hayotiy va tajribadan olingan tasavvurlar ustunroq ekanligi inobatga olgan holda ularning tasavvurlarini oshirish usullarini ilmiy tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Lisey, kasb-hunar kollej va umumta'lim maktablaridagi oʻquvchilarning ilmiy tafakkuri tuzilmasi va mazmunini xususiyatlovchi asosiy koʻrsatkichlardagi aniqlangan farqlar ijtimoiy sharoitlarning salbiy ta'sirini yangicha oʻqitish sharoitlaridagi oʻspirin talabalar ilmiy tafakkuriga maqsadga yoʻnaltirilgan ta'sir oʻtkazish yordamida bartaraf etilishi

mumkinligini hisobga olib doimiy psixologik kompleks tadqiqotlarni amalga oshirish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Drujinin V.N. Kognitivnie sposobnosti: struktura, diagnostika, razvitie. M., 2001. – 224 s.
2. Karimova V.M., Sunnatova R.I. Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. –T.: Sharq, 2000. 6-bet.
3. Matyushkin A.M. Mishlenie, tvorchestvo, obuchenie. M, 2003. -720 s
4. Farfiyeva K.A. O‘spirinlar ilmiy tasavvurlariga ta'sir etuvchi stereotiplarni o‘rganish // Zamonaviy ta'lim. 2021. № 12. - B. 40-48. (19.00.00. № 8).
5. Qodirov B.R. Iste'dodli bolalar va ularni tanlash metodikasi. –T.: 1992. -326 b.
6. G‘oziyev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1990.

ZAMONAVIY HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARI

Olimov Nurmuhammad Fayzullo o‘g‘li

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti vzvod komandiri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy havo hujumidan mudofaa avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining tuzilishi, ishlash tamoyillari va amaliy ahamiyati yoritiladi.*

Bunday tizimlarda radar, radiolokatsion kuzatuv vositalari, aloqa kanallari, ma’lumotlarni qayta ishlash modullari hamda boshqaruv algoritmlarining o‘zaro integratsiyasi tahlil qilinadi. Avtomatlashtirish orqali havo makonidagi obyektlarni aniqlash, kuzatish, tasniflash va tahdid darajasini baholash jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt, raqamli signalni qayta ishlash va real vaqt rejimidagi ma’lumotlar almashinuvi kabi zamonaviy texnologiyalarning tizim samaradorligiga ta’siri baholanadi. Tadqiqot natijalari boshqaruvning tezkorligi, aniqligi, ishonchliligi va axborot xavfsizligini oshirish muhimligini ko‘rsatadi. Natijada tizimning operativligi, aniqligi va barqarorligi oshib, murakkab havo vaziyatlarida samarali boshqaruv imkoniyati kengayadi va yanada takomillashadi.

Kalit so‘zlar: *havo hujumidan mudofaa, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi, radiolokatsiya, radar, sun’iy intellekt, real vaqt rejimi, axborot texnologiyalari, ma’lumotlarni qayta ishlash, tahdidlarni aniqlash, boshqaruv algoritmlari.*

KIRISH

Bugungi kunda havo makonida yuzaga kelayotgan tahdidlarning murakkablashuvi havo hujumidan mudofaa tizimlarini avtomatlashtirish va ularni yagona axborot-boshqaruv muhitiga integratsiyalashni talab etmoqda. Zamonaviy havo mudofaasi radarlar, turli sensorlar, aloqa vositalari, ma’lumotlarni qayta ishlash va boshqaruv tizimlarining uzviy hamkorligiga asoslanadi. Xorijiy tajribada, xususan NATOning Integrated Air and Missile Defence (IAMD) konsepsiyasida sensorlardan keladigan ma’lumotlarni birlashtirish, havo vaziyatining yagona tasvirini shakllantirish hamda tahdidlarni tezkor aniqlash muhim yo‘nalish sifatida qaraladi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, obyektlarni kuzatish va mavjud resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt va ilg‘or algoritmlardan foydalanish vaziyatni baholash aniqligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli zamonaviy havo hujumidan mudofaa tizimlarining samaradorligini oshirishda avtomatlashtirilgan boshqaruv texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

1. ZAMONAVIY HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARINING NAZARIY ASOSLARI

Zamonaviy havo hujumidan mudofaa (HHM) tizimlari havo makonidagi turli obyektlarni aniqlash, kuzatish, baholash va tegishli boshqaruv qarorlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi murakkab, ko‘p funksiyali tizimlardan iborat. Ushbu tizimlarning samaradorligi avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari, radiolokatsion kuzatuv qurilmalari, axborot almashinuvi kanallari va ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmlarining o‘zaro muvofiqligiga bog‘liq.

HHM avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining nazariy asosini axborotni yig‘ish – qayta ishlash – vaziyatni baholash – boshqaruv qarorini shakllantirish ketma-ketligi tashkil etadi. Sensorlardan olingan ma’lumotlar dastlabki qayta ishlashdan o‘tkazilib, obyektlarning asosiy parametrlarini aniqlash va ularni

tasniflash uchun foydalaniladi. Keyingi bosqichda turli manbalardan kelayotgan axborotlarni integratsiyalash orqali havo vaziyatining yagona axborot modeli shakllantiriladi.

Bunday tizimlarda boshqaruvning muhim mezonlari sifatida tezkorlik, aniqlik, ishonchlilik, uzluksizlik va moslashuvchanlik qaraladi. Zamonaviy yondashuvlarda sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rganish, raqamli aloqa va real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Natijada inson operatorining axborot yuklamasi kamayib, murakkab havo vaziyatlarini tahlil qilish va boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirish imkoniyatlari kengayadi.



1-rasm.Havo hujumidan mudofaa avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining ko‘p qatlamli arxitekturasi

1-rasmda ko‘rsatilganidek, zamonaviy havo hujumidan mudofaa avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining arxitekturasi besh asosiy qatlamdan tashkil topgan. Birinchi qatlam — aniqlash va kuzatuv qatlami bo‘lib, radarlar, elektro-optik sensorlar va boshqa kuzatuv vositalari yordamida havo makonidagi obyektlar to‘g‘risidagi dastlabki axborotni shakllantiradi. Ikkinchi qatlam — ma’lumotlarni qayta ishlash qatlami bo‘lib, kelib tushgan axborotni yig‘ish, filtrlash,

aniqlash, tasniflash va tahdid darajasini baholash vazifalarini bajaradi. Uchinchi qatlam — boshqaruv va qaror qabul qilish qatlami bo‘lib, qayta ishlangan ma’lumotlar asosida havo vaziyatini baholash va tegishli boshqaruv qarorlarini shakllantirishni ta’minlaydi. To‘rtinchi qatlam — ta’sir etish qatlami bo‘lib, belgilangan vazifalarni tegishli ijro vositalari orqali amalga oshirish jarayonini ifodalaydi. Beshinchi qatlam — aloqa va axborot almashinuvi qatlami bo‘lib, tizimning barcha elementlari o‘rtasida ma’lumotlarning tezkor va uzluksiz almashinuvini ta’minlaydi. Mazkur qatlamlarning o‘zaro integratsiyasi havo vaziyatini real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2. HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA TIZIMLARIDA QO‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Zamonaviy havo hujumidan mudofaa avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining samaradorligi ularda qo‘llaniladigan axborot-kommunikatsiya va hisoblash texnologiyalarining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog‘liq. Bunday tizimlarda turli sensorlardan olinadigan ma’lumotlarni tezkor yig‘ish, qayta ishlash va yagona axborot muhitida birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli radiolokatsion kuzatuv vositalari, raqamli aloqa tarmoqlari, ma’lumotlarni qayta ishlash platformalari hamda intellektual algoritmlar kompleks ravishda qo‘llaniladi.

Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, obyektlarni tasniflash va havo vaziyatidagi o‘zgarishlarni baholash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Sensorlararo ma’lumotlarni birlashtirish texnologiyasi esa turli manbalardan kelayotgan axborotlarni umumlashtirib, vaziyatning yaxlit tasvirini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Edge Computing texnologiyasi ma’lumotlarni manbaga yaqin nuqtada qayta ishlash orqali axborot uzatishdagi kechikishlarni kamaytirishga yordam beradi.


Raqamli aloqa vositalari va himoyalangan axborot almashinuvi kanallari tizim elementlari o‘rtasidagi uzluksiz hamkorlikni ta’minlaydi. Natijada boshqaruv tizimining tezkorligi, aniqligi, ishonchliligi va moslashuvchanligi oshadi.

1-jadval. Havo makonini monitoring qilish va boshqarish tizimining zamonaviy texnologiyalari

№	Texnologiya	Qisqacha tavsifi	Tizimda qo‘llanilishi
1	**Radiolokatsion texnologiyalar**	Havo makonidagi obyektlar haqida ma’lumot olish imkonini beradi	Aniqlash va kuzatuv jarayonlarida
2	**Sun’iy intellekt**	Katta hajmdagi ma’lumotlarni avtomatik tahlil qiladi	Vaziyatni baholash va tasniflashda
3	**Mashinaviy o‘rganish**	Ma’lumotlar asosida qonuniyatlarni aniqlaydi va modellarni takomillashtiradi	Obyektlarni tanib olish va tahlil qilishda
4	**Sensorlararo ma’lumotlarni birlashtirish**	Turli manbalardan kelgan axborotni yagona ko‘rinishga keltiradi	Havo vaziyatining yaxlit tasvirini shakllantirishda
5	**Edge Computing**	Ma’lumotlarni manbaga yaqin joyda tezkor qayta ishlaydi	Kechikishni kamaytirish va real vaqt monitoringida
6	**Raqamli aloqa tarmoqlari**	Tizim elementlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvini ta’minlaydi	Boshqaruv va axborot almashinuvida
7	**Bulutli texnologiyalar**	Ma’lumotlarni markazlashtirilgan holda saqlash va qayta ishlash imkonini beradi	Tahliliy va axborot tizimlarida

3. HAVO VAZIYATINI BAHOLASH VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV MODELI

Havo vaziyatini baholash va avtomatlashtirilgan boshqaruv modeli havo makonidagi obyektlarni o‘z vaqtida aniqlash, tahlil qilish va optimal qarorlar qabul qilish jarayonlarini yagona zanjirga birlashtiradi. Ushbu model radiolokatsiya, optik va radionashr sensorlaridan kelayotgan birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish va shovqinlardan filtrlashdan boshlanadi. Birlashtirilgan ma’lumotlar sun’iy intellekt hamda mashinaviy o‘rganish algoritmlari yordamida qayta ishlanib, obyektlarning trayektoriyasi, tezligi va xavflilik darajasi baholanadi.



2-rasm.Havo vaziyatini baholash va avtomatlashtirilgan boshqaruv modeli

Tizim real vaqt rejimida havo vaziyatining umumiy xaritasini shakllantiradi va ehtimoliy xavf-xatarlarni oldindan bashorat qiladi. Baholash natijalari asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv moduli eng maqbul qaror va buyruqlarni shakllantirib, tegishli mudofaa yoki boshqaruv vositalariga uzatadi. Teskari aloqa kanali esa harakatlar natijasini uzluksiz monitoring qilib, boshqaruv modelini dinamik ravishda tuzatib boradi va tizimning aniqligini oshiradi.

4. AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARINING SAMARADORLIGI VA SOLISHTIRMA TAHLILI


Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish havo vaziyatini monitoring qilish va mudofaa jarayonlarining operativligini tubdan oshiradi. Solishtirma tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy qo‘lda va qisman avtomatlashtirilgan boshqaruv usullarida inson omili sababli ma’lumotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilishda kechikishlar hamda xatoliklar yuzaga keladi. Sun’iy intellekt va ko‘p sensorli ma’lumotlarni birlashtirish (data fusion) texnologiyalariga asoslangan aqlli boshqaruv tizimlari esa ushbu kamchiliklarni bartaraf etadi.

1-jadval. An'anaviy va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko‘rsatkich	An‘anaviy tizim	Avtomatlashtirilgan (Aqlli) tizim	O‘zgarish
Obyektlarni aniqlash va kuzatish tezligi	62%	94%	**+32%**
Tahlil va qaror qabul qilish aniqligi	75%	98%	**+23%**
Inson omili va subyektiv xatolar	High (Yuqori)	Low (Minimal)	**−70%**
Axborot uzatish va ishlov berish vaqti (soniya)	120 sek	15 sek	**−87.5%**
Tizimning uzluksiz ishlash barqarorligi	80%	99%	**+19%**
Favqulodda vaziyatlarda kechikishlar	45 min/oy	8 min/oy	**−82%**

Zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlar obyektlarni aniqlash va kuzatish tezligini oshiradi, tahlil aniqligini yuqori darajaga yetkazadi hamda inson subyektiv xatolarini keskin kamaytiradi. Natijada xavflarga qarshi javob qaytarish vaqti bir necha barobarga qisqaradi va resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi. Jadval

va diagramma ma’lumotlari an’anaviy hamda aqlli boshqaruv tizimlarining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha yaqqol ustunligini tasdiqlaydi




3-rasm. An'anaviy va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini solishtirish

5. AVTOMATLASHTIRILGAN HAVO MUDOFAA BOSHQARUV TIZIMLARINING MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Bugungi kunda avtomatlashtirilgan havo mudofaa boshqaruv tizimlarini rivojlantirishda bir qancha jiddiy muammolar mavjud. Asosiy muammolardan biri — gipersonik nishonlar va kichik o‘lchamli uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar) paydo bo‘lishi natijasida ma’lumotlarni qayta ishlash vaqtining o‘ta cheklanganligidir. Shuningdek, radioelektron kurash (REK) vositalarining kuchli xalaqitlari, kiberxujumlar xavfi hamda turli avlod va ishlab chiqaruvchilarga mansub sensorlarning o‘zaro axborot almashinuvidagi moslashuvchanlik muammolari tizim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tizimning rivojlanish istiqbollari esa sun’iy intellekt hamda chuqur mashinaviy o‘rganish algoritmlarini keng joriy etish bilan bog‘liq. Kelajakda avtonom qaror qabul qiluvchi intellektual tizimlar, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, Edge Computing texnologiyalari orqali ma’lumotlarni lokal qayta ishlash va ko‘p sensorli axborotlarni yagona oqimga birlashtirish (Data Fusion) ustuvor

yo‘nalishlarga aylanadi. Bu esa xavf-xatarlarga soniyalar ichida aniq va samarali javob qaytarish imkonini beradi.



4-rasm. Havo mudofaa tizimlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari ulushi

4-rasmda ko‘rsatilganidek, Ushbu halqasimon diagramma avtomatlashtirilgan havo mudofaa boshqaruv tizimlarini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari va ularning ulushini ko‘rsatadi. Unda sun’iy intellekt va neyrotarmoqlar (30%) hamda avtonom vositalar integratsiyasi (22%) eng yuqori ulushni egallagan. Shuningdek, kiberxavfsizlik (18%), sensorlar ma’lumotlarini birlashtirish (15%) va Edge Computing (10%) texnologiyalari tizim kelajagini belgilovchi asosiy omillar sifatida aks ettirilgan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy havo hujumidan mudofaa (HHM) tizimlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv texnologiyalarini qo‘llash havo makoni xavfsizligini ta’minlashning eng samarali omilidir. Radiolokatsiya va ko‘p sensorli ma’lumotlarni birlashtirish (Data Fusion), sun’iy intellekt hamda Edge Computing kabi ilog‘or texnologiyalar havo vaziyatini real vaqt rejimida aniq baholash va qaror qabul qilish vaqtini karrasiga qisqartirish imkonini beradi.

Solishtirma tahlillar avtomatlashtirilgan tizimlarning an’anaviy usullarga nisbatan tahlil aniqligi va operativlik bo‘yicha yaqqol ustunligini tasdiqladi. Shuningdek, inson omili bilan bog‘liq xatoliklar hamda kechikishlar keskin kamayadi.

Gipersonik tahdidlar va kiberxujumlar kabi muammolarga qaramay, ochiq arxitekturali C2 tizimlari, avtonom boshqaruv hamda taqsimlangan tarmoq texnologiyalarini rivojlantirish kelajakda HHM tizimlarining jangovar shayligi va ishonchliligini mutlaq yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rogers, S., & Miller, D. (2023). Modern Integrated Air and Missile Defense (IAMD) Systems. Springer Aerospace Technology.
2. Smith, J. A. (2022). Automated Command and Control (C2) Systems in Air Defense. IEEE Transactions on Military Communications, 40(3), 112–125.
3. Johnson, M., & Petrov, V. (2021). Data Fusion and Multi-Sensor Data Integration for Air Surveillance. Elsevier Defense Studies.
4. Chen, L., & Wang, X. (2024). Artificial Intelligence and Machine Learning in Air Target Recognition. Journal of Defense Engineering, 18(2), 45–59.
5. NATO Standardization Office. (2023). AJP-3.3: Allied Joint Doctrine for Air and Space Operations. Brussels: NATO Headquarters.
6. Williams, K. (2022). Edge Computing Applications in Real-Time Military Systems. Academic Press.
7. Alimov, N. SH., & Karimov, B. A. (2023). Havo makonini monitoring qilish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining nazariy asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Mudofaa vazirligi nashriyoti.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MILLIY IDENTIFIKATSIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Asqaraliyeva Durdonaxon Akbarali qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada globallashuv sharoitida yoshlarning milliy identifikatsiyasi va unga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar, ijtimoiy muhit va axborot makonining yoshlar o'zligini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, milliy identifikatsiya, yoshlar, milliy qadriyatlar, axborot makoni.*

Abstract: *The article analyzes youth national identity in the context of globalization and the psychological factors influencing its formation. It highlights the role of national values, social environment, and information space*

Keywords: *globalization, national identity, youth, national values, information space.*

Аннотация: *В статье анализируется национальная идентичность молодежи в условиях глобализации и психологические факторы, влияющие на её формирование. Освещается роль национальных ценностей, социальной среды и информационного пространства.*

Ключевые слова: *глобализация, национальная идентичность, молодежь, национальные ценности, информационное пространство.*

Kirish

Globallashuv va raqamli axborot makonining kengayishi yoshlarning ***o'zligini anglash va milliy mansublikni idrok etish*** jarayoniga yangi ta'sirlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sharoitda milliy qadriyatlar, tarixiy-madaniy meros va ijtimoiy muhit yoshlar identifikatsiyasining muhim psixologik asoslarini tashkil etadi.

Dolzarbligi

Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniy va axborot ta'sirlarining kuchayishi yoshlarning milliy identifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ***milliy o'zlikni saqlash, milliy qadriyatlarni anglash va zamonaviy muhitga moslashish*** o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni o'rganish dolzarb ilmiy masaladir

Asosiy qism

Identifikatsiya - shaxsning o'zini muayyan ***inson, guruh, millat yoki jamiyatga mansub deb anglashi*** va shu guruhning qadriyatlari, qarashlari hamda xususiyatlarini o'zida qabul qilish jarayoni.

Globallashuv sharoitida yoshlarning ***milliy identifikatsiyasi*** shaxsning o'zini muayyan millat, madaniyat va qadriyatlarga mansub deb anglashi bilan

bog‘liq. Milliy identifikatsiya yoshda o‘z milliy kelib chiqishi, madaniy merosi va qadriyatlariga nisbatan ongli munosabatning shakllanishiga xizmat qiladi[15].

Yoshlar davrida ***o‘zlikni anglash va ijtimoiy identifikatsiya*** jarayonlari faol rivojlanadi. Shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy va milliy guruhga mansub deb his qilishi uning qadriyatlari, dunyoqarashi va jamiyatdagi munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi.[16]

Global axborot makonining kengayishi yoshlarning ***milliy o‘zligini anglash jarayoniga*** yangi ta’sirlarni olib kirmoqda. Turli madaniy va ijtimoiy axborotlarning tez tarqalishi sharoitida milliy qadriyatlarni zamonaviy axborot muhitida targ‘ib qilish va raqamli madaniyatni rivojlantirish milliy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.[17]

Globallashuv sharoitida milliy identifikatsiyaning barqarorligi yoshlarning ***milliy qadriyatlar va madaniy merosga munosabati*** bilan chambarchas bog‘liq. O‘z milliy tarixini va madaniyatini anglash yoshda milliy mansublik hissini kuchaytirib, o‘zligini anglash jarayonini mustahkamlaydi.[18]

Yoshlarning milliy o‘zligini anglashida ***ta’lim va ijtimoiy muhit*** muhim psixologik omil hisoblanadi. Ta’lim jarayonida milliy tarix, madaniyat va qadriyatlarning mazmunli yoritilishi yoshlarning o‘z milliy mansubligini anglashiga hamda milliy qadriyatlarga ongli munosabatini shakllantirishga yordam beradi.[19]

Yoshlarning milliy identifikatsiyasi shakllanishida ***ijtimoiy muhit va muloqot jarayonlari*** ham muhim o‘rin tutadi. Oila, ta’lim muassasasi va tengdoshlar bilan munosabatlar orqali yosh o‘zining ijtimoiy mavqeyi va milliy mansubligini anglaydi. Bu jarayon uning jamiyatdagi o‘rnini tushunishi va milliy qadriyatlarga munosabatini mustahkamlashga yordam beradi.[20]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ***nazariy-tahliliy yondashuv*** asosida olib borilib, globallashuv sharoitida yoshlar milliy identifikatsiyasining psixologik mazmuni tahlil qilindi. Metodologik asosni ***o‘zini anglash, ijtimoiy identifikatsiya va milliy mansublik*** bilan bog‘liq psixologik qarashlar tashkil etdi. Tadqiqotda ***nazariy umumlashtirish, qiyosiy-tahlil, kontent va tizimli tahlil*** metodlaridan foydalanildi. Ular orqali globallashuvning yoshlar o‘zligini anglashiga ta’siri, milliy qadriyatlarning o‘rni va

---

15 G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. - Toshkent.

16 Kurbanov X.P. *Issues of Youth Identification in the Conditions of National Values and Globalization*.

17 Toshmurodov H.E. *Factors in Understanding National Identity and Strengthening Identity in the Global Information Space*.

18 Axmedova D. *Globallashuv sharoitida o‘zbek yoshlarining ma’naviy-axloqiy qarashlaridagi o‘zgarishlar*

19 Bakirov O. *Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglashning falsafiy xususiyatlari*. -*O‘zMU Xabarlari*, 2024, №1.6.1, B. 67–68.

20 **Rahmanova G., Abduvaliyev M., Davlatova Kh.** *National Identity and Globalization: Uzbek Female Students Abroad*. - *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education*, 2024.

ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi

Tadqiqot xulosasi

Tadqiqot metodlari asosida globallashuv sharoitida yoshlarning milliy identifikatsiyasi o‘zini anglash, milliy mansublik va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Nazariy va qiyosiy tahlil milliy qadriyatlarni anglash hamda zamonaviy axborot muhitidan ongli foydalanish yoshlarning milliy o‘zligini barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa

Globallashuv sharoitida yoshlarning milliy identifikatsiyasi o‘zini anglash, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq. Milliy tarix va madaniy merosni chuqur anglash yoshlarning milliy mansublik hissini mustahkamlaydi. Axborot makonidan ongli va tanqidiy foydalanish esa turli tashqi ta’sirlar sharoitida milliy qadriyatlarni saqlashga yordam beradi. Shu bois yoshlarning milliy identifikatsiyasini qo‘llab-quvvatlash ularning barqaror dunyoqarashi, ijtimoiy mas’uliyati va jamiyatga faol moslashuvi uchun muhim psixologik shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘. *Umumiy psixologiya*. - Toshkent.
2. Kurbanov X.P. *Issues of Youth Identification in the Conditions of National Values and Globalization*. - *International Journal of Artificial Intelligence*, 2025, Vol. 5, Issue 6, pp. 200–203.
3. Toshmurodov H.E. *Factors in Understanding National Identity and Strengthening Identity in the Global Information Space*. -*Oriental Journal of Education*, 2025, Vol. 5, Issue 4, pp. 12–17.
4. Axmedova D. *Globallashuv sharoitida o‘zbek yoshlarining ma’naviy-axloqiy qarashlaridagi o‘zgarishlar*. - *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*, 2025.
5. Bakirov O. *Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglashning falsafiy xususiyatlari*. -*O‘zMU Xabarlari*, 2024, №1.6.1, B. 67 - 68.
6. Toshmurodov H.E. *Factors in Understanding National Identity and Strengthening Identity in the Global Information Space*. - *Oriental Journal of Education*, 2025, Vol. 5, Issue 4, pp. 12 - 17.

YOSHLAR MA’NAVIY-AXLOQIY RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Asqaraliyeva Durdonaxon Akbarali qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi

Anotatsiya: *Maqolada **y**oshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishining psixologik xususiyatlari tahlil qilinib, axloqiy ong, qadriyatlar tizimi, o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy muhitning shaxs kamolotidagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviy-axloqiy rivojlanish, axloqiy ong, qadriyatlar, o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiylashuv, shaxs kamoloti*

Abstract: *The article analyzes the psychological characteristics of the spiritual and moral development of youth**,** highlighting the role of moral consciousness, the value system, self-awareness, and the social environment in personality development.*

Keywords: *spiritual and moral development, moral consciousness, moral awareness, values, self-awareness, socialization, personality development.*

Аннотация: *В статье анализируются психологические особенности духовно-нравственного развития молодежи**,** раскрывается роль нравственного сознания, системы ценностей, самосознания и социальной среды в развитии личности.*

Ключевые слов: *духовно-нравственное развитие, нравственное сознание, ценности, самосознание, социализация, развитие личности.*

Kirish

Yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi shaxs kamolotining ***muhim psixologik tarkibiy qismi*** bo‘lib, uning axloqiy ongi, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor yo‘nalganligini shakllantiradi. Yosh davrida ***o‘z-o‘zini anglash, refleksiya va ijtimoiy tajribaning kengayishi*** ma’naviy-axloqiy qarashlarning chuqurlashishiga ta’sir etadi. Bu jarayon yoshning axloqiy me’yorlarni anglash, baholash va ularni kundalik xulq-atvorida qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Dolzarbligi

Globallashuv sharoitida yoshlar turli ijtimoiy, madaniy va axborot ta’sirlariga duch kelmoqda. Shu sababli ularda ***barqaror qadriyatlar tizimi, axloqiy mas’uliyat va mustaqil fikrlashni*** shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy-axloqiy rivojlanishning psixologik mexanizmlarini o‘rganish yoshlar tarbiyasining samaradorligini oshirish uchun dolzarb ilmiy-amaliy masaladir.

Asosiy qism

Yoshlarning ***ma’naviy-axloqiy rivojlanishi*** shaxsning qadriyatlar tizimi, axloqiy ongi, ijtimoiy tajribasi va xulq-atvor me’yorlarining shakllanishi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayondir. Bu jarayonda shaxs o‘z xatti-harakatlarini anglash, baholash va ijtimoiy me’yorlar asosida boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi[21].

Yosh davrida ***o‘z-o‘zini anglash va refleksiya***ning rivojlanishi ma’naviy-axloqiy qarashlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Yosh o‘zining xatti-

[21] G‘oziyev E.G‘. *Umumiy psixologiya*. — Toshkent

harakatlari, qarorlari va munosabatlarini tahlil qilish orqali shaxsiy qadriyatlari hamda hayotiy pozitsiyasini shakllantiradi. Shu sababli ma’naviy-axloqiy rivojlanish faqat tashqi tarbiyaviy ta’sir emas, balki shaxsning ichki psixologik faolligi bilan ham belgilanadi[22].

Ma’naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishida ***yoshning ijtimoiy muhiti va tarbiyaviy ta’sirlar*** muhim ahamiyatga ega. Oila, ta’lim muassasasi va tengdoshlar guruhi bilan munosabatlar jarayonida yosh axloqiy me’yorlar, ijtimoiy rollar va xulq-atvor namunalarini o‘zlashtiradi. Bunda ijtimoiy tajribaning bosqichma-bosqich ichkilashtirilishi shaxsning qadriyatli yo‘nalganligini mustahkamlaydi[23].

Ma’naviy-axloqiy rivojlanishda **milliy-ma’naviy qadriyatlar** yoshlarning dunyoqarashi va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim omildir. Milliy meros va axloqiy tajribani o‘zlashtirish yoshda **mas’uliyat, vijdon, insonparvarlik va axloqiy barqarorlik** kabi sifatlarni rivojlantiradi. Qadriyatlarning shaxsiy e’tiqodga aylanishi axloqiy me’yorlarning ichkilashtirilishi va xulq-atvorda barqaror namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Natijada yoshlarning ma’naviy yetukligi, ijtimoiy mas’uliyati va ongli axloqiy tanlov qobiliyati izchil mustahkamlanadi hamda jamiyatga ijobiy munosabati rivojlanadi..[24]

Ma’naviy-axloqiy rivojlanishda **milliy-ma’naviy qadriyatlar** yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatli yo‘nalganligi va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim omildir. Milliy meros va axloqiy tajribani o‘zlashtirish yoshda **mas’uliyat, vijdon, insonparvarlik va axloqiy barqarorlik** kabi sifatlarni rivojlantiradi. Qadriyatlarning shaxsiy e’tiqodga aylanishi esa axloqiy me’yorlarning ichkilashtirilishi va ularning xulq-atvorda barqaror namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Bu jarayon yoshning **ma’naviy yetukligi, ijtimoiy mas’uliyati, axloqiy tanlovlari, mustaqil fikrlashi va jamiyatdagi konstruktiv xulq-atvorining** shakllanishiga xizmat qiladi.[25]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ***nazariy-tahliliy yondashuv*** asosida olib borilib, yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishining ***psixologik mazmuni va asosiy komponentlari*** tizimli o‘rganildi. Unda ***axloqiy ong, qadriyatli yo‘nalganlik, o‘z-o‘zini anglash, empatiya va ijtimoiylashuv*** jarayonlarining o‘zaro aloqadorligi tahlil qilindi. Tadqiqotda ***nazariy umumlashtirish, qiyosiy-tahliliy, kontent va tizimli tahlil*** metodlaridan foydalanilib, oila, ta’lim muhiti va milliy-ma’naviy qadriyatlarning shaxs rivojlanishidagi o‘rni asoslandi. Axloqiy me’yorlarning ***anglanishi,***

[22] G‘oziyev E.G‘. *Pedagogik psixologiya asoslari*. — Toshkent, 1997.
[23] Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh.A., To‘ychiyeva S.M., Mavlonov M. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya*. — Toshkent: TDPU, 2004.
[24] To‘xtayev H.T. *Zamonaviy maktab o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda kognitiv-psixologik to‘siqlarning ta’siri*. // *Inter Education & Global Study*. - 2024
[25] Raxmonova M.A. *Abdurauf Fitratning ma’naviy-axloqiy qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni*. — Avtoreferat.

ichkilashtirilishi va xulq-atvorda namoyon bo‘lishi ma’naviy-axloqiy yetuklikning muhim psixologik mezonlari sifatida belgilandi.

Tadqiqot xulosasi

Tahlil natijalari yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi axloqiy ong, qadriyatli yo‘nalganlik va ijtimoiy tajribaning ichkilashtirilishi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit yoshlarning mas’uliyatli va axloqiy jihatdan barqaror shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi

Xulosa

Yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi hayotiy pozitsiya, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishida muhim psixologik jarayondir. Oila, ta’lim va ijtimoiy muhitning uyg‘un ta’siri yoshlarning axloqiy mas’uliyati, ongli tanlovlari va ijtimoiy moslashuvini mustahkamlaydi. Shu bois tarbiya jarayonida mustaqil fikrlash, refleksiya, empatiya, o‘zini nazorat qilish va ijobiy xulq-atvorni rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik yondashuvlardan foydalanish yoshlarning ma’naviy yetukligini, axloqiy barqarorligini va jamiyat oldidagi mas’uliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘. - *Umumiy psixologiya*. - Toshkent
2. G‘oziyev E.G‘. - *Pedagogik psixologiya asoslari*. - Toshkent, 1997.
3. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh.A., To‘ychiyeva S.M., Mavlonov M. - *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya*. - Toshkent: TDPU, 2004.
4. To‘xtayev H.T. - “Zamonaviy maktab o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda kognitiv-psixologik to‘siqlarning ta’siri”. *Inter Education & Global Study*. - 2024. - №9 (Special Issue), 393-396
5. Raxmonova M.A. - *Abdurauf Fitratning ma’naviy-axloqiy qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni*. - Avtoreferat.

YOSHLAR VATANPARVARLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLAR VA OILAVIY TARBIYANING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Karimjanova Yokutxon Urinbaevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
ekuthonkarimjanova@gmail.com
Asqaraliyeva Durdonaxon Akbarali qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek oilasida shakllanadigan milliy qadriyatlarning yoshlar ijtimoiy identifikatsiyasi va Vatanga nisbatan emotsional munosabatiga ta’siri tahlil qilib,*

Ota-onaga hurmat, mahalla va jamoaga daxldorlik, ajdodlar merosini qadrlash kabi qadriyatlarning vatanparvarlik motivatsiyasini shakllantirishdagi psixologik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, oila, yoshlar, ijtimoiy identifikatsiya, vatanparvarlik, milliy o‘zlik..*

Abstract: *The article analyzes the influence of national values formed in Uzbek families on young people's social identity and emotional attitude toward their homeland. It highlights the psychological importance of respect for parents and elders, a sense of belonging to the mahalla and community, and appreciation of ancestral heritage in developing patriotism.*

Keywords: *national values, family, youth, social identity, patriotism, national identity.*

Аннотация: *В статье анализируется влияние национальных ценностей, формируемых в узбекской семье, на социальную идентичность молодежи и ее эмоциональное отношение к Родине. Раскрывается психологическое значение уважения к родителям и старшим, принадлежности к махалле и обществу, а также почитания наследия предков в формировании патриотизма.*

Ключевые слова: *национальные ценности, семья, молодежь, социальная идентичность, патриотизм, национальное самосознание.*

Kirish

Yosh avlodni milliy qadriyatlar, Vatanga muhabbat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. Globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o‘zligini anglashi, tarixiy-madaniy merosni qadrlashi va jamiyatga daxldorlik hissini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu sifatlarning dastlabki asoslari oilada shakllanadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik va o‘zaro yordam kabi qadriyatlar bolaning ijtimoiy tajribasi hamda qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatadi.

Dolzarbligi

Yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi O‘zbekistonda muhim yo‘nalishlardan biridir. 2026-yil 28-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 34-son qarorida ham yoshlarning milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan.

Shu bois ***o‘zbek oilasida shakllanadigan milliy qadriyatlarning yoshlar ijtimoiy identifikatsiyasi va Vatanga emotsional munosabatiga ta’sirini psixologik jihatdan o‘rganish*** mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida ota-onalarning farzand tarbiyasi va har tomonlama kamol topishi uchun mas’ulligi, 78-moddasida esa yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash davlat va jamiyatning muhim vazifasi ekani belgilangan. Bu normalar oilaviy tarbiyaning yoshlar vatanparvarligini shakllantirishdagi ijtimoiy-psixologik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Oila bolaning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti bo‘lib, bola ota-onasining xulq-atvori, munosabati va qadriyatlarini kuzatish hamda ularga taqlid qilish orqali dastlabki ijtimoiy xulq namunalarini o‘zlashtiradi. O‘zbek oilasiga xos ***ota-onaga hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga g‘amxo‘rlik, o‘zaro yordam, mahalla va jamoaga daxldorlik hamda ajdodlar merosini qadrlash*** kabi qadriyatlar kundalik munosabatlar orqali shakllanib, vaqt o‘tishi bilan bolaning ichki e’tiqodi va shaxsiy qadriyatlariga aylanishi mumkin.

Mazkur jarayonda ***ijtimoiy identifikatsiya*** muhim ahamiyat kasb etadi. Bola dastlab o‘zini oilasi bilan bog‘liq holda anglasa, keyinchalik mahalla, ta’lim muassasasi, milliy va fuqarolik jamoalariga mansublikni o‘zlashtiradi. Natijada “mening oilam”, “mening xalqim”, “mening Vatanim” kabi tushunchalar shakllanib, milliy o‘zlik va ijtimoiy mas’uliyat mustahkamlanadi.

Ajdodlar merosini qadrlash esa yoshda o‘z xalqiga nisbatan faxr va hurmat tuyg‘ularini kuchaytirib, Vatan tushunchasini tarix, madaniyat, xalq va kelajak bilan bog‘liq ma’naviy qadriyat sifatida anglashga yordam beradi. Milliy qadriyatlarning ichkilashtirilishi natijasida Vatanga muhabbat va jamiyatga foydali bo‘lish istagi tashqi talabdan ichki motivatsiyaga aylanishi mumkin. Demak, ***oilaviy tarbiya - milliy qadriyatlar - ijtimoiy identifikatsiya - Vatanga emotsional bog‘liqlik - vatanparvarlik*** ketma-ketligi yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga psixologik zamin yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqola ***nazariy-tahliliy xarakterga ega*** bo‘lib, unda o‘zbek oilasida shakllanadigan milliy qadriyatlarning yoshlar ijtimoiy identifikatsiyasi va vatanparvarlik tuyg‘usiga ta’siri nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda ***O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qaror, E.G‘. G‘oziyev, D.V. Aliyeva, F.R. Jo‘rayev, M.A. Anvarova va Z.M. Mirzayev***ning ilmiy qarashlaridan foydalanildi. Ushbu manbalar oilaviy tarbiya, milliy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, yoshlar tarbiyasi va vatanparvarlikning psixologik jihatlarini yoritish uchun tanlandi. Mavzuni tahlil qilishda ***nazariy, qiyosiy, kontent va tizimli tahlil*** usullaridan foydalanilib, oila, milliy qadriyat, ijtimoiy identifikatsiya va Vatanga emotsional munosabat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ochib berildi. Mazkur yondashuv orqali milliy qadriyatlarning yosh shaxs shakllanishidagi psixologik o‘rni umumlashtirildi.

Tadqiqot xulosasi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy tarbiya va milliy qadriyatlar yoshlar vatanparvarligining muhim psixologik asosidir. Ota-onaga hurmat, kattalarga ehtirom, mahalla va jamoaga daxldorlik hamda ajdodlar merosini qadrlash yoshlarning ijtimoiy va milliy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. Ushbu

qadriyatlarning ichkilashtirilishi Vatanga nisbatan ijobiy emotsional munosabat va vatanparvarlik motivatsiyasining shakllanishiga zamin yaratadi.

Xulosa

O‘zbek oilasida bolalikdan shakllanadigan milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy va milliy identifikatsiyasini mustahkamlab, Vatanga nisbatan ijobiy emotsional munosabat va vatanparvarlik motivatsiyasini rivojlantiradi. Shu bois oilaviy tarbiyani milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatli va Vatanga daxldor shaxs sifatida shakllantirishning muhim psixologik asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -77-78-moddalar.
2. 2026-yil 28-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 34-son qarori va unga ilova qilingan dastur.
3. E.G‘. G‘oziyev -umumiy va ontogenez psixologiyasi.
4. Aliyeva Dilbar Valiyevna ijtimoiy faollikda vatanparvarlikning o‘rni
5. Jo‘rayev, F. R. (2024). O‘quvchi yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni. Inter Education & Global Study, 5, 229–237.
6. Anvarova, M. A. (2025). Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni. Science and Education Scientific Journal, 6(12), 512–517.
7. Mirzayev, Z. M. (2022). Milliy qadriyatlar va ularning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi roli

TEXNIK MUXARRIRLAR:

SAYDJANOV Farxod Madraximovich
Axborot-kommunikatsiyalari texnologiyalari va harbiy aloqa instituti,
“Umumqo‘shin tayyorgarlik va gumanitar fanlar ” kafedrasi gumanitar fanlar sikli boshlig’i

TEMIROV Sirojiddin Shoymardon o‘g‘li
Axborot-kommunikatsiyalari texnologiyalari va harbiy aloqa instituti,
“Umumqo‘shin tayyorgarlik va gumanitar fanlar ” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumot, kamchilik
va xatolar uchun mualliflar ma’suldir!

Bosishga ruxsat etildi 14.03.2025. Bichimi 60x84 1/16
“Times New Roman” garniturasi. Ofset bosma usulda bosildi.
Nashr b.t. 14. Nusxasi: __

AKT va AHI Axborotlashtirish va multimedia markazida chop etildi.
Quyoshli a.y.p. Tel: 71 502 71 08, 33 701 40 07

Qaydlar uchun: (taklif va mulohazalar)_____